



Profi
University

**“YANGI O‘ZBEKISTON BARPO ETISHDA
JADIDLAR G‘OYALARINING O‘RNI”**

Mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami

Республиканская научно-практическая конференция

**«РОЛЬ ИДЕЙ ДЖАДИДОВ В
ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»**

Republican scientific and practical conference on

**“THE ROLE OF JADIDS’
IDEAS IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN”**



Toshkent – 2025

25-26-aprel

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**



“YANGI O‘ZBEKISTON BARPO ETISHDA JADIDLAR G‘OYALARINING O‘RNI”

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«РОЛЬ ИДЕЙ ДЖАДИДОВ В ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»**

**REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON
“THE ROLE OF JADIDS’ IDEAS IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN”**



25-26-aprel

Toshkent – 2025

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – 208 b.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil 25-26-aprel kunlari “Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni” mavzusida respublika miqyosida tashkil etilayotgan mazkur anjuman materiallari to‘plamida – jadidlar ilmiy merosini maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda tatbiq etish, ularlarning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalalari, jadidchilik g‘oyalarini ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o‘rganilishi, jadidlar iqtisodiy va falsafiy g‘oyalarining zamonaviy jamiyat rivojlanishiga ta’siri, jadidchilikda til va adabiyot masalasiga oid tashkiliy, ilmiy-nazariy va metodologik tadqiqot ishlari natijalari yoritilgan.

Anjuman materiallari to‘plami yuzasidan fikr-mulohazalaringizni www.profiuniversity.uz sayti va <https://t.me/profiUniversity> telegram manzillariga yuborishingiz mumkin.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

Mas’ul muharrir:

G‘.B. Shoumarov – “Profi University” rektori, psixologiya fanlari doktori, akademik

Taqrizchilar:

U.D. Qodirov – psixologiya fanlari doktori, professor

H.U. Abdusamatov – psixologiya fanlari doktori, professor

N.M. Dalimova – psixologiya fanlari doktori, professor

Ushbu to‘plam “Profi University” navbatdan tashqari Kengashining 2025-yil 21-apreldagi 7-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

ANJUMANNING TASHKILIY QO‘MITASI

G.B. Shoumarov	-	“Profi University” rektori, ishchi guruh raisi
Z.A. Shaumarova	-	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, ishchi guruh raisi o‘rinbosari
G.Q. Karimova	-	“Profi University” Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlari bo‘yicha prorektor, ishchi guruh raisi o‘rinbosari
D.B. Xolmatova	-	Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi, ishchi guruh kotibi
A‘ZOLAR		
Z.A. Narzikulov	-	Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor
A.I. Rasulov	-	Rektor maslahatchisi
U.Sh. Po‘latov	-	Rektor maslahatchisi
K.S. Pardayeva		"Iqtisodiyot va aniq fanlar" fakulteti dekani
M.Yu. Yuldasheva	-	“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası mudiri
N.P. Nizamova	-	“Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri
M.P. Masharipov	-	“Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrası mudiri
N.E. Qodirova	-	“Tillar” kafedrası mudiri
Sh.U. Otaxonov		“Iqtisodiyot va aniq fanlar” kafedrası mudiri
J.A. Baratov	-	O‘qishni ko‘chirish bo‘limi boshlig‘i
N.M. Dalimova	-	“Pedagogika va psixologiya” kafedrası professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
G.G. Quvondiqova	-	“Pedagogika va psixologiya” kafedrası v.b. dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
N.Z. Rasuleva	-	“Pedagogika va psixologiya” kafedrası v.b. dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G.A. Mamatova	-	“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.U. Mingbayeva	-	“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
N.U. Nurmatova	-	“Pedagogika va psixologiya” kafedrası v.b. dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
L.E. Baxranov	-	“Iqtisodiyot va aniq fanlar” kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.Sh. Abdullayev	-	“Pedagogika va psixologiya” kafedrası katta o‘qituvchisi
R.X. Shodibekova	-	Kadrlar bo‘limi
N.Q. Nizomov	-	Marketing bo‘limi rahbari
N.A. Razzoqov	-	Tizim administratori
Sh. Kenjayev	-	Tizim administratori

СЎЗ БОШИ

Ўзбекистонда янги босқичда амалга оширилаётган ислохотлар, маънавий янгиланиш жараёнлари миллий тарихимиздаги буюк мерос эгаларининг ғоявий илдизлари билан узвий боғлиқдир. Хусусан, жадидлар ҳаракати — бугунги кунда “Янги Ўзбекистон” ғоявий пойдеворини шакллантиришда муҳим маънавий манба бўлиб хизмат қилмоқда. Шу маънода, “Янги Ўзбекистон барпо этишда жадидлар ғояларининг ўрни” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани миллий маънавиятимиз, таълим ва тараққиёт масалаларида жадидларнинг ўрнини таҳлил қилиш, баҳолашга қаратилган муҳим қадамлардан биридир.

Жадидлар ҳаракати XIX аср охири ва XX аср бошларида шаклланган бўлиб, унда маърифат, эркин фикр, миллий уйғониш ва ижтимоий адолат ғоялари етакчи ўрин тутган. Бу ҳаракат вакиллари фақатгина янги усулдаги мактаблар ташкил этиш билан чекланиб қолмасдан, матбуот, адабиёт, театр, сиёсий фаоллик орқали халқни билим ва онгли ҳаётга чорлаганлар. Жадидларнинг таълимда модернизация, фан ва технологияларни ривожлантиришга қаратилган мақсадлари бугунги Ўзбекистондаги ислохотлар мазмун-моҳияти билан ҳамоҳангдир.

Бу борада тарихий меросга мурожаат қилиш, хусусан, жадидлар ҳаракати ва уларнинг илғор ғояларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Жадид боболаримиз ўз даврида илм, маърифат, ижтимоий фаоллик ва миллий уйғониш ғояларини илгари сурган ҳолда жамият тараққиёти учун мустаҳкам пойдевор яратганлар. Уларнинг маънавий мероси ва фидойилик намунаси бугунги ёшлар учун ибрат мактаби бўлиб хизмат қилиши лозим.

Ушбу конференция доирасида жадидлар фаолиятига бағишланган мақолаларда уларнинг илмий ва маърифий мероси, ижтимоий ва сиёсий фаолияти, адабий ҳамда диний қарашлари, шунингдек, бугунги кун учун муҳим хулосалар кенг ёритилган. Муаллифлар янги архив ҳужжатлари, тарихий манбалар, адабий таҳлил ва фалсафий мулоҳазалар орқали жадидчиликка янгича ёндашувларни намоён этишга ҳаракат қилганлар.

Тўпламдаги мақолалар турли соҳалар — тарих, адабиётшунослик, педагогика, психология, диншунослик ва сиёсатшунослик нуқтаи назаридан жадидчилик ҳаракатини ёритишга бағишланган. Бу эса ушбу тўпламнинг мултидисциплинар манба сифатидаги аҳамиятини оширади, деб ҳисоблаймиз. Конференция материаллари фақатгина илмий жамоатчилик учун эмас, балки кенг китобхонлар қатлами учун ҳам қимматли ахборот ва илмий хулосалар манбаидир.

Мазкур анжуман тўплами жадидлар меросини ўрганиш ва унинг замонавий тараққиётдаги аҳамиятини чуқур англашга хизмат қилади, деб ишонамиз.

Ғ.Б. Шоумаров,

“Profi University” ректори, психология фанлари доктори, академик

**ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ ТАРАФДОРИ – ПРОФЕССОР АБДУРАУФ
ФИТРАТНИНГ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ КОНЦЕПЦИЯСИ**

Ибраимов Холбой Ибрагимович

Ўзбекистон Фанлар Академиясининг ҳақиқий аъзоси, академик,
Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институти
директори

Аннотация. Ушбу мақолада жадидчилик ҳаракати тарафдори биринчи профессор А.Фитрат томонидан илгари сурилган тарбия концепцияси, унинг асосий ғоялари ва йўналишлари, Фитрат илгари сурган ахлоқий тарбия, қизлар тарбияси ақл тарбиясига оид қарашлар таҳлил қилинган. Улардан келиб чиқадиган вазифалар баён этилган. Илмий педагогик жамоатчилик учун муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Таянч сўзлар: жадидчилик, ахлоқий тарбия, оила тарбия, ақлий тарбия, гигиеник тарбия, мактаб, оила, ўқитувчилар, ота-оналар, майл.

Тараққийпарвар жадидларнинг йирик намоёндаларидан бири Абдурауф Фитрат эди. Аксарият жадидлар каби у ҳам ўзбек халқининг таълим-тарбиясига алоҳида эътибор қаратган. Фитрат унинг таҳаллуси бўлиб, асл исм Абдурауф Абдурахим ўғли (1886, Бухоро – 1938,4,10, Тошкент), у ёзувчи, тарихчи, адабиётшунос, тилшунос, санъатшунос ва сиёсатшунос ҳамда педагог олим, давлат ва жамоат арбоби бўлган. Фитрат биринчи ўзбек профессори (1926) бўлиб, Бухоронинг Мир Араб мадрасасида таҳсил олган.

Ўтган XX аср бошларида вужудга келган “Тарбияйи атфол” жамияти кўмагида 1909-1913-йилларда Истамбулда таҳсил олган ва қизғин ижод қилган. Туркиядан қайтгач, Бухорода ўқитувчилик қилган. “Ёш бухороликлар” ҳаракатида фаол иштирок этиб унинг бош мафкурачиси, ғоявий йўлбошчиларидан бирига айланган. 1917 йил апрелидан 1918 йил мартигача Самарқандда чиқиб турган “Хуррият” газетасига муҳаррирлик қилган. 1918- йилда Фитрат Тошкентга келган. Фитрат бу ерда, асосан, илмий, ижодий, маърифий ишлар билан кўпроқ банд бўлган. У бир қатор дарсликлар тузган, “Чиғатой гурунги” номли ижтимоий-адабий ташкилотда фаол иштирок этган. 1921-йили Бухорога таклиф этилган. У халқ хўжалигининг бир қатор соҳаларини яхшилашда, айниқса, маориф соҳасида сезиларли ишларни амалга оширган. Унинг ташаббуси билан бир гуруҳ иқтидорли ёшлар Истамбул, Берлин, Москва каби шаҳарларга ўқишга юборилган. Бухоро мактаблари учун ўқув қуруллари, дарслик ва қўлланмалар нашр этиш йўлга қўйган. Фитрат 1921-1922 - йилларда бир қатор юқори лавозимларда ишлаб, ўзининг давлат арбоби сифатидаги истеъдодини кўрсата олган. У 1923-1924

йилларда Москва ва Ленинградда яшаган, Шарқ тиллари институтида ишлаган. Турк, араб, форс тиллари ва адабиётидан ёшларга дарс берган. Ленинград дорилфунуни профессорлигига сайланган. Фитрат кўплаб бадий асарлар ҳамда таълим-тарбияга оид илмий рисоалар, қўлланма ва дарсликлар ёзган. У “Раҳбари нажот”, “Оила”, “Ўқу” дарсликлари, “Адабиёт қоидалари” каби қўлланмаларни асарларни ёзган. Шу билан бир қаторда кўплаб мақолаларнинг муаллифи ҳам ҳисобланган.

1930-йилларда у илмий-тадқиқот муассасаларида, шу жумладан 1930-1934 йилларида Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институтининг “Ўзбек тили ва адабиёти” бўлимида фаолият кўрсатган, ўқитувчилар малакасини ошириш институти ва дорилфунунда ишлаган. Фитрат жадид маърифатпарвари, ҳуррият ва мустақиллик ғояларининг тарғиботчиси ҳамда илмий-педагогик йўналишдаги асарлар муаллифи сифатида ўзбек халқига жуда катта маънавий педагогик мерос қолдирган.

Педагогика фани Фитратнинг “Оила” асари алоҳида аҳамиятга эга. Ушбу асарнинг ахлоқий тарбия бўлимида бугунги кун учун ҳам алоҳида педагогик аҳамиятга эга бўлган фикрлар юқорида таъкидланганидек ахлоқий тарбия ўсиб келаётган ёш авлод учун муҳим аҳамиятга эга. Болаларга гигиеник ва ахлоқий тарбия беришга алоҳида эътибор қаратиш лозим деб ҳисоблайди Фитрат. Чунки болалар ақилли куч-қувватга тўла бўлишлари учун ақлий ҳамда жисмоний тарбия ниҳоятда зарур. Фитратнинг таъбирича “ахлоқий тарбия талаб даражасида бўлмаса у ақлий ҳамда жисмоний кучини атрофдагиларнинг зарарига ишлатади. Бинобарин боланинг ақлий ва жисмоний тарбияси самарасиз қолмаслиги учун фарзанднинг ахлоқий тарбияси билан жиддий шуғулланиб кўп ҳаракат қилиш лозимлигини уқтиради”[1].

Фитрат “ахлоқий тарбия одамни камолга етказди” деган принципни илгари сурган. Бунинг учун болани “шундай тарбия қилиш керакки, феъли ва амали ўзига ҳам, бошқаларга ҳам фойдали ва манфаат келтирадиган бўлсин”. Бу Фитрат яратган тарбия концепциясининг асосини ташкил қилган. Фитрат инсон томонидан бажариладиган амаллар ҳаракатини икки гуруҳга ажратган эди. Улар: ихтиёрий ва ғайри ихтиёрий ҳаракатлар. Ихтиёрий ҳаракатларнинг айримлари ҳис туйғуларга таянилган ҳолда амалга оширалади. Табиий амаллар сирасига кирадиган ғайри ихтиёрий ҳаракатлар ҳам мавжудлигини Фитрат ўзининг тарбия концепциясида асослашга муваффақ бўлган. Инсон томондан ихтиёрий тарзда бажариладиган ҳатти ҳаракатларни, улар ўзларининг феъл атвори ва иқтидоридан келиб чиққан ҳолда амалга оширадилар. Инсон ихтиёрий ҳаракатларни бажараётганда у келтираётган фойда ҳамда зарарни ҳам тасаввур қила олишини Фитрат алоҳида кўрсатиб ўтган. Ҳар қандай ихтиёрий ҳаракатнинг фойдали ва зарарли жиҳатларини инсоннинг ўзи томонидан тасаввур қилинади.

Биз ўқувчиларни фойдали амалларни бажаришга ундашимиз лозим. Бу жараёнда Абдурауф Фитратнинг амалларга оид қарашларидан кенг кўламда фойдаланиш тавсия этилади. Фитрат инсонинг ҳаракатлари беш ҳолатнинг маҳсули эканлигини таъкидлаб ўтган эди.

1. Тасаввур
2. Муҳокама қилиш
3. Солиштириш
4. Қарор
5. Ижро

Бундай ҳаракатларни айниқса ўсмир ёшдаги болаларда шакллантириш муҳим педагогик аҳамиятга эга [4].

Ўқувчиларнинг феъли ва ҳаракати ўзининг аниқ мазмун моҳиятига эга бўилиши учун Фитрат таъкидланганидек, руҳнинг юқоридаги бешта мавжуд ҳолатини тарбиялаш талаб этилади. Бунинг учун қуйидагиларни ҳисобга олиш лозим: “Феълларнинг тамойиллари ва тарбияси, Бахт майли, Фаолият майли, Иззат-нафс, Алоқа майли, Бошқаларга меҳр-муҳаббат майли, Ибрат олиб эътиборда бўлиш майли, Билиш майли, Гўзаллик мойиллик, Яхши фазилатларга интилиш, Ирода ва ихтиёр мустаҳкамлиги” [1]. Кўриниб турибдики иш ва амал бирлигига эришиш учун биринчи навбатда ижобий майлларни шакллантириш талаб этилади. Бу нафақат ўқитувчиларнинг, балки ота-оналар тарбиявий фаолиятининг ҳам асосий йўналишларини ташкил этилиши керак.

Ёш авлодни ўткир ақл эгаси ва соғлом бўлишини таъминлаш учун Фитрат бир қатор фикрларни илгари сурган. У биринчи навбатда бола етти ёшга мактабга келишини таъкидлаган ҳолда ҳар бир ёшда унга ўқитувчи ва ота оналар эътибор қаратишлари зарур бўлган жиҳатларни кўрсатади [2].

Фитрат аждодларимизнинг фикрларига таянган ҳолда таълим тарбия жараёнида болаларга чекловлар қўймаслик, ғазабланмаслик, зулм ўтказмаслик, қаҳр ғазабини кўрсатмасликни тавсия қилади. У ўз фикрларини аллома ибн Халдумнинг сўзлари билан тасдиқлашга интилади. «Таълим ва тарбия жараёнида сиз боланинг ҳаракатларини қатъий чегараламанг, уларга жаҳл ва зулм қилманг. Қайси шогирд зулм ва қаҳр билан тарбия топса, хотираси тарқоқ бўлиб, шодлиги ва сурури йўқолади, хотира парешонлиги ва ғамгин қалби туфайли билим миясига ҳам кирмайди. Ғамгин, ҳафсаласиз одам, заиф, суст бўлади. Ўз муаллимидан зарар ва жабр кўрган шогирд ёлғончи, риёкор, ҳийлагар ва фикри бузуқ бўлади. Чунки муаллимидан кўрқиб, юрагида аланга қолмайди. Натижада мактабдан қочади. Халос бўлиш учун минг баҳона топади. Баъзан мактабга келса ҳам ўқитувчи назаридан ўзининг ёмонлигини яшириш учун иккиюзламачилик қилади. Тўғриси айтмасдан қилмишини яшириш учун ёлғон ишлатади. Бориб-бориб у

ёлғони, найранглари, риёкорлиги табиатига сингиб, болани ахлоқий фазилатлардан маҳрум этади. Ўз устозидан лат еган, зулм кўрган шогирд қўрқоқ ва журъатсиз бўлади, мазлумликка ўрганиб, ўзини ҳимоя қила олмайди, одамнинг олий фазилатларидан бири бўлган ҳиммат таянчидан маҳрум бўлади!» алломанинг ушбу фикрлари бугунги кунда алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, бўлажак ўқитувчилар ва мактаб педагоглари унга мунтазам амал қилишлари талаб этилади [3].

Фитрат қизлар таълим-тарбияси ҳақида ҳам қимматли фикрларни баён қилган, у биринчилардан бўлиб мамлакатимизда қизларга билим бериш уларга алоҳида ёндашган ҳолда тарбиялаш зарурлигини таъкидлаган. Фарзандларни яхши хулқ эгаси қилиб тарбиялаш анъанасига Фитрат ҳам содиқ қолиб мутафаккирларни ушбу йўналишдаги фикрларини бойитишга хисса қўшди. Фитратнинг тарбия педагогикасига оид қарашлари давр синовидан ўтиб бугунги кун учун ҳам алоҳида аҳамият касб этмоқда

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Фитрат, Абдурауф Оила ёки оила бошқариш тартиблари / А. Фитрат; таржимон ва изоҳлар муаллифи Ш. Воҳидов; - Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2013. – 144 б.
2. Фитрат А. Танланган асарлар. V жилд. – Т.: “Маънавият”, 2010. – Б. 36.
3. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – Т., “Sahhof”, 2023, 416 bet.
4. Ибрагимов Х. И. Педагогика и воспитание //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – С. 608-611.

ЖАДИДЛАР ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИНГ ИСЛОҲОТЧИСИ ВА ТАРҒИБОТЧИСИ СИФАТИДА

Р.Сафарова

Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси Миллий институти
“Миллий тарбия, мутафаккирлар ва жадидларнинг педагогик
таълимотлари” илмий тадқиқот бўлими бошлиғи,
п.ф.д., проф.

Аннотация. Ушбу мақолада жадидчилик ҳаракатининг намоёндаси маърифатпаравар Фитрат илмий педагогик фаолияти, таълим-тарбияга оид қарашлари баён қилинган. Биринчи профессор А.Фитрат томонидан илгари сурилган тарбия концепцияси, унинг асосий ғоялари ва йўналишлари, Фитрат илгари сурган ахлоқий тарбия, қизлар тарбияси, ақл тарбиясига оид қарашлар таҳлил қилинган. Улардан келиб чиқадиган вазифалар баён этилган. Ушбу мақола илмий педагогик жамоатчилик учун муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Таянч сўзлар: жадидчилик, ахлоқий тарбия, оила тарбияси, ақлий тарбия, гигиеник тарбия, мактаб, оила, ўқитувчилар, ота-оналар, майиллар, маърифатпарвар, тараққийпарвар.

Маълумки жадидлар ўз даврида тараққийпарварлик ғояларини илгари сурган. Миллатни саводли қилишга интилган, ёшларни ўзлигини англаши, миллий ғурурга эга бўлишига алоҳида эътибор қаратган маърифатпарвар шахслар эдилар. Улар мутафаккир аждодларимизнинг кўп асрлик анъаналарини давом эттириб, ёш авлодни илмли, ўғил болаларни ватанпарвар қизларни эса маърифатли, пок виждонли қилиб тарбиялашга астойдил бел боғлаган эдилар. Миллатни маърифат зиёсидан баҳраманд қилишга интилган жадид маърифатпарваридан бири биринчи ўзбек профессор Абдурауф Фитрат эди.

Тараққийпарвар жадидларнинг йирик намоёндаларидан бири бўлган Абдурауф Фитрат, аксарият жадидлар каби ҳам ўзбек халқининг таълим-тарбиясига алоҳида эътибор қаратган. Фитрат унинг тахаллуси бўлиб, асл исм Абдурауф Абдурахим ўғли (1886, Бухоро – 1938, 4, 10, Тошкент), у жадид маърифатпарвари бўлиш билан бир қаторда таниқли ёзувчи, тарихчи, адабиётшунос, тилшунос, санъатшунос ва сиёсатшунос ҳамда педагог олим, давлат ва жамоат арбоби эди. У биринчи ўзбек профессори (1926) сифатида кенг кўламли маърифий-маънавий ишларни амалга оширган. Ўзи ҳам жуда саводли шахс бўлиб, Бухоронинг Мир Араб мадрасасида таҳсил олган.

У XX аср бошларида ташкил этилган "Тарбияйи атфол" жамияти кўмагида 1909-1913-йилларда Туркиянинг Истамбул шаҳрида таҳсил олиб, ўзининг илмий дунёқарашини бойитишга муваффақ бўлган. У узоқ йиллар давомида Бухородаги мактабларда ўқитувчилик қилган ҳамда ўзининг жадидчилик ғоялари, тарбиявий қарашларини оммалаштиришга муваффақ бўлган. Фитрат тарбиянинг кўплаб соҳаларида ўз қарашларини баён қилиб ёшларни ватанпарварликка даъват этган. "Ёш бухороликлар" ҳаракатида фаол иштирок этиб унинг бош мафкурачиси, ғоявий йўлбошчиларидан бири сифатида маърифатпарварлик, ватанпарварлик ғояларини асарлари орқали тарғиб қилган. 1917 йил апрелидан 1918 йил мартигача Самарқандда нашр этилган "Хуррият" газетасининг муҳаррири сифатида фаолият кўрсатган. 1918- йилда Фитрат Тошкентга келган. Фитрат бу ерда, асосан, илмий, ижодий, маърифий ишлар билан кўпроқ шуғулланган. У бир қатор дарсликлар яратган ҳамда "Чиғатой гурунги" номли ижтимоий-адабий ташкилотда фаол иштирок этган. 1921-йил Фитрат Бухорога ишлаш учун таклиф этилган, бу ерда халқ маорифини ривожлантиришга алоҳида ҳисса қўшган. Унинг ташаббуси билан бир гуруҳ иқтидорли ёшлар Истамбул, Берлин, Москва каби шаҳарларга ўқишга юборилган. Бухоро мактаблари учун ўқув дарсликлари,

қўлланмалар, методик тавсиялар яратишда алоҳижа жонбозлик кўрсатган. Фитрат 1921-1922-йилларда ҳам давлат арбоби сифатида ҳам таълим-тарбияни ривожлантиришга алоҳида ҳисса қўшган. Собиқ Совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида асосан бошланғич синфлар учун дарсликлар ва ўқув методик мажмуаларига катта эҳтиёжининг мавжудлиги туфайли Фитрат ҳам жадидларнинг ушбу соҳадаги ҳаракатларига раҳбарлик қилган. У 1923-1924 йилларда Москва ва Ленинградда яшаган, Шарқ тиллари институтида ишлаган. Турк, араб, форс тиллари ва адабиётидан ёшларга дарс берган. Ленинград дорилфунуни профессорлигига сайланган. Фитрат кўплаб бадий асарлар ҳамда таълим-тарбияга оид илмий рисоалар, қўлланма ва дарсликлар ёзган. У “Раҳбари нажот”, “Оила”, “Ўқу” дарсликлари, “Адабиёт қоидалари” каби қўлланмаларни муаллифи ҳисобланади. Шу билан бир қаторда таълим-тарбияга бағишланган кўплаб мақолалар ёзган.

1930-йилларда у илмий-тадқиқот муассасаларида, шу жумладан 1930-1934 йилларида Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти ҳозирга Қори Ниёй номидаги Миллий тарбия педагогикаси институтининг “Ўзбек тили ва адабиёти” бўлимида фаолият кўрсатиб, таълим-тарбиялаг оид рисоалар, мақолалар ёзишга муваффақ бўлган. Шунингдек у ўқитувчилар малакасини ошириш институти ва Самарқанд давлат университетида ишлаган. Фитрат жадид маърифатпарвари, ҳуррият ва мустақиллик ғояларининг тарғиботчиси ҳамда илмий-педагогик йўналишдаги асарлар муаллифи сифатида ўзбек халқига жуда катта маънавий педагогик мерос қолдирган.

Педагогика фанида Фитратнинг “Оила” асари ва дарсликлари алоҳида аҳамиятга эга. “Оила” асарнинг ахлоқий тарбияга бағишланган қисмида бугунги кун учун ҳам алоҳида тарбиявий аҳамиятга эга бўлган фикрлар баён қилинган. Юқорида таъкидланганидек ахлоқий тарбия ўша даврда ҳам бугунги кунда ҳам ёш авлоднинг маънавий ҳам маданий юксалиши учун алоҳида аҳамиятга эга. Фитрат болаларга гигиеник ва ахлоқий тарбия бериш зарур деб ҳисоблайди. Чунки болаларнинг ақл-заковатли, куч-қувватга тўла бўлишлари учун ақлий ҳамда жисмоний тарбия ниҳоятда зарур. Фитратнинг таъбирича “ахлоқий тарбия талаб даражасида бўлмаса у ақлий ҳамда жисмоний кучини атрофдагиларнинг зарарига ишлатади. Бинобарин боланинг ақлий ва жисмоний тарбияси самарасиз қолмаслиги учун фарзанднинг ахлоқий тарбияси билан жиддий шуғулланиб кўп ҳаракат қилиш лозимлигини уқтиради”¹.

¹ Фитрат, Абдурауф Оила ёки оила бошқариш тартиблари / А. Фитрат; таржимон ва изоҳлар муаллифи Ш. Воҳидов; - Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2013. – 144 б.

Фитрат “ахлоқий тарбия одамни камолга етказди” деган принципти илгари сурган. Бунинг учун болани “шундай тарбия қилиш керакки, феъли ва амали ўзига ҳам, бошқаларга ҳам фойдали ва манфаат келтирадиган бўлсин”. Бу Фитрат яратган тарбия концепциясининг асосини ташкил қилган. Фитрат инсон томонидан бажариладиган амаллар ҳаракатини икки гуруҳга ажратган эди. Улар: ихтиёрий ва ғайри ихтиёрий ҳаракатлар. Ихтиёрий ҳаракатларнинг айримлари ҳис туйғуларга таянилган ҳолда амалга оширалади. Табиий амаллар сирасига кирадиган ғайри ихтиёрий ҳаракатлар ҳам мавжудлигини Фитрат ўзининг тарбия концепциясида асослашга муваффақ бўлган. Инсон томонидан ихтиёрий тарзда бажариладиган ҳатти-ҳаракатларни, улар ўзларининг феъл-атвори ва иқтидоридан келиб чиққан ҳолда амалга оширадилар дед ҳисоблайди Фитрат. Инсон ихтиёрий ҳаракатларни бажараётганда у келтираётган фойда ҳамда зарарни ҳам тасаввур қила олишини Фитрат алоҳида кўрсатиб ўтган. Ҳар қандай ихтиёрий ҳаракатнинг фойдали ва зарарли жиҳатлари биринчи навбатда боланинг ўзи томонидан аниқ тасаввур қилиниши лозимлигини маърифатпарвар таъкидлаб кўрсатган.

Биз ўқувчиларни фойдали амалларни бажаришга ундашимиз лозим. Бу жараёнда Абдурауф Фитратнинг амалларга оид қарашларидан кенг кўламда фойдаланиш тавсия этилади. Фитрат инсонинг ҳаракатлари беш ҳолатнинг маҳсули эканлигини таъкидлаб ўтган эди.

6. Тасаввур
7. Муҳокама қилиш
8. Солиштириш
9. Қарор қабул қилиш
10. Ижро кабилар.

Бундай ҳаракатларни айниқса бошланғич синфлардан бошлаб ўқувчиларда шакллантириш алоҳида педагогик аҳамиятга эга.

Ўқувчиларнинг феъли ва ҳаракати ўзининг аниқ мазмун моҳиятига эга бўлиши учун Фитрат таъкидланганидек, руҳнинг юқоридаги бешта мавжуд ҳолатини тарбиялаш талаб этилади. Бунинг учун қуйидагиларни ҳисобга олиш лозим: “Феълларнинг тамойиллари ва тарбияси, Бахт майли, Фаолият майли, Иззат-нафс, Алоқа майли, Бошқаларга меҳр-муҳаббат майли, Ибрат олиб эътиборда бўлиш майли, Билиш майли, Гўзалликка мойиллик, Яхши фазилатларга интилиш, Ирода ва ихтиёр мустаҳкамлиги”². Кўриниб турибдики иш ва амал бирлигига эришиш учун биринчи навбатда ўқувчиларда ижобий майлларни шакллантириш талаб этилади. Бу нафақат

² Фитрат, Абдурауф Оила ёки оила бошқариш тартиблари / А. Фитрат; таржимон ва изоҳлар муаллифи Ш. Воҳидов; - Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2013. – 144 б. 109-118 б.

ўқитувчиларнинг, балки ота-оналар тарбиявий фаолиятининг ҳам асосий йўналишларини ташкил этиши керак.

Ёш авлодни ўткир ақл эгаси ва соғлом бўлишини таъминлаш учун Фитрат бир қатор фикрларни илгари сурган. У биринчи навбатда бола етти ёшга мактабга келишини таъкидлаган ҳолда ҳар бир ёшда унга ўқитувчи ва ота- оналар эътибор қаратишлари зарур бўлган жиҳатларни кўрсатади.

Фитрат мутафаккир аجدодларимизнинг фикрлари, этнопедагогик қадриятларга таянган ҳолда таълим-тарбия жараёнида болаларга чекловлар қўймаслик, ғазабланмаслик, зулм ўтказмаслик, қаҳр ғазабини кўрсатмасликни тавсия қилади. У ўз фикрларини аллома ибн Халдумнинг сўзлари билан тасдиқлашга интилади. «Таълим ва тарбия жараёнида сиз боланинг ҳаракатларини қатъий чегараламанг, уларга жаҳл ва зулм қилманг. Қайси шогирд зулм ва қаҳр билан тарбия топса, хотираси тарқоқ бўлиб, шодлиги ва сурури йўқолади, хотира парешонлиги ва ғамгин қалби туфайли билим миясига ҳам кирмайди. Ғамгин, ҳафсаласиз одам, заиф, суст бўлади. Ўз муаллимидан зарар ва жабр кўрган шогирд ёлғончи, риёкор, ҳийлагар ва фикри бузуқ бўлади. Чунки муаллимидан кўрқиб, юрагида аланга қолмайди. Натижада мактабдан қочади. Халос бўлиш учун минг баҳона топади. Баъзан мактабга келса ҳам ўқитувчи назаридан ўзининг ёмонлигини яшириш учун иккиюзламачилик қилади. Тўғриси айтмасдан қилмишини яшириш учун ёлғон ишлатади. Бориб-бориб у ёлғони, найранглари, риёкорлиги табиатига сингиб, болани ахлоқий фазилатлардан маҳрум этади. Ўз устозидан лат еган, зулм кўрган шогирд қўрқоқ ва журъатсиз бўлади, мазлумликка ўрганиб, ўзини ҳимоя қила олмайди, одамнинг олий фазилатларидан бири бўлган ҳиммат таянчидан маҳрум бўлади!»³ алломанинг ушбу фикрлари бугунги кунда тарбиявий жараёнлар учун алоҳида педагогик аҳамиятга эга. Шунинг учун ҳам ўқитувчилар ва ота- оналарнинг мазкур фикрлардан хабардор қилиш, илмий педагогик жамоатчилик олдида турган муҳим вазифалар сирасига киради.

Фитрат қизлар таълим-тарбияси ҳақида ҳам қимматли фикрларни баён қилган, у биринчилардан бўлиб мамлакатимизда қизларга билим бериш, уларга алоҳида ёндашган ҳолда тарбиялаш зарурлигини таъкидлаган. Фарзандларни яхши хулқ эгаси қилиб тарбиялаш анъанасига Фитрат ҳам содиқ қолиб мутафаккирларни ушбу йўналишдаги таълимотларини бойитишга хисса қўшди. Фитратнинг тарбия педагогикасига оид қарашлари давр синовидан ўтиб бугунги кун учун ҳам алоҳида аҳамият касб этмоқда.

³ Абдурахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима тарихий. – Т.: Trust and support, 2025. – 400 б.

АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ВА ПСИХОЛОГИЯ

Умарали Қодиров

Сурхондарё вилояти педагогик маҳорат маркази “Педагогика,
психология ва таълим технологиялари” кафедраси мудир, психология
фанлари доктори, профессор

Давр, ижтимоий воқелик халқимиз ва миллатимизнинг дунёқарашили миллий истиқлол руҳида ислоҳ қилишни талаб қилмоқда. Бу борада буюк бобокалонларимиз, мутафаккирлар, жадидлар, адибларнинг ижодларини ўрганиш, турли фан соҳалари нуқтаи назаридан тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Шарқшунос олим Е.Э. Бертельс ибораси билан айтганда, ўзбек халқининг ана шундай буюк фарзандларидан бири жаҳондаги олтинчи романчилик мактабининг асосчиси, XX аср бошларидаги адабий муҳитнинг кўзга кўринган намояндаси Абдулла Қодирийдир.

Абдулла Қодирий асарларида илгари сурилган илғор ғоялар, қарашлар ўзбек халқининг маданияти, адабиёти, тарихи, ижтимоий, сиёсий, фалсафий тафаккури ривожига, Янги Ўзбекистонни қуришда алоҳида ўрин эгаллайди.

Юксак маънавий-ахлоқий фазилатлар соҳиби бўлган Абдулла Қодирий худди шундай хислатларни тарғиб қилди, ўзбек халқининг орзу-ниятларини, озодлик ва мустақилликка нисбатан интилишларини, туб манфаатларини, юксак инсоний, умумбашарий ҳис-туйғуларни ўз ижодида мукамал ёритди.

Ёзувчи асарларига нисбатан қизиқиш халқимиз орасида йилдан-йилга ортиб бормоқда, у яратган қаҳрамонлар ижтимоий воқелик айнияти, халқчиллиги туфайли идеаллар даражасига кўтарилмоқда. Адиб фикрлари, қарашларининг ҳамон ўз қиймати сақланиши, аҳамиятини йўқотмаганлигининг боиси шундаки, Абдулла Қодирий асарларида эстетик, фалсафий, ижтимоий-психологик қарашлар табиий равишда ва чуқур акс эттирилган бўлиб, халқимизнинг миллий-маънавий қадриятлари, этнопсихологик хусусиятлари бадиий жиҳатдан теран таҳлил қилиб берилган.

Шу билан бирга ўзбек халқи ҳурфикрлилиги, истиқлол, эрк, мустақиллик учун кураши йўлида адиб шахси, унинг ижоди муҳим ўрин тутади.

Абдулла Қодирий XX аср ўзбек ёзувчилари орасида биринчилардан бўлиб ўзининг сиёсий, фалсафий, ижтимоий-психологик қарашларини бадиий жиҳатдан мукамал мужассамлаштирган йирик ҳажмдаги илк ўзбек романини яратган ақл-заковатли етук шахсдир.

Республикамиз мустақилликка эришгандан кейин ёзувчилар ижоди нафақат бадиий қиймат ва ижтимоий маъно касб этиши

жиҳатидан, балки миллий мерос сифатида турли ижтимоий фанлар нуқтаи назаридан ўрганилиш зарурияти юзага келди.

Миллий маданиятимиз, халқимизнинг маънавий бойликлари негизларига алоҳида эътибор бериш, Шарқ мутафаккирлари, олимлари ва ёзувчиларининг психологик қарашларини тадқиқ қилиш, уларнинг мазкур фан ривожига қўшган ҳиссаларини ўрганиш ҳозирги замон психология фани олдида турган долзарб вазифалардан биридир. Худди шу сабабли маданий меросни ўрганиш ва ундан самарали фойдаланиш сиёсий, ғоявий, мафкуравий аҳамият касб этаётган ҳозирги даврда ўзбек халқининг улуғ фарзанди, буюк ёзувчи Абдулла Қодирий ҳаёти, фаолияти ва ижодини психологик нуқтаи назардан тадқиқ қилиш, адиб асарларида ёритилган ижтимоий-психологик, этнопсихологик муаммоларни, ижтимоий қарашлар ҳамда фикрларни ўрганишни турмуш тақозо қилмоқда.

Абдулла Қодирий асарларида акс этган ижтимоий психологик-қарашлар, этнопсихологик тасвирлар ёзувчи яшаган микро ва макромухит ҳамда унинг ҳаётий тажрибаси, унинг шахси салоҳияти, индивидуал – психологик хусусиятларининг ўзига хос мужассамлашуви, ижодий тафаккурининг мукамаллиги натижасидир. Бу воқелик назарий мушоҳада ва эмпирик материаллар таҳлилида шаклланган.

Абдулла Қодирийнинг воқеликни бадиий жиҳатдан ўз асарларида ёритганлиги унинг идроки теранлиги, ижтимоий ҳодисаларга ва ўзгаришларга нисбатан муносабатини умумлашма тарзда акс эттирганлигидан далолат беради. Булар акс кузатувчанлик, аттракция, апперцепция, антиципация механизмларида акс этгандир.

Абдулла Қодирий асарларидаги шахслараро муносабатлар асар қаҳрамонларининг ижтимоий позициялари ва шахс камолотига боғлиқ бўлиб, улар ўзаро мутаносиб ҳолда ифодаланган. Худди шу боис Отабек, Юсуфбек ҳожи, Кумуш, Анвар, Раъно тимсолларидаги шахс хусусиятлари миллий психологик ва миллий маданий муҳитнинг яққол ифодаси ҳисобланади. Шу билан бирга ижтимоий муҳитнинг иккинчи бир томони акс эттирилган тимсолларда салбий характер хусусиятлари умумлашгандир. Улар тараққиётни ҳаракатлантирувчи механизм – зиддият, қоникмаслик мавжудлиги туфайли ҳукм суради.

Абдулла Қодирий психологик дунёсининг серқирралиги, мукамаллиги асарларидаги воқеа-ҳодисалар ва персонажларнинг турли ҳис-туйғулари, кечинмаларининг адекват акс эттирилганлигида намоён бўлади. Худди шу боис уларнинг таъсирчанлиги ҳозирги замон инсонлари идеал ва мотивациясидир.

Ёзувчи асарларидаги этнопсихологик ва миллий-маданий омиллар халқнинг урф-одатлари, анъаналари, маросимлари ва оила шаъни, муомала маданияти орқали ёритилган, шунингдек, оила шаънининг улуғланиши, этноснинг маънавий мероси ҳамда авлодлар

ўртасидаги қадриятлар тарзида қаҳрамонлар фаолиятида мужассамлашгандир. Романларда оила институти унинг аъзолари ва атрофдагилар муносабатлари характерининг шаклланишига замин яратувчи психологик муҳит ҳамда ижтимоий тузилма тарзида талқин этилади.

Шу боис, Абдулла Қодирий асарларида оилавий муҳит ва ундаги муносабатлар ўзбек этносида шахснинг таркиб топишига таъсир кўрсатувчи ижтимоий психологик омиллардан бири сифатида баҳоланади. Ундаги шахслараро муносабат, ижтимоий тузилманинг таркиблари, иерархик хусусияти, ўзига хос механизмга эгаллиги устувор аҳамият касб этади.

Асарларда эркакнинг оиладаги етакчилиқ, бошқарув фаолиятига асосий ўрин берилиши, ўзбек этносида узоқ вақт давомида шаклланган қадриятлар бирлиги сифатида ёндашилиши ёзувчи қарашларининг марказий ҳолатларидан бири ҳисобланади. Бу воқелиқ ижтимоий-тарихий тараққиёт қонунияти натижасидир.

Ёзувчи романларидаги қаҳрамонларнинг тимсолини гавдалантириш умумпсихологик типологияга мутаносибдир. Ҳар бир тимсолнинг ўзига хос психологик тавсифга эгаллиги ва уларнинг биттаси иккинчисини ҳеч қачон такрорламаслиги реал ижтимоий ҳаётий воқеаларда тимсолларнинг ўз мақомига эга эканлиги билан белгиланади.

Ёзувчининг асосий вазифаси асар қаҳрамонларининг ички руҳий дунёсини очиб бериш, уларнинг интилишлари ва характер хусусиятларини тасвирлаш, қаҳрамонлар ҳулқининг ички мотивларини кўрсатиб беришдан иборатдир. Бунинг учун эса ёзувчи психологияни пухта билиши, инсон руҳиятини тушуниш борасида муваффақиятларга эришган бўлиши лозим. Фақат шундагина у инсон онгини, психикасини, табиатини ҳақиқатдан ҳам адекват ифодалайди, ижтимоий кайфиятларни, уларнинг пайдо бўлиш сабабларини, кучини, барқарорлигини, шахслараро муносабатларни тўғри кўрсата олади, ўзининг истеъдоди билан кишиларга таъсир қила билади, ўқувчини, китобхонни ўз мақсадига мувофиқ фикрлашга йўналтиради.

Абдулла Қодирийни ёзувчи-психолог, дейиш мумкин. У инсон руҳий оламини чуқур билган, инсон психикасини яхши тушунган ижодкор. Адиб асарларида қаҳрамонлар руҳиятини, характерини бутун мураккабликлари, ожиз ва кучли томонлари билан очиб беради. Муомала жараёнидаги ўзаро таъсир этиш натижасида рўй берадиган ижтимоий-психологик ҳодисалар, яъни шахслараро муносабатлар, халқнинг, этнопсихологик хусусиятлари, асар қаҳрамонларининг жинсига хос этнопсихологик хислатлар, турли, бир-бирига сира ўхшамайдиган образлар, уларнинг характерлари, дунёқарашлари, маслак-эътиқодлари, айти замонда муаллифнинг давлат, жамият,

бошқарув хусусидаги, оила ҳақидаги қарашлари, фикрлари Абдулла Қодирий асарларида, романларида юксак бадиий маҳорат билан тасвирланган. Ёзувчининг ўғли Ҳабибулла Қодирийнинг айтишича, Абдулла Қодирий психология, мантиқ, шарқ фалсафаси билан ҳам чуқур шуғулланган. У: «Адам рус тилида психологиянинг ирода, ассоциация, диққат, иллюзия, араб тилида Аристотель логикасининг жуззиёт ва куллиёт бобларини ўқиб ўтирганларини ўз кўзим билан кўрганман» - , деб ёзади

Гарчи Абдулла Қодирий ўз фикрлари, қарашларини тасдиқлаш учун бирор-бир илмий асар ёзган, ёхуд махсус тадқиқот ўтказган бўлмаса-да, бадиий асарларида, романларида акс этадиган адиб кузатишларидаги аналитик устиворлик фактологик материаллар, далиллар функциясини бажара олади.

Шу билан бирга, бадиий асарда образларнинг шахсий, эмоционал ҳаёти, ўзаро муносабатларидаги ўзига хос жиҳатлар акс этади ва уларнинг илмий-психологик тадқиқи психология фани учун қўшимча қимматли маълумотларни бериши мумкин.

Санъат ижтимоий онг шаклларида бири экан, унинг таркибий қисмларидан бири бўлган адабиёт ҳам инсонни унинг ижтимоий муносабатлари билан бирга, унинг борлиги ва фаолиятини умумлаштирган ҳолда акс эттиради. Жамият тараққий этиб ривожлана борган сари ижтимоий муносабатларда, турмушда маънавиятнинг роли, аҳамияти ортиб боради.

Ёш авлодни миллий қадриятларимизга ҳурмат руҳида, ватанпарварлик, ватанга садоқат ҳиссини, юксак инсоний фазилатларни шакллантирган ҳолда мафкуравий-ғоявий жиҳатдан камол топтиришда бадиий адабиётнинг тутган ўрни бениҳоя каттадир.

Ёзувчи асари қаҳрамонлари характеридаги меҳр-мурувватлилиқ ва бошқа миллат кишилари билан дўстлашиш, сабр-тоқатлилиқ ва шижоат, ростгўйлик ва сахийлик, Ватанни ва ўз халқини севиш, дўстга содиқлик ва ўртоқлик, инсонпарварлик, соф муҳаббат ва унга садоқат, ҳалоллик ва поклик, ростгўйлик ва сахийлик сингари хислатлар китобхонларда ахлоқий фазилатларнинг шаклланишида муҳим ўрин тутади, романларида акс этган миллий ва умуминсоний қадриятлар, бадиий ҳақиқат инсонларни маънавий-руҳий, ахлоқий жиҳатдан юксалтиришда, характер, иродани, эътиқод ва мақсадга интилиш хусусиятларини таркиб топтиришда шубҳасиз катта аҳамият касб этади.

ЖАМИЯТНИНГ МАДАНИЙ ВА МАЪНАВИЙ РИВОЖЛАНИШИГА ЖАДИДЛАРНИ ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Каримова Гавхар Кудратилла қизи

**“Profi University” “Ёшлар масалалари ва маънавий-марифий
ишлар” бўйича проректор, доцент, PhD**

Жадидчилик ҳаракатининг асосий ғояси аввалига маданият соҳасидаги ҳаракат тарзида намоён бўлиб, туркий тилларни ривожлантириш, ижтимоий ҳаётнинг тараққиёти учун курашиш, дунёвий илмларни чуқурроқ ўзлаштириш, ўзбек тилининг адабиётини шакллантириш ва бойитиш, фан ютуқларидан фойдаланиш ҳамда хотин-қизлар ва эркаклар тенглиги муаммолари учун курашишга даъват қилганлар.

Махмудхўжа Беҳбудий, Мунавварқори, Абдулла Авлони, Исҳоқхон Ибрат, Абдурауф Фитрат, Абдулла Қодирий, Абдулҳамид Чўлпон, Усмон Носир сингари маърифатпарвар боболаримизни ўз даври учун прогрессив ғояларни шижоат билан кўтаришлари орқали кўрсатган фидойиликларини эътироф этганлигини Президентимиз Шавкат Мирзиёев ўзининг нутқларида “Миллатни дунёдаги ривожланган халқлар даражасида кўриш орзуси билан яшаб ижод этган маърифатпарвар боболаримиз фаолиятига ижобий баҳо бериб келади”⁴ деб таъкидлаганлар.

Жадидлар ёшларни таълим ва тарбияси муаммолари фақат орзу бўлганлиги, жамият тараққиётида ўзгаришлар қилиш эса осон кечмаслигини, улуғ мақсадларга эришиш миллат маданияти, маърифати, илм-фаннинг ривожини билан боғлиқлигини ҳар томонлама теран англаганлар. Ўзларининг шахсий манфаатларидан кечиб, миллат манфаати, юрт тараққиётини мақсад қилиб бажарган таълим ва тарбияси авлодлар хотирасида ўчмас из қолдирганликларига ҳозирги кунда гувоҳимиз.

Жадидлар мақсади миллий эркинлик бўлиб, уни қуришга уринишди, ягона мустақил ватан учун курашишди ва миллий мустақиллик ғоясига асос солишди. Шарқни уйғонишга ва ҳаракатланишга, озодлик, миллий ғурурни тиклаш, буюк аجدодлари, бой маданияти ва мустамлака тузумининг тазйиқи остида унутилган барча қадриятларни тиклашга ундади.

Жадидлар таълимоти – ўз замонасининг прогрессив таълимоти бўлиб, у нафақат тараққийпарвар шахслар, балки илғор фикрловчи

⁴ <https://president.uz/uz/lists/view/6919>

ёшларни ҳамда барча тараққийпарвар зиёлиларни ўз кетидан эргаштира олди. Жадидларнинг мамлакат озодлиги учун курашида асосан қуйидаги йўналишлар устун бўлди; турли маърифий жамиятлар ва театр труппалари тузиш; янги усул мактабларини кенгайтириш; билимли ёшларни четга ўқишга юбориш; газета ва журналлар чоп қилиш халқнинг ижтимоий-сиёсий онгини юксалтириш ҳамда мустақил давлат қуришни ўйлашган.

Шарқона таълимни тарбиядан, тарбияни эса таълимдан ажратиб бўлмайди. Маънавиятни шакллантиришдаги муҳим омил эса мамлакат ёшларининг таълим-тарбия тизими бўлиб, унинг долзарблигини жадидларнинг етук намоёндаларидан бири Абдулла Авлонийнинг “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ” асаридаги қуйидаги сатрлар ҳам исботлайди: “Алҳосил, тарбия бизлар учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидур”, “Илм инсонларнинг мадори ҳаёти, раҳбари, нажотидур” деган фикрлари ҳозир ҳам ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ”⁵.

А. Авлонийнинг фикрича, “Ҳар бир киши билим олмоғи, маърифатни қалбига жо қилмоғи, гўзал ахлоқ, маънавий фазилатлар билан безанмоғи лозимки, булар охир оқибат миллий ўзликни танишга, комил инсон сифатларига эришувга олиб келади ва шундай шахслар камол топган жамиятда Ватан равнақ топади, халқ саодатга эришади”⁶.

Жадид зиёлилари олдида маданий ва маънавий меросни тиклаш ва одамларга етказиш, ўтмишнинг буюк намояндалари билан танишиш, уларнинг асарларини нашр этиш каби қийин, аммо долзарб вазифалар турган эди. Шунинг учун бу даврда тарихий саҳнага кириб келган зиёлилар маърифат орқали одамларга нур сочишга умид қилишган.

Маърифатпарвар жадид боболаримиз миллатнинг миллатлиги унинг она тили ва шу тилда яратилган адабиёти эканига алоҳида урғу берганликлари учун ҳам ўтган аср бошида адабиёт ҳам шаклан, ҳам мазмунан янгиланди.

“Маърифатпарвар жадид боболаримиз миллатнинг миллатлиги унинг она тили ва шу тилда яратилган адабиёти эканига алоҳида урғу берганликлари учун ҳам ўтган аср бошида адабиёт ҳам шаклан, ҳам мазмунан янгиланди. Абдулла Қодирий чинакам замонавий роман жанрига, Махмудхўжа Беҳбудий эса театр драмасига асос солди. Анъанавий аруз ўрнини замонавий мавзуларга мос бармоқ вазни эгаллади. Мумтоз адабиётда етакчи ўрин тутган ишқ мавзуси ўз ўрнини маърифат, миллий уйғониш мавзусига бўшатиб берди. Абдулҳамид Чўлпоннинг машҳур “Адабиёт яшаса – миллат яшар” деган шиори миллат қалбида акс садо берди”.

⁵ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Ёшлар нашриёт уйи, Тошкент, 2018, 28 бет

⁶ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Ёшлар нашриёт уйи, Тошкент, 2018, 28 бет

“Абдулла Қодирий “Ўткан кунлар” романи орқали халқнинг миллий онгини уйғотмоқчи бўлди, “Тарихимизнинг энг кир, қора кунлари” – юртни мустамлака балосига гирифтор этган кейинги “хон замонлари” – XIX аср ўртасидаги мудҳиш тарихий жараёнлар ҳақида сўз очиб, бу аянчли ҳақиқатдан халққа сабоқ бермоқчи бўлди”⁷.

Чўлпон 1914 йил Тошкентда Мунавварқори Абдурашидхонов ва Убайдулла Хўжаев билан танишгач, асарларида миллий уйғониш ғоялари намоён бўла бошлайди. У “Илмий кенгаш”, “Чиғатой гурунги”, “Нашр маориф” ташкилотлари ва “Турон” театрида адабий, илмий-маърифий фаолият билан шуғулланди. Рус ёзувчиларининг “Боғчасарой фонтани” ва “Демон” достонларини ўзбек тилига моҳирлик билан таржима қилди, ҳаётдаги муҳим воқеаларни лирик қаҳрамонларининг ҳиссиёт ва кечинмалари орқали ифода эта олган.

Жадидлар агар улар халқ мулкига айланмаса ва одамларнинг фикрини ўзгартирмаса, уларнинг барча мурожаатлари ва шиорлари қабул қилинмаслигини тушунишди. Ўз қарашлари ва ғояларини тарғиб қилиш учун улар энг самарали чиқиш йўлини – миллий театр яратишни топдилар.

Жадидлар театрнинг халқни ахлоқий ва эстетик тарбиялашдаги юксак миссиясини англаб, Марказий Осиёда театр эстетикаси ҳимоячилари сифатида ҳаракат қилдилар. Ўрта Осиёнинг турли шаҳарларида улар яратган театрлар ўз мафкурасини тарғиб қилишнинг кучли оммавий воситасига айланди. Аҳолининг саводхонлик даражаси пастлигини ҳисобга олиб, актёрларнинг ижроси жадид мафкурасини халқ онига етказиш имконини берди.

Маҳмудхўжа Беҳбудий дастлаб “Падаркуш” пьесасини 1911 йилда тожик тилида ёзган ва кейин Бухоронинг “Турон” газетасида 1912 йилда ўзбек тилида чоп қилган. 1913 йилда М. Беҳбудий ўз асарини Самарқанд нашриётида алоҳида китобда нашр этишга муваффақ бўлди. Ушбу драмада жадид ёзувчиси жаҳолат, маданиятсизлик ва жамиятдаги барча муаммоларнинг сабаби айнан фан ва таълимга бефарқликда эканлиги ҳақидаги ғояни бадий шаклда ифодалашга ҳаракат қилган. “Падаркуш” спектакли Марказий Осиёда ёзма миллий драматургия ривожланишининг бошлаб берди.

“Падаркуш” драмаси кўпинча Марказий Осиё халқлари драмасининг асосчиси деб аталадиган жадид Маҳмудхўжи Беҳбудийнинг ёзиш маҳоратининг чўққисидир. Ўрта Осиё драматургиясининг биринчи қалдирғочи бўлиб, у жадидларнинг театр фаолиятини ривожлантиришга катта таъсир кўрсатди.

“Падаркуш” спектакли жамоатчиликда катта таассурот қолдирди ва айниқса адабий ёшларга кучли таъсир кўрсатди. “Мен “Падаркуш”

⁷ Қодирий А. Ўткан кунлар. Шарқ нашриёти, Тошкент, 2012

спектакли таассуротлари остида “Бахтсиз куёв” сахна асарини қандай ёзганимни ўзим ҳам пайқамадим”, деб таъкидлади Абдулла Қодирий ўз таржимаи ҳолида.

Кейинчалик кўплаб маҳаллий драматурглар М.Бехбудийнинг “Падаркуш” спектаклини ўрганишди ва унинг таъсири остида 20 га яқин драматик жадид асарлари пайдо бўлди: “Тўй”, “Жувонмарг” ва “Аҳмоқ”, “Бахтсиз куёв”, “Заҳарланган ҳаёт”, “Пинак”, “Адвокат бўлиш осонми?”.

“Тошкентда 25 кишидан иборат Ўрта Осиёда биринчи “Турон” театр труппаси Абдулло Авлоний, Мунаввар-қори ва Тавалло ташаббуси билан 1913 йилда ташкил этилди. Ғулом Зафарий ва Шокиржон Раҳимийлар театрнинг машхурлари эди. Кейинчалик уларга Маннон Уйғур ва Шамсиддин Шарофиддинов қўшилди. Ушбу театр намояндалари миллий жамият халқ учун спектакл ва театрлар ташкил этишни, театр санъатини ривожлантиришни ният қилган”⁸.

1914 йил 27 февралда Тошкентда Колизей театри биносида биринчи миллий театрнинг расмий очилиш маросими бўлиб ўтди. “Ҳаммамиз биламизки, шу пайтгача она тилимизда театр бўлмаган. “Театр” сўзи аслида “ҳаёт дарси”, таълим ёки “буюк мактаб” ўқитиладиган хонани англатади. Театр сахнаси ойнали хонага ўхшайди, у ерда унга кирган ҳар бир кишининг ижобий ва салбий томонлари ҳар томондан акс этади, бу ерда ҳамма ўзининг афзалликлари ва камчиликларини кўради ва улардан тўғри сабоқ олади”, - деди Мунаввар Қори Абдурашидхонов⁹.

Кейин “Турон” труппаси М. Бехбудийнинг “Падаркуш” пьесаси асосида жуда муваффақиятли спектакл намойиш этди. Ўрта Осиёдаги биринчи миллий театр труппаси ишқибозларидан бири жадид шоири Тавалло ушбу воқеага бағишланган махсус шеърлар ёзган.

“Падаркуш” пьесаси “Турон” труппаси орқали Туркистоннинг кўплаб ҳудудларида намойиш этилди ва халқ орасида обрў қозонди. Ҳусайн Нажиб бошчилигида Бухородаги “Торикистон” залида татар актёрлари томонидан “Падаркуш” пьесаси М. Бехбудийнинг розилиги билан сахналаштирилган ва бухороликлар орасида катта муваффақият қозонган.

Миллатимиз учун ёш авлодни маънавий тарбиялаш муҳим, долзарб ва у давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Шунга кўра, мустақиллик йилларида таълим-тарбия тизими тубдан ислоҳ

⁸ “Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари” // “Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2016 йил 15 апрель.

⁹ Мунаввар Корй. Жамъияти мусалмони Тошканд // Самарканд. -1913.- № 37.- 20 авг.

қилинишининг зарурият эканлиги дастлабки йилларданок йўлга қўйилди.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ёшлар ўртасида Ватанга садоқатни ривожлантириш учун мақбул шарт-шароитларни таъминлаш, жамият ва давлат олдида муносиб хизмат қилишга тайёрлик, бурч ва хизмат бурчларини ҳалол бажариш; жади́дларнинг ижодий мероси асосида ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг самарали тизимини яратиш, ёшларнинг онги ва ҳиссиётларида ватанпарварлик қадриятлари, қарашлари ва эътиқодларини ўрнатиш, кўп миллатли халқимизнинг маданий ва тарихий ўтмишига ҳурмат, анъаналар ва давлат хизматининг обрўсини ошириш; ёшларни самарали ватанпарварлик руҳида тарбиялаш учун дарсларда шароит яратиш бўйича илмий асосланган бошқарув ва ташкилий тадбирларни ўтказиш зарурдир.

TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARIDA AYOLLAR TA'LIMI MASALASINING FAOLLASHTIRILISHI

Saidova Barno Narzullayevna

“Pedagogika” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Email: barnosaidova1980@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik davrida xotin-qizlar ta'limi masalasining holati, muhit va siyosiy jarayonlar, maktabdor ayollar hamda ularning dunyoviy ta'limni qo'llab-quvvatlashi, maktablardagi o'qitish usullari va shakllari haqida ma'lumotlar tahlil etilgan. Tahlikali davrda ayollarning harakatlari va ta'lim-tarbiya ishlarining olib borilishi, mintaqadagi holatdan kelib chiqib ayollarning jamiyatdagi o'rni to'g'risida ilmiy asoslandan ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: tahlikali davr, jadidchilik, geosiyosiy maqsadlar, rus imperiyasi, milliy uyg'onish, qoribegim, maktabdor ayollar, mahalliy ziyolilar, rossiya chorizmi, imperiya.

Аннотация. В статье анализируется состояние женского образования, среда и политические процессы, школьницы и поддержка ими советского образования, методы и формы обучения в школах в период модернизма. Представлена научно обоснованная информация о действиях женщин и просветительской деятельности в кризисный период, а также о роли женщин в обществе исходя из ситуации в регионе.

Ключевые слова: опасный период, модернизм, геополитические сели, Российская империя, национальное возрождение, Карибегим, школьницы, местная интеллигенция, русский саризм, империя.

Abstract. This article analyzes the state of women's education, environment and political processes, school-going women and their support for

secular education, teaching methods and forms in schools during the period of modernism. Scientifically based information is presented about women's actions and educational activities during the crisis period, and the role of women in society based on the situation in the region.

Key words. dangerous period, modernism, geopolitical goals, Russian empire, national revival, schoolgirls, local intellectuals, Russian tsarism, empire.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi PQ-5020-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bugungi kun xotin-qizlarining jamiyatdagi o‘rni va nufuzining ko‘tarilishi hamda ularning xuquq-erkinliklarini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tarixiy davr nuqtai nazaridan, ma‘rifatparvarlik va jadidchilik davri hamda ular vakillarining faoliyati haqida, tarixiy muammo sifatida, ko‘p ilmiy izlanishlar va fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Muammo nafaqat O‘zbekistonda, balki qo‘shni respublikalar va xorijda ham olimlarning o‘rganish ob‘ektiga aylangan. Ammo, ma‘rifatparvarlik davridagi ayollarning ayollar dunyoviy ta‘limini joriy etish yo‘lidagi faoliyati haligacha mukammal o‘rganilmaganicha qolib ketgan. Bu borada mualliflar Z.Abdirashidov, V.Kocharov, A.Muxtarov, N.Ostroumov, M.Qodirova, A.Rasulovlar tomonidan yozilgan monografik risolalar, dissertatsiyalar va davriy matbuotlarda nashr etilgan maqolalarda esa muammoning ma‘lum bir qismlari qamrab olingan.

Mazkur maqola xalq ta‘limi tarixini pedagogika nuqtai nazaridan ob‘ektiv tahlil qilish va O‘rta Osiyo xalqlarining hayotida ayollar ta‘lim va tarbiyasining holati va tuzilishini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Tanlangan muammoni ilmiy o‘rganish bo‘yicha imkoniyat yaratish rejasi belgilangan. Shuning uchun, o‘rganish va tahlil qilish jarayonida O‘rta Osiyo ayollari ta‘lim-tarbiyasining xususiyatlari, eng muhim vazifalari, asosiy yo‘nalishlari hamda darajasini o‘rganishga alohida ahamiyat berilgan.

Muammoni tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda ko‘rib chiqish uchun aniq va muhim vazifalar sifatida quyidagilar belgilanib olindi:

- an‘anaviy ta‘lim tizimining saqlanish darajasi va uning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;
- ayollarning ta‘lim darajasi va ularning o‘rganilayotgan davrdagi madaniyat, ilm-fan va adabiyot rivojidagi rolini ilmiy asoslash;
- yangi davrda ayollar ta‘lim-tarbiyasi, (rus-tuzem maktablari va jadidchilik);

-ma‘rifatli ayollar va dunyoviy ta‘limni rivojlantirishda ularning o‘rni.

- rus-mahalliy maktablar paydo bo‘lishining sharoitlarni o‘rganish va sho‘rogacha Turkistonda ayollar ta‘limining muhim yo‘nalishlarini aniqlash;

- jadidlarning xalq ta‘limi sohasidagi faoliyatini ayollarga nisbatan ba‘zi jihatlarni yoritish.

Turkistonda ma‘rifatchilik harakati g‘oyalarining jamiyatga kirib borishi jarayoni o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Bu yerda avvalo rus chorizmining geosiyosiy maqsadlari ortidagi harakatlar, jamiytdagi milliy uyg‘onish doirasida harakatga kelgan kuchlar umumiy maqsad, ya‘ni jamiyatda ma‘rifatni rivojlantirish uchun intilishlari kabi jarayonlarning bir paytda kechishi ko‘zga tashlanadi. Binobarin, ushbu mavzuni yoritish davomida albatta Rossiya chorizmi tomonidan amalga oshirilgan faoliyat hamda mahalliy ziyolilar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar va hayotga joriy etilgan ishlari ko‘rib chiqiladi. Aytish lozimki, har ikkala tomondan ham ma‘rifat nurlari uchun kurash olib borilar ekan, ta‘lim masalasi va uning doirasida ayollar ta‘limiga e‘tibor tobora kuchayib borishi seziladi. Demak, ayollar ta‘lim tarbiyasi hayotning dolzarb masalasiga aylanib, diniy va dunyoviy ta‘limni zamon ruhiga moslashtirish zarurati zamondoshlarning vazifasi bo‘lgan edi.

O‘rta Osiyoning birinchi ma‘rifatchilari qatoriga A.Donish, S.Ayniy, M.Behbudiy, A.Qodiriy, A.Shakuriy, F.Xo‘jayev, A.Fitrat, I.Ibrat, M.Saidjonov, Ajziy va boshqalar kiradi. Ular gumanistik va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi jamiyat qurish, shuningdek, musulmonlar xalq ta‘limi islohotlarini o‘tkazish, iqtisodiyotni rivojlantirish, odamlarning turmush darajasini oshirish va boshqa ko‘p narsalarni qo‘llab-quvvatladilar. Asta-sekin ta‘limiy g‘oyalar keng tarqalib, xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshladi. Endi ziyolilar xotin-qizlar ta‘limi masalasini yanada ochiqroq aytish, faollashtirishni boshladilar.

Jadidchilik harakatining taniqli shaxslaridan biri Ahmad Donish edi. U Buxoroda, oilaning barcha a‘zolari uchun ta‘lim juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oilada tug‘ilgan. A. Donish arab tilini mukammal bilgan va xattotligi yaxshi bo‘lgan, she‘rlar yozgan va tarixga ehtiromi bo‘lgan. 1857 yilda u Buxoro amirligi elchixonasining kotibi sifatida Sankt-Peterburgga qilgan safaridan so‘ng rus madaniyati va dunyoviy fanlarni o‘rganishni targ‘ib qila boshladi. U birinchi marta rus ayollarini ko‘rib O‘rta Osiyolik musulmon ayollardan juda farq qilayotganini ta‘kidlagan. [1, 57].

Rus hayotini ko‘rish, rus ayollariga qoyil qolish, ularning fe‘l-atvorining qat‘iyligi, ochiqligi va samimiyligi, Sharqdagi ayollarning qullik holatini taqqoslash natijasida Donish ularning taqdiri haqida qattiq tashvishlangan. U ushbu masalani faol ravishda muhokama qiladi va oila misolida yoritib beradi, bu yerda nikoh ishlari va bolalarni tarbiyalashda o‘zaro tushunishni kuzatish kerak, degan xulosaga keladi. “Nikoh qoidalari

va qaynonaning adovati to‘g‘risida”gi risolasida u oilaviy hayot va ayollarning huquqlari masalalariga batafsil to‘xtaydi. U o‘sha vaziyatdagi adolatizlikni qonunlarning noto‘g‘riligida ko‘radi. U ayollarning oiladagi rolini tariflab, “Dunyoda yaxshi va odobli xotindan yuqori yaxshilik yo‘q” deydi. [2, 254].

Ayol haqida gapirish qat’iyan man etilgan bir paytda Ahmad Donish ayolning hayotidan pardani olib tashlaydi va boshqalarga ayollar huquqlarini yanada jasorat bilan himoya qilishga imkon yaratadi. Garchi uning asarlarida sharq ayollarini o‘qitish bo‘yicha hech qanday maxsus chaqiriqlar bo‘lmasa-da, ammo Rossiyaning madaniyatli va o‘qimishli ayolini maqtash va uni musulmon ayol hayoti bilan taqqoslash O‘rta Osiyo adabiy doiralarida yangi davr ayollari tarbiyasi va ta’limi to‘g‘risida gapirishga zamin yaratadi.

Donish bilan uchrashish va suhbatlashish sharafiga Buxoro viloyatining Suktare qishlog‘ida tug‘ilgan taniqli yozuvchi va ma’rifatparvar Sadriddin Ayniyga nasib etgan. “Buxoro inqilobi tarixi” asarida u shunday yozadi: “Ahmad Donishning “Navodir-ul-vaqoe” (“Nodir voqealar”) kitobini o‘qib, beqiyos zavq oldim. Kitob shu qadar ajoyib ediki, men uni qayta o‘qishni xohladim. Keyin nima uchun uni “kofir” deb atashganini tushundim. Qo‘rqmasdan, u o‘z kitobida ruhoniylarning barcha salbiy tomonlarini ochib bergan, dars metodikasining barcha kamchiliklarini ko‘rsatgan va gapirgan, madrasada o‘tkazilgan ko‘plab darslarning foydasizligini yoritib bergan. [3, 23].

Maorifparvar va dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudiy Buxoroda tug‘ilgan. Uning otasi islom huquqshunosligining taniqli olimi bo‘lgan. Uning oilasi Buxoro ruhoniylari orasida eng ma’lumotli oilalardan biri hisoblangan. Behbudiy oilasida barcha oila a’zolari irsiy “Qori”, ya’ni Qur’on o‘qiydiganlar edi. Hatto uning ikkita singlisi ham Qur’onni va unga sharhlarni mukammal bilgan va ularning eng kattasi “Qori-begim” - Qur’on o‘qigan ayol deb nomlanish sharafiga muyassar bo‘lgan. [5, 7].

Behbudiy ayollarning shaxsiyatini tan olishga e’tibor berib, ayollar eng yuksak hurmatga loyiqligini ta’kidlab yozgan edi: “Ayol bu insoniyat bilan bog‘liq shaxsdir. Ayol mutafakkirlarni dunyoga keltiradi, tarbiyalaydi va buyuk shaxs darajasiga etkazadi. Ayollar eng yuksak ehtiromga sazovordir. Ularga erkinlik berish, ta’lim olish imkoniyatini berish kerak va buning uchun ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kerak. Shariat ayollarga bilim olishlarini taqiqlamaydi, aksincha, ularni qattiq qo‘llab-quvvatlaydi”

Jadid mutafakkirlarining fikricha, mavjud eski uslubdagi ta’lim tizimi Turkiston xalqlarini dunyoning rivojlangan davlatlari xalqlaridan ancha ortda qolishiga sabab bo‘lgan edi. Endi jahonning ilg‘or ilm-fanini egallamasdan turib, dunyo bilan barobar yashab bo‘lmasligini ta’kidlardilar. Uni o‘rganish uchun esa, til bilmoq zarur edi. Ayni paytda o‘zlikni saqlash ham kerak, degan

fikrdan yiroq bo‘lmagan edilar. Yana bir tarafdin dinni saqlash ham jamiyat oldida turgan muhim masalalardan biri sifatida talqin qilinardi. Demak, taraqqiy etishi uchun mana shu uch asosni mahkam ushlab, ular o‘rtasidagi muvozatni saqlay bilish lozim edi.

Jadidchilik harakatining xarakterida ularning dasturlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy, ma‘naviy kamchiliklarini tanqid ostiga olib, ularga qarshi kurashga etakchilik qilishni ko‘rish mumkin. Chunki, ular o‘zlarining oldiga qo‘ygan bosh maqsadlarini amalga oshirish uchun avvalo xalqni tarbiyalash zarurligini vzifa sifatida belgilab olgan edilar. Agar jadidlar harakatining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini umumlashtirib ifoda etadigan bo‘lsak, jadidlar millatni ozodlikka olib chiqish uchun Turkiston xalqlarini erkparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mutaassib din peshvolarini soxta da‘vatlaridan ommani muxofaza qilish, turkistonliklarni jahonning boshqa millatlari bilan har jihatdan teng yashay olishlari, jahon madaniyati sivilizatsiyasidan xabardor bo‘lish darajasiga ko‘tarish va nihoyat Turkistonda xotin-qizlar emansipatsiyasiga va feministik o‘zgarishga erishish kabi vazifalarni amalga oshirishni eng muxim va ob‘ektiv zarurat deb bildilar.

Mazkur vazifalarni bajarish asnosida butun Turkiston uchun yagona bo‘lgan milliy g‘oyani yaratish va uni amaliyotga tadbiiq etish lozim edi. Shu o‘rinda aytish joizki, ushbu sanab o‘tilgan vazifalar tahlil qilinsa, ularning hammasi qaysidir darajada hozirgi davrning ham hayotiy muammolari bo‘lib hisoblanadi. Misol uchun, jadid mutafakkir ayollaridan biri bo‘lgan Anbar Otinning asarlarida ko‘tarilgan masalalarning mohiyati bugun ham ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘rish mumkin. Anbar Otin o‘zining “Qarolar falsafasi” (1910) risolasida jamiyatning axloqiy, siyosiy, ijtimoiy muammolarini tasvirlab bergan. U insonning ma‘naviy kamolotini aql, ilm-ma‘rifat bilan bog‘laydi va ijtimoiy taraqqiyotga aqliy hamda axloqiy yuksaklik orqali erishish mumkin, degan aqidani ilgari surgan. Uning asarlarida axloqsizlik botqog‘iga botib borayotgan jamiyat tanqid qilinadi, shariat va tariqat namoyandalarining aynib ketganligi, boylardan insof ko‘tarilganligi haqidagi fikrlar mardona ilgari suriladi.

Anbar Otin o‘sha davr muammosini keskin tanqid ostiga olib, vaziyatga real baho bergan. U jamiyatdagi ijtimoiy, ma‘naviy muammolar haqidagi fikr-mulohazasini davom ettirib, mustabid tuzumda millat ravnaq topa olmasligini aytadi. Millat rivoji uchun avvalo mustaqillik zarur, lekin buni qanday qo‘lga kiritish kerak, degan savolga Anbar otin uning ikki yo‘lini aytib o‘tadi. Biri – aqlni inson o‘ziga vazir qilib, falsafiy mushohada yordamida ish ko‘rish orqali bunga erishish mumkin: “Vaqtiki ilm daraja qilib, falsafa ravnaq topsa, bu chigillarim kushoda bo‘lur. Falsafa iborasi ila qarshi va zid so‘zlarni muqoyyyasa qilg‘onda bu chigillar ochilur”. Ikkinchi yo‘l esa o‘z haq-huquqini himoya etish maqsadida amaliy harakat qilish, mustamlakachilik zulmiga va adolatsizlikka qarshi birlashmoq, qo‘lda qurol bilan chiqmoq. Bu yo‘lni shoira

shunday ifodalaydi: “... albatta, aqlu idrok va jamoatg‘a takya qilib, barcha shayx so‘fiylardan yiroq va barcha tarsu vahmdin emin bo‘lib, zolimlarga qarshi muboriza qilmoq, yakkalikdan hazar qilmoq, bu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmatni bartaraf qilmoq zarurdir.”[10, 96].

Abdulla Avloniy ham Anbar Otin singari o‘sha davr ma‘naviy muammolarini tasvirlab o‘tgan. Uning fikricha, o‘sha davrdagi asosiy maishiy, ma‘naviy muammo bu tarbiya masalasi bo‘lgan. Faylasuf-pedagog, avvalo, millatni tarbiyalashni o‘z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to‘xtaladi: otalar – to‘ychi, ulochi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar – o‘zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualli-minni tugatishi kerak bo‘lgan, mudarrislar esa – darslari beimtihon, isloh yaqiniga yo‘lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari – ta‘lim-tarbiya tizimini zamonaviylashtirishga, isloh qilishga intilayotgan ziyolilar qo‘lga olishlari kerak. Avloniy Rusiya hukumati u yer-bu yerda yangicha maktablar ochgani – shunchaki jahon jamoatchiligini chalg‘itish ekanini, ochiq bo‘lmasa ham, ishora bilan aytib o‘tadi. Hukumat hammaning otasi, o‘z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmog‘i lozim. Rusiya hukumati esa o‘gay, o‘gay bo‘lsa ham, u yer-bu yerda maktab ochib, bolalarni tekin o‘qitadi, deydi u. Avloniy ana shu “o‘gay tarbiyadan” ko‘ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va o‘z davrini “tarbiyaning zamoni” – tarbiyaning ayni vaqti deb ataydi. Uning bu boradagi qarashlari hanuz o‘z kuchini yo‘qotmaganligini; tarbiya – hozir ham, ya‘ni XXI asr jamiyati uchun ham dolzarb muammo ekanini, Avloniyning quyidagi fikrlarini keltirish yo‘li bilan ta‘kidlash mumkin: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” [7, 62].

Mahmudho‘ja Behbudiy ham Abdulla Avloniy fikrlarini davom ettirib, jamiyatni tashvishga soladigan, orqaga tortayotgan muammolar bu – odamlarning ma‘rifatsizligi, din peshvolari va amaldorlarning axloqsizligi, oilada diniy va dunyoviy tarbiyaning sustligi ekanligini ko‘rsatadi. Behbudiy kishilarni axloqan, ma‘nan tarbiyalash uchun maktablarning o‘zi kifoya qilmasligini, millatni o‘stirish uchun o‘zini ko‘radigan oyna zarurligini aytib o‘tadi. U o‘sha davr uchun teatr zaruratini asarlarida ochib beradi va bu tashabbusga o‘zi boshchilik qiladi.[9, 219].

Taraqqiyot va ma‘rifatning yana bir qizg‘in targ‘ibotchisi olim, o‘qituvchi, shoir, dramaturg, musiqashunos, faylasuf, tabib, shuningdek, taniqli davlat va siyosat arbobi Abdurauf Fitrat edi. U maktablarni isloh qilish va ularda o‘qitish metodikasi uchun kurashgan, yangi maktablarni tashkil qilishda va ularning o‘quv-tarbiyaviy ishlarida qatnashgan, darsliklar yaratgan: “O‘qish” yoki “Xonish”, “O‘zbek tili morfologiyasi to‘g‘risida”, “Tojik tili morfologiyasi” va boshqalar.

Fitrat O‘rta Osiyo adabiy doirasiga “Bayonoti sayyohi hind” (Hindistonlik sayyohning hikoyalari) asari bilan tanish. Unda u an‘anaviy Buxoro maktablari va madrasalaridagi qo‘llaniladigan o‘qitish usullarining

qoloqligini ko‘rsatib, ochiq va shafqatsiz tanqid qiladi. Aynan shu asarda birinchi navbatda ayollar tarbiyasi mavzusi ochiqchasiga ko‘tarilgan. Hikoya Hindistondagi ikki kishi, Buxoro mudarrisi va chet ellikning polemikasidan iborat. Suhbat jadidlarning ta‘lim va dunyoqarashining ko‘plab muammolari haqida ma‘lumot beradi. Ayollarning johilligi mavzusi shafqatsiz tanqid qilinadi. Masalan, chet ellik kishi so‘raydi:

- Ayting-chi, ayollar siz bilan o‘qiydimi?

Mudarris javob beradi:

- Yo‘q, ayollar o‘qimaydilar.

- Nega siz ularga ta‘lim bermaysiz? Ularning aqli erkaklarnikiga qaraganda kam rivojlanganmi?

Suhbatni chet ellik kishi davom ettiradi:

- Amerika va Fransiya ayollarini tahlil qilib, biz ayollarning aqliy qobiliyati erkaklarnikidan kam emasligini bilib oldik. Payg‘ambaringiz yana shunday deydi: “Talab ul ilm farizatun ala kulli muslimin va muslimatin”, (ya‘ni, ilm o‘rganish har bir musulmon va muslimaning vazifasidir). Ayolning ma‘lumoti foydali. Chunki har birimiz, avvalambor, onadan ta‘lim olamiz. Agar ona o‘qimagan va tarbiyasi bo‘lmasa, unda uning farzandi ham johil bo‘lib qoladi. Ma‘lumoti bo‘lmagan ayol – bu uyda va hatto butun mamlakatdagi baxtsizlik.

Bunday dialog orqali birinchi marta ta‘lim harakati g‘oyasining mohiyati ochiq izohlanadi: jinsi, millati va e‘tiqodidan qat‘i nazar, har kim bilim olishi mumkin. Buxoro va Samarqand singari sobiq mashhur ilmiy markazlarda mavjud bo‘lgan maktab va madrasalarning orqada qolishi to‘g‘risida savollar tug‘iladi.

Fitrat, boshqa barcha zamondoshlari singari, faqat ayollarning mavqei va ularning bilim darajasi haqida gapirdi. Ular “ayollarning qiyin ijtimoiy va kundalik ahvolini angladilar” va Turkistonning kelajagi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash onalar qo‘lida deb haqli ravishda ishonishdi, ona qancha tarbiyalansa, yosh avlod ham shunday tarbiyalanadi.[8, 62].

Fitrat ayollar ta‘limining eng qizg‘in tarafdori va Turkiston ayollarining qo‘riqchisi bo‘lgan. Fitrat o‘zining “Oila yoki uni qanday boshqarish kerak” kitobida ayollarning nihoyatda og‘ir ahvolini batafsil tavsiflaydi va ularni tafakkurining konservatizm sabablarini “Islomni qullikka aylantirgan noto‘g‘ri tushunchalar” doirasida ko‘radi.[8, 62].

Ma‘lumki, Turkiston mahalliy ayollarining ba‘zilari otinoyilar qo‘lida savod chiqarib, diniy ta‘lim olganlar edi. Otinoyilar qizlarga o‘z uylarida savod o‘rgatib, diniy ta‘limdan tashqari, she‘riyatdan ham saboq berishgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Dilshod Barno, Anbar Otin, Uvaysiy, Nozimaxonim kabi o‘zbek ayollari o‘z ijodida ayollarning ahvoli, yashash sharoiti, oila va jamiyatdagi o‘rni kabi masalalarni aks ettirishga harakat qilganlar. Lekin hamon mahalliy ayollar dunyoviy ta‘lim olish imkoniyatidan mahrum edilar. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyparvar kuchlarining mazkur masalaga

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

e’tibori kuchayib borgan. Xususan, “Sadoi Turkiston” gazetasi tomonidan o‘lkada qizlarga keng diniy bilim beradigan va oz darajada bo‘lsa-da, geografiya, hisob, tarix va til qoidalarini o‘rgatadigan bironta ibtidoiy maktab yo‘qligi tanqid ostiga olinadi.

Jadid matbuotida o‘g‘il bolalarga qaraganda, qizlarga ilm berish muhimroq ekanligi ta’kidlangan. 1914 yilda “Sadoi Turkiston” gazetasi: “O‘g‘il bolalardan ko‘ra qiz bolalarga ilm, hunar lozim ekanligini xotiringizdan chiqarmasdan, tezdan ibtidoiy maktablar ochmakka, ma’suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg‘a oshig‘ingiz”, - deb murojaat qilgan.[9].

Masalani muhokamasiga kirishib ketgan taraqqiyparvar ziyolilar uning barcha jihatlarini tahlil qilardilar. Masalan, ular tomonidan o‘qigan ayollarning o‘z farzandlariga yaxshi tarbiya bera olishi e’tirof etilgan.[10].

Turkiston matbuotida ayollar o‘z muammolariga xalq e’tiborini qaratishga harakat qilib, ayol-qizlar uchun maktablar ochib, ularga ilm berish zarurati ta’kidlanar edi. Chop etilgan maqolalarda ayollar turmushining ayanchli ahvoli qayta-qayta ijtimoiy muammo sifatida o‘rta tashlanar edi.

Muhammadsharif So‘fizoda o‘z she’rida Turkiston ayollarining ilmsizlik ahvoliga jiddiy achingani holda, ularga:

*Millat islomiyasining bonusi,
O‘zbek elining qaro ko‘z ohusi.
Kor qilur bir kuni johil og‘usi,
Ilm va amal ushbu kasal dorusi.
Boy dadangiz ozgina pul bersa ham,
Daftar oling siz onga, yo bir qalam.* - deya murojaat qilgan.[9].

Yana bir shoir To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo) esa o‘zining “Hamshiralar tilidan” nomli she’rida Turkiston ayollari nomidan otalarga murojaat kilib, ularni maktabga berish, o‘qitish, ilm-ma’rifatli bo‘lishlari uchun imkoniyat yaratishlarini o‘tinib so‘raydi. Hatgo ularning bu yo‘lda “ipak kiyimlar, oltin taqinchoqlardan ham voz kechishlari, agarda ilm olmasalar, Lut qavmidek er yutushiga tayyor ekanliklari”ni ham aytadi.[8].

Tarbiya masalasi jadid mutafakkirlarining ijodida muhim o‘rin egallagan. Bu masalani ham ba’zi jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Dastlab, Abdulla Avloniydan boshlaymiz, chunki hech qaysi mutafakkir Avloniychalik tarbiya xususiyada ko‘p aytmagan va yozmagan. Uning juda ko‘p maqolalari va asarlari aynan ma’naviy, axloqiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Avloniyning inson tarbiyasiga bag‘ishlangan eng katta asari “Turkiy guliston yoxud axloq” deb nomlanadi. Ushbu asardagi ma’anaviy-falsafiy yondashuvning yangilangan mohiyati shunda ediki, tadqiqot ob’ekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavhumiy inson emas, balki, muayyan, XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha hayot tarziga intilishni o‘z

oldiga niyat qilib qo‘ygan Turkiston fuqarosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o‘rtaga tashlanadi. Muallif avvalo, millatni tarbiyalovchi tarbiyachi masalasiga to‘xtaladi. Avloniyning fikricha, buni amalga oshirishdan oldin tarbiyachining o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi lozim.

Ma‘rifatparvarlik va jadidchilik harakatlarining dasturlarida ayollar ta‘lim tarbiyasining muammolari qanchalik faollashtirilmasin va qanchalik yoritilmasin, baribir ayollarning o‘zlari masalaga aralashib, uning asl mohiyatini tushuntirma-gunlaricha, natijadorligi samarasiz qolaverdi. XIX-asr oxiri va XX boshlarida ma‘rifat olamidan ogoh bo‘lgan ayollar so‘z minbaridan foydalanib, goh she‘rlar orqali va goh maqolalar orqali xalq ommasining diqqat e‘tiborini masalaga jalb etishga erishdilar.

XIX-asrning oxirida O‘rta Osiyoning taraqqiyparvar ayollari xalq ta‘limini o‘zgartirishda faol ishtirok etishlari bois masala ijtimoiy ahamiyat kasb eta boshladi. Ma‘rifatparvar ayollar o‘zlari amalda maktablarda darslar tashkil etib, ayollar ta‘limining zamonaviy mazmun mohiyatiga ehtiyoj borligini talqin qilishga kirishdilar. Maktab o‘qituvchilari sifatida ularning o‘zlari darslarini qiziqarli o‘tkaza boshladilar. Bularga Dilshod, Anbarotun, Uvaysiy, Samar-Bonu va boshqalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. O‘sha paytda jamiyatda ularni ma‘rifatli ayollar deb atashgan. Ular o‘z maktablarida qizlarni yoshligidan yig‘ishgan. 13-14 yoshgacha qizlar bunday ma‘rifatchilarning maktablarida nafaqat yozma va arab grafikasini o‘rganishgan, balki mashhur mumtoz shoirlar Hofiz, Sa‘diy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Gulxaniy va boshqalar ijodi bilan ham tanishganlar. Bunday maktablarda qizlarga musulmon adabiyoti asoslari va she‘r to‘qishning yuqori mahorati, she‘rlarida abjad hisobi (arifmetika) dan foydalanish o‘rgatilgan.

Ma‘rifatli ayollarning yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Dilshod Barno merosini o‘rgangan akademik A.Muxtorov monografik asarida Qayumov nomli bir kimsaning xotiralaridan shunday parchalar keltirgan: "ijaraga olgan hujralarda yashovchi rus oilalari soni 20 oilaga ko‘paygan. XIX asrning 90-yillarida yashaydigan mahallasida asta-sekin Qo‘qon bolalari rus bolalari bilan bemalol muloqot qilishlari, rus adabiyotlarini o‘qishlari va uylariga olib borishlari mumkin edi" [9, 67].

Dilshod fojiali hayot kechirgan. Barcha vatandoshlari O‘ra-teppa shahri aholisi bilan birgalikda Umarxonning qulligiga tushib qolgan. Qo‘qondagi xon haramidan qochib, u masjid imomining xotiniga aylangan. Qo‘qonda ko‘p erkaklarga o‘qish va yozishni o‘rgatgan. Dilshod to‘rt yil davomida qaynonasidan ilm va turkiy (o‘zbek) tilni o‘rganadi va keyinchalik o‘qituvchi bo‘lib maktabni meros qilib oladi.[10, 44]. 51 yil maktabda ta‘lim bergan Dilshod Barno har yili 20-30 qizni tarbiyalab chiqargan.

Ma‘lumotlarda keltirilishicha pedagogik faoliyati davomida 891 nafar qiz Dilshoddan tahsil olgan va ularning ichidan o‘zlarining so‘zlariga ko‘ra, to‘rttdan biri she‘riyatni sevadigan va ustozlari kabi shoiralarga aylangan. Keyinchalik o‘zining tarixiy asarida Dilshod o‘qituvchi va shoir bo‘lgan eng

qobiliyatli Xayriniso, Bahriniso, Anbarotun, Mastura, Fazilat Bonu va Karomat qizlarining ismlarini sanab o‘tgan [9, 103-105].

Dilshod albatta yaxshi va ma‘rifatli kunlardan umidvor bo‘lib yashadi, kelajakda ochilajak maktablarda yangi fanlarni o‘rgatadigan zamon kelishiga ishondi. U qizlarini hayotlari yaqin orada o‘zgarishiga umid bog‘ladi va ularni ham ishontirdi. Shoir 106 yil yashab, o‘zining barcha ilg‘or fikrlari va umidlarini she‘rli satrlarda yozdi, shuningdek, “Barno tanlangan she‘rlari” kitobini qoldirdi.

Tutiqiz, Xayriniso, Bahriniso, Anbarotun singari shoiralar bevosita Dilshodi Barnoning shogirdlaridandir. Undan bizga qadar tojik va uzbek tillaridagi she‘rlarni o‘z ichiga olgan “Muntaxab-ul-ash‘or” (Tanlangan she‘rlar), “Ta‘rix muhojiron” (Muhojirlar tarixi) kitoblari meros bulib qolgan. Ikki tilda barobar ijod etgan — zullisonayn ijodkor Dilshodi Barno 1906/7 yili Qo‘qonda vafot etgan.[9, 360].

Ma‘rifatparvar ayollarning yana bir vakili, iste‘dodli shoir 106 yil yashab, Qo‘qonda ziyoli oilasida tug‘ilgan. Anbarning shoir bo‘lib etishida Uvaysiy va Dilshodi Barnolarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Zeroki, Anbaroy Uvaysiyning jiyani bo‘lib, yetti yasharligidan Dilshodi Barno maktabida tahsil olgan.

Dilshodning shogirdi Anbarotun keyinchalik “ustod” Dilshod Barnoning izdoshiga aylandi. Anbarotun haqida Dilshod shunday yozgan edi: “Men uning tarbiyasi bilan 10 yoshigacha shug‘ullanganman, bu qiz taniqli shoir bo‘lishiga doimo umid qilganman” [10, 108].

Anbaroy yoshligidanok o‘zining nozik didi, zukkoligi bilan mahalla ayollari orasida katta shuhrat qozongan. Tasodif sabab bir ma‘rifiy bazmda Anbar Otin zinadan yiqilib, bir umrga nogiron bo‘lib qolgan. Ammo nogironlik Anbar Otin ruhiyatini sundirmaydi. Hayotining qisqa davrida o‘z asrining taniqli, ilg‘or shoiralaridan bir bo‘lishga ulgurgan. Anbarotun erkinlikni tashviq etuvchi she‘rlari uchun og‘ir jarohatlar olgan. U Jomiy, Navoiy singari shoirlarga ergashib jo‘shqin lirik g‘azallar, ma‘rifatparvarlik ruhida she‘rlar yozdi.

Xulosa. Aytish mumkinki, jadid mutafakkirlarining millatni ma‘rifatga olib chiqish yo‘lidagi harakatlari besamar ketmadi. Bugungi dorulomon kunlar mana shu ulug‘ insonlarning zaxmatli harakati mevasidir. Zero, ular biz uchun haqiqiy axloqiy namunalardir. Ayni paytda ular yodini, “elim deb, yurtim deb yonib yashagan” ulug‘ insonlar xotirasini e‘zozlashning o‘zi ham yuksak ma‘naviyat va axloqiylik timsolidir.

Jadid mutafakkirlari o‘sha zamon jaholat botqog‘ida yotgan xalqni ma‘rifat osmoniga olib chiqishga intildilar. Bu maqsad yo‘lida bor kuch-g‘ayratlari, shijoatlari hatto jonlarini ham fido qilishga tayyor edilar. Jadidlarning jonbozliklari tufayli Turkistonda yangi uslubdagi maktablar, oliy o‘quv yurtlari paydo bo‘ldi, yoshlar chet ellarda taxsil olib, dunyo tanidilar. Bularning barchasi millat ma‘naviyatining yuksalishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Biz jadid mutafakkirlarining ijtimoiy, ma’naviy hayot haqidagi fikr-muohazalari bilan tanishib, ularning bu boradagi fikrlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдирашидов З. Исмаил Гаспиринский и Туркистан в начале XX века: связи – отношения – влияние. Ташкент, Академнашр, 2011. – 384 б.
2. Абу Бакр Мухаммад ибн Джаъфар ан-Наршахи. Таърих-и Бухара. (История Бухары). Перевод, комментарии и примечания Ш.Б. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г. Некрасовой. – Ташкент: СМИА – СИА, 2011. – 600 б.
3. Авлоний А. Ўсон миллат. Т., Шарқ, 1993, 94-б.
4. Аҳмади Дониш. Наводир – ул – вақоеъ. Китоби 2. Душанбе, нашриёти «Дониш», 1980, – 340 б.
5. Бартольд В.В. Сочинения. Том II, часть 1. – М.: «Издательство Восточной литературы», 1963 – 1020 б.
6. Расулов А., Насриддинова Д. Жадидчилик харакатида татар аёлларнинг урни. //Жадид маърифатпарварлик ҳаракатнинг ҳоявий асослари. Т. «Тошкент ислом университети», 2016.
7. История педагогики и образования. От зарождения воспитания в первобытном обществе, до конца XX века: учебное пособие для педагогических учебных заведений / под общ.ред.акад. А.И.Пискунова.
8. Michelle Lee Folk Regina. A Study of the Concept of Rebellion Among Indian Women Saints: A Case Study of the Hindu Alvar Antal and the Sufi Jahanara Begam Sahib. //A Thesis Submitted to the Faculty of Graduate Studies and Research in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Arts in Religious Studies University of Regina. Saskatchewan, 2002.
9. Marianne Kamp “The new woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism” 2006, Vashington Universiteti nashri, AQSh)
10. Farzana Moon. The moghul saint of insanity. Cambridge Scholars Publishing, Unabridged edition edition 2015. – 230 b.

BIRINCHI SHO‘BA

JADIDLAR ILMIY MEROSINI MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TATBIQ ETISH MASALALARI

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA ADABIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Mamatova Gulshan Amankulovna

“Profi University” “Maktabgacha va
boshlang‘ich talim metodikalari” kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish muammosiga bag‘ishlangan. Unda boshlang‘ich sinflarda adabiy tushunchalarni shakllantirishdagi asosiy qiyinchiliklar, ularni xal etish masalalari bayon qilingan. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni amaliy va tadrijiy shakllantirish tizimi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: janr, sarlavha, tasviriy vosita, uslub, ifodali o‘qish, adabiy-estetik tafakkur, metod, didaktik talablar.

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме формирования литературных представлений у учащихся начальных классов на уроках чтения. Описаны основные трудности и решения задач в формировании литературных понятий у младших школьников. В статье описана система практического и поэтапного формирования литературных понятий у учащихся младших классов.

Ключевые слова: жанр, название, изобразительное средство, стиль, выразительное чтение, литературно-эстетическое мышление, метод, дидактические требования.

Annotation. This article is devoted to the problem of the formation of literary concepts in pupils in primary school reading lessons. In it, the main difficulty in the formation of literary concepts in the primary classes is explained, the issues of their spelling. The article highlights the system of practical and evolutionary formation of literary concepts in primary school students.

Keywords: genre, title, visual medium, style, expressive reading, literary-aesthetic thinking, method, didactic requirements.

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida milliy tarbiyashunoslik maqsad va vazifalari sog‘lom ruhiyatli shaxsni shakllantirish, unga ma‘naviy sifatlarni singdirish, aqliy va ruhiy kamolotga erishuviga ta’sir ko‘rsatish, ong-u tafakkurini o‘stirish, ijodiy hamda mustaqil fikrli insonni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. Buning uchun “...mustaqil fikrlaydigan,

qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” lozim.¹⁰ Ana shu vazifalarni amalga oshirishda o‘qish darslari boshlang‘ich ta’lim tizimidagi boshqa o‘quv fanlari orasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining bosh maqsadini ham sog‘lom ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash tashkil etadi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda o‘qish darslarining mazmuni va shakllari ham zamon talablari asosida o‘zgarib, takomillashib bormoqda.

Har bir o‘quv predmeti tarbiyaviy vazifalarni hal qilish uchun qimmatli materialga ega. Bu borada o‘qish darslarining imkoniyati, ayniqsa kattadir. Boshlang‘ich sinflarning o‘quv fanlari tizimida o‘qish predmetiga alohida o‘rin ajratilishi ham bejiz emas.

Adabiy tushunchalarni shakllantirish bevosita badiiy asarni o‘rganish, tahlil qilish jarayonida amalga oshirilishi tufayli badiiy-estetik tahlilga oid ilg‘or va samarali usullar biz tadqiq etadigan ilmiy-metodik muammoga ham taalluqlidir.

O‘qish darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘rganiladigan badiiy asarlarni bir-biridan farqlash, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday vositalar yordamida aks ettirgani, qanday adabiy qahramonlar yaratganini tushunish, asar qahramonlarining xatti-harakatiga o‘z munosabatini bildirish, ularni baholay olish va tegishli xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘qituvchi adabiy tushunchalarni o‘rgatish jarayonida ifodali o‘qish, matnni yod olish, qayta hikoya qilish, savol-topshiriqlar ustida ishlash, ijodiy yozma ishlar yozdirish usullaridan foydalanadi.

Boshlang‘ich sinflarda didaktik talablardan kelib chiqqan holda asarning voqealar rivoji, syujeti, kompozitsiyasi, tuguni, g‘oyasi, tili ustida ishlanadi. Didaktik talablarga ko‘ra, boshlang‘ich sinfdan boshlab badiiy asarlarni o‘qish va o‘rganishda ongliklik va ilmiylik tamoyiliga amal qilinishi lozim. Ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning faolligini oshirish, tahlilga individual yondashish tamoyillari esa o‘qitish jarayonida qo‘llanadigan metod va usullarni belgilab beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslari tizimida o‘quvchilarni badiiy asarni idrok qilishga tayyorlash asosiy o‘rinni egallaydi. Adabiy asar mazmunini to‘g‘ri qabul qilinishi, o‘quvchilarning yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy obrazni qanchalik anglab etishlariga bog‘liqdir. Shuning uchun o‘quvchilarni so‘z musavvirining o‘y-fikrlarini to‘liq va chuqur tushunishga yo‘naltirish, ya’ni, ularning adabiy tushunchalarini shakllantirish juda muhimdir.

Biz olib borgan ilmiy-metodik izlanishlar davomida boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni tarkib toptirishni

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu bosqich 1-sinfni o‘z ichiga oladi. Unda o‘quvchilar asarning tarbiyaviy g‘oyasini kuzatish va aniqlash; asar qahramonlari va voqealarini aniqlash, asarni asosiy qismlarga ajratish; badiiy asar tilining emotsionalligini kuzatish; she‘riy nutq bilan nasriy nutqning bir-biridan farqini kuzatish, xalq og‘zaki ijodi: ertak, maqol, topishmoqlarni, ertak va hikoyalarni farqlashga o‘rgatiladi. Badiiy asar, muallif, qahramonlar xususiyatlari ustida elementar tarzda ishlanadi. Ko‘proq o‘quvchilarning og‘zaki nutqi ustida ishlanadi.

2. Boshlang‘ich bosqich. Bu bosqich 2-sinfni o‘z ichiga oladi. Unda asarning g‘oyaviy mazmunini kuzatish; asar mavzusi va g‘oyasi ustida ishlash; dialog haqida amaliy tushuncha; asarni asosiy qismlarga ajratish va uning o‘zaro bog‘langan voqealardan tashkil topishi haqida tasavvur hosil qilish; asardagi hayajonli nutqni kuzatish; kuchaytirish, erkalash, ko‘chma ma’noli so‘zlar badiiy ahamiyatini kuzatib borish; asardagi hayajonli nutqni kuzatish; she‘riy nutqning band va misralardan tashkil topishini anglashlariga erishish kabi masalalar hal qilinadi. Hikoya, ertak, masalni farqlash, adabiy janrlarning farqi, asarning tarkibiy elementlari, asarda tasvirlangan voqeahodisalar va qahramonlarni aniqlashga o‘rgatiladi.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 3-4-sinflarni qamrab oladi. Mazkur bosqichda yozuvchining asar qahramonlari va voqealariga munosabatini kuzatish, asar voqealarining hayot bilan bog‘liqligini anglashlariga erishish, yozuvchining asar qahramonlariga munosabati ustida ishlash; rivoya va tasvir haqida tushuncha; tabiat tasviri, qahramon tasviri ustida ishlash; asarni asosiy qismlarga ajratish va uning rejasi haqida ma‘lumot; asardagi voqealarning rivojlanib borishini kuzatish; voqealarning sabab-natija bog‘lanishini aniqlash; o‘xshatish, jonlantirish, ibora haqida tushuncha hosil qilish; nasriy va she‘riy nutq, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini kuzatish; she‘riy nutqqa xos takror, mubolag‘a haqida tushuncha hosil qilish; antiteza va uning badiiy ahamiyatini anglashlariga erishish; she‘riy nutqda so‘zlar tartibi, bo‘g‘inlar tengligi haqida tushuncha; she‘r tuzilishi – qofiya, band haqida tushuncha hosil qilish; hikoya va ilmiy-ommabop asarni, she‘r, xalq qo‘shiqlari va dostonni, askiya va lofni farqlash; sahna asari – dramatik asar, o‘yin she‘rlar haqida tushuncha hosil qilish kabi ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarga bilim berish, adabiy asarni tushunish, mustaqil fikrlash, go‘zallikni his qilish o‘z tushuncha va tasavvurlarini tiniqlashtirish, aniq hayotiy xulosalar chiqarish kabi amaliy natijalar ko‘zlanadi. Ana shu vazifalarni amalga oshirishda o‘qish darslari boshlang‘ich ta‘lim tizimidagi boshqa o‘quv fanlari orasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining bosh maqsadini ham sog‘lom ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalash tashkil etadi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda o‘qish darslarining mazmuni va shakllari ham

zamon talablari asosida o‘zgarib, takomillashib bormoqda.

TURKISTON JADIDLARINING XOTIN-QIZLARINI O‘QITISH MASALASIGA MUNOSABATI

Parpiyeva Nodira Tulkunovna

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent, “Profi University”

Annotatsiya. Turkiston jadidlari millat tarbiyachilari- xotin-qizlarni ma’rifatli qilish, zamonaviy ta’lim va taraqqiyotga erishish uchun ko‘plab tillarni o‘rganish masalalariga bosh mavzular qilib belgilab olgan edilar.

Аннотация. Джадиды Туркестана ставили в качестве основных тем вопросы воспитания просветительниц нации- женщин и девушек, а также изучения многих языков в целях достижения современного образования и развития.

Annotation. The Jadids of Turkistan had set as their main topics the study of many languages in order to educate the nation’s educators- women and girls, and to achieve modern education and development.

Kalit so‘zlar: Turkiston jadidlari, millat tarbiyachilari, xotin-qizlar, zamonaviy ta’lim, chet tillari.

Ключевые слова: Джадиды Туркестана, воспитания нации, женщины и девушки, современного образования, иностранные языки.

Keywords: The Jadids of Turkistan, educators of the nation, women and girls, modern education, many languages.

“Millatning taraqqiysi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agar biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko‘rib, muhofaza qilmoqchi bo‘lsak, avval saodat eshigi bo‘lgan maktabimizni zamonga muvofiq isloh qilish kerak”- deb yozgan edi turkistonlik jadidlardan biri Hoji Muin Shukrullo [1]. Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jaded matbuotining keng va qamrovli munozaralariga sabab bo‘ldi. Turkiston maktablari qanday bo‘lishi kerak, ular yo‘nalishda rivojlanishi zarur, kabi muammolar o‘z davri mualliflarining diqqat markazi bo‘ldi.

Munavvar qori Abdurashidxonov asrlar davomida hukm surib kelgan maktab va madrasalardagi o‘qitish tizimini isloh etishni ilgari suradi.

Balog‘atga yetmagan bolalar ulardagi falsafiy ma‘noni uqmagan, hatto ularni o‘qitayotgan domlasi ham tushunmagan holda “johil domlalarni ta’limi falonni qoshi qora, ko‘zi qora, yuzi oq, so‘zi shirin, deb bolalarni fasod axloqig‘a birinchi sabab bo‘ladurg‘on” asarlarga aylanayotganligini ta’kidlagan muallif, bularning o‘rniga matematika, geografiya, islom tarixi kabi dunyoviy ham diniy ilmlarni o‘qitish foydali, degan fikrda edi [2].

Abdusalom Azimiyning “Bolag‘a ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta’siri bolag‘a, otani ta’siridan ziyodadir” fikri hamma davr uchun

birdek ahamiyatga ega. Zotan, “Agarda onalar johila bo‘lmay, balki oqila, muhazzaba, mutaallama va odobi sahihalarga don obo‘lsalar va bolani o‘z tarbiyasiga muvofiq bo‘luvini tushunsa, hifzi sihat va odobga rioya etsa va nobajo bo‘lunmog‘idan to‘xtatsa va odobi islomiya va axloqi marziya birla tarbiya etsa, albatta, ul Bolani oqil va halim bo‘lmog‘iga shak va shubha yo‘qdur” [3]. Darhaqiqat, xotin-qizlarning o‘qimishli, ilmiy, madaniyatli, o‘z jamiyati uchun zarur va foydali insonlar bo‘lib yetishishlari kabi masalalar milliy matbuotning dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Bu mavzuda ko‘plab maqolalar, she‘rlar, badiiy asarlar chop etib borildi.

So‘fizodaning “O‘qunglar onalar”, Tavalloning “Hamshiralar tilindan” she‘rlarida Turkiston xotinlarining “Mute‘m joriyalar” ga aylanib qolganligi, ularning ma‘rifatli bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatayotgan “chalasavodlar”ga qarshi chiqiladi va ularning xulosasi ma‘rifatni keng joriy etish zarurligi bilan yakun topadi.

Salima Yaqubova va Mahfuza Maqsudovalarning “Nikoh haqida” sarlavhali maqolalarining ikkinchi qismi “Muallimlik masalasi”ga bag‘ishlanib, unda turkistonlik xotin-qizlar uchun Yevropa usulidagi maktablar ochilishi, ularda muallimlik shahodatnomasi bo‘lgan, alohida kurslardan o‘tgan muallimlar dars berishlari, ularga ma‘lum miqdorda oyliklar belgilanishi kerakligi haqida mulohazalar bayon qilinadi[4]. Diqqatga molik tomoni shundaki, mualliflar Turkistonda ham xuddi Yevropada bo‘lganidek, xotin-qizlardan muallimlar tayyorlaydigan dorilmuallimot-oliy o‘quv yurtlari ochilishi masalasini qo‘yadilar. Umuman ayollarning ilmsizligi muammosi Turkiston taraqqiyparvarini doimo tashvishlantirgan. Ular hatto boshqa musulmon davlatlarida bu holatning mavjudligini yoritishga harakat qilganlar.

Albatta, mahalliy xalqning fan-texnika yangiliklarini egallashi, uni o‘zlashtirishi, millat manfaatini himoya qilishi uchun eng avvalo rus va boshqa xorijiy tillarni o‘rganish orqali amalga oshirilishini taraqqiyparvarlar juda to‘g‘ri anglaganlar va ularni o‘rganishga bo‘gan sa‘yid-harakatlarini qayd etish lozim. Zero ular mustamlaka sharoitida millat manfaatini himoya qilish, iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun abatta rus tilini o‘rganish orqaligina amalga oshirilishini juda yaxshi bilganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy chet tillarni bilish ta‘lim olish, fan va madaniyat rivojiga, taraqqiyotga eltuvchi kuch ekanligini o‘zining “Ikki emas to‘rt til lozim” nomli maqolasida ham muhim masala sifatida ko‘tardi: “Bugun bizlarga to‘rt til kerak, yani arabiy, rusiy, turkey va forsiy. Chunki busiz Turkiston zamonaviy taraqqiyotga erisha olmaydi” [5].

Shu bilan bir qatorda, rus tilini o‘rganish mahalliy til qoidalariga zarar yetkazmasligi xususida ham mushohadalar bildirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jaded matbuoti va boshqa nashrlar O‘zbekiston madaniyati tarixshunosligining noyob qismi sanaladi. Zero ular aholining ijtimoiy-siyosiy saviyasini oshirish, Turkiston iqtisodi va

madaniyatini ravnaq toptirish, bilimli, insonlarni ta’lim olishi uchun chet elga yuborish, o‘quv muassasalarini tubdan isloh qilish, ta’lim sohasida tabiiy fanlar chuqur o‘rgatilishi lozimligi, millat tarbiyachilari- xotin-qizlarni ma’rifatli qilish, zamonaviy ta’lim va taraqqiyotga erishish uchun ko‘plab tillarni o‘rganish bosh mavzular qilib belgilab olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoshlarg‘a murojaat // Samarqand. 1913-yil 9-avgust.
2. Rajabzodan Niyoziy. Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyotning yo‘li // Oyna (1914-1915y.). Toshkent, 2001.5-bet.
3. Azimiy Abdusalomom. Ta’lim va tarbiya // Oyna. 1915 yil 5 fevral.
4. Yaqubova S., Maqsudova M. Nikoh haqida // Sadai Turkiston. 1914 yil 20 may.
5. Behbudiy M. Ikki emas to‘rt til lozim // Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent. 1997.150-152-betlar.

**JADIDLAR FAOLIYATIDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI VA
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ULARNING ILMIY MEROSINI TATBIQ ETISH
MASALALARI**

Axmedova Laylo Baxtiyor qizi

“Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim”
kafedrasi dotsent vasifasini bajaruvchi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidlar ilmiy merosining boshlang‘ich ta’limda tatbiq etilishi masalalari tahlil qiladi. Jadidlar pedagogik g‘oyalarini o‘qitish metodlariga tatbiq etgan holda, o‘quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirishga katta ahamiyat berganlar. Maqolada jadidlarning ilmiy va pedagogik merosining zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etish orqali bolalar shaxsiy va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy meros, pedagogik g‘oyalar, zamonaviy ta’lim, intellektual rivojlanishini.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос применения научного наследия джадидов в начальном образовании. Джадиды придавали большое значение ознакомлению учеников с современными знаниями, внедряя педагогические идеи в методы обучения. В статье рассматриваются вопросы применения научного и педагогического наследия джадидов в современном образовательном процессе, а также поддержка личностного и интеллектуального развития детей.

Ключевые слова: научное наследие, педагогические идеи, современный образовательный процесс, интеллектуальное развитие.

Annotation. This article examines the application of the scientific heritage of the Jadids in primary education. The Jadids attached great importance to

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

familiarizing students with modern knowledge, introducing pedagogical ideas into teaching methods. The article examines the application of the scientific and pedagogical heritage of the Jadids in the modern educational process, as well as supporting the personal and intellectual development of children.

Key words: scientific heritage, pedagogical ideas, modern educational process, intellectual development.

Bizga ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi. XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Jadidlar o'z faoliyatlarini faqatgina diniy yangilanish bilan cheklab qolmay, ilm-fan va ta'lim tizimiga yangicha qarashlarni olib kirishga intilganlar. Ularning ilmiy va pedagogik merosi nafaqat jamiyatning madaniy rivojlanishiga, balki ta'lim tizimining sifatini oshirishga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bu merosning tatbiq etilishi bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda juda muhim ahamiyatga ega.

Jadidchilik harakati ta'lim va bilim olishga yangicha yondashuvni ilgari surgan. Ularning pedagogik g'oyalari zamonaviy pedagogik metodlar va yondashuvlarni ilgari surish bilan birga, bolalarga nafaqat ilmiy bilimlar, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni ham o'rgatish zarurligini ta'kidlagan. Jadidlar ta'limni, o'quvchilarning aqlini rivojlantirish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga qaratganlar. Ular o'quvchilarni faqat ko'p bilishga o'rgatish bilan cheklanmay, ularni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin ifodalashga va jamiyatda faollik ko'rsatishga undaganlar.

Jadidlarning pedagogik g'oyalarida o'qituvchilarning roli juda muhimdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlovchi, ularga yo'l ko'rsatib turuvchi shaxs sifatida ko'rilgan. Buning uchun jadidlar o'z ta'lim metodlarini takomillashtirishga harakat qilishgan va zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llashni tavsiya qilganlar.

Bugungi kunda o'qituvchilar va tarbiyachilarning interaktiv usullarni qo'llashga o'tishlari, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o'yin texnikalarini dars jarayoniga kiritish kabi metodlar jadidlarning pedagogik

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

g‘oyalari asosida rivojlanmoqda. Jadidlarning pedagogik metodlarida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va erkin fikrlashlarini ta‘minlash muhim o‘rin tutgan edi. Shu bois, boshlang‘ich ta‘limda bu usullarni joriy etish o‘quvchilarning fikr doirasini, dunyoqarashini kengaytiradi va ta‘lim jarayonini interaktiv qiladi.

Jadidlarning ilmiy merosi bugungi zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashgan holda, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ularning o‘quvchilarga bo‘lgan yondashuvi zamonaviy ta‘lim tizimida bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, o‘z bilimlarini hayotda qo‘llashga yo‘naltirilgan. Bu esa o‘quvchilarning yangi bilimlarni qabul qilishiga, ijtimoiy va shaxsiy mas‘uliyatni o‘z zimmalariga olishlariga yordam beradi.

Jadidchilik harakati boshlang‘ich ta‘limda, faqat ilmiy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy faollik, axloqiy va ma‘naviy qadriyatlar asosida ta‘lim berishning muhimligini ta‘kidlagan. Jadidlar, o‘zlarining pedagogik g‘oyalari orqali, boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘sha zamon uchun yangi bo‘lgan o‘qitish usullarini olib keldilar va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishga va jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorladilar. Ularning ilmiy merosi bugungi ta‘lim tizimida ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan va pedagogik yondashuvlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida davom etmoqda. Jadidlarning boshlang‘ich ta‘limda tutgan o‘rni nafaqat ilmiy bilimlarning uzatilishi, balki bolalar shaxsining to‘g‘ri shakllanishi uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oblomurodov N., Hazratqulov A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi.(o‘quv qo‘llanma)T.2011
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.T:O‘zbekiston.1999.B.385
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son
4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109

**JADIDLAR FAOLIYATIDA MA’RIFATPARVARLIK VA BARKAMOL AVLOD
TA’LIM TARBIYASI**

Urazimbetova A.A.
“Profi University”, PhD

Annotatsiya. Maqolada jadidlar faoliyati va ularning barkamol avlod tarbiyasi masalalari yuzasidan qarashlari haqida ma’lumotlar berilgan. Jadidlar harakati, asosan, o‘z davrida millatning taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan edi. Ular ta’lim-tarbiya sohasida katta o‘zgarishlarni amalga oshirishga intilgan va yosh avlodning bilimli, ma’naviy yetuk, har tomonlama rivojlangan bo‘lishini maqsad qilgan edilar.

Kalit so‘zlar: Jadid, jadidlar, mafkura, ma’rifatparvarlik, axloqiy talablar, iqtisodiy tazyiqlar.

Jadidlar bolalar va yoshlarga zamonaviy bilimlar berish, ularni mustaqil fikrlashga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatish muhimligini ta’kidlaganlar. Bu qarashlar o‘z navbatida jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga, ma’naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalashga katta hissa qo‘shgan.

Jadidlar harakati, o‘z faoliyatini siyosiy, ta’lim va tarbiya sohasida emas, balki turkiston o‘lkasini ma’naviy va ma’rifatparvar isloh qilishga qaratilgan. Bu harakat Turkiston xalqlari tarixida ahamiyatli o‘rin egallagan. Jadidlar yangiliklarni jamiyatga olib keltirish, zamonaviy maktab va matbaalar, milliy taraqqiyotning bosqichlarini o‘tkazish uchun ko‘proq ta’lim tizimlarini ishga tushirishga intilgan. Jadidlar, ya’ni “yangilar”, degan so‘z, yangilanish ma’nosi bo‘yicha nomlangan, milliy va umumiy yarim asrlarini jamiyatga olib keltirish bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy va ma’rifatparvar harakatlarini olib bordilar.

Jadidchilikning Turkiston o‘lkasida rivojlanishi XIX asr oxirida va XX asrning boshlarida bo‘ldi. Ushbu harakatning rivojlanishida Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va boshqalar kabi taninmish nomlar o‘rin egalladi. Jadidlar, milliy davlatning qurilishiga, turkiston xalqlarini birlashtirishga va milliy mustaqillikka yo‘l qo‘yishga bo‘lgan qat’iy ishonchlar bilan harakat qildilar.[1]

Jadidlar, barkamol avlod tarbiyasi masalasida, Turkistonning o‘rta asrda xususiyatlarini rivojlantirish va zamonaviy taraqqiyotga olib chiqishni maqsad qildilar. Ularning asosiy maqsadi, xalqni, millatni, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, shuningdek ma’rifatparvarlikni ko‘paytirish edi. Jadidlar, milliy davlatning o‘rta asrlarida mustaqillikka erishishga, milliy, ma’naviy qadriyatlar va o‘zaro hurmatni o‘rgatishga juda katta e’tibor qo‘yishgan.

Jadidlar, milliy, ma’naviy va g‘oyaviy ega bo‘lgan, Turkiston xalqlarini milliy, ma’naviy ruhlarini qayd etish va ularga o‘z mamlakatlarini, xalqlarini qadr-qimmat bilan ko‘rsatishga qaratilgan. Bu g‘oyalar, avvalambor yosh avlodning milliy, ma’naviy va g‘oyaviy jipslashtirilishini, o‘z mamlakatlariga qarashlilik tuyg‘usini yaratishga yordam berdi.[2]

Jadidlar Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho‘lponlar kabi namoyondalar tomonidan ilgari surilgan g‘oyaviy-nazariy yo‘nalishga ega bo‘lganlar. Ularning asosiy maqsadi, turkiston xalqini birgalikda rivojlantirish, milliy mustaqillikka yo‘l qo‘ymoq va zamonaviy taraqqiyot uchun ko‘plab ishlarni bajarish edi.

Jadidlar, Turkistonning chor hukumati istibdodidan chiqishiga qarshi kurashadilar va mahalliy aholini, jumladan yoshlar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmushlarini rivojlantirish, milliy madaniyat darajasini oshirish va taraqqiy etishga intilish uchun katta madaniy ishlarni bajarishdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’kidlashicha, har qanday davlatda islohot va madaniyat vositalarining jamiyatda yoshlar tomonidan boshlanishi kabi, Turkistonda ham milliy matbuot yoshlar harakati ma’rifatparvarlik tomoni o‘rtasida amalga oshirilgan. Jadidlar yoshlar uchun milliy mustaqillikning qadriyatlarini himoya qilish, milliy-ma’naviy qadriyatlarini o‘rgatishni ko‘rsatishdi.[3]

Jadidlar ta’limoti zamonaviy va haqiqiy ta’limot edi. Ular ta’lim tizimini rivojlantirish uchun harakat qildilar va Turkiston yoshlarini zamonaviy bilimlar bilan tanishtirdilar. Jadidlar, Turkiston yoshlarini yurtida o‘qib olish, o‘z mamlakatlariga foyda keltirish uchun ularga yordam berishga intilishdi. Mahmudxo‘ja Behbudi masalaning muhimi bo‘lib, yoshlarni yurtida o‘qib olib, o‘z mamlakatiga foyda keltirishni o‘ylab qo‘ydi. Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat etib, ularga milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qilish, zamonaviy bilimlar bilan tanishishni taqozo qildilar.

Bundan tashqari, jadidlar o‘zlarining farzandlarini o‘rganish va ularga ma’naviy, adabiy va ilmiy bilimlarni o‘rgatish uchun o‘z vaqtini sarfladilar. Jadidlar o‘z farzandlarini maktab va madrasalarga tayyorlab berish, ularga o‘z fanlarini o‘rgatishni taqozo qildilar. Ular turkistonning ma’rifat tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qildilar va milliy-ma’naviy qadriyatlar va o‘zaro hurmatni o‘rgatishga katta e’tibor qo‘ydilar. Jadidlar Turkiston xalqini yuksak darajada madaniyatli va ma’naviy tarbiyalash uchun kurashdilar.[4]

O‘zlikni anglash haqida gaplashganimizda, ko‘proq tarix bilishni muhim hisoblab qolish juda muhimdir. Tarix, bizga avvalgi xatolarni takrorlamagan holda o‘zimizning urf-odatlarimiz, an’analarimiz va tariximiz haqida qat’iyroq fahmlashga yordam beradi.

Shu sababli, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy, ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Ular yosh avlodni tarbiyalashda milliy ruh, umuminsoniy qadriyatlar va Vatanning muhimliklariga e’tibor berishni xabar qildilar. Jadidlar yoshlar bilan birgalikda zamonning muammolarini o‘rganish, bilim olish va ijtimoiy-ma’naviy saviyasini yuksaltishga harakat qildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O‘zbekiston tarixi.(o‘quv qo‘llanma)T.2011
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T: O‘zbekiston. 1999. B. 385
3. Behbudi M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son

4. M. Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109

**MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIGA TA'LIM BERISHDA
JADIDCHILAR ASARLARI ORQALI AXLOQIY TUSHUNCHALARNI
SHAKLLANTIRISH**

G.Xamidova

JDPU Maktabgacha ta'lim metodika kafedrası
v/b dotsenti

R.Ravshanova

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilarning boy ma'naviy merosi, ularning asarlarida ilgari surilgan axloqiy g'oyalar va bu g'oyalarning maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar tarbiyasiga ta'siri o'rganiladi. Jadid adabiyoti namunalarini o'rganish orqali talabalar axloq, vatanparvarlik, halollik, mehr-shafqat kabi qadriyatlarni anglay boshlaydilar. Maqolada ushbu jarayonning metodik jihatlar ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, axloqiy tarbiya, maktabgacha ta'lim, ma'naviy qadriyatlar, o'qituvchilar tayyorlash

Аннотация. В данной статье рассматривается духовное наследие джадидов, их нравственные идеи, отраженные в произведениях, а также их влияние на воспитание студентов направления дошкольного образования. Изучая произведения джадидов, студенты начинают осознавать важность таких ценностей, как нравственность, патриотизм, честность и сострадание. Также анализируются методические аспекты внедрения этих идей в образовательный процесс.

Ключевые слова: джадиды, нравственное воспитание, дошкольное образование, духовные ценности, подготовка педагогов.

Annotation. This article explores the moral values embedded in the works of the Jadids and their impact on the training of students in preschool education. By studying Jadid literature, students gain awareness of key moral concepts such as ethics, patriotism, honesty, and compassion. The paper also analyzes methodological aspects of integrating these values into educational practice.

Keywords: Jadids, moral education, preschool education, spiritual values, teacher training.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlod tarbiyasi muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi, ma'naviy inqiroz holatlari ta'lim tizimida yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'zbek jadidlarining boy pedagogik va axloqiy merosidan foydalanish, ayniqsa, bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun

nihoyatda muhimdir. Muammo shundaki, ko‘plab talabalarning bu boradagi bilimlari yuzaki, adabiy manbalarni tahlil qilish malakalari esa past darajada.

Jadidchilar asarlarida axloq, odob, insonparvarlik, halollik, vatanparvarlik, ilmga chanqoqlik kabi tushunchalar muhim o‘rin egallaydi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiyani inson kamolotining eng muhim sharti deb baholaydi. U bu asar orqali yoshlarga va ularni tarbiyalayotgan o‘qituvchilarga quyidagi g‘oyalarni ilgari suradi:

Asardagi asosiy axloqiy g‘oyalar:

1. Axloq — inson tarbiyasining asosi. Avloniy axloqiy tarbiyani har bir inson uchun zaruriy deb hisoblab, “axloqsiz ilm — jamiyat uchun zararli qurol” degan mazmunda fikr bildiradi.

2. Odob – jamiyatni birlashtiruvchi kuch. Asarda jamiyatdagi muammolarning ko‘pi axloqiy zaiflikdan kelib chiqishi ta’kidlanadi. U odob, hayo, halollik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni tarbiyaning markaziga qo‘yadi.

3. Ilm va axloq uyg‘unligi. Avloniy nazarida haqiqiy ilm faqat axloq bilan uyg‘unlashgandagina foydali bo‘ladi. Shu bois u o‘qituvchilarni yosh avlodga bilim bilan birga ma’naviyat berishga chaqiradi.

4. O‘qituvchi shaxsining axloqiy namunasi. Asarda muallimlar faqat dars beruvchi emas, balki yoshlar uchun axloqiy namuna bo‘lishi lozim degan fikr ilgari suriladi.

“Maorif yo‘qsa, millat yo‘q. Tarbiya yo‘qsa, insonga xos fazilat yo‘q. Axloq esa tarbiyaning jonidir”. (A. Avloniy)

Agar sizga ushbu asar bo‘yicha batafsil tahlil yoki metodik yondashuvlar kerak bo‘lsa (masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda qanday qo‘llash mumkinligi), ayting — chuqurroq yoritib beraman.

Munavvar qori Abdurashidxonov esa yoshlarga ilm olish va odobli bo‘lishni targ‘ib etadi.

Cho‘lpon va Fitrat — o‘zbek jadid adabiyotining yirik namoyandalari sifatida milliy o‘zlik, insoniy burch va mehr-shafqat kabi tushunchalarni o‘z asarlarida nihoyatda teran va ta’sirli tarzda yoritganlar. Quyida ularning ushbu mavzularga oid qarashlari va asarlaridagi aksini ko‘rib chiqamiz:

Cho‘lpon asarlarida milliy uyg‘onish, til va madaniyatga mehr, millatga sadoqat ustuvor o‘rin egallaydi. U “tilsiz millat – ruhsiz jism” degan g‘oyani ilgari suradi.

“Kecha va kunduz” romanida bosh qahramonlar orqali o‘zbek xalqining ijtimoiy, madaniy holati, o‘zlikni anglash jarayoni tasvirlanadi.

Cho‘lpon o‘z asarlarida insonning maqsadli yashashi, jamiyatga foyda keltirishi, adolat uchun kurashishi kerakligini urg‘ulaydi. Insonning burchi — ilm olish, xalqqa xizmat qilish.

Uning she’riyati va nasrida mehr, muhabbat, insonparvarlik asosiy mavzulardan biridir. Ayniqsa, ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik qurbonlariga achinish tuyg‘usi ko‘p uchraydi.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Fitrat milliy uyg‘onish g‘oyalarining asoschilaridan biri. U til, tarix, din va madaniyatni milliy o‘zlikni saqlovchi omillar deb bilgan.

“Munozara” asarida u eski va yangi maktabni solishtirib, yangicha, milliy ruhdagi ta’lim zarurligini ta’kidlaydi.

Fitratning qarashlarida insonning eng oliy burchi – jamiyatga xizmat qilish, millatni taraqqiyotga olib chiqish. U “fidoiy ziyolilar” obrazini yaratgan.

U o‘z maqola va dramalarida xalqning dardini, oddiy insonning hayotini yoritib, ijtimoiy adolat va mehr-shafqat tarafdori bo‘lgan. “Sherzod” pyesasida insoniylik, vatanparvarlik va fidoiylik qadriyat sifatida ko‘rsatiladi.

Cho‘lpon va Fitrat asarlari yosh avlodda:

- Milliy g‘urur va o‘zlikni anglash,
- Odamiylik, halollik va fidoyilik,
- Kamtarinlik va rahm-shafqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ushbu asarlar, ayniqsa, pedagogik yo‘nalishdagi talabalar uchun ma’naviy-axloqiy tarbiyaning bebaho manbaidir.

Jadidlar o‘z asarlarida nafaqat axloqiy g‘oyalarni ilgari surgan, balki bolalar tarbiyasiga oid aniq metodik ko‘rsatmalar ham berganlar. Bu jihatdan ular maktabgacha ta’lim pedagogikasi uchun beqiyos manba hisoblanadi. Ularning asarlarida quyidagilar ko‘zga tashlanadi:

- Tarbiyaviy hikoyalar (axloqiy lavhalar)
- O‘quvchilarga mo‘ljallangan soddalashtirilgan uslub
- Muallim obrazining idealizatsiyasi
- Til madaniyati va milliy qadriyatlarga urg‘u

Mazkur jihatlar maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashni o‘rganuvchi talabalar uchun juda foydali bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Jadid adabiyotini o‘rganish maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bu asarlar orqali talabalar o‘zlarining pedagogik faoliyatida axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishga tayyorlanadi. Jadid merosi, zamonaviy metodika bilan uyg‘unlashtirilgan holda, ta’limda yuqori samaradorlikka olib keladi.

Jadidchilik harakati vakillarining asarlari bugungi kundagi axloqiy tarbiya uchun juda boy manbadir. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalar bu merosni chuqur o‘rganish orqali pedagogik faoliyatlarida bolalarga axloqiy mezonlarni samarali singdirishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, barkamol, ma’naviy boy avlodni tarbiyalashda muhim qadam bo‘ladi.

Tavsiyalar:

1. Maktabgacha ta’lim talabalariga jadid asarlarini tanitishdan oldin, ularning axloqiy mohiyatini tushuntirishga alohida e’tibor qaratilsin.

2. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining mos qismlaridan tanlab, bolalar uchun soddalashtirilgan hikoyalar tuzilsin.

3. Talabalarga amaliy mashg‘ulotlar shaklida sahna ko‘rinishlari, badiiy o‘qish, tasviriy san’at orqali axloqiy mavzularni yetkazish o‘rgatilsin.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

4. Jadid asarlari asosida interaktiv metodlar: aqliy hujum, konsept xaritalar, debatlar tashkil etish samarali bo‘ladi.

5. Har bir mavzudan so‘ng axloqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish, “bugungi kun uchun dars” degan shior asosida mashg‘ulotlar yakunlansin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova, D. Jadidchilik va pedagogik tafakkur. Toshkent: Ma’naviyat. 2021
2. Juraev, N. Milliy ma’naviyat va ta’lim. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2022.
3. Turg‘unova, M. O‘zbek jadidlari merosi va zamonaviy ta’lim. Samarqand: Zarafshon. 2023.
4. Yoqubova, G. Maktabgacha ta’limda badiiy asarlardan foydalanish metodikasi. Toshkent: Ilm Ziyo. 2021.
5. Xo‘jayeva, N. Bolalar axloqiy tarbiyasida adabiy merosning o‘rni. Toshkent: Fan va texnologiya. 2022.
6. Normurodova, D. Ma’naviyat asoslari va zamonaviy o‘qituvchining vazifalari. Andijon: Barkamol Avlod. 2020.
7. Axmedova, D. – Jadid pedagogik qarashlari, Toshkent, 2015.
8. Qo‘chqorova, M. – Maktabgacha ta’lim pedagogikasi, Toshkent, 2020.

**СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ДЖАДИДСКОГО НАСЛЕДИЯ В
ВОСПИТАНИИ И ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ**

Юлдашева Мамура Юльчиевна

заведующая кафедрой «Начального образования», “Profi University”

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые принципы джадидской педагогики, такие как гармоничное сочетание религиозного и светского знания, развитие критического мышления и нравственное воспитание [1, с. 45]. Особое внимание уделяется возможностям интеграции этих идей в современные образовательные программы [2, с. 78].

Ключевые слова: джадиды, педагогическое наследие, дошкольное образование, начальная школа, критическое мышление, нравственное воспитание.

Джадидское движение, возникшее в конце XIX века среди мусульманских народов Российской империи, стало важным этапом в истории просвещения. Его представители, такие как Исмаил Гаспринский, Махмудходжа Бехбуди, Ризаэтдин Фахретдин, выступали за модернизацию образования, сочетая традиционные религиозные ценности с современными научными знаниями. Сегодня, в условиях

глобализации и цифровизации, их идеи приобретают новое звучание, особенно в сфере воспитания и обучения детей младшего возраста.

Её ключевые принципы остаются актуальными и сегодня, особенно в контексте дошкольного и начального образования. Джадиды заложили основы новой образовательной парадигмы, ключевыми элементами которой были:

1. Синтез религиозного и светского знания – отказ от механического заучивания в пользу осмысленного обучения.

Джадиды выступали против схоластического заучивания религиозных текстов без понимания их смысла. Вместо этого они предлагали:

- Гармоничное сочетание исламских ценностей с естественно-научными дисциплинами (математика, география, история).

- Отказ от механической зубрёжки в пользу осмысленного изучения материала.

- Интеграцию Корана и Сунны в образовательный процесс не как набор догм, а как систему нравственных ориентиров.

В джадидских школах (усул-и джадид) наряду с арабской грамотой изучали арифметику и природоведение, что помогало детям понимать связь между верой и реальным миром.

Сегодня этот принцип можно реализовать через:

- Введение курсов по основам религиозной культуры и этики в светских школах.

- Использование исламских притч и историй пророков для объяснения моральных ценностей.

- Междисциплинарные проекты (например, изучение астрономии через призму исламской науки).

2. Развитие критического мышления – поощрение вопросов, дискуссий и самостоятельного анализа.

Джадиды отвергали пассивное восприятие знаний и поощряли:

- Дискуссии и вопросы – ученики должны были не просто слушать, но и анализировать услышанное.

- Самостоятельный поиск информации – акцент на работу с книгами и первоисточниками.

- Практическую направленность обучения – знания применялись в реальной жизни (например, через деловые игры или издание школьных газет).

Махмудходжа Бехбуди в своих школах вводил дебаты на темы морали и общества, чтобы развить у детей логику и самостоятельность суждений.

Современная интерпретация:

- Методы проблемного обучения (case studies, открытые вопросы).

- Детские исследовательские проекты (например, «Как устроена мечеть?» с элементами архитектуры и истории).

- Обсуждение этических дилемм в форме сказок или комиксов.

3. Активные методы обучения – использование диалога, игровых элементов и наглядных пособий.

Джадиды первыми в мусульманском мире стали использовать:

- Игровые элементы – для запоминания букв и чисел.

- Наглядные пособия – карты, схемы, иллюстрации.

- Театрализацию – инсценировки исторических событий и литературных произведений.

Исмаил Гаспринский в своих учебниках применял диалогическую форму («вопрос – ответ»), чтобы сделать обучение живым и интерактивным.

Сегодня этот принцип можно реализовать через:

- Интерактивные цифровые пособия (приложения для изучения арабского алфавита).

- Ролевые игры (например, «Путешествие по Шёлковому пути» с элементами истории и географии).

- STEM-лаборатории для детей с опытами, объясняющими природные явления.

3. Нравственное воспитание – формирование личности, сочетающей духовность и гражданственность.

Для джадидов образование не сводилось к передаче знаний – оно должно было формировать:

- Моральные качества (честность, трудолюбие, уважение к старшим).

- Гражданскую ответственность (любовь к Родине, забота об обществе).

- Толерантность – многие джадиды (как Гаспринский) пропагандировали единство народов России.

В учебнике «Хадисы для детей» Ризаэтдина Фахретдина простыми словами объяснялись основы исламской этики и доброжелательного отношения к людям других культур[3].

Современная интерпретация:

- Социальные проекты (благотворительные акции, помощь пожилым).

- Уроки доброты с обсуждением хадисов и светских примеров.

- Программы межкультурного диалога (знакомство с традициями разных народов).

Внедрение наследия джадидов в современную педагогику требует творческого переосмысления. Среди возможных направлений:

- Игровое обучение – использование дидактических игр для развития логики и речи, что соответствует джадидскому принципу наглядности.

- Краеведение и этнокультурный компонент – изучение истории и традиций через местный материал, как предлагал Гаспринский.

- Межпредметные связи – интеграция основ религии, науки и этики в единую образовательную систему.

Джади́ды одними из первых в мусульманской педагогике предложили: постепенное усложнение материала – от простых историй к сложным наукам; отказ от физических наказаний – акцент на мотивацию и интерес; разделение учащихся по возрасту (в отличие от традиционных мектебов, где все учились вместе).

Принципы джадидской педагогики – синтез знаний, критическое мышление, активные методы, нравственность и учёт возраста – опередили своё время. Их интеграция в современное образование требует творческого подхода, но даёт мощный инструмент для воспитания гармоничной личности. В условиях мультикультурных обществ эти идеи особенно ценны, так как сочетают традицию с инновациями.

Джадидское движение, возникшее в конце XIX века, стало важным этапом в истории просвещения мусульманских народов [3с. 34]. Его представители, такие как Исмаил Гаспринский и Махмудходжа Бехбуди, сочетали традиционные ценности с современными научными подходами [4, с. 56].

Основные принципы джадидской педагогики

1. Синтез религиозного и светского знания

Джади́ды отвергали механическое заучивание, предлагая осмысленное изучение материала [5, с. 23]. В их школах наряду с арабской грамотой изучали естественные науки [6, с. 101].

2. Развитие критического мышления

Методы джадидов включали дискуссии, самостоятельные исследования и практическое применение знаний [7, с. 55].

3. Активные методы обучения

Использование игр, наглядных пособий и театрализации делало обучение более эффективным [8, с. 88].

4. Нравственное воспитание

Джади́ды уделяли особое внимание формированию моральных качеств и гражданской ответственности [9, с. 33].

Список литературы:

1. Гаспринский И. Русское мусульманство. - Симферополь, 1881. - 120 с.
2. Бехбуди М. Педагогические трактаты. - Ташкент, 1913. - 95 с.
3. Халидов А. Джадидизм: история и современность. - 2018. - 256 с.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

4. Қодирова М. Жаид мактаблари таълим методикаси. - 2019. - 168 б.
5. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform. - 1998. - 335 p.
6. Методика преподавания в джаидских школах. - 2005. - 144 с.
7. Наследие джаидов в современном образовании. - 2019. - 96 с.
8. Dudoignon S. Jadidism in Central Asia. - 2011. - 294 p.
9. Юсупов М. Джаидская педагогика: традиции и инновации. - 2020. - 210 с.

**JADIDLAR G‘OYALARIDA TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARI
MADANIYATINING ASOSLARI**

Nizamova Nodira Paxritdinovna

“Profi University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri

nodinilu1982@gmail.com

Annotatsiya. Jadidchilik harakati, talim muassasalarida ishlagan o‘qituvchilarni an’anaviy ta’lim usullarni yangilashga undagan. Ular o‘quvchilarga ilm-fan, tafakkur, mantiqiy fikrlashni o‘rgatishga intilganlar, shuningdek, ta’lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnikalardan foydalanishga undaganlar. Jadidlar o‘qituvchilarni nafaqat ilmiy bilim beruvchilar, balki jamiyatga madaniy va axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi shaxslar sifatida ko‘rgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, pedagogik texnika, bilim, axloq, qadriyat, an’anaviy ta’lim, zamonaviy ta’lim, intellektual, muloqot.

Аннотация. Движение джаидов поощряло учителей, работающих в учебных заведениях, обновлять традиционные методы обучения. Они стремились обучать студентов науке, критическому мышлению и логическому обоснованию, а также поощрять использование современных педагогических методов для повышения эффективности образовательного процесса. Джаиды рассматривали учителей не только как поставщиков научных знаний, но и как личностей, которые прививают обществу культурные и моральные ценности.

Ключевые слова: Педагогическая техника, знание, этика, ценности, современное образование, интеллектуал, общение.

Abstract. The Jadid movement encouraged in-service teachers to update traditional teaching methods. They sought to teach students science, critical thinking, and reasoning, and to encourage the use of modern pedagogical methods to enhance the effectiveness of the educational process. The Jadids viewed teachers not only as providers of scientific knowledge but also as individuals who instilled cultural and moral values in society.

Key words: Pedagogical technique, knowledge, ethics, values, modern education, intellectual, communication.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Bilamizki, mamlakatlar rivoji qator omillarga bog‘liq: ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy barqarorlik, mehnatga layoqatli aholi salmog‘i, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, zamonaviy mutaxassislar, texnologik ilg‘or ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi investitsiyalar ko‘lami. Bu omillarning uzluksiz mavjud bo‘lishi esa, hech shubhasiz, dunyoviy ta‘lim, uning sifat va samarasiga borib taqaladi. Bu azaliy haqiqatni milliy jadidlarimiz yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy shunday yozgan (1913 yilda) “Ehtiyoji millat” maqolasidayoq ta’kidlagan edi: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”.

Mahmudxo‘ja Behbudi (1875-1919) Jadidlar harakatining yetakchilaridan biri, Turkistonning zamonaviy ta‘lim tizimiga asos solgan. Behbudi yoshlarni yangi usullar bilan ta‘lim olishga chaqirgan va jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib qilgan.

Abdulla Qodiriy (1894-1938) Jadidchilarni adabiyotda yangi yo‘nalishga olib chiqqan, o‘zbek romanining asoschilaridan biri. Uning asarlari o‘zbek xalqining kundalik hayotini va siyosiy holatini yoritadi.

Shunday ekan, ta‘lim muassalari o‘qituvchilari ham dunyoviy ta‘limning ahamiyatini va ta‘limning mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rnini ta‘lim muassalari o‘qituvchilari ta‘lim jarayonida bilim va axloqni birlashtirish, o‘quvchilarga erkin fikrlashni o‘rgatish, ilmiy hamda diniy qadriyatlarni uyg‘unlatirishi maqsadga muvofiq.

Jadidlar – ma‘naviy talim tizimini yangilash va zamon talablariga moslashtirishni maqsad qilgan intellektual harakatning vakillari bo‘lib, ular isloxotlarni amalga oshirishni o‘zlarining maqsadlari sifatida belg‘ilashgan.

Jadidchilik harakatida ta‘lim muassasa o‘qituvchilarining o‘rni juda muxim bo‘lib, ular jamiyatdagi o‘zgarishlar va ijtimoiy isloxotlarda faol ishtirok etganlar. Jadidchilikning asosiy maqsadi yoki zamonaviy talim tizimini yangilash, ilmiy asosda qurish va xalqning rivojlanishiga hissa qo‘shish edi. Jadidchilik harakati, talim muassasalarida ishlagan o‘qituvchilarni an‘anaviy usullarni yangilashga undagan. Ular o‘quvchilarga ilm-fan, tafakkur, mantiqiy fikrlashni o‘rgatishga intilganlar, shuningdek, ta‘lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnikalardan foydalanganlar.

Jadidlar o‘qituvchilarni nafaqat ilmiy bilim beruvchilar, balki jamiyatga madaniy va axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi shaxslar sifatida ko‘rgan. O‘qituvchilar, o‘z muloqotlari orqali o‘quvchilarga milliy va diniy qadriyatlarni, shuningdek, zamonaviy va erkin fikrni rivojlantirishga intilganlar. Bunda, o‘quvchilarda nafaqat ilmiy, balki shaxsiy, axloqiy va ma‘naviy bilimlarni rivojlanishiga xam yordam berdi.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Jadidchilikda o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z milliy va madaniy o‘zligini anglashga, o‘z tilida va Milliy urf-odatlariga asoslanib bilim olishga undaganlar. Ular o‘quvchilarga Turkiston va boshka o‘lkalar tarixini, adabiyotini o‘rgatish orkali milliy ongini uyg‘otganlar.

Jadidchilikda o‘rta ta‘lim muassasalarining islohoti katta ahamiyat kasb etgan. O‘qituvchilar o‘quv jarayonini faqat nazariy bilimlar bilan cheklamay, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘rgatish va o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratishga intilganlar. O‘qituvchilar yangi metodikalarni qo‘llash, shuningdek, ta‘limni zamonaviylashtirish bo‘yicha pedagogik islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etganlar.

Jadidlar o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan faol muloqot qilishni maqsad qilganlar. Ular o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlash va tanqidiy qarashlarni rivojlantirishga intilganlar. O‘qituvchilar o‘quvchilarning fikrlarini erkin ifodalashiga, ularni bahs-munozaralarga jalb qilishga, larning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e‘tibor berganlar.

Jadidchilik harakati o‘qituvchilarning o‘zlarining pedagogik bilimlarini rivojlantirishga va yangi ta‘lim dasturlarini yaratishga chaqrgan. Ular eski darsliklar o‘rniga yangi, ilmiy bo‘lgan darsliklarni ishlab chiqishga intilganlar. Ular o‘qituvchilarning o‘z bilimlarini va pedagogik yondashuvlarini yangilashga yordam berdi. O‘qituvchilarni faqat dars berish bilan cheklanmay, balki jamiyatni o‘zgartirishga hissa qo‘shuvchi shaxslar sifatida ko‘rgan. Bu jarayonda o‘qituvchilar o‘zining ijtimoiy va madaniy roli bilan xalqni taraqqiyotga olib chiqish maqsadida ishlaganlar. O‘qituvchilar ta‘lim tizimini yangilashga harakat qilganlar. Ular yangi pedagogik metodlarni o‘rganib, o‘quvchilarga zamonaviy yondashuvlarni yetkazishga intilganlar.

Jadidlarning pedagogik qarashlari quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Ta‘limni zamonaviylashtirish;
2. Milliy qadriyatlarni saqlash;
3. Xar tomonlama rivojlanish;
4. O‘qituvchining roli: bilim beruvchi, tarbiyachi, rahbar va yo‘lboshchi
5. Yangi pedagogik texnologiyalar;
6. Erkin munosabatlar va mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

Jadidchilik harakati, o‘qituvchilarni nafaqat ilm-fan sohasidagi yangiliklarga, balki jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy o‘zgarishlarga ham jalb qilgan bir harakat sifatida, o‘qituvchilarning muloqot madaniyati va pedagogik yondashuvlariga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Jadidlarning o‘qituvchilarga bo‘lgan qarashlari, muloqot madaniyatini shakllantirishda, shuningdek, ta‘limning sifatini shirishda muhim o‘rin tutgan. Bu jarayonda jadidchilikning o‘qituvchilarga qarashlari bir necha asosiy nuqtalarda namoyon boladi:

1. O‘qituvchining shaxsiy namuna bo‘lishi :

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Jadidchilik harakati o‘qituvchilarni nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiya beruvchi sifatida ham ko‘rgan. O‘qituvchining muloqotdagi madaniyati, uning axloqi, hurmati va o‘quvchilarga nisbatan munosabati muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Jadidlar o‘qituvchilarni o‘quvchilarga yaxshi na‘muna bo‘lishga undaganlar, chunki o‘qituvchi o‘quvchilar uchun yagona xaqiqatni taqdim etuvchi shaxs sifatida qaralgan. Bu esa, muloqot madaniyatini oshirishga, o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlarida xurmat va xushmuomalalikni rivojlantirishga xizmat qilgan.

2. Dialogga asoslangan talim :

Jadidchilik harakati o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan faol muloqot qilishni tavsiya qilgan. O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan ikki tomonlama, ochik va samarali muloqot qilishlari, ularga fikrlarni ifodalash va baxslashish imkoniyatini berish muxim deb xisoblangan. O‘qituvchi nafaqat bilimlarni yetkazish, balki o‘quvchilarning fikrini xurmat qilish, ularni fikr bildirishga undashni talab qilgan. O‘qituvchilarni nafaqat an‘anaviy tarzda ma‘lumotlarni o‘rgatishga, balki o‘quvchilarga mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga yo‘naltirish kerakligi takidlangan.

3. O‘qituvchining madaniy mas‘uliyati :

Jadidchilikning pedagogik qarashlarida o‘qituvchining muloqotdagi madaniyati o‘quvchilarni tarbiyalashda muhim omil sifatida ko‘rilgan. Jadidlar, o‘qituvchilarni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularni jamiyatdagi ma‘naviy va axloqiy mas‘uliyatni his qilgan shaxslar sifatida shakllantirishga chaqirganlar. O‘qituvchining muloqot madaniyati, o‘quvchilarning shaxsiyati va dunyoqarashini shakllantirishda bevosita ta‘sir ko‘rsatgan.

4. Ochiq fikrlar almashinuvi:

Jadidchilik harakatida o‘qituvchilar o‘zaro bilim almashish, o‘zgarishlarga ochiq bo‘lish, yangiliklarni o‘rganish va ulardan foydalanish masalasiga katta e‘tibor berilgan. Jadidlarning pedagogik qarashlari bo‘yicha, o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot madaniyati ham ta‘lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynagan. O‘qituvchilar o‘z bilimlarini boshqalar bilan baham ko‘rish va o‘rganish jarayonida davom etishlari kerak edi.

5. Ilmiy va diniy ta‘limning uyg‘unligi :

Jadidlar o‘qituvchilarga ilmiy ta‘lim va diniy ta‘limning uyg‘unligini takidlashgan. O‘qituvchilar o‘zlarining muloqot madaniyatida, ilm-fan va dinni ajratmasdan, ularni bir-birini to‘ldiruvchi elementlar sifatida ko‘rishga intilganlar. O‘quvchilarga nafaqat zamonaviy ilm-fanni o‘rgatish, balki ularga diniy qadriyatlarni ham singdirish maqsadida amalga oshirilgan.

6. O‘quvchilarni hurmat qilish va shaxsiyatiga e‘tibor :

Jadidchilik harakatida o‘qituvchilarning muloqot madaniyatida o‘quvchilarga hurmat va e‘tibor ko‘rsatish, ularning fikrlarini tinglash muxim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘qituvchining o‘quvchilarning individual

xususiyatlarini, ehtiyojlarini va qobiliyatlarini inobatga olgan holda munosabat kerakligiga urg‘u berilgan.

7. Pedagogik isloxotlar va yangi muloqot usullari:

Jadidlarning ta’limga bo’lgan yondashuvi, ta’limni yangilash va zamonaviylashtirishga qaratilgan edi. Buning natidjasida, o’qituvchilar o’quvchilarga bilimni samarali va zamonaviy usullarda yetkazish imkoniyatiga ega bo’lishgan.

Xulosa. Jadidchilik harakati o’qituvchilarning muloqot madaniyatini o’zgartirishda muhim rol o’ynagan. O’qituvchilar o’quvchilarning shaxsiyati, axloqi, dunyoqarashi va ilmiy salohiyatini rivojlantirishda faol ishtirok etganlar. Muloqot madaniyati, ta’limning samaradorligini oshirish va o’quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda asosiy omilga aylangan.

Jadidchilikda o’qituvchilarning muloqot madaniyati ta’lim djarayonida bilim va axloqni birlashtirish, o’quvchilarga erkin fikrlashni o’rgatish, va ilmiy xamda diniy kadriyatlarni uyg’unlatirish orkali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan edi. O’qituvchilar o’quvchilar bilan faol va samarali muloqotda bo’lishi, ularga faqat bilim bermasdan, balki axloqiy va madaniy jihatdan xam ta’sir o’tkazishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sadullayev A.N. – “Jadidlarning pedagogik qarashlari” haqidagi ilmiy ishlari.
2. Mirzaxodjayev X.S – “O‘zbekistonning pedagogik tarixi va jadidlarning ta’limdagi roli” haqidagi ilmiy ishlari.
3. Gafurov A.K – “Jadidlarning ilmiy va pedagogik qarashlari” haqida tadqiqotlar.
4. Muqimov M.T. – “O’rta Osiyoda jadidlarning ta’lim sohasidagi isloxotlari” haqida tadqiqotlar.
5. Zayniddinov Z.X. – “O‘zbekiston pedagogik tarixida jadidchilik harakati” nomli kitobida jadidlarning o’qituvchilar ta’limiga bo’lgan ta’siri va ta’lim tizimidagi isloxotlari.
6. <https://yuz.uz/news/dunyoviy-fan-va-talim-jadidlar-va-bizning-yondashuv>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/jadidlar-harakati-va-ularning-asosiy-g-oyalari>

**ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ ДЖАДИДОВ К ОБУЧЕНИЮ ДЕТЕЙ В
КОНТЕКСТЕ ИХ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ**

Левкина Мария Федоровна

старший преподаватель, “Profi University”

Аннотация. Статья исследует инновационные педагогические методы джадидов, сочетающие традиционные исламские ценности с современными подходами, и предлагает пути их адаптации в современном образовании.

Особое внимание уделено развитию критического мышления, интеграции знаний и практико-ориентированному обучению.

Annotatsiya. Maqola jadidlarning an‘anaviy islomiy qadriyatlarini zamonaviy usullar bilan uyg‘unlashtirgan pedagogik usullarini o‘rganadi va ularni zamonaviy ta‘limga tadbiq etish yo‘llarini taklif etadi. Asosiy e‘tibor tanqidiy fikrlash, bilimlarni integratsiyalash va amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘limga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: Jadidlar, pedagogik meros, innovatsion usullar, tanqidiy fikrlash, bilim integratsiyasi, pedagogik islohot, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari.

Annotation. The article explores the innovative pedagogical methods of the Jadids, which combine traditional Islamic values with modern approaches, and suggests ways to adapt them to contemporary education. Special attention is given to the development of critical thinking, knowledge integration, and practice-oriented learning.

Key words: Jadids, pedagogical heritage, innovative methods, critical thinking, knowledge integration, pedagogical reform, modern educational technologies.

Ключевые слова: джадиды, педагогическое наследие, инновационные методы, критическое мышление, интеграция знаний, реформа педагогики, современные образовательные технологии.

Джадидское движение, возникшее в конце XIX - начале XX века в среде мусульманских народов Российской империи, представляло собой уникальное явление на стыке культурных традиций и модернизационных процессов. Это движение, охватившее территорию от Крыма до Средней Азии, было ответом на вызовы времени и потребности в обновлении системы образования [1, с. 12].

Исторический контекст формирования джадидской педагогики характеризуется сложным переплетением традиционных исламских ценностей и новых веяний европейской науки. Основатели движения, среди которых особое место занимают Исмаил Гаспринский, Махмудходжа Бехбуди, Ризаэтдин Фахретдин и другие выдающиеся мыслители, сумели создать синтетическую педагогическую систему, сочетающую в себе лучшие достижения восточной и западной образовательных традиций [2, с. 34].

Актуальность исследования джадидского педагогического наследия в современных условиях обусловлена несколькими факторами. Во-первых, в эпоху глобализации особую ценность приобретает опыт гармоничного сочетания традиций и инноваций. Во-вторых, разработанные джадидами методы обучения демонстрируют удивительную современность и могут быть продуктивно адаптированы к нынешним образовательным реалиям. В-третьих, их подходы к нравственному и гражданскому воспитанию представляют особый интерес в контексте поиска новых педагогических парадигм [3, с. 56].

Джади́ды разрабо́тали целый́ ряд педагогических методик, которые принципиально отличались от традиционных подходов, господствовавших в мектебах и медресе их времени. Эти методики можно классифицировать следующим образом:

1. Звуковой метод обучения грамоте (усул-и савтия): Замена механического заучивания букв осознанным изучением звуков; Последовательное освоение слогового чтения; Использование специальных упражнений для развития фонематического слуха; Применение таблиц и наглядных пособий [4, с. 45]

2. Диалогический метод: Организация учебного процесса в форме вопросов и ответов; Стимулирование познавательной активности учащихся; Развитие навыков аргументации и ведения дискуссии; Использование театрализованных элементов [5, с. 89]

3. Практико-ориентированное обучение: Связь теоретических знаний с практическими навыками; Проведение экскурсий и полевых занятий; Организация мастерских и лабораторий; Выпуск школьных газет и журналов [6, с. 112]

4. Проектный метод: Выполнение учащимися самостоятельных исследований; Подготовка докладов и рефератов; Организация выставок ученических работ; Проведение научных кружков и обществ [7, с. 67]

Джади́ды существенно модернизировали организационную структуру учебного процесса. Их нововведения включали:

1. Классно-урочная система: четкое расписание занятий, систематическое планирование уроков, дифференциация по возрастным группам, регулярный контроль знаний

2. Внеклассная работа: литературные кружки, научные общества, спортивные секции, художественная самодеятельность

3. Работа с родителями: родительские собрания, индивидуальные консультации, совместные мероприятия, педагогическое просвещение родителей

4. Социальные проекты: благотворительные акции, помощь нуждающимся, общественно-полезный труд, Экологические инициативы [8, с. 56]

Применение педагогического наследия джадидов в современных условиях требует творческого переосмысления и адаптации. Наиболее перспективными направлениями являются:

1. Интегрированное обучение: разработка междисциплинарных программ, создание учебных курсов, сочетающих традиционные и современные знания, использование принципов джадидов в преподавании предметов гуманитарного цикла, применение интегративного подхода в духовно-нравственном воспитании.

2. Развитие критического мышления: введение элементов дискуссионного обучения, организация дебатов и круглых столов, использование проблемных методов преподавания, развитие исследовательских навыков учащихся.

3. Персонализированное обучение: учет индивидуальных особенностей учащихся, разноуровневые задания, гибкие образовательные траектории, развитие талантов и способностей каждого ребенка [9, с. 89].

На основе анализа джадидского педагогического наследия можно предложить следующие практические рекомендации для современной образовательной практики:

1. Для дошкольного образования:

- Разработка игровых методик с элементами национальной культуры

- Создание развивающей среды с учетом принципов джадидов

- Использование народных сказок и притч в нравственном воспитании

- Введение элементов трудового воспитания [9, с. 45]

2. Для начальной школы:

- Создание интегрированных курсов «Родной язык и культура»

- Разработка учебников нового поколения с учетом джадидских принципов

- Введение элементов проектной деятельности

- Организация внеурочной работы краеведческой направленности [9, с. 78]

3. Для системы повышения квалификации педагогов:

- Разработка специальных курсов по изучению педагогического наследия джадидов

- Организация семинаров и мастер-классов

- Создание методических объединений по изучению и применению джадидских методов

- Проведение научно-практических конференций [9, с. 112]

Проведенный анализ позволяет сделать следующие выводы:

1. Педагогическое наследие джадидов представляет собой целостную систему взглядов на образование и воспитание, сочетающую традиционные ценности и инновационные подходы.

2. Разработанные джадидами методы обучения отличаются научной обоснованностью и практической направленностью, что делает их актуальными для современной педагогической практики.

3. Принципы джадидской педагогики, такие как интеграция знаний, развитие критического мышления, возрастосообразность и нравственное воспитание, могут быть продуктивно адаптированы к современным условиям.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

4. Для эффективного использования джадидского наследия в современном образовании необходима системная работа по изучению, адаптации и внедрению их идей в учебно-воспитательный процесс.

Список литературы:

1. Гаспринский И. Русское мусульманство. Мысли, заметки и наблюдения. - Симферополь: Тип. Спиро, 1881. - 120 с.
2. Бехбуди М. Педагогические трактаты. - Ташкент: Туркестанское изд-во, 1913. - 95 с.
3. Халидов А. Джадидизм: история и современность. - 2018. - 256 с.
4. Қодирова М. Жаид мактаблари таълим методикаси. - 2019. - 168 б.
5. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. - 1998. - 335 p.
6. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. - 1990. - 410 p.
7. Dudoignon S. Jadidism in Central Asia: Reform and Modernity. - 2011. - 294 p.
8. Методика преподавания в джадидских школах: сборник документов / Сост. М. Юсупов. - 2005. - 144 с.
9. Наследие джадидов в современном образовании: методическое пособие. - 2019. - 96 с.

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA O‘Z-O‘ZINI
RIVOJLANTIRISHNING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA
A.AVLONIYNING QARASHLARI**

Qaytarova Nargiza Kaxramonovna
“Profi University” o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda Abdulla Avloniy merosining ahamiyati yoritilgan. A.Avloniy qarashlarining hozirgi davr ta‘limi, xususan, pedagogik ta‘lim jarayonida o‘qituvchi shaxsini shakllantirishdagi roli, yosh pedagoglarning ichki motivatsiyasini oshirish va ularni kasbiy o‘sishga yo‘naltirishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini tahlil qilish, mustaqil fikrlash, mas‘uliyat hissini tarbiyalashga xizmat qiluvchi uslubiy takliflar ham berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: A.Avloniy, pedagogik qarashlar, boshlang‘ich ta‘lim, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kompetensiya, ma‘naviy tarbiya, o‘qituvchi shaxsiyati, kasbiy rivojlanish, axloqiy tarbiya, zamonaviy pedagogika.

Аннотация. В данной статье раскрыта важность наследия Абдуллы Авлония в формировании компетенции саморазвития будущих учителей начальных классов. Рассмотрены взгляды А. Авлония на современное образование, особенно на роль его взглядов в педагогическом процессе формирования личности учителя, повышение внутренней мотивации

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

молодых педагогов и их ориентацию на профессиональный рост. Также приведены методические рекомендации, способствующие развитию у учителей навыков самоанализа, самостоятельного мышления и чувства ответственности.

Ключевые слова и фразы: А. Авлоний, педагогические взгляды, начальное образование, саморазвитие, компетентность, духовное воспитание, личность учителя, профессиональное развитие, нравственное воспитание, современная педагогика.

Annotation. This article discusses the importance of Abdulla Avloniy's legacy in shaping the self-development competence of future primary school teachers. It highlights Avloniy's views on contemporary education, particularly his role in the pedagogical process of shaping the teacher's personality, enhancing the internal motivation of young teachers, and guiding them towards professional growth. Additionally, methodological suggestions aimed at fostering self-analysis, independent thinking, and a sense of responsibility in teachers are also provided.

Key words and phrases: A. Avloniy, pedagogical views, primary education, self-development, competence, spiritual education, teacher's personality, professional development, moral education, modern pedagogy.

Zamonaviy ta'lim tizimi rivojlanayotgan bir davrda, o'qituvchi tayyorlashning ahamiyati o'sib bormoqda. O'qituvchilarni tayyorlashda metodik va pedagogik jihatlar, pedagogik g'oyalar va ilmiy qarashlar muhim o'rin tutadi. O'zbekistonning mashhur pedagogi va davlat arbobi Abdulla Avloniyning o'qituvchilarni tayyorlashdagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Avloniy o'z asarlarida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida ko'plab qimmatli fikrlar bildirgan. Avloniy pedagogik kompetensiyaning faqatgina nazariy bilimlardan iborat emasligini, balki o'qituvchining amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, kompetensiya o'qituvchining o'z bilimlarini samarali tarzda qo'llay olishiga, o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli aloqalar o'rnatishga va pedagogik jarayonni boshqarishga imkon beradi. Bu o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Avloniyning ta'limga bo'lgan qarashlari millatning kelajagi, uning ma'naviyati va ijtimoiy taraqqiyotiga chambarchas bog'liq deb hisoblangan. U ta'limni nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqaro sifatida tarbiyalash deb qaragan. Uning nazarida, ta'lim jarayoni shaxsiyatni shakllantirish va uni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

A. Avloniyning fikriga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli nihoyatda muhimdir. U o'quvchini nafaqat bilim bilan ta'minlash, balki uning ichki dunyosini, psixologik holatini shakllantirishda ham alohida ahamiyatga ega. Avloniy boshlang'ich sinf o'qituvchisidan nafaqat yuqori malakali pedagog bo'lishni, balki o'quvchilarni chuqur sevib, ularga insoniy

qadriyatlarni o‘rgatishni ham talab etgan. Avloniy boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda milliy qadriyatlarni o‘rganish va ularga hurmat bilan qarashni muhim deb bilgan. U o‘z asarlarida xalq ta’limini, milliy urf-odatlar va an’analarni o‘qitishda qo‘llashni targ‘ib qilgan. Bu o‘qituvchilarga o‘z xalqining tarixi va madaniyatini o‘rgatish, shuningdek, o‘quvchilarda milliy ongini shakllantirishda yordam beradi. Avloniyning o‘z-o‘zini rivojlantirishga doir qarashlari bugungi kun pedagogikasi bilan ham uyg‘unlashadi. Hozirgi kunda o‘qituvchilardan talab etilayotgan kompetensiyalar nafaqat pedagogik bilim, balki shaxsiy rivojlanishga ham aloqador. O‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik metodlarni o‘rganish, o‘zlarining psixologik va emotsional holatini nazorat qilish, o‘quvchilar bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak. Avloniy bu jarayonda o‘qituvchining ilmiy va ijodiy yondashuvini mustahkamlash zarurligini ta’kidlagan.

1. o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi: o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni uning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarga bilim beruvchi, balki jamiyatga foydali va faollikni namoyon etuvchi shaxs bo‘lishi kerak. Shu maqsadda, o‘qituvchilarga doimiy ravishda o‘z bilimlarini yangilash, yangi pedagogik usullarni o‘zlashtirish va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirishni o‘rgatish zarur. Avloniy, o‘qituvchining shaxsiy tashabbusi va mas’uliyatini ta’kidlab, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida uning faoliyatiga katta e’tibor berish lozimligini bildirgan.

2. Pedagogik metodlar va amaliyot: o‘qituvchilarning doimiy metodik yangilanishi ham muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda, Avloniy o‘qituvchilarni pedagogik metodlarni o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirgan. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi doirasida o‘qituvchilar yangi pedagogik metodlarni o‘zlashtirishi, ilmiy izlanishlar olib borishi, amaliy tajribalarini baholashi va sinfda yangiliklarni qo‘llashga intilishi kerak. Shu tarzda, o‘qituvchi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmaydi, balki o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan metodik ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

3. Psixologik jihatlar va shaxsiy ma’naviyat: o‘qituvchining shaxsiy ma’naviyati, axloqi va psixologik tayyorgarligi o‘z-o‘zini rivojlantirishning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z-o‘zini rivojlantirgan holda, o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki insoniy qadriyatlar, axloqiy fazilatlarni ham o‘rgatishi zarur. Avloniy o‘qituvchilarni faqat pedagogik bilimlar bilan emas, balki ma’naviy va psixologik jihatdan ham tarbiyalashni muhim deb hisoblagan. Bu o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Avloniy boshlang‘ich ta’limda o‘qitish metodlarining muhimligini alohida ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim metodlari o‘quvchilarning yoshiga, qobiliyatiga, va psixologik holatiga mos bo‘lishi kerak. Shu bilan

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

birga, o‘qituvchilarni yangi pedagogik usullar va metodlar bilan tanishtirish, ularga o‘z sinfida samarali ishlash imkoniyatini yaratish zarur.

Avloniy o‘z-o‘zini rivojlantirishni pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida ko‘rgan. U o‘qituvchilarga quyidagi muhim tamoyillarni o‘rgatgan:

o‘qituvchining shaxsiy tashabbusi va mas’uliyati: Avloniy o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishda faqat tashkiliy, metodik yondashuvlar emas, balki uning ichki motivatsiyasi va mas’uliyati katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan. O‘qituvchi o‘ziga va ta’limga nisbatan javobgarlikni his qilib, o‘z bilimini yanada oshirishi kerak.

Yangi pedagogik metodlarni o‘rganish: Avloniy yangi pedagogik metodlarga ochiqlikni va zamonaviy ta’lim usullarini qo‘llashni tavsiya etgan. O‘qituvchi yangi pedagogik tendentsiyalarni o‘rganish va o‘z sinfida amaliyotda qo‘llash orqali o‘z mahoratini oshirishi mumkin.

Tajribani o‘rganish va baholash: A. Avloniy o‘qituvchilarga o‘z tajribalarini baholash, xatolarni tahlil qilish va ulardan saboq olishni o‘rgatgan. Bu jarayon o‘qituvchining malakasini oshirishda va o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

A. Avloniyning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashga bo‘lgan qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U o‘qituvchilardan faqat bilimli va malakali bo‘lishni emas, balki pedagogik metodlarni o‘rgatish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va o‘quvchilarni insoniy fazilatlar asosida tarbiyalashni talab qilgan. O‘zining pedagogik qarashlari orqali Avloniy boshlang‘ich ta’limning muhimligini va uning jamiyatdagi rolini yanada oshirgan. Uning g‘oyalari, pedagogik uslublari va o‘qituvchilarni tayyorlash borasidagi yondoshuvlari bugungi kunda ham o‘qituvchilar va ta’lim tizimi uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, A. Avloniyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning “Tarbiya biz uchun hayot-mamat, najot-halokat, saodat-fa q r masalasidir” degan so‘zlari bolalar ta’lim-tarbiyasida o‘qituvchi shaxsiyatining ahamiyatini yanada ochib beradi. Ayniqsa, bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda Avloniyning fikrlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ustozning mehnatsevarlik, ma’naviyat, doimiy o‘qib-o‘rganish va o‘z ustida ishlash kabi g‘oyalari orqali kelajak o‘qituvchisi nafaqat mutaxassis, balki barkamol shaxs sifatida ham shakllanadi. Shu bois, bugungi pedagogik ta’lim jarayonida

A. Avloniyning merosini chuqur o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish zamonaviy o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. 2017. 6 (766)-son, 70 modda // www.lex.uz.
2. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Ma’naviyat.
3. Avloniy, A. (1993). Ma’rifat yo‘li. Toshkent: O‘zbekiston.
4. Qodirova, D. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: Fan va innovatsiyalar nashriyoti.
5. Usmonxo‘jaeva, N. (2021). Abdulla Avloniy pedagogik merosining zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati. – “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” ilmiy jurnali, №4(10), 45–50.
6. Normurodova, G. (2023). O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. – “Ilm va taraqqiyot yo‘lida” ilmiy-uslubiy jurnal, №2(15), 60–67.
7. Jo‘raqulova, D. (2021). Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish yo‘llari. “Pedagogik mahorat” jurnali, №1(5), 32.
8. Madrahimova, Z. (2022). Abdulla Avloniy merosining yosh pedagoglar tarbiyasidagi o‘rni. – “Ma’naviyat va ma’rifat” jurnali, №3, 74–79.

JADIDCHILIK G‘OYALARI ASOSIDA XOTIN- QIZLARNI MA’RIFATLI QILISH MASALASI

Eshpulatova Muhayyo Mardon qizi

“Profi University” “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Jadidchilik fikrlar asosida xotin-qizlar nufuzini, mavqeini har tomonlama tiklash dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rib chiqish, ularning ta’lim olishi, huquqlari, umuman jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan qarash va munosabatni o‘zgartirish, avvalo ularni bilimli qilib tarbiyalash masalasida oldingi qatorda turib, bu qarashlarni amalga oshishiga sababchi bo‘ldilar. Jadidlar farzandlar tarbiyasi ayollar qo‘lida ekanligi alohida ta’kidlaganlar.

Kalit so‘zlar. Jadidlar harakati, Turkiston ma’rifatparvarlari, qizlar ta’lim-tarbiyasi, qizlar maktablari, bola tarbiyasi, qizlarni ilimli qilish, savod chiqarish.

Аннотация. Рассмотрение на основе джадидистских мнений актуальности всестороннего восстановления авторитета, положения женщин, их образования, прав, изменения взглядов и отношения к женщинам в обществе в целом, прежде всего воспитания их образованными, привели к реализации этих взглядов. Джадиды особо подчеркивали, что воспитание детей находится в руках женщин.

Ключевые слова. Движение джадидов, просвещение Туркестана, образование девочек, школы для девочек, воспитание детей, обучение девочек, выпуск грамоты.

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

Annotation. Considering the importance of comprehensive restoration of the prestige and status of women on the basis of jadidism, their education, rights, change of views and attitudes towards women in society as a whole, first of all, stood in the front line on the issue of educating them as well as making these views come true. The jadids specifically emphasized that the upbringing of children is in the hands of women.

Keywords. Jadid movement, Turkestan enlightenment, girls' education, girls' schools, child education, girls' illimli, basket-making.

Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo‘lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar maxsuldir. XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma‘rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid‘atlarni isloh qilish fikri paydo bo‘la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya‘ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha “jadid” so‘zidan olingan bo‘lib “yangi” degan ma‘noni bildiradi). O‘sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya‘ni feodal-o‘rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo‘lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko‘p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshida o‘lkadagi ma‘naviy hayotga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XIX asr oxiri – XX asr boshida ommalashgan otinchilik qizlar uchun boshlang‘ich ta‘lim vazifasini ado etdi, ularga bibixalifa yoki bibiotinlar dars berganlar. Maktab yillarida qizlar o‘z bibiotinlari boshchiligida asosan, “Haftiyak”ni Qur‘onning 2-3 ta surasini o‘qib o‘rganganlar. Qur‘onning boshqa suralarini esa uylarida o‘rgatishgan. “Qizlar uchun ilm mutlaqo ortiqcha, qizlarni tikish, bichish va to‘qishga o‘rgatishlar, o‘qish va yozishni chetga surib qo‘yinglar”, - degan jamoatchilik fikrining mavjudligi adabiyotlarda keltiriladi. Kamdan-kam qizlar o‘qishga o‘rgatiladi, undan ham kam hodisalarda yozishga, qizlarning ko‘pchiligi asosan kunduzgi ibodat, namoz o‘qish bilan band edi.

Turkistondagi maktablarda qizlar ko‘proq fors va turk she‘riyatini o‘rganib, yozuvga kam e‘tibor berganlar. Maktablarni tugatishlari bilan qizlarning o‘qishiga yakun yasalgan. Ba‘zi joylarda qizlar maktabi bo‘lsada, ota-onalar bir yildan keyinoq qizlarining o‘qishini to‘xtatib qo‘yar, odatda ularni juda yosh turmushga berib yuborardilar. Bularning barchasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston maktab-maorifining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri edi.

Gasprinskiy 1884 yil “Usuli jadid” maktabini ochib, maorif tizimini isloh etish borasida g‘oyalarini “Tarjimon” gazetasida e‘lon qilib, maorif tizimi oldida hal etish kerak bo‘lib turgan vazifalardan biri – qizlar maorifiga ham alohida e‘tibor berish lozimligini ta‘kidlagan.

Turkistonda mahalliy matbuotning rivojlanishida eng muhim rol o‘ynadi. Qrim tatar ma’rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy ham 1906 yilda birinchi ayollar jurnali “Alem-i Nisvan” (Ayollar dunyosi)ni tashkil qiladi va qizi Shefika Xonimni unga muharrir etib belgilaydi. Jadid ziyolilari, ayniqsa, o‘zlarining nutqlarida va faoliyatida musulmon ayollarni ozod qilishga e’tibor qaratdilar, chunki ular gender tengligi va ozodliksiz ularning yangilanish harakati muvaffaqiyatli bo‘lmasligini tushunishadi. Bu harakat 1913 yilda Ozarbayjonning Boku shahrida istiqlolchilarning quyidagi maqolasi mahalliy jurnallardan birida o‘z aksini topgan: “Kimki o‘z xalqini sevsa va uning kelajagi buyuk bo‘lishini istasa, o‘z ayollarining ma’rifati va tarbiyasi haqida o‘ylashi, ozodlik va mustaqillikni tiklashi kerak. Ularning aqli va qobiliyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratishi kerak” deb yozadi .

Jadidlar farzandlar tarbiyasi ayollar qo‘lida ekanligi alohida ta’kidlaganlar. Sadriddin Ayniy bu haqida quyidagi fikrni bildirgan edi: “Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, savodli bo‘lsa, farzandini ham tarbiyat qilib taraqqiylik odami qiladur”. Bu tarbiyada ayniqsa, bolalar bilan ko‘proq shug‘ullanadigan ona hal qiluvchi ahamiyatga ega hamda onaning bola tarbiyasiga e’tiborsizlik bilan qarashi fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkinligi jadidlar tomonidan e’tirof etilgan.

Abdurauf Fitrat kelajak avlodlarning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo‘lmasliklari uchun xotin-qizlar o‘qimishli, sog‘liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligini zarur deb biladi. U tarbiyani juda muhim ijtimoiy hodisa, jarayon deb biladi va unda “Oiladagi mushkul vazifa go‘dak tavalludidan so‘ng er-xotin bo‘yniga tushadigan farzand tarbiyasidir”, deb uqtiradi. Umuman olganda, jadidlarning oila masalasidagi qarashlarida Fitratning “Birinchi tarbiya (oilalar tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta’siri odam tabiatiga mustahkam o‘rnashadi” - degan fikri asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘rta Osiyoning birinchi ma’rifatchilari qatoriga A.Donish, S.Ayniy, M.Behbudiy, A.Qodiriy, A.Shakuriy, F.Xo‘jaev, A.Fitrat, I.Ibrat, M.Saidjonov, Ajziy va boshqalar kiradi. Ular gumanistik va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi jamiyat qurish, shuningdek, musulmonlar xalq ta’limi islohotlarini o‘tkazish, iqtisodiyotni rivojlantirish, odamlarning turmush darajasini oshirish va boshqa ko‘p narsalarni qo‘llab-quvvatladilar. Asta-sekin ta’limiy g‘oyalar keng tarqalib, xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshladi. Endi ziyolilar xotin-qizlar ta’limi masalasini yanada ochiqroq aytish, faollashtirishni boshladilar.

Jadidchilik harakatining taniqli shaxslaridan biri Ahmad Donish edi. U Buxoroda, oilaning barcha a’zolari uchun ta’lim juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oilada tug‘ilgan. A. Donish arab tilini mukammal bilgan va xattotligi yaxshi bo‘lgan, she’rlar yozgan va tarixga ehtiromi bo‘lgan. . U birinchi marta rus ayollarini ko‘rib O‘rta Osiyolik musulmon ayollardan juda farq qilayotganini ta’kidlagan.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

XVIII-asr oxiri va XIX-asrning boshlarida ayollar maktablaridagi vaziyat deyarli o‘rta asr maktablarining holatidan farq qilmas edi. O‘quv markazlari faqat Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Farg‘ona, Kulob kabi yirik shaharlarda joylashgan edi. Erkak va ayol maktablari katta qishloqlarda ham mavjud edi.

Qizlar avvallari maktabga kamdan-kam hollarda borgan va o‘qish va yozishni o‘rgangan. Bo‘lajak kelinlar uchun zarur bo‘lgan asosiy ma‘lumotlar ko‘proq uyda olingan. Turkiston o‘lkasidagi ayollarning odob-axloqi va urf-odatlarini o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi: 8-9 yoshdan boshlab ona asta-sekin qizini kelajakda bajarishi kerak bo‘lgan ishlarga odatlantira boshlagan. U birinchi navbatda paxta tikishni, paxta tozalashni, yigirishni yoki boshqa oilaviy hunarmandchilik ishlarini qilishni o‘rgangan.

Rivojlantiruvchi asarlarni o‘qish va tushunish qadim zamonlardan buyon juda rivojlangan va zamonaviy oilalar tarbiyasida mashhur bo‘lgan. Oddiy oilalarda bolalar “jumboqlar yechish va topishmoqlar topishni” juda yaxshi ko‘rar edilar, ayniqsa, qish oqshomlarida ertaklarni tinglash va aytib berish an‘anaga aylanib qolgan edi.

Jadidlar oila va jamiyatda o‘qimishli ayolning o‘rni mavqeyi o‘zgacha ekanligini tushuntirishga harakat qilganlar. Bu haqida manbalardan quyidagilarni bilish mumkin: “...xotinlarni o‘qitmoq va ularning oqillarini jilo bermak va erlari birla yaxshi muomalalar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoqni yaxshi bilmaklari xususida ta‘lim albatta zarurdir”. Toshkentdagi Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev yangi usul maktabida 3 ta qiz, Sobirjon Rahimovning maktabida 15 ta qiz o‘qigan. Qo‘qon shahrining G‘alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy 1913 yilda dastlab “usuli jadid”, keyin esa qizlar maktabini ham tashkil qilgan. Unda singlisi Soliyaxon Abduxolik qizi o‘quvchilarga saboq bergan. Abdulla Avloniy maktabida ham qizlar o‘g‘il bolalar bilan yonma-yon o‘tirib, tahsil olgan. Hattoki, kelajakda oila, tenglik va saodatli, muhabbatli va sadoqatli turmush masalasini o‘rtaga qo‘yadilar.

Hozirgi kunda yurtimizda xotin-qizlarning o‘rni, ularning jamiyat hayotida nufuzini har tomonlama oshirish, ularning ta‘lim olishi, ish bilan ta‘minlash, ularning mavqeini oshirish masalasida samarali ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida xotin-qizlar masalasiga to‘xtalar ekan, shunday fikrlarni bildiradilar: “Onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta‘minlash, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy- siyosiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz deb bilamiz” Bu fikrlar xotin-qizlar nufuzini, mavqeini har tomonlama tiklash dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Bundan qariyb bir asr muqaddam Turkiston o‘lkasida taraqqiyparvar jadidlar jamiyat hayotida ko‘plab masalalar singari xotin-qizlarning jamiyatda nufuzini

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

ko‘tarish, ularning ta‘lim olishi, huquqlari, umuman jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan qarash va munosabatni o‘zgartirish, avvalo ularni bilimli qilib tarbiyalash masalasida oldingi qatorda turib, bu qarashlarni amalga oshishiga sababchi bo‘ldilar.

Xulosa. Shuni aytish mumkinki, jamiyatda ayol maqomi uning ta‘lim va tarbiyasi tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, farzand tarbiyasi, kamoloti eng avvalo, aynan ona, so‘ng ota-onaga tashvishi bo‘lib, nihoyat millat va jamiyat muammosiga aylanadi. Unga befarqlik esa, jamiyatda ko‘p muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Shuning uchun har bir davrda ayollar ta‘limi va tarbiyasi jamiyat oldida turadigan eng muhim masala bo‘lib qolaveradi.

Shuningdek jadidlar musulmon xotin-qizlarini ozodlikka chiqarishga, teng huquqli bo‘lishga, shu bilan taraqqiyot yo‘liga, ilm-fan, ma‘rifatga, dunyoviy ishlarni o‘rganishga chaqirganligi, undaganligi ularning xizmatlari beqiyosligini ko‘rsatardi. Eng asosiysi, erkaklar bilan teng huquqda jamoat ishlarida qatnashishlari, saylovlarda ishtirok etishlari uchun qilgan sa‘y-harakatlari Turkiston ma‘rifatparvarlarining Sharq mamlakatlarida birinchilardan bo‘lib intilganligini ko‘rsatardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. -T.: O‘zbekiston. 2016.
2. Qosimov B. Ismoilbek Gaspinskiy – T.: Meros. 34 b.
3. Ayni. S. Musulmonlar xayoti Turkiston viloyatining gazetasi. 1906. 16-19 iyul.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar: 2 t. / Tahrir hay‘ati: O.Sharafiddinov va boshq.: Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboev; Mas‘ul muharrirlar N.Karimov, - T.: Ma‘naviyat. 2000.
5. K.Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi II qism, Darslik– Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

**MAKTABDA NUTQIY TAYYORGARLIKKA KATTA AHAMIYAT BERGAN
JADID OLIMLARDAN BIRI — ABDULLA AVLONIY**

Tashmuhamedova Feruza Batirjanovna

**“Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası
o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta‘limiga tayyorlash jarayoniga ta‘sir ko‘rsatgan jadid olim, pedagog – Abdulla Avloniy haqida yoritilgan. Xususan, olimning qarashlari, yondashuvlari va nutq o‘stirish metodlari mashhur asarlari misolida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, nutq rivojlantirish, maktabga nutqiy tayyorgarlik, ta’lim, kitob, madaniyat, adabiyot, she’r, hikoya, axloqiy tarbiya, so‘z, ibora, fikr bildirish.

Аннотация. В этой статье рассказывается об Абдулле Авлани, ученом – джадиде, педагоге, оказавшем влияние на процесс подготовки дошкольников к школьному обучению. В частности, взгляды, подходы и методы развития речи ученого представлены на примере его известных работ.

Ключевые слова: дошкольники, речевое развитие, речевая подготовка к школе, воспитание, книга, культура, литература, поэзия, рассказ, нравственное воспитание, слово, выражение, высказывание.

Annotation. This article covers the jadid scientist, educator – Abdullah Avloni, who influenced the process of preparing preschool children for school education. In particular, the views, approaches and methods of growing speech of the scientist are presented on the example of his famous works.

Keywords: preschool children, speech development, speech preparation for school, education, book, culture, literature, poetry, story, moral education, word, phrase, expression.

Kattalar guruhidagi maktabgacha yoshdagi bolalarning ona tilini va nutqini o‘rganishga tayyorligini shakllantirish maktabgacha ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Maktabga tayyorgarlik — bu bog‘cha va maktab manfaatlari kesishadigan chegara, boshlang‘ich nuqta bo‘lib, u ko‘p jihatdan maktab ta’limining muvaffaqiyatini belgilaydi. Shuningdek, bu bog‘cha muassasalarining boshlang‘ich maktabga tayyorlash borasidagi ishlarining natijalarini eng aniq namoyon etuvchi uzviy bog‘liqlik bo‘g‘inidir.

Boshlang‘ich maktabda o‘qitish ko‘p fanli bo‘lsa ham, asosiy o‘rin tilga tegishlidir. Til insoniyat jamiyatining ma’naviy hayotida obyektiv mavjud bo‘lgan hodisadir. Unda avvalgi avlodlar tomonidan yaratilgan eng buyuk hayotiy qadriyatlar jamlangan. Tilni o‘zlashtirish — bu avlodlararo bog‘liqlik, ko‘plab avlodlarning ma’naviy merosini egallashdir. Til ta’limi dunyoqarashni shakllantiradi, insonni ijtimoiy hayotga jalb qiladi, bilish faoliyatining eng mukammal vositasini taqdim etadi. Til eng muhim muloqot vositasi, tafakkur faoliyati va ongli ravishda his-tuyg‘ularni ifodalash vositasi sifatida insonning og‘zaki va yozma nutq faoliyatining asosi hisoblanadi.

Ratsional bilish tildan foydalangan holda amalga oshiriladi va insoniyat hamda har bir xalq tomonidan to‘plangan ulkan axborot boyligi til birliklari orqali yangi avlodlarga yetkaziladi. Tilni o‘zlashtirish orqali bola o‘z bilim doirasini cheksiz kengaytiradi, insoniyat tomonidan erishilgan bilimlar darajasiga yaqinlashadi, shaxsiy tajribasini mustahkamlash va uni atrofdagilarga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mashhur jadidchi Abdulla Avloniy – bolalar nutqining rivojiga e’tibor qaratgan olimlardan. U bolalarning maktabga tayyorgarligida nutq madaniyatini shakllantirishga katta ahamiyat bergan. U bolaning fikrini ravn,

aniq va madaniyatli ifoda eta olishini kelajakdagi muvaffaqiyatining asosi deb bilgan.

Avloniy o‘z darslik va asarlarida ona tilini o‘rgatishni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Til orqali axloq, madaniyat, milliy o‘zlik singdirilishini ta’kidlagan.

U uchun ta’lim — faqat bilim emas, balki tarbiya vositasi edi. Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir” degan mashhur iborasida bu fikrni ifoda etgan.

Avloniy eski uslubdagi maktablar tanqidchisi bo‘lib, yangi usul maktablar (jadid maktablari) ochishda faol qatnashgan. U ta’limni amaliy, hayotga yaqin qilish tarafdori bo‘lgan.

Abdulla Avloniy bolalarning nutqini rivojlantirishga katta ahamiyat berganini uning asarlaridan, metodik qarashlaridan va amaliy faoliyatidan yaqqol ko‘rish mumkin.

U bolalar uchun o‘qish, yozish, axloq va adabiyotga oid darsliklar yozgan. Bu darsliklarda sodda tilda yozilgan hikoyalar, she‘rlar, maqollar orqali bolalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish maqsad qilingan.

Masalan, axloqiy tarbiya, odob-axloq qoidalari, milliy qadriyatlar haqida hikoya qiluvchi “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913) asari. Unda qisqa, sodda hikoyalar, rivoyatlar, maqollar, masallar jamlangan. Avloniy asari bolalarga tushunarli tilda yozilgan, bu esa o‘qish va tushunishni osonlashtiradi. Bundan tashqari har bir hikoya yoki masaldan keyin muallif muhokama qilishga chaqiradi, bu esa og‘zaki nutqni rivojlantiradi. Yangi so‘z va iboralarni o‘rganish, ularni hayotiy misollar orqali mustahkamlash imkonini beradi.

Avloniy maktabgacha yoshdagi bolalarni fikr bildirishga o‘rgatish, savollarga javob berishga jalb qilishni ta’kidlaydi. “Tarbiyai atfol” (Bola tarbiyasi) kitobida bolalarning darsdagi faolligini oshirishga xizmat qiladigan tavsiyalar ko‘p: masalan, bolani savol berishga, kichik hikoyalarni aytib berishga rag‘batlantirish.

“Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” to‘plamida bolalar uchun she‘rlar berilgan. Unda Vatanni sevish, ota-onaga hurmat, ilm olish, do‘stlik va mehnat kabi mavzular yoritiladi. Va, albatta, bolalarning maktabga nutqiy tayyorgarlik uchun foydasi be‘qiyos. She‘r o‘qish orqali talaffuz, ohang, intonatsiya mashq qilinadi. Har bir she‘r ifoda vositalarini o‘rganishga, so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Bola she‘rni yod oladi, uni aytib beradi — bu yodlash, eslab qolish va fikrni aniq ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Avloniy nutqni bolaning aql, tafakkur va axloqiy tarbiyasining ajralmas qismi deb qaragan. U bolaning to‘g‘ri, ravon va mazmunli so‘zlashi orqali uning ichki dunyosini, tarbiyasini, fikrlash darajasini ko‘rish mumkinligini ta’kidlaydi.

“Tili ravon bo‘lmagan bola fikrini aniq bayon qila olmaydi, fikrini ayta olmagan bola esa jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaydi.” — degan mazmunda qarashlar uning darsliklarida mavjud.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Avloniy bolalarning so‘z boyligini oshirish, jumla tuzish, tushuncha va fikrlarni aniq ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun asarlarini juda sodda, tushunarli, ammo mazmunli tarzda yozgan. Uning hikoya va maqolalarida turli mavzular yoritiladi: mehnat, halollik, sabr, bilim, ota-ona hurmati — bu orqali bola hayotiy hodisalar haqida fikr yuritishga, so‘zlashga o‘rganadi. Har bir hikoya yoki she‘r bolada fikr bildirishga undaydigan savollar tug‘diradi.

Avloniy o‘z metodik yozuvlarida darslarda suhbat (dialog) usulidan foydalanishni tavsiya qiladi. Bu orqali o‘quvchi:

- O‘z fikrini ifodalashga o‘rganadi;
- Savollarga javob berib, mantiqiy fikrlash va og‘zaki nutqni rivojlantiradi;

- Darsda passiv emas, faol ishtirokchiga aylanadi;

She‘r va hikoya o‘qish — bolalar nutqini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida Avloniyning pedagogik amaliyotida keng qo‘llangan. She‘rni talaffuz bilan yodlash, uni ifodali o‘qish — intonatsiya va ovoz bilan ishlashni o‘rgatadi.

Hikoyani qayta hikoya qilish mashqlari bolalarda fikrni izchil ifodalash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Avloniy o‘z darsliklarida: to‘g‘ri talaffuz, grammatik to‘g‘rilik, ohangdorlik kabi nutq elementlariga e‘tibor bergan; bola tilida odamlar bilan madaniyatli muomala qilish, o‘z fikrini chiroyli ifoda etish odatini shakllantirishga harakat qilgan. Bu orqali u nafaqat nutqiy, balki kommunikativ tarbiyani ham olib borgan.

Xulosa qilib aytganda, Avloniy nazarida bola: fikrlashi ravon bo‘lsa, o‘z fikrini erkin va to‘g‘ri ayta olsa, og‘zaki va yozma nutqni o‘zlashtirsa — bu bolaning kelajakdagi bilimli, madaniyatli shaxs bo‘lishi uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun u ta‘limda nutqiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini belgilagan: adabiyotga tayangan holda o‘qitish, og‘zaki suhbatlar orqali fikrlashni faollashtirish, so‘z boyligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi MTTlari uchun “ILK QADAM” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). Toshkent-2022

(<https://docviewer.yandex.uz/view/>)

2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qaroriga 1-ilova). Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)

3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq | Xurshid Davron kutubxonasi.
<https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/marifatparvar-adib-dramaturg-pedagog-noshir-va-jamoat-arbobi-abdulla-avloniy-tavallud-topgan-kunning-135->

[yilligi.html](#)

4. [ABDULLA AVLONIY - Jadid.uz https://jadid.uz/jadids/abdulla-avloniy/](https://jadid.uz/jadids/abdulla-avloniy/)

5. [Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik faoliyati haqida ma'lumot. https://abiturtest.uz/mavzular/abdulla-avloniyning-marifatparvarlik-faoliyati/?ysclid=m93kpbhlui182611625](https://abiturtest.uz/mavzular/abdulla-avloniyning-marifatparvarlik-faoliyati/?ysclid=m93kpbhlui182611625)

ВКЛАД ДЖАДИДОВ В МОДЕРНИЗАЦИЮ И РЕФОРМУ ШКОЛЬНОГО ДЕЛА

Джураева Шахло Кахрамон кизи
докторант, ТГПУ

Аннотация. Вклад джадидов в модернизацию и реформу школьного дела, состоящей из четырех разделов, анализируется реформаторская деятельность джадидов в сфере народного образования.

Ключевые слова: Джадиды, реформы, модернизация школьного дела, народное образования.

Annotatsiya. Jadidlarning maktab ishlarini yangilash va isloh qilishga qo'shgan hissasi to'rt bo'limdan iborat bo'lib, jadidlarning xalq ta'limi sohasidagi islohotchilik faoliyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, islohotlar, maktab ishlarini modernizatsiya qilish, xalq ta'limi.

Annotation. The contribution of the Jadids to the modernization and reform of school affairs, consisting of four sections, analyzes the reform activities of the Jadids in the field of public education.

Keywords: Jadids, reforms, modernization of school affairs, public education.

Вклад джадидов в модернизацию и реформу школьного дела, состоит из четырех разделов.

В первом разделе «Создание и развитие системы обучения «усули джадид» в Туркестанском крае» подробно освещается процесс возникновения и развития джадидских школ на территории Туркестанского генерал-губернаторства. Первые новометодные школы в рассматриваемом регионе были открыты около 1890 г. в городах Ферганской долины (Коканд, Андижан и др.) [1]. Организаторами и первыми учителями этих школ являлись представители татарской интеллигенции [2]. Необходимо отметить, что если в конце XIX века новометодные школы в Туркестанском крае были явлением очень редким, то к 1911 г. число школ данного типа достигло как минимум 63, а обучалось в них 4106 детей. джадидских школ особо выделялся город Ташкент. По архивным сведениям, на 14 июля 1910 года в Ташкенте

насчитывалось 15 новометодных школ с 1230 учащимися и 24 учителями. Так как администрация края преследовала организаторов новометодных мактабов, многие из этих школ существовали тайно, поэтому надо предполагать, что их было больше. Школы типа «усули джадид» находились под бдительным надзором местных чиновников русской администрации, которые действовали методами всяческих запретов и ограничений. В создании и развитии новометодных школ в Туркестанском крае большой вклад внесли

И. Гаспринский, М. Абдурашидханов, А. Авлони, К. Ниязи и целый ряд представителей джадидизма.

Во втором разделе «Образование новометодных школ джадидов в Бухарском эмирате и Хивинском ханстве» рассматривается внешняя сторона зарождения и распространения джадидских школ в указанных регионах. Здесь отмечается, что борьба джадидов за утверждение новометодных школ в Бухаре происходила в условиях феодально-деспотического строя эмирата, где реакционное мусульманское духовенство подвергало гонению и преследованию малейшее проявление светской культуры.

Третий раздел - «Организационно-методическое содержание, учебные программы и характерные черты школ типа «усули джадид» целиком посвящается обозначенной проблематике. В этом разделе проанализированы содержание и организация обучения в джадидских школах. Необходимо отметить, что программы джадидских школ, в отличие от обычных старометодных мактабов, предусматривали не только освоение детьми азов грамоты по звуковому методу, но и изучение таких предметов, как арифметика, география, естествоведение (твёрдые тела, газ, воздух, тепло, холод).

Новометодные школы джадидов часто отличались от старометодных и внутренней обстановкой – парты, доски, географические карты, стол для учителя. Вид классной мебели и, что надо подчеркнуть, её расстановка характерны для джадидских школ. В этих школах скамьи размещались параллельными рядами поперёк комнаты, а учитель сидел впереди, лицом ко всем ученикам. Традиционное размещение учеников вокруг учителя (за скамьями или безо всякой мебели) соответствовало средневековой, индивидуальной системе обучения. Отличались джадидские школы и в плане занимаемых помещений. В них были установлены твёрдые сроки приёма новых учеников, перевода в следующий класс и выпуска; в соответствии с этим применялась оценка знаний учащихся (известны случаи шестибальной системы), производились экзамены (в целях агитации – публичные). Джадидские школы были начальными, с 4, очень редко с 6 годами обучения.

В джадидских школах Средней Азии стали использоваться

методы обучения на основах дидактических принципов педагогики. Изменилось содержание обучения: в программу и учебные планы новометодных школ на ряду религиозных дисциплин, были введены реальные общеобразовательные предметы – чтение и письмо на родном языке, арифметика, история, география, в том числе естественные науки и русский язык. В джадидских школах не применялись характерные для старометодников суровые наказания.

В четвертом разделе – «Школьно-образовательные благотворительные общества джадидов» показывается просветительскую деятельность джадидских организаций, определяет их состав, благотворительных средств, цель и задач в сфере народного образования. Материалы этого раздела свидетельствуют, что в создании и содержании новометодных школ, обеспечении их в материальном и духовном плане, важную роль сыграли разные благотворительные общества джадидов. В разделе отмечается, что в 1907 г. на территории Сырдарьинской области Туркестанского края в Турткуле было создано одно из первых джадидских благотворительных обществ под названием «Джамъияти хайрия», которое на свои средства открывало джадидские школы [3].

Благотворительные общества джадидов «Джамъияти хайрия», «Кумак», «Тарбияи атфол», и др., находящиеся под постоянным наблюдением местных и русских властей, сыграли определённую роль в распространении просвещения в Средней Азии. Эти общества помогали талантливой молодежи получить образование в зарубежных странах. На обучение в Германию, Турцию и центральные города России были направлены десятки одаренных подростков, которым давала возможность, убедиться в существовании другой жизни, столь не похожей на ту, что они знали на родине.

Открытие джадидских школ в конце XIX – начале XX вв., кажущееся на первый взгляд обычным явлением, для той эпохи имело огромное культурное значение, являясь ударом по феодально-клерикальному духовенству и всему средневековому мракобесию. Определённую роль в этом сыграли разные благотворительные общества джадидов.

Список литературы:

1. Остроумов Н.П. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае // Журнал Министерства народного просвещения.- 1906.- Февраль.- С. 130.
2. Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мактабы и медресе в Средней Азии // Журнал Министерства народного просвещения.-1913.- № 46.- С. 80.

3. Уразбаева Р.Дж. История образования в Каракалпакстане (последняя четверть XIX – начала XX вв.): Автореф. дисс. докт. ист. наук.- Ташкент, 2012.- С. 20.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA JADIDLARNING QARASHLARI

O‘rozboyeva Dilnoza Alimboy qizi

Toshkent shahar “Profi University” o‘qituvchisi

Annotatsiya. Jadidlar ilmiy merosining ta’lim jarayonida ahamiyati, ajdodlar tajribasiga tayangan holda tarbiyani tashkil etish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, ta’lim, tarbiya, tajriba, o‘qituvchi, o‘quvchi.

Abstract. The importance of the scientific heritage of the Jadids in the educational process, the organization of education based on the experience of ancestors, is discussed.

Keywords: Jadids, education, upbringing, experience, teacher, student.

Аннотация. В статье рассматривается значение научного наследия джадидов в образовательном процессе и организация образования на основе опыта предков.

Ключевые слова: джадиды, образование, воспитание, опыт, учитель, ученик.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha *jadīd* — yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish;
- shariatni isloh qilish;
- xalqqa ma’rifat tarqatish;
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;
- Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament;
- keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;
- barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish.

Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlarini tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. XIX asrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyilar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Turkistondagi jadidlar harakatining asoschilaridan biri, buyuk ma’rifatparvar o‘qituvchi, mohir tadqiqotchi Abdulla Avloniy ta’lim tizimini, o‘qitishni takomillashtirib, o‘qituvchilar malakasini oshirish, bo‘lg‘usi o‘qituvchini tayyorlash muammolariga mutlaqo yangicha yondashgan olimdir. Uning fikricha, ijodiy izlanish, o‘qish va o‘qitishning yangi shakli, uslub hamda vositalarini qidirish o‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biri hisoblanadi. Abdulla Avloniyning fikrlari o‘z davrida ta’lim va ta’lim metodikasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan. Uning sintaktik tushunchalarni shakllantirishdagi innovatsion metodikasi ayniqsa, milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Avloniy til va adabiyotning o‘ziga xosligini, uning taraqqiyotini va o‘quvchilarga sintaktik tushunchalarni o‘rgatishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni zarur deb bilgan. U o‘zining pedagogik faoliyatida sintaktik tushunchalarni shakllantirishda an’anaviy metodlardan tashqari

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

yangi yondashuvlarni ishlab chiqqan. Uning ba’zi fikrlarini umumlashtirgan holda quyidagi jihatlariga e’tibor qaratish mumkin:

1. Tizimli yondashuv: Avloniy tilni o‘rgatishda tizimli va tartibli yondashuvni qo‘llagan. U sintaktik tushunchalarni o‘rgatishda har bir qadamni aniq belgilab, o‘quvchilarga tilning sintaktik tuzilishini har tomonlama tushunishga yordam beradigan metodlarni ilgari surgan.

2. Milliy tilning o‘ziga xosligini inobatga olish: Avloniyning metodikasida milliy til va adabiyotga bo‘lgan hurmat va ehtiyotkorlik seziladi. U sintaksis tushunchalarini milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘lagan, shuning uchun uning yondashuvlari mahalliy tilshunoslik va pedagogikaga moslashtirilgan edi.

3. O‘quvchilarning faol ishtiroki: Avloniy sintaktik tushunchalarni o‘rgatishda o‘quvchilarni faol ishtirok etishga chaqirgan. U sintaksisni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, ularni amaliy mashqlar orqali rivojlantirishni targ‘ib qilgan. Bu metod o‘quvchilarning tildan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirgan.

4. Kreativ yondashuv: Avloniy o‘zining pedagogik metodlarida kreativlikni ham muhim omil deb bilgan. Sintaktik tushunchalarni o‘rgatishda o‘quvchilarni ijodiy yondashuvlar orqali tilning sintaktik strukturasini tushunishga undagan. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning tilni samarali va ijodiy ravishda ishlatish ko‘nikmalarini shakllantirgan.

5. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi: Avloniy ta’limda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlagan. Sintaksisni o‘rgatishda faqat grammatik jihatlar emas, balki tilni madaniy kontekstda tushunish muhimligini e’tiborga olgan.

Abdulla Avloniyning sintaktik tushunchalarni shakllantirishga bo‘lgan innovatsion yondashuvi nafaqat o‘quvchilarning til bilimini oshirishga, balki ular uchun tilni amaliy ravishda ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham qaratilgan edi. Bu metodikalar hozirgi kunda ham ta’lim tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega.

Turkiston jadidchiligidagi asosiy g‘oyaviy-nazariy yo‘nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho‘lponlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borishni taklif etganlar.

Bu ro‘yxatni ko‘plab davom ettirish mumkin. Jadidlarimiz bosib o‘tgan yo‘llari, ularning maqsadi ilm-ma’rifatni xalq orasida targ‘ib etish bo‘lganligini darslar davomida o‘quvchilarga tushuntirib borishimiz lozim.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, - dedi Davlat rahbarimiz Sh.Mirziyoyev. Darhaqiqat, ta’lim va tarbiya uzluksiz, tizimli va maqsadli amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Bunda bolaning yoshidan qat’iy

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

nazar ajdodlarimiz merosiga, tajribasiga va milliy qadriyatlarimizga tayanamiz.

“Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchunpoydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yo‘qmi, xalqimiz jaded bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, - dedi yurtboshimiz. Shu fikrlarga tayangan holda o‘sib kelayotgan yosh avlodni jadidlar merosi bilan tanishtirib, tarbiyalash lozim. Zero, o‘quvchilarda ham ajdodlarimizda bo‘lgani kabi keng dunyoqarash, vatanparvarlik, sadoqat, mardlik, jasorat, ilm va bir qancha ijobiy insoniy xislatlar tarbiyalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh (2023). Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi nutqidan.
2. Ahmedov S, Rajabov Q. (2000-2005). "Jadidchilik". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. “Jadidizm”. Ensiklopedik lug‘at.(1988). Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 271-272
4. Oblomurodov N, Hazratqulov A. va boshqalar. (2011) “O‘zbekiston tarixi”. O‘quv qo‘llanma.
5. Ziyo.net internet sahifasi.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH
USULLARI**

Baxtiyarova Gulxayo Botir qizi

“Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda buyuk ajdodlarimiz hamda davlat arboblari, xususan, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Ibn Sinolarning bola tarbiyasi xususidagi nazariy va pedagogik qarashlaridan kelib chiqib, uning dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek sharqona tarbiya berishning metodlari, usullari hamda o‘ziga xosliklari muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, sharqona tarbiya, sharq mutafakkirlari, ta’lim-tarbiya jarayoni, refleksiv yondashuv, o‘tmishga munosabat, shart-sharoit.

Аннотация. В статье подчеркивается актуальность дошкольного образования, основанного на теоретических и педагогических взглядах наших великих предков и государственных деятелей, в частности Абу Насра аль-Фараби и Абу Али ибн Сины, на воспитание детей. Также обсуждались методы, приемы и особенности восточного воспитания.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Ключевые слова: дошкольное образование, восточное воспитание, восточные мыслители, образовательный процесс, рефлексивный подход, отношение к прошлому, условия.

Abstract. This article highlights the relevance of preschool education in terms of the theoretical and pedagogical views of our great ancestors and statesmen, in particular Abu Nasr Al-Farabi and Abu Ali Ibn Sina, on child upbringing. The methods, techniques and peculiarities of oriental upbringing are also discussed.

Keywords: preschool education, oriental upbringing, oriental thinkers, educational process, reflexive approach, attitude to the past, conditions.

Kirish. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llanishi lozim bo’lgan usul va metodlarni yosh avlod ta’lim-tarbiyasida keng foydalanishdagi ta’sirini ochib berish ta’lim jarayonining har bir bosqichida dolzarblik kasb etadi. Sharqning mutafakkirlari ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda beqiyos o’git va yo’nalishlarni ochib bergan. Abu Nasr Forobiy (873-950) aytadi: “Ta’lim degan so’z xalqlar va shaharliklar o’rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o’rtasidagi tug’ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish”, “tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining o’zi tarbiyali bo’lmog’i shart”, – deydi va insonni tarbiyalash, tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy hislatlarni – bilimli bo’lishga, to’g’rilikni va haqiqatni sevishga, jasur, do’stlarga sadoqatli bo’lish kabi fazilatlarini egallashga intilmog’i lozim. Ta’lim faqat so’z va o’rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo’lgan ish-harakat, kasb- hunarga o’rgatishdan iborat deb hisoblaydi. Olim insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko’ra, u o’z asarlarida insonga tarbiya va ta’lim berish zarurligini va bunda ta’lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad asosiy o’rinda bo’lishini ta’kidlaydi.

Metodologiya. Tarbiyachi shaxsining yosh avlodni kamolotga yetkazish, uning zaruriy kasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi haqidagi qarashlarni Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan ilmiy-pedagogik g‘oyalar misolidaham ko’rishimiz mumkin.

Sharqda buyuk allomalar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad al-Farg’oniy boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog’lom, ilmiy bilimlarni o’zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g‘oyasi ilgari surilgan va asoslab berilgan.

Muhammad Muso al-Xorazmiy ta’lim-tarbiya jarayonida savol-javob, ko’rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalarini, malaka va ko’nikmalarni shakllantirish metodlaridan foydalangan. Maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyachi bolalar bilan savol-javob, o’quv materiallarini

o‘zlashtirishda ko‘rgazmali metodlarni qo‘llashi shu bilan birgalikda ular bilan munosabatda adolatli yondashuvni ham amalga oshirishi lozim¹¹.

Abu Nasr Forobiy ta‘lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. U ta‘limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma‘naviy-axloqiy qoidalar, odob me‘yorlari o‘rganiladi, bu muhim vazifalar tajribali tarbiyachilar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshirilishini ta‘kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ma‘rifat darajasi va bilimdonlik darajasi, kishilarni mulohaza yuritish holati to‘g‘risida bildirgan fikrida har bir narsani aniq, sinchiklab o‘rganish, bilishni, shundan so‘nggina bir xulosaga kelishni tavsiya qiladi, tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi¹².

Abu Ali ibn Sino tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish, ta‘limda turli shakl va metodlardan foydalanish, bolalarning alohida shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish metodlaridan foydalanish lozimligini ilgari suradi. Ayniqsa maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalar bilan munosabatda ularning individual xususiyatlarini e‘tiborga olish zarur.

Tadqiqot natijalari. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida refleksiv ta‘limiy muhitni vujudga keltirish tarbiyalanuvchilarning shaxsiy boshlang‘ich tushunchalarini rivojlantirish, o‘rganilayotgan mavzuga va uning ahamiyati, mazmun-mohiyatiga qiziqishni shakllantirish asnosida ularning faolligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan ta‘lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuv tarbiyalanuvchilarni ma‘lum bir tushuncha to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga, ya‘ni, o‘rganilayotgan tushunchalarning ahamiyatini o‘rganish, tahlil qilish va ob‘ektiv baholash asosida ularda asoslangan tushunchalar shakllantirish yoki o‘tmishdagi munosabatlarni o‘rganish, tahlil qilish va ob‘ektiv baholash asosida, o‘z tarixiy o‘tmishimizni o‘rganishga qiziqish hamda tarixiy xotirani shakllantirishga zamin yaratadi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan refleksiv ta‘limiy muhit tarbiyalanuvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga ijodiy ta‘sir ko‘rsatuvchi muhit sifatida xizmat qiladi. Chunki, refleksiv yondashuv jarayonida tarbiyalanuvchilar o‘rganilayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyati hamda o‘tmishdagi va bugungi kundagi ahamiyatini mustaqil ravishda tahlil qilish va ob‘ektiv baholash asosida xulosa chiqaradi.

Xulosa. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida refleksiv yondashuvni joriy etish asosida, refleksiv ta‘limiy muhitni vujudga keltirish tarbiyalanuvchilarda o‘tmish va kelajak haqidagi boy tasavvurni shakllantirish, ularni tahliliy faoliyatga undash va ularda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish, tarbiyalanuvchilarning shaxsiy boshlang‘ich tushunchalarini rivojlantirish, Vatan, mustaqillik va uning mazmun-mohiyati,

¹¹ Xoshimov K, Nishonova S. Pedagogika tarixi. T.:2005-304 b.

¹² Zununov A., To‘xlijev A., Ma’sudov X. Pedagogika tarixi. T.:2002-187 b

ahamiyatini yetarli darajada yoritib berish orqali, ularda tarixiy xotirani shakllantirish, kelajakka ishonch tuyg‘ularini vujudga keltirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim muassasalarida refleksiv ta’limiy muhitni shakllantirishda shunday shart-sharoitlarni yaratish zarurki, bunda tarbiyalanuvchilar o‘tmishni o‘rganish, buyuk ajdodlarimizga hurmat bilan qarash, ularning ijodi va yaratgan asarlaridan boxabar bo‘lish, yaqin tariximizda milliy an’analar, urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, qadriyatlarimiz va ona tilimizga bo‘lgan munosabatlarni tanqidiy anglash asosida, Vatan, mustaqillik va uning mazmun-mohiyati, ahamiyatini tushunib yetishi hamda bugungi yaratilayotgan shart-sharoitlarni ob’ektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Zununov A., To‘xliyev A., Ma’sudov X. Pedagogika tarixi. T.:2012-187 b
2. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2016.-119 b.
3. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T., “Fan va texnologiya”, 2018- 160 bet.
4. Xoshimov K, Nishonova S. Pedagogika tarixi. T.:2005-304 b.

**JADIDLAR ILMIY MEROSI MAQSADI VA MAZMUNI ASOSIDA
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TA’LIM-TARBIYASINI
SHAKLLANTIRISH**

Baxtiyarova Gulhayo Botir qizi

“Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Jadidlar ilmiy merosi haqida, bilim olish va tarbiya masalalari to‘g‘risida. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan ishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Millat, madaniyat, mentalitet, bilim, qaramlik, erkinlik, yoshlik, axloqiy tarbiya, ma’rifat, zararli odatlar, dangasalik, kasb-hunar.

Аннотация. О работе проводимой министерством по наследию Джадидов посвященных вопросам образования и культуры.

Ключевые слова: Нация, культура, менталитет, знание, зависимость, молодёжь, нравственность, воспитание, вредные привычки.

Abstract. Heritage, knowledge, about the work, about Umayya’s, education, carried, out in the issues of it is kept.

Key words: Nation, culture, mentality, knowledge, dependence, youth moral, education, enlightenment harmful, habits, ignorance, caste.

Kirish. Ushbu risolani boshlashdan oldin Marhum Prezidentimiz I.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”degan so‘zlarini esga

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

olmoqchiman. Haqiqatdan ham o‘z tariximizni bilmasdan turib, kelajagimizni yaratish juda qiyin. Chunki yurtimizning tarixidagi yutuqlari bizga g‘urur va ishonch bag‘ishlaydi, qaysidir xatolar esa biz o‘sha xatolarni takrorlamasligimiz ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarishimiz uchun bizga katta saboq bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqsh kabidir deyilgan ibora bilim olishni qanchalik erta boshlansa, uning samarasi juda yuqori bo‘lishi haqida aytilgan. Sobiq Sovet davrida o‘zining xalqni, ma‘rifatga chorlovchi asarlari bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi yozuvchilarimizning bizga qoldirgan ilmiy merosi aynan mana shu Tarix va kelajak haqidadir. Sovet tuzumi davrida xalqimizni birovga qaram va qul bo‘lmasligi uchun ,bilim va ma‘rifatga intilishi uchun kelajakni mustaqil o‘zi yaratishi uchun ,ilm-u ma‘rifat haqida ya‘ni “xalqim Ko‘zingni och” qabilida asarlar yozgan adiblarimiz qatag‘on qurbonlari bo‘lishgan. Ularning ko‘plab yozilgan asarlari yoqib yuborilgan. Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanining “Kecha” qismi bizga yetib kelgan. “Kunduz” deb nomlanadigan qismi esa yetib kelmagan. Kecha va Kunduz romanida insonlar ikki toifaga ajratilgan. 1- toifa insonlar faqat o‘zini o‘ylaydigan ,birovning hayotiga befarq odamlar. 2- toifa insonlar esa dangasa ,yalqov odamlardir. Ushbu asarda hayotni o‘rganish kerakligi va tavakkal bilan emas aql bilan ish qilish kerakligi, va qaysidir millatga ularning urf-odat va an‘analariga taqlid qilish emas, ularning ilmini o‘rganish kerakligi ta‘kidlangan.

Yangi O‘zbekistonni barpo qilishda yot g‘oyalarga berilmaslik,ularga ko‘r- ko‘rona ergashmaslik, o‘zining qadr-qimmatini saqlay olish,ko‘proq bilim olishga intilish, jamiyat orasidagi turli axborotlarni to‘g‘ri analiz-sintez qilishni bilish,o‘z ustida ishlash bu yoshlarning oldida turgan katta vazifasidir. Chunki biz ko‘proq bilim olishga intilsak, boshqa mamlakatlarning ilmdagi yutuqlari bilan tajriba almashish bu yurtimizni rivojlantirishda katta hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida aynan bilim va tarbiyaning tayanch nuqtasi qo‘yiladi.Bolalarni mustaqil bo‘lishga o‘rgatish,mehnat qilishga, yordam berishga ,qiyinchiliklarni o‘zi yengishiga, mehribon bo‘lishga, ilimli bo‘lishga, ularga kerakli sharoit yaratib berilsa,ta‘limning samaradorligi yanayam oshadi. Tarbiya aslida oiladan boshlanadi, oilada ota-ona hamma narsada bolaga o‘rnak bo‘ladi,oilada to‘g‘ri tarbiya olgan bolalar nafaqat uyda balki jamiyatda ham yaxshi inson bo‘lib yetishadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”nomli dramasi mana shu oilada farzandga yaxshi tarbiya berilmasa, u qanday fojialarga olib kelishi tasvirlangan. Farzand tarbiyasidagi loqaydlik, uni haddan ziyod taltaytirish, hamma narsasini muhayyo qilish,barcha orzu –istaklarini bajarish, uni biron bir kasbga o‘rgatmaslik, mehnatga jalb qilmaslik, yoshlarning turli zararli odatlarga berilib ketishiga, turli qing‘ir ishlarga qo‘l urishiga va butun umr birovga boqimanda bo‘lishiga olib keladi.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Yevropa davlatlari xalqlarining ahvoli bizga ibrat bo‘lishi kerak. Ular nihoyatda tez taraqqiy yo‘liga kirib bardam qadam tashlaydilar. Telegraflari orqali yer yuzidagi axborotni bir kechada bilib olar edilar. Bugun esa hech qanday sim va yog‘ochsiz ko‘zga ko‘rinmaydigan vositalar bilan olam ahvolidan xabardor bo‘ladilar. Shunday kashfiyotlarni ham kam hisoblab ,yana yangi kashfiyotlar, ixtirolarga qo‘l uradilar. Bizni hayrat va taajjubda qoldirmoqdalar. Shuncha ixtirolarga qaramay, ular bilan yuzma-yuz o‘tirib “sizlar rosa taraqqiy etgansizlar desangiz javob beradilarki: “bashariyat hali go‘daklik davridadir” deb javob beradilar. Ushbu jumalarni Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Kecha va Kunduz nomli romanida xalqiga yozib qoldirgan.

Xulosa. Darhaqiqat, o‘tgan kunning qaytarilmasligi ,bu achchiq haqiqat ekanligi, shuning uchun ertangi kunni ya‘ni kelajakni o‘ylab yashash kerakligi bu oddiy –falsafadir. Yoshlikda qancha bilim olsak,bu kelajakda o‘z samarasini berishi,inson hayotda qiynalmasligi uchun kerak bo‘ladi.O‘z fikrini mustaqil bayon etishi,har narsada faol bo‘lishi,turli hodisalarga loqayd va be‘e‘tibor bo‘lmasligi lozim .Yoshlikdan mehnatga o‘rgatish,ularni to‘g‘ri kasb tanlashlariga,ko‘mak berish,o‘zi qiziqqan soha bo‘yicha o‘z ustida ishlashga o‘rgatish va o‘zining kasbi orqali yaxshi daromad topishi mumkinligiga ishontirish,ko‘proq kitob o‘qib ma‘naviy dunyosini kengaytirish,hamma narsada odamlarga o‘rnak bo‘lishga o‘rganish yoshlarning oldidagi vazifasidir. “O‘zbekiston kelajagi yoshlar qo‘lidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulhamid Cho‘lpon “Kecha va Kunduz” romani 1-kitob “SHARQ”nashriyot matbaa tahririyati Toshkent-2000. Muharrir:Naim Karimov 266-271 b
2. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. 10-sinf umumta‘lim maktabi adabiyot darsligi 2-qism (2017). 3-21 b
3. Abdurauf Fitrat “Najot yo‘li”kitobi Ma‘naviyat (2022) Muharrir Naim Karimov 12 -20 b.

IKKINCHI SHO‘BA

JADIDLARNING PEDAGOGIK QARASHLARINI ZAMONAVIY TA‘LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISH MASALALARI

АДАПТАЦИЯ И МОТИВАЦИЯ ПЕРВОКУРСНИКОВ: СОВРЕМЕННЫЕ СТРАТЕГИИ И ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ ДЖАДИДОВ

Рахманова Д.Р.

Научный руководитель: кандидат психологических наук,
доцент кафедры «Педагогика и психология»

Иброхимова О.И.

Студентка 1 курса

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta‘lim yondashuvlari va jadidchilik tamoyillari asosida birinchi bosqich talabalari moslashuvi hamda akademik motivatsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda talabalarining asosiy qiyinchiliklari va ularni oliy ta‘lim muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish omillari aniqlangan, shuningdek, murabbiylik, loyiha asosidagi o‘qitish va psixologik qo‘llab-quvvatlash samaradorligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moslashuv, murabbiylik, individual yo‘nalishlar, ijtimoiy integratsiya, universitet muhiti, akademik motivatsiya.

Аннотация. В статье анализируются механизмы адаптации и академической мотивации первокурсников в условиях современных образовательных подходов и джадидских принципов. Исследование выявило основные трудности студентов и факторы успешной интеграции в вузовскую среду, а также эффективность наставничества, проектного обучения и психологической поддержки.

Ключевые слова: адаптация, наставничество, индивидуальные траектории, социальная интеграция. университетская среда, академическая мотивация.

Abstract. The article explores the adaptation mechanisms and academic motivation of first-year students within the framework of modern educational approaches and Jadid principles. The study identifies the main challenges students face and the factors contributing to their successful integration into the university environment, highlighting the effectiveness of mentoring, project-based learning, and psychological support.

Keywords: adaptation, mentoring, individual trajectories, social integration, university environment, academic motivation.

Актуальность джадидского направления в адаптации и мотивации студентов первого курса заключается в создании образовательной среды, способствующей успешному переходу

молодежи к новым формам обучения. Джадиды реформировали систему образования, внедряя интерактивные методики, обучение на родном языке, актуальные дисциплины и механизмы социальной поддержки, что облегчало адаптацию студентов¹³. Их использование инновационных технологий делает их концепции актуальными для современных образовательных процессов. Современные университеты применяют аналогичные стратегии, включая наставничество, проектное обучение и цифровые технологии, что подтверждает значимость джадидских принципов в формировании В рамках проекта Психологической службы Profi University волонтерская группа «Новая эра студентов» провела исследование механизмов адаптации и мотивации первокурсников. Анализировались основные трудности студентов первого курса и факторы, способствующие успешной интеграции в образовательную среду. Исследование проходило в три этапа: на первом диагностировались уровень адаптации и мотивации, на втором — разрабатывались и внедрялись программы поддержки, включая специализированные тренинги и образовательные модули. На заключительном этапе анализировались результаты проведенной работы, оценивалась её эффективность и формулировались рекомендации по совершенствованию адаптационных механизмов¹⁴.

Цель исследования — изучить процессы адаптации первокурсников к университетской среде, выявить ключевые факторы успешной интеграции и разработать рекомендации по повышению психологического комфорта и академической мотивации. Особое внимание уделено трудностям адаптации, способам снижения эмоционального напряжения и условиям эффективного включения в учебный процесс.

Диагностика проводилась с помощью анкет, наблюдений и тестов, что позволило определить уровень тревожности, мотивации и удовлетворённости обучением, а также выявить типичные трудности — недостаточную самоорганизацию, высокий стресс и проблемы в коммуникации.

На основе результатов были разработаны практические рекомендации по снижению стресса, улучшению взаимодействия в группе и повышению вовлечённости студентов. Анализ данных позволил выделить основные показатели адаптации, представленные на рисунке 1: уровень тревожности, удовлетворённость учебой и социальная интеграция.

¹³ Берулава Г. А. Инновационные процессы в образовании. — М.: Академия, 2006. — 270 с.

¹⁴ Гусейнов А. З. История развития педагогической мысли. — Саратов: Саратовский государственный университет, 2005. — 180 с.


Рис.1 динамика адаптации студентов первого курса



Результаты исследования показали, что наилучшие показатели адаптации были у группы BT-02-24R, где студенты активно участвовали в учебном процессе, взаимодействовали с преподавателями и демонстрировали хорошие навыки самоорганизации. Группа MKT-02-24R показала менее успешные результаты: студенты испытывали трудности в освоении образовательной среды и реже участвовали в академической и внеучебной активности, что требует дополнительных мер адаптации. Введение тренингов по самоорганизации, программ наставничества и мероприятий по развитию коммуникативных навыков способствовало снижению тревожности и улучшению взаимодействия студентов с учебным процессом. Развитие психологической поддержки также повысило удовлетворенность образовательным процессом¹⁵.

Отдельное внимание уделено анализу академической мотивации. Изучены ключевые факторы, влияющие на мотивацию первокурсников: вовлеченность в учебу, интерес к дисциплинам и восприятие образовательной среды. На рисунке 2 показано сравнение мотивации до и после внедрения поддерживающих мероприятий.

Рисунок 2. Динамика уровня академической мотивации студентов первого курса.



¹⁵ Козлова Н. Н. Мотивация в образовании: теория и практика. — М.: Просвещение, 2015. — 300 с.

Анализ данных показал, что интеграция проектного обучения, использование интерактивных методов и расширение возможностей для самостоятельной работы студентов положительно сказались на их академической мотивации. Внедрение цифровых технологий и создание индивидуальных образовательных траекторий способствовали росту заинтересованности студентов в учебном процессе.

Исследование подтвердило особенность и креативность джадидского подхода к образованию, показав, что успешная интеграция студентов зависит от уровня самоорганизации, психологической устойчивости, вовлечённости в учебный процесс и качества образовательной среды. Трудности, такие как высокий уровень тревожности и низкая мотивация, требуют комплексных адаптационных мероприятий.

Результаты показали, что программы наставничества, проектное обучение, цифровые технологии и специализированные тренинги оказывают положительное влияние на адаптацию и мотивацию студентов. Это способствует улучшению вовлечённости студентов в учебный процесс и социальные взаимодействия, что подчеркивает необходимость индивидуализированного подхода.

В связи с этим рекомендуется развивать адаптационные механизмы, включая расширение программ психологической поддержки, внедрение тренингов по управлению стрессом и тайм-менеджменту, усиление роли наставничества и активное использование интерактивных образовательных технологий. Такой комплексный подход будет способствовать успешной интеграции студентов в университетскую среду, повышению их академической успеваемости, развитию навыков самоорганизации и улучшению социальной интеграции.

Список литературы:

1. Берулава Г. А. Инновационные процессы в образовании. — М.: Академия, 2006. — 270 с.
2. Гусейнов А. З. История развития педагогической мысли. — Саратов: Саратовский государственный университет, 2005. — 180 с.
3. Соловьев А. А. Психология высшей учебной деятельности: учебное пособие. — М.: Академический проект, 2013. — 256 с.
4. Козлова Н. Н. Мотивация в образовании: теория и практика. — М.: Просвещение, 2015. — 300 с.

**MILLIY UYG‘ONISH VA TA‘LIM ISLOHOTLARIDAGI YANGI
YO‘NALISHLARNI TASHKIL ETISHDA ABDULLA AVLONIYNING
MA‘RIFATPARVARLIK XIZMATLARI**

Mingbayeva Barno Ubaydullayevna

“Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikalari”
kafedrası v.b dotsenti

Bo‘ronova O‘g‘iloy Mustafoyevna

“Profi University” Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maqola Avloniyning ta‘lim va madaniyat sohasidagi yangiliklarni joriy etish orqali yangi avlodni ma‘rifatli qilishdagi hissa qo‘shganligini ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, yoshlar faqat diniy bilimlar bilan cheklanmasdan, zamonaviy ilm-fan va madaniyatni ham o‘rganishlari kerak edi. Avloniyning bu boradagi yondashuvlari milliy uyg‘onishning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar. Abdulla Avloniy, milliy uyg‘onish, ta‘lim islohotlari, jadidchilik harakati, ma‘rifatparvarlik, ta‘lim tizimi, milliy madaniyat, ilm-fan.

Annotation. The article demonstrates how Avloniy contributed to the enlightenment of the new generation by introducing innovations in the fields of education and culture. According to his views, young people should not be limited to religious knowledge alone but should also study modern science and culture. Avloniy's approach in this regard is considered an important component of the national revival.

Key words. Abdulla Avloniy, national revival, educational reforms, the Jadid movement, enlightenment, education system, national culture, science.

Abdulla Avloniy (1878–1952) – o‘zbek milliy pedagogikasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan, ta‘lim sohasida yangi usullarni tatbiq etgan va o‘zining ma‘rifatparvarlik faoliyati bilan tanilgan yetakchi mutafakkir, jurnalist va pedagogdir. Uning pedagogik qarashlari, milliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan yangicha yondashuvlari va yangi usul maktablarini tashkil etishdagi xizmatlari o‘z zamonida katta ahamiyatga ega bo‘lgan¹⁶. Avloniyning ta‘lim sohasidagi faoliyati nafaqat o‘zbek xalqining intellektual salohiyatini oshirishga, balki milliy ma‘rifatni yuksaltirishga ham qaratilgan edi.

Abdulla Avloniy ta‘limda yangiliklar yaratishda, maktabda milliy qadriyatlar, erkin fikrlash, ilm olish va shaxsiy erkinlikni targ‘ib qilishga alohida e‘tibor qaratdi. U, ta‘limni faqat o‘qitish va bilim berishdan iborat deb hisoblamay, balki yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, jamiyatga foydali va yetuk insonlarni tarbiyalashni o‘zining asosiy maqsadi deb bildi. Avloniyning

¹⁶ Qobilov, I. (2014). *Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari*. Toshkent: O‘zbekiston ta’limi va madaniyati.

pedagogik qarashlarida adolat, inson huquqlari va ijtimoiy barqarorlik muhim o‘rin tutgan.

Avloniyni yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyati, ayniqsa, 1910-yillarda o‘zining eng yuqori darajasiga chiqqan. U o‘z maktablarida innovatsion o‘quv-uslubiy yondashuvlarni qo‘llagan, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan. U yangi usul maktablarini tashkil etishda o‘zining o‘quv dasturlari va metodikalarini ishlab chiqdi, ular ilm-fan va san’atni jamiyat hayotida muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan¹⁷.

Shunday qilib, Avloniyni pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o‘rganishga, zamonaviy ta’lim tizimi bilan bog‘lashga ehtiyoj sezilmoqda, chunki uning g‘oyalari ta’lim sohasida yangiliklar kiritish, jamiyatni intellektual va ma’naviy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan edi.

Asosiy qism. Abdulla Avloniy — o‘z davrining ilg‘or va ma’rifatparvar shaxslaridan biri bo‘lib, o‘zining ta’lim islohotlari va milliy uyg‘onishdagi faoliyati orqali katta iz qoldirdi. U jadidchilik harakatining yetakchi vakili sifatida, o‘zining ilmiy faoliyati va ijtimoiy ishlarida ta’lim va madaniyatning yangilanishini o‘rgandi. Avloniy jamiyatni yangilash va ilm-fanni rivojlantirish orqali milliy uyg‘onishni amalga oshirishni maqsad qilgan. Uning ta’limga bo‘lgan yondashuvi yoshlarni zamonaviy ilm-fan va madaniyat bilan tanishtirishga, ularni faqat diniy bilimlar bilan cheklamaslikka qaratilgan edi.

Avloniyni eng katta xizmatlaridan biri ta’lim tizimini isloh qilishga bag‘ishlangan. O‘z vaqtida mavjud bo‘lgan an’anaviy ta’lim tizimi ilmiy taraqqiyot va jamiyat ehtiyojlariga javob bermasdi. Avloniy, o‘zining “Madaniyat” (ma’rifat) g‘oyasini ilgari surar ekan, yoshlarni zamonaviy dunyoqarashga asoslangan ta’lim olishga chaqirdi. U, nafaqat diniy bilimlar, balki ilmiy va madaniy bilimlarni ham o‘rganish zarurligini ta’kidladi. Shu maqsadda, Avloniy birinchi bo‘lib, ko‘plab darsliklar yaratgan va ta’limni jadid usullariga asoslagan. O‘zining “Ona tili”, “Matematika”, “Tarix” kabi darsliklari orqali Avloniy milliy ta’limning poydevorini yaratishga hissa qo‘shdi. Bu darsliklar nafaqat ta’limni yangilash, balki milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishga xizmat qildi.

Avloniy milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda ham katta rol o‘ynadi. U o‘zining asarlarida va maqolalarida o‘zbek tilining, milliy an’ana va qadriyatlarning ahamiyatini ta’kidladi. Uning fikriga ko‘ra, millatning rivojlanishi uchun avvalo uning madaniyati va tilini asrab-avaylash zarur. Avloniy milliy madaniyatni rivojlantirishning birinchi qadami sifatida yoshlarni o‘z xalqining tarixini va madaniyatini chuqur o‘rganishga chaqirdi. Shuningdek, Avloniy zamonaviy ta’lim tizimi orqali milliy madaniyatning yangilanishini ta’minlashni maqsad qilgan.

¹⁷ Jalilov, A. (2005). *Ta’lim va ma’rifat: Abdulla Avloniyni ilmiy merosi*. Samarqand: “Yangi O‘zbekiston” nashriyoti.

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

Abdulla Avloniy jadidchilik harakati orqali ta'lim tizimining modernizatsiyasini amalga oshirishga harakat qildi. U ilmiy metodlarni va yangi pedagogik usullarni joriy etish, o'quvchilarga zamonaviy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Avloniy o'z davrida maktablarning o'quv dasturlarini yangilash, yangi darsliklar yaratish va o'qituvchilarga yangi metodikalar bo'yicha o'qitish ishlarini olib borgan. U ta'limda o'quvchilarning faolligini oshirish, ular bilan interaktiv yondashuvni o'rnatish zarurligini ta'kidlagan.

Avloniyning ta'limga asoslangan ma'rifatparvarlik g'oyalari milliy uyg'onish jarayonining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyatga ega. Avloniy millatni ma'rifatli qilish orqali uning taraqqiyotiga hissa qo'shishni maqsad qilgan. U yoshlarni faqat ilmiy bilimlar bilan emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, jamiyatdagi adolat va haq-huquqlarni himoya qilishga tayyorlashga harakat qildi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari nafaqat ta'lim tizimining isloh qilinishiga, balki jamiyatning butun ijtimoiy-siyosiy hayotining yangilanishiga xizmat qildi.

Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik xizmatlari jadidchilik harakatining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Uning ta'lim islohotlari va madaniy yangiliklar kiritishdagi faoliyati jamiyatda o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Jadidchilik harakati orqali Avloniy milliy o'zlikni, milliy mustaqillikni va madaniy yangilanishni ilgari surdi. Avloniyning faoliyati jahon miqyosida ta'lim va madaniyat sohasidagi islohotlarga asos solgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Avloniy, shuningdek, ma'rifatparvarlik faoliyati orqali ta'limni jamiyatda keng tarqatish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, xalqni o'qitish va ilm-ma'rifatni ommalashtirishga qaratilgan bir qancha tashabbuslar ilgari surdi. U o'z maqolalarida va nashrlarida ta'lim va ma'rifatni jamiyatda eng zaruriy sohalaridan biri sifatida taqdim etdi. Bu faoliyat uning ma'rifatparvarlik missiyasining asosiy yo'nalishini belgiladi: xalqni ilmga, ta'limga bo'lgan hurmat va e'tiborini oshirish hisoblanadi.

Bugungi kunda Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari va yangi usul maktablaridagi tajribasi o'zbek ta'limi uchun ahamiyatini yo'qotmagan. Uning pedagogik g'oyalari nafaqat o'zbek ta'lim tizimida, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi ta'lim tizimlarida ham keng qo'llanilishi mumkin. Avloniy o'zining ta'lim va ma'rifat sohasidagi xizmatlari orqali o'z vaqtida jamiyatda katta islohotlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi va bu faoliyatning bugungi kunda ham ta'lim sohasidagi islohotlarga ta'siri mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy o'zining pedagogik qarashlari, yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyati va ma'rifatparvarlik xizmatlari bilan o'z zamonining ilg'or pedagogi sifatida tarixda qoldi. Uning g'oyalari va faoliyatining bugungi ta'lim tizimidagi o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, ta'limni modernizatsiya qilish va yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. (1914). *Shuhrat* gazetasidagi maqolalar. Toshkent: O‘zbekistondagi Ma’rifatparvarlik ta’limi.
2. Iskandarov, F. (2003). *Abdulla Avloniy va o‘zbek pedagogikasi*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
3. Mahmudov, M. (2011). *Pedagogik an‘analarga bag‘ishlangan maqolalar*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.

JADIDLARNING ILM VA TA’LIMGA OID FALSAFIY G‘OYALARI

Lazizjon Baxranov

“Profi University”, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidlarning ilmga munosabati va ta’lim tizimiga ta’siri, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitratning falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Ularning yangi usul maktablari, ta’limni ommalashtirish va tanqidiy fikrlashni targ‘ib qilish orqali qo‘shgan hissassi ko‘rib chiqilib, bu g‘oyalarning bugungi kundagi ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jadidlar, ilm, ta’lim, Behbudiy, Fitrat, falsafa, yangi usul, modernizatsiya.

Аннотация. Данная статья анализирует отношение джадидов к науке и их влияние на систему образования, уделяя особое внимание философским взглядам Махмудхожи Бехбуди и Абдурауфа Фитрата. Рассматривается их вклад через создание школ нового метода, популяризацию образования и продвижение критического мышления, а также оценивается значение этих идей в современности.

Ключевые слова: джадиды, наука, образование, Бехбуди, Фитрат, философия, новый метод, модернизация.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the Jadids’ approach to science and their impact on the education system, with a particular focus on the philosophical perspectives of Mahmudkhoja Behbudi and Abdurauf Fitrat. It examines their contributions through the establishment of new method schools, the popularization of education, and the promotion of critical thinking, while assessing the relevance of these ideas today.

Keywords: jadids, science, education, Behbudi, Fitrat, philosophy, new method, modernization.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda an’anaviy madrasa ta’limi ustunlik qilardi, unda diniy fanlarga e’tibor qaratilgan, zamonaviy bilim esa ko‘pincha chetda qolardi. Jadidlar, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat, bu tizimning jamiyatning taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotganini tanqid qilib, ilmni umuminsoniy va ma’rifat vositasi sifatida ko‘rganlar. “XX asrning boshlarida o‘zlarining ma’rifatparvarlik, mustaqillik, ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalari bilan maydonga chiqqan jadidlar

mamlakatimizda ijtimoiy fikr rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar”¹⁸. Ular Islomning ilmga da‘vat qiluvchi ta‘limotlariga tayanib, uni zamonaviy kontekstda qayta talqin qilishga, ham diniy, ham dunyoviy ta‘limotlarga asoslanadigan ilg‘or jamiyat barpo etishga harakat qilganlar.

“Barchamizga ayonki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma‘rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a‘zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar”¹⁹. Jadidlar ta‘lim tizimiga yangi usul maktablari, ta‘limni ommalashtirish, qizlar ta‘limi, matbuot orqali targ‘ibot va xorijiy tajribani o‘rganish kabi islohotlar qilishga intilganlar. Bu ta‘sirning amaliy jihatlarini quyidagilardan iborat:

- Yangi usul maktablari: fonetik usul, dunyoviy fanlar va zamonaviy pedagogik vositalar ta‘lim amaliyotiga joriy qilingan.
- Ommalashtirish: ta‘lim barcha qatlamlarga, jumladan qizlar uchun teng berilishi lozim hisoblangan.
- Matbuot: “Oyina”, “Taraqqiy” kabi nashrlar ta‘lim g‘oyalarini targ‘ib qilgan.
- Xorijiy tajriba: Yaponiya va Yevropa ta‘lim modellari o‘rganilgan.
- Tanqidiy fikrlash: Mustaqil tadqiqot va fikr erkinligi targ‘ib qilingan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmga falsafiy nuqtai nazardan jamiyatning ma‘naviy va moddiy yuksalishi uchun asosiy vosita sifatida qaragan. Uning fikricha, ilm insonning aqliy va axloqiy kamolotini ta‘minlaydi, bu esa jamiyatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. U “Oyina” jurnalida “Ilmsiz millat o‘zligini yo‘qotadi” degan fikrni ilgari surgan.

Behbudiy ilmni faqat texnik bilim sifatida emas, balki ma‘rifat va axloqning asosi deb ko‘rgan. U “Ilm – qalbning nuri, uningsiz inson zulmatda qoladi” degan edi. Bu falsafa uning ta‘lim tizimiga yondashuvida yaqqol ko‘rindi – u yangi usul maktablarida bolalarga nafaqat fanlar, balki vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlar ham o‘rgatilsin, deb hisoblagan. Ta‘limni ommalashtirish orqali ijtimoiy tenglikka erishish mumkin, deb bilgan. U qizlar ta‘limiga alohida e‘tibor berib, “Ayollar ta‘limsiz bo‘lsa, millatning yarmi o‘qimaydi” degan fikrni ilgari surgan. Bu uning ilmga munosabatidagi universallik va adolatga intilishni ko‘rsatadi. Behbudiy ilmning amaliy ahamiyati (iqtisodiyot, savdo, qishloq xo‘jaligi) bilan birga, uni ma‘naviy

¹⁸ Бекжонов Д. Жади́дчи́лик фалсафасининг шаклланиш негизлари. – Урганч. “Илм сарчашмалари” журна́ли. 2021. 1-сон. – 19 б.

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. “Жади́длар: миллий ўзли́к, истиқлол ва давлатчи́лик ғоялари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табрик. <https://president.uz/uz/lists/view/6919>

yuksalish vositasi sifatida ham ko‘rgan. Uning falsafasida ilm jamiyatning moddiy muammolarini hal qilish bilan birga, uni ma‘naviy jihatdan boyitishi kerak edi.

Abdurauf Fitrat ilmga falsafiy jihatdan tanqidiy va universal qadriyat sifatida yondashgan. Uning “Munozara” va “Rahbari najot” asarlarida ilm insonning aqliy ozodligi va jamiyatning taraqqiyoti uchun asosiy shart sifatida ko‘rsatiladi. Fitratning falsafasi bir necha asosiy g‘oyalarga tayangan:

Tanqidiy fikrlash va ilmiy yondashuv: Fitrat ilmni ko‘r-ko‘rona qabul qilish emas, balki aql va tadqiqot orqali tekshirilgan bilim sifatida ko‘rgan. “Munozara”da u madrasadagi eski ta‘limni “aqlni o‘ldiradigan” tizim deb tanqid qilib, “Ilm faqat tajriba va muhokama bilan o‘sadi” degan edi. Bu uning pozitivistik va ratsional falsafasini ko‘rsatadi.

Sharq va G‘arb sintezi: Fitrat ilmning universal tabiatiga ishongan va Sharqning klassik bilimlari (Ibn Sino, Al-Farobiy) bilan G‘arbning zamonaviy yutuqlari (texnologiya, fan) o‘rtasida ko‘prik qurishni maqsad qilgan. U “Biz Sharqning ulug‘ ilmiy an‘analarini uyg‘otishimiz va uni yangi bilim bilan boyitishimiz kerak” degan fikrni ilgari surgan.

Ilm va millat uyg‘onishi: Fitrat uchun ilm jamiyatning moddiy rivojlanishidan tashqari, milliy ongni uyg‘otish vositasi edi. U “Ilmsiz millat o‘z tarixini unutadi va begona bo‘lib qoladi” deb yozgan. Bu uning falsafasida ideal va milliy g‘ururning muhimligini ta‘kidlaydi.

Evolyusion yondashuv: Fitrat ilmni statik emas, balki doimo rivojlanadigan jarayon deb bilgan. U Yaponiyaning Meydzi islohotlarini misol qilib, “Ta‘lim va ilm millatni bir asrda uyg‘otishi mumkin” degan edi. Bu uning tarixiy evolyusiya va progressga ishonchini ko‘rsatadi.

Behbudiy ilmning ijtimoiy-ma‘naviy vazifasiga ko‘proq e‘tibor bergan bo‘lsa, Fitrat uning tanqidiy va universal tabiatiga urg‘u bergan. Behbudiy ta‘limni amaliy islohotlar orqali ommalashtirishga e‘tibor qaratgan, Fitrat esa nazariy va falsafiy asoslarga ko‘proq tayangan.

Ikki mutafakkir ham ilmni jamiyatning moddiy va ma‘naviy taraqqiyoti uchun zarur deb bilgan, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirishga intilgan va ta‘limni tanqidiy fikrlashning asosi sifatida ko‘rgan.

Behbudiy va Fitratning falsafiy munosabati ularning ta‘lim tizimiga ta‘sirida amaliy ahamiyat kasb etdi. Yangi usul maktablari minglab yoshlarga zamonaviy bilim berdi. Qizlar ta‘limi va savodxonlik darajasining oshishi ijtimoiy tenglikka xizmat qildi. Matbuot orqali targ‘ib qilingan g‘oyalar milliy ongni uyg‘otdi. Bu islohotlar O‘zbekistonda zamonaviy intelligensiya sinfining shakllanishiga asos bo‘ldi²⁰.

Behbudiy va Fitratning ilmga falsafiy munosabati va ta‘limga ta‘siri bugungi kunda quyidagi jihatlarida dolzarbdir. Ularning dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlashtirish g‘oyasi STEM va raqamli ta‘limni rivojlantirishda

²⁰ Behbudiy, Maхмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 1999. – 6 б.

muhim. Fitratning tanqidiy yondashuvi innovatsiyalar va raqobatbardoshlik uchun zarur. Behbudiyning ta’limni ommalashtirish g‘oyasi gender tengligi va umumiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi. Ularning ilm orqali milliy g‘ururni uyg‘otish falsafasi ma’naviy-madaniy rivojlanishda muhim.

Jadidlar, xususan Behbudiy va Fitrat, ilmni jamiyatning moddiy va ma’naviy taraqqiyoti uchun asosiy vosita deb bilganlar. Behbudiy ilmni ijtimoiy adolat va ma’rifatning asosi sifatida ko‘rgan bo‘lsa, Fitrat uni tanqidiy fikrlash va universal rivojlanishning manbai deb hisoblagan. Ularning falsafiy munosabati yangi usul maktablari, ta’limni ommalashtirish va milliy ongini uyg‘otish orqali ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi.

Bugungi kunda ularning g‘oyalari O‘zbekistonning ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish strategiyasida muhim yo‘l ko‘rsatuvchidir. Behbudiyning ijtimoiy-ma’naviy urg‘usi va Fitratning tanqidiy-universal yondashuvi globallashuv sharoitida innovatsion va ma’rifatli jamiyat qurishda asos bo‘la oladi.

Behbudiy va Fitratning ilmga falsafiy munosabatidan kelib chiqib, amaliyotga quyidagi takliflar tavsiya qilinadi: 1) Behbudiy g‘oyalaridan ilhomlanib, qishloq hududlarda onlayn ta’lim platformalarini kengaytirish. 2) Fitratning tanqidiy yondashuviga asoslanib, maktablarda mustaqil tadqiqot va muhokama kurslarini joriy qilish. 3) Behbudiy merosidan kelib chiqib, qizlar uchun maxsus ta’lim dasturlari va stipendiyalarni ko‘paytirish. 4) Fitratning xorijiy tajriba g‘oyasiga tayanib, Finlyandiya, Singapur kabi davlatlar bilan ta’lim almashinuvini kuchaytirish.

JADIDCHILIK HARAKATIDAGI AYOLLARNING IJTIMOY FAOLLIGI VA MA’RIFIY ISLOHOTLARDAGI O‘RNI

Nurmatova Nargiza Ulug‘bekovna

“Profi University” “Pedagogika va psixologiya” kafedrası
v.b. dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakatidagi ayollarning ijtimoiy faolligi va ma’rifiy islohotlardagi o‘rni tahlil qilinadi. Ayollarning ijtimoiy faolligi, ayniqsa, Maryamxon Sultonmurodovanning faoliyati misolida, o‘z vaqtida jamiyatni o‘zgartirish va yangilashga qaratilgan sa’y-harakatlari yoritiladi. Maqola Maryamxonning Germaniyadagi ta’limi, Vatanga qaytib, ayollarga ta’lim berish va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi roli haqida so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, ayollar, ijtimoiy faollik, ma’rifiy islohotlar, Maryamxon Sultonmurodova, "Usuli jadid", ta’lim, modernizatsiya, o‘zgarish, tarixiy shaxslar.

Аннотация. В данной статье анализируется социальная активность женщин в движении джадидизма и их роль в образовательных реформах. Особое внимание уделяется деятельности Мариамхон Султонмуродовой,

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

которая своим активным участием в преобразованиях общества стремилась изменить и обновить общественные устои своего времени. Статья описывает обучение Мариамхон в Германии, ее возвращение на родину, роль в обучении женщин и реализации социальных изменений.

Ключевые слова: Движение джадидизма, женщины, социальная активность, образовательные реформы, Мариамхон Султонмуродова, "Усули джадид", образование, модернизация, изменения, исторические личности.

Annotation. This article analyzes the social activity of women in the Jadid movement and their role in educational reforms. Special attention is given to the activities of Maryamkhon Sultonmurodova, whose active participation in societal transformations aimed at changing and modernizing the social order of her time. The article discusses Maryamkhon's education in Germany, her return to her homeland, her role in educating women, and her contribution to implementing social changes.

Keywords: Jadid movement, women, social activity, educational reforms, Maryamkhon Sultonmurodova, "Usuli Jadid", education, modernization, changes, historical figures.

Jadidchilik harakati o‘zining asosiy g‘oyalarini 19-20-asrlar o‘rtalarida Turkiston va O‘rta Osiyo hududida tarqatdi. Ushbu harakatning markazida ta’lim va ma’rifatni rivojlantirish, eski tizimni yangilash va jamiyatni modernizatsiya qilish maqsadi turardi. Jadidchilik harakatda ayollarning o‘rni ham beqiyos edi. Ayollarning ijtimoiy faolligi, ta’lim tizimida va jamiyatda o‘zgartirishlar kiritishga bo‘lgan intilishlari, o‘z vaqtida muhim ta’sir ko‘rsatgan.

Jadid mutafakkirlari ham ta’limning shaxs kamolotidagi rolini yaxshi tushunganlar va xalqni marifatli qilishda ta’limni dastiyor qilganlar. Ta’lim xususida mavzu ochilsa, albatta, jadidchilik harakati vakillari tomonidan tashkil etilgan “Usuli jadid” maktablari ko‘z oldimizga keladi. Umuman olganda, jadidchilikning poydevori, tamal toshi "Usuli jadid" maktablari edi. Chunki, maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa shakllantirish lozim. Eski, an’anaviy usulda bu ishni amalga oshirish mushkul edi, chunki zamon tezkorlikni talab qilar edi. Ikkinchidan, endi bo‘lajak o‘quvchi tarix, geografiya, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlardan zamonaviy bilimlarni olishi va bilishi kerak edi²¹.

Maryamxon Sul-tonmurodova jadidchilik harakatida o‘z ijtimoiy faolligi bilan ajralib turgan. U 1905-yil 13-fevralda Xorazm viloyati Xiva shahrida tug‘ilgan. Maryamning ziyoli oilaning farzandi bo‘lganligi uchun unga ta’lim olishiga shart-sharoit yaratib berilgan. Jumladan, dastalab yangi usul maktabida, Toshkent gimnaziya maorif maktablarida tahsil oladi²². Aynan shu davr mobaynida Maryamxon Sul-tonmurodova o‘zining ilimga chanqoqligi, faolligi va tirishqoqligi bilan boshqalardan ajralib turar edi.

²¹ Saidova B.N, Abdullayeva D.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. “Bookmany print”. T.:2023. 173-bet.

²² https://uz.wikipedia.org/wiki/Maryam_Sultonmurodova

1922-yil oktabrda u Buxoro hukunati tomonidan Germaniyaga o‘qish uchun yuborilayotgan talabalar safida edi. Maryam Sultonmurodova dastlab Berlin Universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov kursida o‘qidi. So‘ng Darmshtadt shahridagi “Viktoriya” o‘qituvchilar seminariyasiga kirib ikki yil ta‘lim oldi. 1926-1927 yillarda esa Potsdamdagi “Fraunshul” ayollar maktabida amaliyot o‘tadi. 1927-yil yozgi ta‘til vaqtida dugonasi Xayrinisa Majidxonova bilan Fransiya poytaxti Parijga sayohat qilar ekan, ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustafo Cho‘qaylar bilan ikki daqiqalik tasodifiy uchrashuvi keyinchalik qatag‘on etilishi uchun asosiy bahona bo‘ldi. Maryam Berlindagi professor Genrix Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini o‘qib bitirdi va 1928-yil SSSRga qaytdi²³. U Vatanga qaytib kelishi bilan ta‘qiblarga uchray boshladi. Ish topishga qiynaldi, dastlab, hamshira bo‘lib, keyin esa O‘rta Osiyo davlat universitetiga ishga kirgan va yana ishsiz qolgan. Turmush o‘rtigining qamoqqa olinishi hamda ishsiz qolishi, hayot qiyinchiliklariga qaramasadan doimo faol va shijoatkor bo‘lishga intilgan. 1936-yildan ayollarning “Yorqin turmush” jurnaliga adabiy xodim bo‘lib ishga kirgan. U o‘zining adabiy tarjimalari va ayollarga bag‘ishlangan ijtimoiy maqolalarini bilan Turkistonliklarni, ayniqsa, ayollarni ilimli va ma‘rifatli qilishga o‘z hissasini qo‘shgan. 1937-yil 13-sentyabrda turli xil ayblovlar bilan olti oylik farzandi bilan qamoqqa olingan Maryam Sultonmurodova jazo muddati tugab ozod bo‘lgach, 1949-yil 30-martda yana qamoqqa olinadi va surgun qilinadi va 1957-yil 2-avgustda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlandi. U to‘liq oqlangandan keyin ham juda ko‘plab to‘siqlarga va qiyinchiliklarga duch keldi.

Maryamxon Sultonmurodova o‘zining ma‘rifatparvarligi, ijtimoiy faolligi va tirishqoqligi bilan jadidchilik harakatida ajralib turgan ayollardan biri bo‘ldi. U zamonaviy ta‘limni olish va o‘zining bilimlarini jamiyat rivoji uchun sarflash borasida ko‘plab yutuqlarga erishdi. Germaniyada o‘qib, dunyoqarashini kengaytirgan Maryam, Vatanga qaytib, qiyinchiliklarga qaramay, ayollarni ilim olishga undash va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shdi. Afsuski, uning faoliyati siyosiy ta‘qiblar va qatag‘onlarga duch keldi, ammo u hech qachon o‘zining ma‘rifiy ishlaridan voz kechmadi. Maryamxonning adabiy tarjimalari va ijtimoiy maqolalari Turkiston ayollarini ilmlanishga undagan va ularning huquqlarini himoya qilishga xizmat qilgan. Uning hayoti va faoliyati, o‘sha davrning siyosiy va ijtimoiy holatini o‘zgartirishga intilgan fidoyi shaxs sifatida tarixda qoladi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati, ayniqsa, ayollarning ijtimoiy faolligi va ma‘rifiy islohotlardagi roli o‘z zamonasida katta ahamiyat kasb etdi. Ayollar, xususan, Maryamxon Sultonmurodova kabi ma‘rifatparvar shaxslar, jamiyatni o‘zgartirish va yangilash borasida ulkan hissa qo‘shdilar.

²³ Баҳром Ирзаев. Туркистон жади́длари: Германиядан қайтиб икки марта сургун қилинган Марям Султонмуродова. Т. 6 сентябр 2018. <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-45436594>

Maryamxon Sultonmurodova va uning kabi jadidchilik harakatida faol bo‘lgan ayollar, bugungi kunda ham ilhom manbai bo‘lib, yosh qizlarni va ayollarimizni ijtimoiy faollikka undovchi tarixiy shaxslar sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidova B.N., Abdullayeva D.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. “Bookmany print”. T.:2023. 173-bet.
2. Баҳром Ирзаев. Туркистон жадидлари: Германиядан қайтиб икки марта сургун қилинган Марям Султонмуродова. Т. 6 сентябр 2018. <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-45436594>
3. Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар. Т.: Фан. 1996 .- 218б.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Maryam_Sultonmurodova

**МУНАВВАР ҚОРИ АБДУРАШИДХОНОВ ВА УНИНГ САФДОШЛАРИ -
ЖАДИДЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ КУНДА ҲАМ ДОЛЗАРБ ПЕДАГОГИК
ҒОЯЛАРИ**

Шарифбаева Х.Я.

“Profi University”, Педагогика ва психология кафедраси, п.ф.н., доцент

Шералиева А.

“Profi University”, Педагогика ва психология факультети, 102-гуруҳ
талабаси

Аннотация. Мақолада Мунаввар қори Абдурашидхонов ва унинг сафдошларининг педагогик ғояларининг замонавий талаблар билан ҳамоҳанг жиҳатлари кўриб чиқилган, уларнинг ғояларида мустақил таълим борасидаги қарашлариткўриб чиқилган.

Калит сўзлар: жадидлар, миллат ривожланиши, мустақил таълим.

Аннотация. В статье рассматриваются идеи Мунаввара-кори Абдурашидханова и его единомышленников в области педагогики, их созвучие с современными требованиями, а также взгляды на самостоятельное обучение, отражённые в их трудах.

Ключевые слова: джадиды, развитие нации, самостоятельное обучение.

Annotation. The article examines the pedagogical ideas of Munavvar qori Abdurashidkhanov and his associates, their alignment with modern educational requirements, as well as their views on independent learning as reflected in their works.

Keywords: Jadids, national development, independent learning

Президентимиз алоҳида таъкидлаганидек: «Биз қадимий ва бой тарихимизни, айниқса, ғоят оғир шароитда илм-маърифат, инсон

эркинлиги, халқ озодлиги, Ватанга, миллий қадриятларга меҳр ва садоқат ғояларини дадил кўтариб чиққан жадид боболаримиз фаолиятини янада чуқур ўрганишимиз лозим. Уларнинг улуғ мақсадлар йўлидаги мардона кураши ва фидойилиги Янги Ўзбекистонни қуришда барчамиз, аввало, ёшларимиз учун чинакам ибрат мактаби бўлиб хизмат қилиши зарур».

Жадидлар – XIX аср охири ва XX аср бошларида Марказий Осиёда пайдо бўлган ислохотчи зиёлилар ҳаракати бўлиб, улар ислом анъаналарига суянган ҳолда замонавий фан, таълим ва маданиятни тарғиб қилганлар.

Янги усул мактаблари (усули жадид) – Бу мактабларда янги дарсликлар ва таълим услублари қўлланилиб, ўқувчи марказда бўлиб, унинг фаол ўқувчи сифатида шаклланишига эътибор қаратилади. XX аср бошларида Туркистонда маориф ислоҳоти учун курашган жадидчилик ҳаракати кўплаб зиёли шахсларни камол топтирди. Улар орасида алоҳида ўрин эгаллайдиган шахслардан бири — **Минавварқори Абдурашидхонов**дир. У нафақат улуғ муаллим, балки замонавий мактаблар асосчиси, мустақил таълим ғояларининг илк ёйғичиларидан ҳам бири сифатида танилган.

Мунаввар қори Абдурашидхоновнинг 1906 йил 14 июн куни “Тараққий” газетасида чиқарган мақоласида шундай жумлалар бор: “Кўп диндошларимизни кўрамизки, ўз фарзандларини асло мактабга бермай, дунё-охират саодати ўлган илм ва маорифдан маҳрум қилмоқдан ҳеч ҳаё қилмаслар”. “Дунёга келиб, ўқимоқ, ёзмоқни ўрганмасдан, ёлғиз емоқ, ичмоқ ва ухламоқ ила умр ўткарган кишиларнинг бошқа ҳайвонлардан фарқлари йўқдир”-деб ёзади ўз танланган асарларида Мунавварқори Абдурашидхонов. Улар жаҳолат миллатни ривожланишдан тўхтатиши таъкидлаб, “...миллат фойдаси учун жонини қурбон қилмоққа лойиқ арслон каби йигитларимиз бутун миллатни ёдларидан чиқариб, истеъдод ва ғайратларини чойхона ва пивахоналарга сарф этмоқда” эканликларидан ўқинишади.

1922 йилда Мунаввар қорининг шогирди Салимхон Тиллахонов раҳбарлигида «Кўмак» ташкилоти пайдо бўлади. Ушбу ташкилот туркистонлик талабаларни Германияга ўқишга юборади. Бу талабалар энергетика, кимё, саноат, тиббиёт, йўл қурилиш соҳаларида асос яратишди.

Талабалар нафақат билим олишлари, балки ривожланган мамлакат таълим тизимидаги илғор таълим усуллари, шаклларини ўрганиб келиб, соҳа бўйича мутахассис бўлиш билан бир қаторда, ўз соҳаси бўйича педагогик фаолиятга ҳам тайёрланиб келишлари керак эди. Мунаввар қори бевосита муаллимлар тайёрловчи курс очиш билан ҳам шуғулланади ва 31 майда ўқитувчилар семинарияси биносида «Дорилмуаллимин» номи билан 8 ойлик курс очилади. Мунаввар

қорининг мактаб соқасидаги хатти-ҳаракатлари ушбу ҳодиса билан якун топгани йўқ. У мактаб ва дорилфунун дастурларини тузди, дарсликлар ёзди.

Мунаввар қори аёллар билим юртида ҳам дарс беради. У миллат оналарини тарбиялашга катта эътибор беради. Имкон қадар маърифатни юксалтиришга эътиборини қаратди.

Маърифатни юксалтиришда мустақил таълим муҳим аҳамиятга эга. Минавварқори мустақил таълим ғоясини жуда эрта илгари сурган. Унинг фикрича:

- Китобхонлик – таълимнинг асосий пойдеворидир.
- Ўқувчида ўз-ўзини ривожлантириш эҳтиёжи

уйғотилиши керак.

- Мулоҳаза, кузатиш ва таҳлил қилиш қобилияти – мустақил таълимнинг асосий мезонларидир.

У ўз мактабларида кутубхона ташкил этиш, ўқувчиларни мустақил ўқишга йўналтириш ва уйга вазифалар бериш орқали бунималда қўллаган.

Умуман олганда жадидлар таълимотида мустақил таълим (ўзини ўзи ўргатиш) муҳим ўрин тутди.

Жадидлар таълимотида мустақил таълимнинг асосий ғоялари:

Ўзлаштиришга йўналтирилган таълим – Жадидлар ёдлашга асосланган ўқув тизимини танқид қилиб, унга муқобил равишда фикрлаш, тушуниш ва мустақил ўрганишга асосланган усулларни таклиф қилдилар.

Замонавий фан ва билимлар – Жадидлар талабаларга фақат диний илмлар эмас, балки математика, география, тарих, табиий фанлар ва чет тилларини ўрганишни ҳам тавсия қилдилар. Бу эса талабаларни мустақил фикрлашга ундаган.

Китобхонлик ва оммавий саводхонлик – Улар китобхонликни кенг тарғиб қилар, газета ва журналлар нашр этиб, халқни мустақил билим олишга даъват этар эдилар.

Фикрий мустақиллик – Жадидлар инсон шахсиятининг шаклланишида эркин фикр ва танқидий тафаккурни муҳим деб билишган.

Янги усул мактаблари (усули жадид) – Бу мактабларда янги дарсликлар ва таълим услублари қўлланилиб, ўқувчи марказда бўлиб, унинг фаол ўқувчи сифатида шаклланишига эътибор қаратилади.

Мунаввар қори Абдурашидхонов ва бошқа жадид зиёлиларининг педагогик мероси бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Улар илгари сурган **мустақил фикрлаш, шахсий изланиш, амалий билим олиш, таълимда миллийлик ва замонавийлик уйғунлиги** каби ғоялар замонавий таълим концепцияларининг тамал тошларидир. Бугунги глобаллашув ва ахборот асрида талабаларнинг мустақил

таълимга муҳтожлиги тобора ортиб бораётган бир пайтда, жадидлар меросидан илҳом олиш, уни замонавий усуллар билан бойитиш ҳар бир педагогнинг муҳим вазифасидир. Минавварқоридек устозлар орзу қилган эркин фикрловчи, ватанпарвар, билимдон авлодни тарбиялаш – бугунги кун таълим тизимининг ҳам устувор мақсади бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Президент Ш.М.Мирзиёев. Республика маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилишидаги тутқидан. Тошкент 2023 йил 22 декабр.

2. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар (Таҳрир ҳайъати: О. Шарафиддинов, Н. Аминов, Н. Каримов вабошқ.: Масъул муҳаррир: Н. Каримов,—Т.: «Маънавият», 2003.—304 б,—(«Истиқлол қаҳрамонлари» туркуми)

**TANQIDIY FIKRLASH VA JADIDCHILIK MEROSI ASOSIDA TALABA-
QIZLARDA VATANPARVARLIK
FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH**

Xaydarova R.A.

TDSHU kata o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talaba-qizlarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda jadidchilik merosi va tanqidiy fikrlash yondashuvlarining o‘rni yoritiladi. Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy va zamonaviy talqini tahlil qilinadi, ayniqsa jadidlar faoliyati, ularning ilm-ma’rifat va ayollar ta’limiga bo’lgan e’tibori asosida yosh avlod ongida milliy o’zlikni mustahkamlash zarurligi asoslanadi. Tanqidiy fikrlash orqali talabalarning ijtimoiy faolligi, madaniy ong va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko’rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, vatanparvarlik, jadidchilik, talaba-qizlar, milliy qadriyatlar, tarbiya, ayollar ma’rifati.

Аннотация. В статье рассматривается роль наследия джадидов и подходов критического мышления в формировании патриотизма у студенток. Анализируется историческая и современная интерпретация понятия патриотизма, особенно обосновывается необходимость укрепления национального самосознания в сознании молодого поколения на основе деятельности джадидов, их внимания к науке, просвещению и образованию женщин. Показываются возможности развития социальной активности, культурного сознания и гражданской ответственности студентов посредством критического мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, патриотизм, джадидизм, студентки, национальные ценности, воспитание, женское просвещение.

Abstract. The article examines the role of the Jadid heritage and critical thinking approaches in shaping patriotism in female students. The historical and

contemporary interpretations of the concept of patriotism are analyzed, especially the need to strengthen national identity in the minds of the younger generation based on the activities of the Jadids, their attention to science, enlightenment, and the education of women is substantiated. The possibilities of developing students' social activity, cultural awareness, and civic responsibility through critical thinking are demonstrated.

Keywords: critical thinking, patriotism, Jadidism, female students, national values, upbringing, women's education.

Bugungi globalashuv, madaniyatlar to‘qnashuvi va axborot oqimining kuchaygan davrida yosh avlod, ayniqsa talaba-qizlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Jamiyat taraqqiyotida ayollarning tutgan o‘rni tobora ortib borayotgani, ularning ilmiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faolligi vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni талаб этмоқда. Mazkur jarayonda ikki asosiy g‘oya ajralib turadi: jadidchilik merosi va tanqidiy fikrlash madaniyati. Jadidlar o‘z davrida xalqni, ayniqsa ayollarni ma‘rifat va erkin tafakkur asosida tarbiyalashga ҳаракат қилган бўлсалар, bugungi kunda tanqidiy fikrlash орқали талаба-қизларда тарихий меросга, миллий қадриятларга ва замонавий ҳаёт талабларига онгли муносабат шакллантириш имконияти яратилмоқда. Maqolada ana shu ikki ilmiy-ma‘rifiy nuqtai nazarni uyg‘unlashtirish asosida talaba-qizlarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish masalasi yoritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda, bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilmini ham, milliy qadriyatlarni ham mukammal o‘zlashtirgan kadrlarga ehtiyoj katta”. Ushbu fikr²⁴ shuni anglatadiki, talaba-qizlarda faqat bilim emas, balki tanqidiy tafakkur va milliy ongni uyg‘otish ham zarur. Bu esa, vatanparvarlikni zamonaviy bilimlar asosida, ongli yondashuv bilan shakllantirishni taqozo etadi.

Vatanparvarlik – bu Vatanga muhabbat, unga sadoqat, uning erkinligi, mustaqilligi va taraqqiyoti uchun fidoyilikdir. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar asarlarida ham bu ruh yaqqol aks etgan. Jumladan, Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo najot, yo halokat masalasidir”, deya ta’kidlaydi.²⁵ Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, talaba-qizlarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish uchun ularning tarbiyasiga milliy g‘urur va mas’uliyat hissi singdirilishi lozim.

Qizlar qalbida shakllangan vatanparvarlik – oilada farzandlar tarbiyasida, maktabda o‘quvchilar orasida, jamiyatda esa barqarorlik va taraqqiyot kafolatidir. “Qiz bola – millat ko‘zgusi” degan naql bejiz emas. Shu

²⁴ Usarova, G., & Tursunova, N. (2024). Yangi O‘zbekistonni barpo etishda jadidlarning ma‘rifiy merosi. Toshkent: Ma‘naviyat.

²⁵ Usanov, A., & Axmedova, M. (2018). Tarbiya va vatanparvarlik: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

bois, ularning ongiga vatanparvarlik g‘oyalarini singdirish muqaddas vazifadir. Ayolning ma'naviy kamoloti jamiyatni ma'rifatli va vatanparvar avlod bilan ta'minlaydi.

Jadidchilik harakati – xalqimiz ma'naviy uyg‘onishining ramzidir. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida xalqni ozodlikka, taraqqiyotga va milliy uyg‘onishga chorlaganlar (Жадидчилик ҳаракатлари, 2023). Fitratning “Sen uchun o‘lmoq – mening tirikligimdir” degan satrlari, Cho‘lponning “Kishan kiyma, bo‘yin egma” degan da‘vati yoshlarni erkinlikka, vatanga sadoqatga chorlagan ²⁶. Bu qarashlar talaba-qizlarda jasorat, erkin fikr va milliy iftixor fazilatlarini rivojlantiradi.

Jadid mutafakkirlarining g‘oyalari orqali talaba-qizlarda vatanparvarlik, ongli fuqarolik va intellektual faollik fazilatlarini shakllantirish mumkin. Quyidagi jadvalda ayrim taniqli jadidlar va ularning vatanparvarlik bilan bog‘liq qarashlari, shuningdek, bu qarashlarning talaba-qizlar tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan.

1-jadval. Jadid mutafakkirlarining vatanparvarlik g‘oyalari va ularning talaba-qizlar tarbiyasidagi ahamiyati

Jadid mutafakkiri	Asosiy g‘oya	Vatanparvarlikni shakllantirishdagi ahamiyati
Mahmudxo‘ja Behbudiy	Ma'rifat orqali xalqni uyg‘otish va mustaqillikka erishish	Qizlarda ilmiy bo‘lish, mustaqil fikr yuritish va xalq xizmatida bo‘lish tuyg‘usini shakllantiradi
Abdurauf Fitrat	Millatga sadoqat, erkinlik uchun kurash – vatanparvarlikning asosidir	Qizlarda fidoyilik, jasorat va milliy g‘urur kabi fazilatlarni tarbiyalaydi
Abdulla Qodiriy	O‘z tarixini, tilini va madaniyatini qadrlash orqali millat uyg‘onadi	Talaba-qizlarda o‘zlikni anglash, milliy identitetni shakllantirishga xizmat qiladi
Cho‘lpon	Ozodlik, erkin fikr va bo‘ysunmaslik – vatanparvarlikning ruhi	Qizlarga erk va adolat uchun kurashish, huquq va hurmatni qadrlashni o‘rgatadi
Is‘hoqxon Ibrohimov	Ayollarni savodli qilish – jamiyatni rivojlantirishning poydevoridir	Qizlarda o‘z salohiyatini anglash, ma'rifatli ona sifatida vatan xizmatiga bel bo‘lash xisssini uyʻotadi

Jadid ayollari, xususan Xosiyatxon Bobojonova, Anbarcha Mamasaliyeva, Shamsiniso Abdurahmonova kabi ma'rifatparvar ayollar xalq

²⁶ Rakhimova, N. (2024). Jadid adabiyoti va yosh avlod tarbiyasi. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

ma’rifati, ayniqsa, qizlar ta’limi uchun fidoyilik bilan harakat qilganlar.²⁷ Ularning faoliyati bugungi kunda ham ibrat maktabidir. Bu faoliyat talaba-qizlarda o‘z salohiyatini anglash, tarixiy ibratdan saboq olish va faol ijtimoiy hayotga intilishni rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash orqali talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi, milliy qadriyatlarga ongli yondashuvi va fuqarolik mas’uliyati shakllanadi. Xaydarovanning tadqiqotlariga asoslanib, tanqidiy fikrlash vositalari qo‘llanilganda 78,7% talabalar vatanparvarlikni chuqurroq anglay boshlaydi, 54,3% esa o‘z qarashlarida yuqori darajada empatiya va ijtimoiy faollik namoyon qiladi. Bu, ayniqsa, sharq tillarini o‘rganayotgan talaba-qizlar uchun dolzarb bo‘lib, ular o‘z milliy o‘zligini xalqaro madaniyatlar fonida anglay boshlaydi.²⁸

Zamonaviy ta’limda talaba-qizlarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish uchun innovatsion yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotchi Tursunov ta’kidlaganidek, interaktiv usullar, loyiha asosida o‘qitish, madaniy meros obyektlariga tashrif, debatlar va refleksiya mashg‘ulotlari talabalarda milliy qadriyatlarga bo‘lgan mehrni kuchaytiradi.²⁹ Bularning barchasi vatanparvarlikni amaliy faoliyat orqali rivojlantirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash va jadidchilik g‘oyalari o‘zaro uyg‘unlashgan holda talaba-qizlar ongida mustahkam vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu ikki tushuncha – tarixiy ildiz va zamonaviy tafakkur – bir-birini to‘ldiradi. Jadidlar merosi yoshlarni erkin, mustaqil fikrlashga, o‘z milliy qadriyatlariga sadoqatli bo‘lishga undagan bo‘lsa, tanqidiy fikrlash bu g‘oyalarni bugungi real hayotga mos holda anglashga yordam beradi. Talaba-qizlar jamiyatning faol a’zolari sifatida nafaqat o‘z oila va ijtimoiy muhitda, balki milliy miqyosda ham barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi shaxslar bo‘lib yetishishlari uchun ushbu yondashuvlar g‘oyat muhimdir. Shunday ekan, tanqidiy fikrga ega, jadidlar merosini anglagan, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan vatanparvar qizlar kelajakda O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoriga aylanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usarova, G., & Tursunova, N. (2024). *Yangi O‘zbekistonni barpo etishda jadidlarning ma’rifiy merosi*. Toshkent: Ma’naviyat.
2. Usanov, A., & Axmedova, M. (2018). *Tarbiya va vatanparvarlik: nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

²⁷ Gadayeva, S. (2023). Jadid ayollarining pedagogik qarashlari va bugungi talim tizimidagi o‘rni. Buxoro: Ilm ziyo nashriyoti.

²⁸ Xaydarova, D. (2024). Tanqidiy fikrlashning vatanparvarlik fazilatlariga ta’siri. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, №1, 45–52.

²⁹ Tursunov, B. (2023). Zamonaviy ta’limda vatanparvarlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. Zamonaviy ta’lim muammolari, №2(10), 77–83.

3. Rakhimova, N. (2024). *Jadid adabiyoti va yosh avlod tarbiyasi*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
4. Gadayeva, S. (2023). *Jadid ayollarining pedagogik qarashlari va bugungi talim tizimidagi o‘rni*. Buxoro: Ilm ziyo nashriyoti.
5. Xaydarova, D. (2024). Tanqidiy fikrlashning vatanparvarlik fazilatlariga ta’siri. *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali*, №1, 45–52.
6. Tursunov, B. (2023). Zamonaviy ta’limda vatanparvarlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. *Zamonaviy ta’lim muammolari*, №2(10), 77–83.

ZAMONAVIY TA’LIMDA JADIDCHILARNING ASARLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

G.Xamidova

JDPU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası v/b dotsenti

R.Ravshanova

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada jadidchilarning boy ma’naviy va pedagogik merosi zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llanish imkoniyatlari tahlil etiladi. Asosan, ularning asarlarida ilgari surilgan axloqiy, ma’naviy va ilmiy g‘oyalarning hozirgi ta’lim texnologiyalariga qanday uyg‘unlashtirilishi mumkinligi yoritilgan. Jadid adabiyoti vositasida interaktiv, ijodiy va tarbiyaviy darslarni tashkil qilishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, zamonaviy ta’lim, axloqiy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar джадидизм, современное образование.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности применения духовного и педагогического наследия джадидов в современной системе образования. Особое внимание уделено интеграции нравственных, моральных и научных идей джадидов с современными образовательными технологиями. Анализируются эффективные методы проведения интерактивных, творческих и воспитательных занятий на основе произведений джадидов.

Ключевые слова: нравственное воспитание, педагогические технологии, интерактивные методы.

Annotation. The article explores the potential of using the rich spiritual and pedagogical heritage of the Jadids in modern education. It highlights how the moral, ethical, and intellectual ideas found in their works can be integrated into contemporary teaching technologies. The paper presents effective methods of conducting interactive, creative, and value-based lessons through Jadid literature.

Keywords: Jadidism, modern education, moral upbringing, pedagogical technologies, interactive methods.

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — ma’naviy barkamol, axloqli, mustaqil fikrlovchi shaxsni

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

shakllantirishdir. Ammo zamonaviy darslarda ko‘pincha axloqiy-tarbiyaviy jihatlar yetarli darajada aks etmaydi. O‘quv jarayonida faqat texnikaviy yondashuv emas, balki ma‘naviyatga boy, milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv ham muhim. Jadidchilarning asarlari — bu ehtiyojni qondira oladigan, boy g‘oya manbai.

Jadid adabiyotining markazida inson — axloqli, ma‘rifatli, iymonli va halol bo‘lishi kerak degan g‘oya turadi. Abdulla Avloniy – “Axloq har bir insonning ichki qonunidir” degan. Fitrat – inson burchi, jamiyatga xizmat, xalqparvarlikni targ‘ib etgan. Cho‘lpon – mehr-shafqat, adolat, o‘zlikni anglashni asosiy qadriyat deb bilgan.

Bu tushunchalar bugungi darslarda quyidagicha qo‘llanishi mumkin:

- “Vatanparvarlik” mavzusida Fitrat maqolalaridan foydalanish
- “Mehr-shafqat” darslarida Cho‘lpon she‘rlaridan namunalar o‘qish
- “Axloqiy tanlov” o‘yinlarida Avloniy hikmatlaridan foydalanish

Jadidlar darsni jonli, mazmunli va milliy ruhda olib borish tarafdori bo‘lganlar. Ularning asarlarida quyidagilar mavjud:

- Milliy identitetni shakllantirish – O‘zlikni anglash g‘oyasi
- Soddalik va bolalarga mo‘ljallangan uslub – Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limga mos
- Interfaol usullar – Dialog, hikoya, bahs-munozara uslublari
- Ma‘naviyatga urg‘u – Har bir dars orqali axloqiy xulosa chiqarish

Zamonaviy darsda bu quyidagicha amalga oshiriladi:

Pedagogik texnologiya	Jadid asari bilan uyg‘unlashuvi
Klaster usuli	Fitratning “Millatga xitob” maqolasi asosida “Yaxshi fuqaro qanday bo‘lishi kerak?” klasteri
Aqliy hujum	Avloniy asarlaridagi axloqiy masalalarni muhokama qilish
Rol o‘ynash	Cho‘lpon hikoyalaridan sahna ko‘rinishlari tayyorlash
Storytelling	“Turkiy guliston yoxud axloq” hikoyalaridan iqtiboslar asosida hikoya qilish.

Xulosa. Jadidchilarning asarlari — zamonaviy ta‘limning nafaqat ilmiy, balki ma‘naviy asosidir. Ularning axloqiy g‘oyalari, tarbiyaviy qarashlari bugungi o‘quvchilarda mustahkam iymon, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarni shakllantirishda bebaho manba hisoblanadi.

Tavsiyalar:

1. Jadidlar asarlarini ta‘lim dasturlariga integratsiya qilish taklif etilsin.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

2. Pedagogik texnologiyalar asosida asarlarni soddalashtirib o‘qitish metodikasi ishlab chiqilsin.
3. O‘qituvchilar uchun maxsus “Jadid adabiyoti va tarbiya” yo‘nalishida seminar-treninglar tashkil etilsin.
4. Interaktiv dars ishlanmalari jamlanmasi yaratilishi tavsiya etiladi.
5. Talabalarda milliy adabiyot orqali axloqiy qarashlar shakllanishi monitoring qilinsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedova, D. (2021). Jadidchilik va pedagogik tafakkur. Toshkent: Ma’naviyat.
2. Yoqubova, G. (2022). Pedagogik meros va milliy tarbiya. Toshkent: Ilm Ziyo.
3. Turg‘unova, M. (2023). Jadid adabiyoti va zamonaviy ta’lim. Samarqand: Zarafshon.
4. Islomova, M. (2021). Tarbiya texnologiyalari: an’ana va innovatsiya. Andijon: Barkamol.
5. Mamatqulova, S. (2020). Jadidlar asarida axloqiy tushunchalar. Buxoro: Fan nuri.
6. Karimova, R. (2024). Milliy qadriyatlar va interaktiv metodlar. Toshkent: Pedagog nashriyoti.

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARI VA ULARNING FAOLIYATI

Mirazimova Muxabbat Normatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Baxromjonova Sevinch

JDPU talabasi

Annotasiya. Maqolada jadidchilik harakati namoyondalari va ularning faoliyati, Jadidchilik harakatining tushunchasi va maqsadi hamda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Shahristoniylarning faoliyati haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: Jadidchilik harakati, milliy o‘zlik, qadimgi an’anaviy madrasalar, falsafiy g‘oyalarni o‘rgatish, ilmiy tafakkur, ayollar ta’limi.

O‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalarning Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

Shu nuqtai nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojida o‘rni va ta‘sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma‘rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surgan. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma‘naviy-ma‘rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibrat, Xivada Boboovun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi.

Jadidchilik harakati namoyondalari va ularning faoliyati. Jadidchilik harakati 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida, asosan Turkiston hududida va boshqa musulmon mamlakatlarida boshlangan ijtimoiy, madaniy va siyosiy yangilanish harakatidir. Bu harakatning asosiy maqsadi islohotlar o‘tkazish, jamiyatni zamon talablariga mos ravishda o‘zgartirish va ilmiy-texnologik taraqqiyotga erishish edi. Jadidchilik, shuningdek, turkiy xalqlar orasida milliy uyg‘onishning boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Jadidchilik harakatining tushunchasi va maqsadi. Jadidchilik atamasi “yangi” degan ma‘noni bildiradi va bu harakatning asosiy maqsadi eski an‘analardan voz kechib, yangilanishga intilishdir. Jadidlar, ya‘ni jadidchilik harakati a‘zolari, asosan ilmiy va madaniy yangilanishlar orqali musulmon jamiyatlarini modernizatsiya qilishga intilganlar. Ularning asosiy g‘oyalaridan biri, maktablarda Yevropa ta‘limini joriy etish, yoshlarni yangi fikrlarga o‘rgatish, eski an‘anaviy qarashlarni yangilash edi. Bu harakat o‘z vaqtida mavjud ijtimoiy va siyosiy tizimga qarshi bo‘lib, ular xalqning bilim va madaniyatini rivojlantirishga e‘tibor qarata boshladilar.

Jadidchilik harakatining namoyondalari. Jadidchilik harakati, turli hududlarda va turli shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Asosiy namoyondalar va ularning faoliyatini quyidagicha ta‘riflash mumkin:

1. Ismoilbek Gasprinskiy. Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914) jadidchilik harakatining eng mashhur namoyandalaridan biri bo‘lib, u “tartib” va “yangi o‘qitish” g‘oyalari bilan tanilgan. Gasprinskiy "Tercüman" gazetasi

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel


orqali o‘z g‘oyalarini ommaga yetkazdi. Uning asosiy maqsadi – turkiy xalqlarni ilm-fan va madaniyatda rivojlantirish edi. U turk tilini o‘qitishni targ‘ib qildi va eski ilmiy usullarni yangilab, o‘quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirishga harakat qildi.

2. Abdulla Avloniyning faoliyati. Abdulla Avloniyning faoliyati jadidchilik harakatining eng muhim bosqichlaridan biridir. Avloniyning “Turkiston” gazetasini nashr etish va o‘zining “Ma’rifat” (ilmdan) haqidagi g‘oyalari jadidchilik harakatining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U, shuningdek, yangi pedagogik tizimni ishlab chiqdi va maktablarni isloh qilishga katta e’tibor qaratdi. Avloniy maktablarda, ilmiy va axloqiy ta’limga asos solgan, o‘quvchilarga diniy ta’lim bilan birga, zamonaviy bilimlarni ham berishni maqsad qildi.

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) jadidchilik harakatining muhim namoyandalaridan biri sifatida tanilgan. U o‘z faoliyatida o‘qitish va jamiyatni yangilash g‘oyalariga katta e’tibor qaratdi. Behbudiy o‘zining ma’rifiy ishlari bilan ayniqsa o‘zbek tilida ilm-fan va adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. U o‘z vaqtida turkchilikni rivojlantirishga, turkiy xalqlarni birlashtirishga, darsliklarni modernizatsiya qilishga katta e’tibor berdi.

4. Shahrisoniy. Shahrisoniy (1878-1920) jadidchilik harakatining yana bir faol namoyandasi bo‘lib, u o‘z faoliyatida yangi maktab tizimini yaratishga intildi. Shahrisoniy, o‘zbek xalqining madaniy merosini saqlash va uni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirdi. Uning o‘ziga xos yondashuvi, jamiyatni ilmi jihatdan rivojlantirishga qaratilgan edi.

Jadidchilik harakatining taqdirini belgilagan tushunchalar. Jadidchilik harakati davomida bir nechta yirik tushunchalar shakllandi, ular orqali harakatning asosiy maqsadlari va yo‘nalishlari belgilandi:



**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

- Ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish: Jadidchilik harakati a‘zolari ilmiy va madaniy islohotlarni amalga oshirishga intildilar. Yangi ta’lim tizimi yaratilib, o‘quvchilarga zamonaviy ilm-fan berilishi kerak deb hisoblandi.
- Milliy uyg‘onish: Jadidchilik harakati o‘z vaqtida milliy uyg‘onishning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Bu, nafaqat o‘zbeklar, balki butun turkiy xalqlarning tarixiy va madaniy merosini tiklashga qaratilgan edi.
- Islohotlar: Jadidchilik harakati, ijtimoiy tizimni isloh qilish, hukumatning o‘zgarishini talab qildi. Jadidlar jamiyatni o‘zgartirish, yangilash, progressiv islohotlarni amalga oshirishni maqsad qildilar.

Xulosa qilib aytganda, Jadidchilik harakati, o‘z vaqtida jahonda amalga oshirilgan yangilanishlar va islohotlar bilan taqqoslanadigan, mustaqil fikrlarni targ‘ib qilgan muhim bir ijtimoiy harakat bo‘ldi. Uning namoyondalari va ularning faoliyatlari, o‘z zamonasi uchun juda muhim bo‘lib, turkiy xalqlarning taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Jadidchilik, nafaqat ilm-fan va madaniyat sohasida, balki milliy uyg‘onish va islohotlar jihatidan ham xalqning o‘zligini anglashiga yordam berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gasprinskiy, I. Tercüman gazetasi. – Stambul: Tercüman nashriyoti.
2. Avloniyning asarlari. Ma’rifat va “Turkiston” gazetasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Behbudiy, M. O‘zbek tilida ilmiy va pedagogik ishlar. – Samarqand: Behbudiy nashriyoti.
4. Shahrisoniy, I. Jadidchilik va uning rivoji. – Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Muminov, A. Jadidchilik va uning tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
6. Mirza, A. Jadidchilik harakati: Tashkilot va faoliyat. – Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.
7. Jadidchilik harakati va uning ta’siri. O‘zbekiston tarixi va madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
8. Abdullaev, M. Jadidchilikning turkiy xalqlarga ta’siri. – Toshkent: Sharq nashriyoti.

**TARAQQIYPARVAR JADID ABDULLA AVLONIY – JAMOAT ARBOBI VA
ISTE‘DODLI PEDAGOG**

Ashirmatova Moxigul Esanali qizi

“Profi University” (nodavlat OTM)

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Axmedova Nilufar Esanaliyevna

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

“Psixologik ta’minlash markazi” katta psixologi, kapitan

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Annotatsiya. Ushbu maqola jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat g‘oyalari asosidagi pedagogik fikr rivojiga katta hissa qo‘shgan mashhur o‘zbek yozuvchisi, dramaturg, pedagog va ustoz A.Avliniyning roliga bag‘ishlangan.


Kalit so‘zlar: jadidchilik, g‘oya, pedagog, yozuvchi, Abdulla Avloniy, ma‘rifatparvar, davr, xalq ta’limi, avlod, ziyoli, mutaxassis.

Аннотация. Данная статья посвящается роли А.Авлони, известного узбукского писателя, драматурга, просветителя и педагога, внесшего значительный вклад в развитие педагогической мысли на идеях общественно-политического движения джадидизм.

Ключевые слова: джадидизм, идея, просветитель, писатель, Абдулла Авлони, эпоха, народное образование, поеоление, интеллигент, специалист.



Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida grim tatarlar o‘rtasida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini **taraqqiyparvarlar**, keyinchalik **jadidlar** deb atashgan. O‘sha ning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Ulardan biri mashhur o‘zbek ma‘rifatparvari, shoiri va jamoat arbobi Abdulla Avloniy.



Abdulla Avloniy o‘zbek xalqining san‘ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo‘lga qo‘yishda katta xizmatlar qilib kelgan adibdir. Faqatgina pedagog - deb atasak, lekin nafaqat pedagog balki teatrshunos, vatanparvar, shijoat bilan jonbozlik ko‘rsatgan ma’naviyatli va tarbiyasi mukammal insonlardan edi.

1878-yil 12-iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tug‘ilgan. Eski maktabda savod chiqardi, madrasada tahsil oldi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan odamlar eshigida mehnat qildi, g‘isht quyish,

suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug‘ullandi, “Imoratchi usta” degan nom oladi. Abdulla Avloniy she‘rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko‘rina boshladi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo‘lgan Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909-yilda “Jamiyati xayriya” uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917-yillarda matbuotdagi qizg‘in faoliyati, ko‘plab publitsistik maqolalari bilan “bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag‘on, ikkinchi yoqdan el orasiga o‘zgarish tuxumini sochg‘on” ham Abdulla Avloniy bo‘ldi.

Abdulla Avloniy o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913 yilda “Turon” nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to‘siqlar bor edi. Bu to‘siqlarning asosi Chor hukumati edi, nima uchun chor hukumati bunga qarshilik qilganini barchamiz juda yahshi bilamiz, ammo adibning vatanparvarligi o‘z faoliyatida muhabbati oldida, bu cheklovlar hech ham to‘siq bo‘la olmadi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg‘onishiga yordam ko‘rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabatda bo‘lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma‘rifati yo‘lidagi zo‘r jasorati edi. Abdulla Avloniy bunday katta ishni o‘z teatr jamoasi bilan uddalashga erishgan va ular insonlarga ma‘naviyat urug‘larini sochishga ularning asil kimning avlodlari ekanligini eslashga yana bir katta dastak bo‘lgan. Abdulla Avloniyning ham adabiyotga ham san‘atga bo‘lgan mehri o‘zgacha edi va ular o‘zlarining faoliyatlarini teatrdan ham yuksak darajada olib borganlar va teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi:

“Avloniy truppa” uchun “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Ikki muhabbat”, “Portug‘oliya inqilobi” kabi drammlar yozdi, “Uy tarbiyasining bir shakli”, “Xiyonatkor oilasi”, “Badbaxt kelin”, “Jaholat”, “O‘liklar”³⁰ kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi” Ammo bu asarlar nashr qilinmadi adib o‘z aoliyatidan ortga chekinmadi va doimo ilm yo‘lida jonbozlikda yetakchilik qildilar. 1916 yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, “Turon” truppasi bilan birga “Layli va Majnun” spektaklini qo‘yadi³¹. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a‘zolari bilan Avloniy 1914-1916 yillari Farg‘ona vodiysida gastrollarda bo‘ladi.

1914-1915 yillarda Advakat Ubaydulla Xojayev³² bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasida hamkorlik qildi. Gazetadag she‘r va maqolalar Abdulla Avloniyning qalamiga mansub bo‘lib va ular tezda katta mavq‘e va e‘tibor

³⁰ Ziyoy Said Tanlangan asarlar 1974 44-bet

³¹ S.Islomova hotirlaridan

³² U. A.Xo‘jayev Sadoyi Turkistin muhariri 1938

qozondi. Abdulla Avloniy 1917 yil to‘ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy ma‘rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandaligidan edi. Adib o‘z faoliyatini barchaga yetishiga barcha ma‘naviy yuksalishini doimo istagan shuning uchun ham ko‘p bora o‘z safarlarini uyushtirgan. Abdulla Avloniy ilg‘or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag‘larga dunyoviy ilmlarni o‘qitadigan “Usuli jadid”, ya‘ni yangicha ilg‘or usuldagi maktablar ochdilar va bu maktablarda xalq bolalarini o‘qitdilar. Ular o‘z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatdilar. Abdulla Avloniyning vatanga bo‘lgan muhabbatini tatr olamizdagi faoliyatidan ham ko‘rib guvohi bo‘lishimiz mumkin adib teatrdan tushgan ezgu ishlarga maktablari madrasalar qurish yangi o‘quv asarlar yaratishga sarflaganlar, nimaga adib bugungi kunda ham ez‘ozlani buyuk ma‘rifatbarvar deyilishining asosiy sababi ham ularning ezgu buyuk ishlariva mehnatlaridandir. Abdulla Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o‘quv asbob va jihozlarini o‘zgartirdi, o‘z qo‘li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag‘al kishilarning bolalari bo‘lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta‘minlash maqsadida, do‘stlarining ko‘magida “Jamiyati xayriya” tashkil etadi va bu jamiyatga o‘zi raislik qiladi. Abdulla Avloniy tashkil etgan maktablarning asosiy o‘quvchilari sharoiti og‘ir o‘quvchilar bo‘lgan siz aytishingiz mumkin, nima uchun deb, - albatta har bir inson ilm olish huquqiga ega, ammo har bir inson ham bunga sharoiti to‘g‘ri kemasligi mumkin. adib o‘zi mehnatda toblangani uchun o‘quvchi-yoshlarga bilim berish bilan ularni sharoitini yaxshilashga, o‘qib bilimga ega bo‘lib, bir ma‘naviyatchi inson bo‘lishiga tilakakdosh bo‘lganlar. Shu bilan birgalikda “Nashriyot” shirkati tuzib, Xadrada “Maktab kutubxonasi” nomli kitob do‘konini ochdi. Avloniyning maktabi o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalariga ko‘ra mashg‘ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o‘z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o‘z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob-kitob, hikmat kabi fanlardan muayyan ma‘lumotlar beradi. Adibning har bir fanda ilg‘or har bir sohada yuqtuqlarga bo‘y ekanligi bilan o‘z maqsadi yo‘lida tinim bilmaganlarini, maqsadlariga erishib nafaqat o‘z hayotlarini balki o‘z ona vataniga ulkan ishlar qilib, iz qoldirganlarini guvohi bo‘lamiz. Abdulla Avloniy 1917-yil to‘ntarishidan keyin, 1918 yildan boshlab Respublikamizda o‘qituvchilar uyushmasi, qorovullar, tunukachilar, konchilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Adib har doim o‘z vaqtini ezgu va ulug‘ ishlarga sarf etganlar va buni bizga ham tavsiyalarida qoldirganlar. Sobiq eski shahar ishchi dehqon Sovet Ijroiya Komitetiga rais qilib saylanadi. Avloniy Turkiston Respublikasi milliy Komissariyatining mas‘ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar

va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug‘ullanadi. 1919-1920 yillarda Avloniy Afg‘onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida bosh konsul bo‘lib ishladi. Abdulla Avloniy konsul bo‘lib ishlagan yillar o‘z yurtlari va Afg‘oniston xalqlari orasida do‘stona munosabatni shakllantirishda jonbozlik ko‘rsatib Afg‘on shohi tomonidan ham izzat va e‘tiborga musharaff bo‘lgan adiblardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, adib har bir makonga borganda o‘z ma‘naviyatini ulug‘lashga u joyni ham o‘z ma‘naviyat egalari bilan boyitishni istagan va buni to‘liq tarzda uddasidan chiqqan. Xalqimiz o‘rtasida birodarlikni mustahkamlash sohasidagi olib borgan ishlari uchun Afg‘oniston shohi Omonullaxon tomonidan kumush soat bilan taqdirlangan. Bular Avloniyning tariximizdagi o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatadi. 20-yillarda Avloniy turli ijtimoiy vazifalar bilan birga muallimlik kasbini ham davom ettirdi, savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. Abdulla Avloniy faqatgina maktab asoschisi bo‘libgina qolmay o‘zi ham birgalikda bolalarga taxsil bergan, o‘z faoliyatlarini pedagoglikka ham ulab bolalarga bo‘lgan mehrlarini maktablarda ilg‘or g‘oyalari bilan maktab rivojiga hissa qo‘shib kelgan ulug‘ mutafakkirlarimizdan biri bo‘lib qolgan.

“Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir.” Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar, yosh kelajagimiz uchun dasturu-amal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 2020-yil 8-oktabr №5598-sonli Farmon.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmoni.
4. Abdulla Avloniy. Afg‘on sayohati. Kundaliklar. Sharq yulduzi 1990, 7-son.

JADIDCHILIK G‘OYALARIDA IJTIMOIIY G‘OYALAR

Choriyeva Nargiza Ibotovna
“Profi University”, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada Jadidchilik harakati namoyondalari g‘oyalarida ijtimoiy g‘oyalar va uning ahamiyati haqida so‘z boradi.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Tayanch tushunchalar: Jadidchilik, ijtimoiy g‘oyalar, yoshlar, adabiyot, ta’lim, tarbiya

Аннотация. В статье рассматриваются социальные идеи и их значение в идеях деятелей джадидистского движения.

Ключевые слова: джадидизм, социальные идеи, молодежь, литература, образование, воспитание

Annotation. The article will talk about social ideas and its significance in the ideas of the exponents of the Jadidism movement.:

Keywords: Jadidism, social ideas, youth, literature, education, upbringing.

O‘lkamizda vujudga kelgan Jadidchilik g‘oyalari nafaqat ma’rifat, balki ijtimoiy taraqqiyot, milliy o‘zlikni anglash va zamonaviy dunyoga moslashuv kabi chuqur g‘oyalarni olg‘a surdi. Jadidchilik o‘zi qanday vujudga kelgan?

Jadidchilik yoki jadidizm – XIX asr oxiri XX asr boshida [Turkiston](#), [Kavkaz](#), [Qrim](#) va [Tatariston](#) ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida [Qrimda](#) vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan [O‘rta Osiyoda](#) tarqaldi.|| Jadidchilik qay darajada o‘rganildi va bugungi kunda mutaxassislar oldida yechimini kutayotgan yana qanday dolzarb muammolar bor? Ma’rifatparvar jadidlar adabiy-ilmiy merosini qaysi mavzular kesimida va qay mezonlar asosida tadqiq qilish zarur? Ular asarlaridagi qaysi g‘oyalardan bugungi avlod tarbiyasida foydalanish kerak? Bu kabi savollar jadidchilik va jadid adabiyotini tizimli va rejali asosda o‘rganish istiqbollarini belgilash uchun ham muhimdir. Biz jadidchilik bo‘yicha shu paytgacha bajarilgan ulkan va salmoqli ishlarni sinchiklab o‘rganish, shundan so‘ng ularni munosib davom ettirish haqida o‘ylashimiz kerak. Holbuki, o‘zbek va dunyo olimlari jadidchilik hamda jadid adabiyotini u shakllangan va takomilga erishgan XX asr avvalidanoq tadqiq qila boshlagan. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurahmon Sa’diy, Olim Sharafiddinov, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Ahmad Shukriy singari o‘zbek, Ismoilbek Gasprali, Zarif Bashiriy, Jalil Mamatqulizoda kabi qardosh adabiyotshunoslar, shuningdek, rus olimlaridan V.Bartold, A.Samoylovich va A.Pyaskovskiy tadqiqotlari shular jumlasidandir. Jadidlar o‘lkani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham o‘ziga xos qarashlarga ega edi. Taraqqiyparvarlar o‘z faoliyatlari davomida o‘lka xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, kasb-kori, shart-sharoitlaridan xabardor bo‘lishgan. Ma’naviyatni shakllantirishdagi muhim omil esa mamlakat yoshlarining ta’lim-tarbiya tizimi bo‘lib, uning dolzarbligini jadidlarning yetuk namoyondalaridan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi quyidagi satrlar ham isbotlaydi: “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, “Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidir” degan fikrlari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Risola XX asr Turkiston axloqiy tafakkurida salmoqli o‘rinni

egallaydigan, ham nazariy, ham amaliy axloq muammolarini falsafiy va pedagogik yondashuv orqali hal etishga bag‘ishlangan yirik asardir. Jadidlar tomonidan olib borilgan islohotlar, o‘z navbatida, aholi orasida ta‘lim darajasini oshirishga, milliy uyg‘onish va mustaqilligini oshirishga yordam berdi. Ularning merosi hozirgi kunda ham ta‘lim tizimini rivojlantirishda o‘rin tutadi, cho‘zilishi va takomillashtirilishi davom etmoqda. Ta‘lim jarayonida jadidlarning g‘oyalari va yondashuvlari Yangi O‘zbekiston ta‘lim tizimida hali ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jadidlarning g‘oyalari, o‘lkani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda o‘ziga xos g‘oyalar mavjud bo‘lganligi, milliy uyg‘onish va zamonaviy dunyoga moslashuvni ilgari surgan holda, o‘z asarlarida ta‘lim tizimini yangilash va ijtimoiy g‘oyalarni rivojlantirishga urg‘u berilgan. Ularning merosi bugungi kunda ham ta‘lim tizimida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov.N. Jadidchilni nega va qanday o‘rganishimiz kerak? “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2023 yil 19-dekabr, 263-son
2. Jadidchilik. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>
3. Dadajonova F.A. YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ABDULLA AVLONIYNING AHLOQIY, TA‘LIMIY QARASHLARI. JADIDLARNING MA‘RIFIY FAOLIYATI: G‘OYALARI, MAQSADLARI, VAZIFALARI VA SOHAGA OID ZAMONAVIY TADQIQOTLAR Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami 2022-yil 17-oktabr
4. Eshumurodov I. JADIDLAR HARAQATI VA ULARNING ASOSIY G‘OYALARI. “FALSAFA VA INSONIYAT: O‘TMISH, HOZIRGI ZAMON, KELAJAK” ILMIY-NAZARIY ANJUMAN ALFRAGANUS UNIVERSITY. 4(26), Nov., 2024
5. Jadidchilik. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>.

JADIDCHILAR ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLARNING IFODALANISHI

M.S. Usmanova

JDPU, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrası dotsenti

D.Akbarova

talaba

Annotatsiya. Maqolada 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda jadidchilarning o‘z asarlarida ifodalangan pedagogik qarashlari ko‘rib chiqiladi. Jadidlar ta‘lim-tarbiya, zamonaviy ta‘lim usullari va madaniy qadriyatlarni targ‘ib qilish orqali jamiyatni isloh qilishga intildi. Ular intellektual o‘rishga, axloqiy rivojlanishga va ijtimoiy faollikka yordam beradigan yangi ta‘lim g‘oyalarini joriy etishga harakat qilishdi. Maqolada bu qarashlar

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

ularning asarlarida qanday aks etgani va bugungi ta’lim tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatgani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, Pedagogik qarashlar, Ta’lim islohoti, Intellektual taraqqiyot, Axloqiy tarbiya, Ijtimoiy o‘zgarishlar

Annotation. This article explores the pedagogical views expressed in the works of the Jadidists during the late XIX and early XX centuries in Central Asia, particularly Uzbekistan. The Jadidists aimed to reform society through education by promoting modern pedagogical methods and cultural values. They sought to introduce new educational ideas that would foster intellectual growth, moral development, and social activism. This article examines how these views were manifested in their works and their influence on today’s education system.

Keywords: jadidism, pedagogical Views, education Reform, intellectual Development, Moral Education, Social Change

Аннотация. Статья рассматривает педагогические взгляды джадидистов, выраженные в их произведениях в конце XIX — начале XX века в Центральной Азии, в частности в Узбекистане. Джадидисты стремились реформировать общество через образование, продвигая современные педагогические методы и культурные ценности. Они пытались внедрить новые образовательные идеи, способствующие интеллектуальному росту, моральному развитию и социальной активности. Статья анализирует, как эти взгляды проявлялись в их произведениях и какое влияние они оказали на сегодняшнюю систему образования.

Ключевые слова: Джадидизм, Педагогические взгляды, Реформа образования, Интеллектуальное развитие, Моральное воспитание, Социальные изменения.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning ijtimoiy, madaniy va ta’lim tizimiga katta ta’sir ko‘rsatgan tarixiy jarayondir. Jadidchilar pedagogik qarashlari orqali jamiyatda o‘zgarishlar qilishni, xalqni ilmi va axloqli qilishni maqsad qilganlar. Ularning asarlarida ta’lim va tarbiya sohasidagi yangi yondashuvlar va g‘oyalar ko‘plab jamiyat a’zolarining fikrini o‘zgartirishga, yangicha bilim olishga va ijtimoiy faollikka turtki bo‘lgan. Ushbu maqolada jadidchilikning pedagogik qarashlari tahlil qilinadi va ularning ta’limdagi roli o‘rganiladi. Jadidchilik harakati O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixida ijtimoiy, madaniy va ta’lim sohasida katta iz qoldirgan bir davrni tashkil etadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilar yangi pedagogik yondashuvlarni, milliy qadriyatlarni saqlagan holda, ilmiy va madaniy rivojlanishga urg‘u berdilar. Ularning asarlarida ta’lim va tarbiya sohasidagi pedagogik qarashlar, ahloqiy tushunchalar va me’yorlar o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Ushbu maqolada jadidchilarning asarlaridagi pedagogik qarashlar, o‘quvchilarni tarbiyalashda ahloqiy tushunchalar va ularning mezonlari tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 iyuldagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorda har yili oktyabr oyining birinchi haftasini Qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Bunga ko‘plab vazirliklar, agentliklar va davlat idoralari mas‘ul qilib belgilab qo‘yildi. Jadidchilikning pedagogik g‘oyalari zamon bilan o‘zgarib, ulardan ba‘zilarining bugungi kundagi ta‘lim tizimida o‘rni aniq ko‘rinadi. Hozirgi kunda jadidchilikning ta‘lim sohasidagi asosiy g‘oyalari, masalan, ilmni qadrlash, zamonaviy pedagogik uslublarni joriy etish, milliy qadriyatlarni o‘rganish, va bilim olishda insonparvarlik prinsiplarini qo‘llash, ta‘lim jarayonini yangilashda muhim o‘rin tutmoqda.

Jadidchilik harakati asarlarida pedagogik qarashlar o‘zining aniq ifodasini topgan. Ular ta‘limni yangilash, o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik usullar bilan ta‘lim berishga tayyorlash, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan fikrlarni ilgari surganlar. Jadidchilar o‘z asarlarida har bir insonni o‘qitish va tarbiyalashda samimiylik va mehnatni asosiy omil deb bilganlar. Ularning pedagogik qarashlari, milliy o‘zlikni anglash, xushyoqish va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Jadidchilar asarlarida axloqiy tushunchalar va me‘yorlar ta‘lim jarayonining markazida turadi. Ularning asarlarida eng muhim axloqiy tushunchalar quyidagilar:

- **Haqiqatchilik va adolat:** Jadidchilar haqiqatga sadoqatni, adolatli va halol bo‘lishni ta‘limning asosiy tamoyillaridan biri deb bilganlar. Ta‘lim faqat bilim olishga emas, balki haqiqatni izlashga va ijtimoiy adolatni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak edi.

- **Mehnat va samimiyat:** Jadidchilar o‘quvchilarga mehnatni qadrlashni, samimiy va to‘g‘ri yashashni o‘rgatganlar. Ularning nazarida mehnat nafaqat jamiyatni rivojlantirish, balki shaxsni ma‘naviy ravishda o‘rishiga ham yordam beradi.

- **O‘zlikni anglash va milliy g‘urur:** Jadidchilar xalqning milliy o‘zligini, tarixini va madaniyatini anglashni ta‘limda asosiy tamoyil sifatida ko‘rganlar. Bu, o‘z navbatida, ahloqiy mas‘uliyatni oshirishga yordam beradigan omil bo‘lib xizmat qilgan.

- **Insonparvarlik va hamdardlik:** Jadidchilikning ahloqiy mezonlaridan yana biri – insonparvarlikdir. Jadidchilar insonlarni bir-birini tushunishga, yordam berishga va jamiyatdagi muammolarni birgalikda hal qilishga undaganlar.

Jadidchilar asarlarida pedagogik qarashlar ta‘limning ijtimoiy, axloqiy va madaniy ahamiyatini anglashning yangi yo‘llarini ochdi. Ularning g‘oyalari nafaqat ilmiy bilimlar, balki ahloqiy qadriyatlarni ham o‘z ichiga olgan. Jadidchilarning ahloqiy tushunchalari va me‘yorlari ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat ilmiy, balki axloqiy rivojlanishiga ham katta e‘tibor qaratgan. Bu, o‘z navbatida, bugungi kunda ta‘lim tizimida juda dolzarb va muhim.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Respublika oliy ta’lim muassasalarida ham jadidchilik tarixi masalalari keng tadqiq qilinmoqda, jumladan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadid yo‘lboshchilarining hayoti, faoliyati va ilmiy merosi alohida tadqiq qilinmoqda. Nafaqat tarixchilar, balki tilshunoslar, adabiyotshunoslar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, pedagoglar, faylasuflar ham jadidchilik masalalarini o‘rganmoqdalar. Tilshunoslar va adabiyotshunoslar jadidlarning til va adabiyot yo‘nalishidagi faoliyatini chuqur tahlil qilayotgan bo‘lsalar, pedagoglar ta’lim sohasidagi xizmatlarini ochib bermoqdalar. Jadidchilik harakati pedagogik qarashlarida ta’limning ijtimoiy, axloqiy va madaniy ahamiyatini anglashning yangi yo‘llarini ochdi. Bugungi ta’lim tizimi uchun jadidchilar asarlarini o‘rganish va ulardagi pedagogik g‘oyalarni hayotga tatbiq etish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tavsiyalar.

1. Jadidchilik pedagogikasini o‘rganish va uni hozirgi ta’lim tizimida joriy etish.
2. Jadidchilikning ta’lim sohasidagi innovatsion yondashuvlarini ilmiy tadqiqotlarga asoslanib yanada chuqurroq o‘rganish.
3. Jadidchilik g‘oyalarini zamonaviy ta’lim metodlarida qo‘llash va ta’lim jarayonini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo‘jaev M. “Jadidchilar va ularning pedagogik qarashlari”. Toshkent: O‘zbekiston xalq ta’limi nashriyoti, 1998.
2. Jadidchilik harakati: tarix va pedagogika. Tahririyat: A. Karimov, B. Raxmatov. Toshkent, 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim siyosati va pedagogik yangiliklar. Toshkent, 2023.

YOSHLAR TARBIYASIDA JADIDLAR MEROSINING AHAMIYATI

Maxmudova Surayyo Ramazonovna

“Profi University” Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ajdodlar tajribasi va zamonaviy yutuqlarni umumlashtirgan holda, bugun biz o‘quvchilarga jadid bobolarimizning ilgari surilgan ma’rifatparvar g‘oyalarini, ularning vatanga va xalqiga bo‘lgan sadoqatini, ulkan xizmatlarini, beg‘araz mehnatlari, bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlari haqida fikrlar yuritilgan. Ularning tajribasi hamda ma’rifatparvar g‘oyalarini ilm-fan va madaniyatini, milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ham o‘rganishimiz kerakligi to‘g‘risida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Mahmudxo‘ja Bexbudiy, milliy uyg‘onish, ta’lim islohotlari, jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, ta’lim tizimi, milliy madaniyat, ilm-fan.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Аннотация. Обобщая опыт предков и современные достижения, сегодня мы доносим до учащихся идеи просветительства, выдвинутые нашими джадидскими предками, их преданность Родине и народу, их огромные заслуги, бескорыстный труд, готовность направить все силы и возможности на благо общества. В статье раскрывается необходимость изучения их опыта и просветительских идей, научного и культурного наследия, а также идей национального возрождения и развития.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбудий, национальное возрождение, реформы в образовании, движение джадидов, просветительство, система образования, национальная культура, наука.

Annotation. By synthesizing the experiences of our ancestors with modern achievements, today we present to students the enlightening ideas promoted by our Jadid forefathers, their loyalty to the homeland and the people, their great contributions, selfless labor, and commitment to mobilizing all their strength and resources for the good of society. This work highlights the importance of studying their experiences and enlightening ideas, as well as the need to explore their contributions to science, culture, national revival, and development.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudi, national revival, educational reforms, Jadid movement, enlightenment, education system, national culture, science.

Keyingi yillarda ma’rifatparvar bobolarimiz g‘oyalarini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev tomonidan ilg‘or tashabbuslar ilgari surilmoqda. “Jadid” nomli gazeta faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, Buxorodagi tarixiy maskanda jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etishga oid amaliy ishlar buning yorqin dalilidir.

Jadidchilikning o‘ziga xosligi nimada? Eng avvalo, ularning aql-zakovati favqulodda yuksak rivojlangan, ham Sharq, ham G‘arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega bo‘lgan. Deyarli barchasi oliy diniy ta’lim olib, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy she’riyati, o‘rta asrlarda yaratilgan falsafiy risolalarni o‘qib va uqib, bu bilimni ham Sharq, ham G‘arb madaniyati yutuqlari bilan boyitgan. Ayni hol jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilab bergan va bu ta’lim sohasini, umuman olganda, ma’rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan.

XIX asrning 80-yil oxirida mamlakatimizda jadidchilik harakati paydo bo‘ldi. Toshkentda – Munavvarqori va Avloniy; Samarqandda – A.Munzim, S.Aziziy, Mulla Qilich; Buxoroda – Jo‘raboy Maxsum; Qo‘qonda – Hamza; Namanganda – So‘fizoda va Ibrat kabi olimu fuzalolar maktab ochish, noshirlik, savodxonlikni oshirish borasida muhim ishlarni amalga oshirdilar. Bu jarayon I jahon urushigacha davom etdi. Butun mamlakat bo‘ylab ko‘plab jadid maktablari faoliyat olib bordi.

Ta’kidlanishicha, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a‘zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar.

Bir so‘z bilan aytganda, ular milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar.

Xalqimiz ularni faqat 1937–1938-yillardagi qatag‘onlarning qurboniga aylangan jabrdiydalar sifatida taniyapti. Jadid bobolarimiz har birining ibratli hayot yo‘li, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ilmiy va ma‘naviy merosi bor. Bularni o‘rganish kerak. Jadid nomoyondalari o‘sha davrda o‘z hisoblaridan juda ko‘plab maktab va madrasalar ochishgan. Bu maktab va madrasalarda dars o‘zbek, arab, fors-tojik tillarida olib borilgan. Boshlang‘ich diniy maktablar keng tarqalgan edi, shahar maktablarida o‘quvchilar soni 20-30 taga, qishloqda 10-15 taga yetgan. O‘qishga 6 yoshdan qabul qilingan, o‘zlashtirishiga qarab 7-12 yil o‘qishgan.

Ajdodlar tajribasi va zamonaviy yutuqlarni umumlashtirgan holda, bugun biz o‘quvchilarga jadid bobolarimizning ilgari surilgan ma‘rifatparvar g‘oyalarini, ularning vatanga va xalqiga bo‘lgan sadoqatini, ulkan xizmatlarini, beg‘araz mehnatlarini albatta singdirishimiz zarudir.

Afsuslar bo‘lsinkim, bugungi kun ayrim yoshlarimiz savodsizligi va o‘z dinlarini bilmay turib turli xil oqimlarga kirib ketishlari, hayosizlik, nafs balosiga muhtalo bo‘lish, mol-mulk deganda hech narsadan tap tortmaslik, jinoyat yo‘liga kirish, hatto shafqatsizlarcha odam o‘ldirish darajasigacha yetgan vahshiylar bor va ular qayerdan paydo bo‘layapti o‘zi. Axir buyuk bobokolonlarimiz yani Islom dinini asoschisi Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v., qanchalar dinimiz ulug‘ligini, yaxshilik va yomonlikning mohiyati, yaxshilikning mukofotlari-yu, yomonlikning oqibatlarini, hayo-ibo, iffat, or-nomus, vatanga sadoqat, hattoki bir tabassum ham bir kichkina sadaqa deb uqtirilgan.

Butun dunyoda buyuk ajdodlarimizning so‘nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga qiziqish hamisha yuqori bo‘lgan. Buning tasdig‘ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganida ham ko‘rish mumkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug‘bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg‘oniyga o‘rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir. Ayniqsa, o‘rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko‘plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma‘naviy mulki hisoblanadi. Biz yoshlar buni qadriga yetishimiz va uni kelajak avlodga yetkazishimiz kerak.

Mahmudxo‘ja Bexbudiyning fikricha “Turkiston o‘lkasidagi nodonlik, joxillik va zabunlikning asosiy sababini, ilmsizlikdan izlash kerak deb aytgan edilar. Ularning o‘z ma‘rifiy faoliyatida ta‘lim-tarbiyaning ahamiyati va uning ahvoli to‘g‘risidagi publitsistik maqolalarini yozish bilan cheklanib qolmadilar, balki o‘quv qo‘llanmalarini yozish orqali maktablarga amaliy yordam bergan edilar.

M.Bexbudiyning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari, jamiyatni taraqqiy ettirish uchun milliy mutahassislarni tayyorlab yetkazish zarurligi to‘g‘risidagi qarashlari, ularning "Padarkush" asaridagi ziyoli obrazi orqali ifodalanadi. Ziyoli o‘zining ilm-fan, texnika, madaniyat, davlat, jamiyat ishlari hakidagi fikr - mulohazalarini aniq, lunda, ilmiy, ishonarli dalillar orqali tushuntirishga, isbotlashga harakat qiladilar. Aynan ziyolidagi bu xususiyatlar uning boy bilan bo‘lgan munozarasida aniq ko‘zga tashlanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ³³“To‘y va taziya sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniyalar, ilm va-din yo‘liga sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obruy va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizga davom etsak, din va dunyoga zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur” deb o‘sha davrda shunday katta ahamiyatga ega fikrni aytib o‘tgan edilar.

Darhaqiqat, agar har bir millat va elatlar ilmga, bilimga, tarbiyaga va qadriyatlarga kuchlarini sarflamasalar u millat albatta rivojlanmaydi. Hozirgi kunga kelib, yurtboshimiz tomonidan yoshlarimizga hamma sharoitlar yaratilmoqda. Ammo ayrim yoshlarimiz jadidlarimiz aytganlaridek ilm ma‘rifatga emas, balki behuda narslarga o‘z umirlarini sarflamoqdalar. Kitob o‘qish va biror ma‘lumotga ega bo‘lishning oson yo‘llari ommaviy bo‘lib ketgan. Ko‘pchilik bu paytda qo‘l telefonlaridan internetga kirib yoki elektron kitoblardan foydalanish bilan kifoyalanadi. To‘g‘ri, bu biz uchun vaqtdan unumli foydalanishga juda qulay. Lekin, bu holatlar kitobning o‘rnini bosa olmaydi. Shu bilan bir mavzuga tegishli narsani o‘qiyman deb internetga kirgan kishi, undagi jozibador surat yoki turli xil videolarni ko‘rib qolib, ba‘zan boshqa mavzuga o‘tib ketib, qanday qilib vaqtni yo‘qotganini ham bilmay qoladi. Lekin, kitob o‘qishga kirishgan kishi, agar mutolaaga o‘rganib qolsa sodiq, ishonchli, g‘amxo‘r, dardini eshita oladigan do‘st topgandek bo‘lib, umrining oxirigacha undan sira ayrilgisi kelmaydi.

Kitob o‘qishga odatlangan kishi ko‘plab yutuqlarga erishadi. U eng avval so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Chunki, turli mavzudagi kitoblarni mutolaa qilgan kishi kundalik hayotida umuman ishlatilmagan so‘zlarga duch keladigan bo‘lsa, ularni qayerda va qanday ishlatishni ham biladi. U ko‘p kitob o‘qiganligi sababli, bu so‘zlarni yaxshiroq anglash uchun lug‘at kitobini ochib, maqsadni darrov anglab yetadi.

³³ M.Behbudiyning merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. Toshkent: 2014 — 10-bet

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Kitobda inson boshidan o‘tkazgan turli muammo va yutuqlar tasvirlangan. Kitobxon esa, hayoti davomida qanday og‘ir holatga tushishidan qat’iy nazar uni yengishi osonroq kechadi. Sababi bu muammolarning yechimini u kitobda qachonlardir o‘qigan. Bu u kishi uchun mutoalalarining samarasi bo‘ladi.

Biz bugun jadidlarning ulkan g‘oyalarini, yangi usul maktablarini ochishdagi innovatsion g‘oyalarini hozirgi kun yoshlarimizga ko‘plab ma‘ruzular, vebinarlar, seminar treninglar o‘tkazishimiz, ularning millat uchun qilgan xizmatlarini har qadamda eslashimiz zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, biz yoshlar jadidlar tarixini yaxshi o‘rganishimiz va ularni kelajak avlodga targ‘ib qilishimiz kerak. Ular juda ko‘plab mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini, ilmu-ma‘rifatini, turli xil tillarini o‘rgangan. Kitob insonni dadil, o‘z kuchiga ishongan kishi sifatida tarbiyalaydi. Eng asosiysi kitob insonning zihnini o‘tkirlashtirib, fikrlash doirasini ham kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent – 2010 — 22-bet. Qaraldi: 28-noyabr 2024-yil.
2. M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. Toshkent: 2014 — 10-bet.
3. Iskandarov, F. *Abdulla Avloniy va o‘zbek pedagogikasi*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. (2003).

UCHINCHI SHO‘BA

JADIDCHILIK G‘OYALARINI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA O‘RGANILISHI

ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИДА МАДАНИЯТ МАСАЛАСИ ВА МИЛЛИЙ ЗИЁЛИЛАРНИНГ АЯНЧЛИ ҚИСМАТИ

Мингноров Абдухолиқ Тошмирзаевич

Низомий номли ТДПУ “Ўзбекистон тарихи” кафедраси т.ф.д.

Аннотация. Совет иттифоқи Туркистон сўнгра эса Ўзбекистон Республикасида ўзбек халқининг маданиятига нисбатан салбий таъсир кўрсата бошлайди. Большевикларнинг Ўзбекистон бошқарувини тўлиқ ўз қўлларига олгач, миллий зиёлиларнинг қатағонга учрашига сабаб бўлади. Ўлкадаги маданий жараёнларни, маорифни энг асосийси газета ва журналлар назоратини осонлаштириш мақсадида имло масаласини кун тартибига қўйиб, миллий қадриятларни эса паймол этила бошлайдилар. Бундай жараёнлар даврий матбуот саҳифаларида акс этган. Ушбу мақола ўша даврдаги манбалардан бири ҳисобланган даврий матбуот материаллари орқали очиб берилган.

Калит сўзлар: Маданий инқилоб, жадид мактаблари, асори-атиқа, усули жадид, янги ўзбек алифбе қўмитаси, шўро, қурултой, лотинлаштириш, декрет, қатағон, тўнтариш.

Аннотация. Советский Союз начал оказывать негативное влияние на культуру узбекского-народа в Туркестане, а затем и в Республике Узбекистан. Когда большевики взяли под полный контроль Узбекистан это вызвало репрессии против национальной интеллигенции. Чтобы облегчить контроль над культурными процессами и образованием особенно газет и журналов на повестку дня ставится вопрос правописания начинают попираются национальные ценности. Такие процессы нашли отражение на страницах периодической печати Данная статья была изложена благодаря материалам периодической печати которые считаются одним из источников того времени.

Ключевые слова: Культурная революция, современные школы, артефакты, современный метод, комитет нового узбекского алфавита латинизация, указ о репрессии, переворот.

Annotation. The Soviet Union began to have a negative impact on the culture of the Uzbek people in Turkestan and then in the Republic of Uzbekistan. When the Bolsheviks took full control of Uzbekistan it caused repression of the national intellectuals. In order to facilitate the control of cultural processes and education especially newspapers and magazines the issue of spelling is put on the agenda and national values begin to be violated. Such processes were reflected in

the pages periodical press. The article was revealed through periodical press materials which are considered one of the sources of the time.

Key words: Cultural revolution, modern schools, artefacts, modern method ,new Uzbek alphabet committee, shura, congress, Latinization, decree, repression, coup.

Хар бир халқнинг маданий жиҳатдан қандай ҳолатда эканлигини кўрсатиб турадигани, бу унинг маданий мероси билан боғлиқдир, яъни аجدод ларидан қолган маданий-маърифий мерослари билан ўлчанади. Шунинг учун ҳам буюк аждодларимиздан етук ва баркамол авлодни етиштириш мақсадида юзлаб асарлар қолдирганликларининг моҳияти ҳам шундадир. Бироқ босқинчилик йўли билан ўзга юртни эгаллаб олган давлатлар эса маҳаллий халқни ўзларига сўзсиз буйсундириш мақсадида уларнинг маданий меросини йўқ қилишга ҳаракат қилганлар. Жумладан, большевиклар томонидан бундай ҳаракатларни ўтган асрнинг 20-30 йилларида бизнинг юртимизда ҳам амалга оширган эдилар.

Совет иттифоқи Туркистон сўнгра эса Ўзбекистон Республикасида ўзбек халқининг миллийлигини йўқотиш, умуман, маданиятига нисбатан ўта агрессив сиёсат олиб борган эдилар. Бундай ҳолатларни ўша вақтдаги даврий матбуот саҳифаларидаги материаллар орқали ўрганиш имкониятига эга бўлиш мумкин. Коммунистик тузумнинг Ўзбекистон Республикасидаги маданий жараёнларга нисбатан олиб борган сиёсатини беш йўналиш бўйича таҳлил этамиз:

1. Моддий ва маданий мерослар. Асори-атиқалар ҳолати ва уларга бўлган муносабат масаласида;
2. Буюк алломаларга муносабат масаласининг ёритилишида;
3. “Маданий инқилоб” тушунчаси ва унга муносабат масаласининг даврий матбуотда ёритилишида;
4. Адабиёт, санъат, қироатхонлик, мусиқа маданиятларининг даврий матбуотда ёритилишида;
5. Миллий зиёлилар, жадидлар ва маҳаллий кадрлар фаолиятига муносабат масаласида.

Шу ўринда Туркистондаги жадидчилик ҳаракатига оид баъзи манбаларга мурожаат қиламиз.

Усули жадид – мактабларнинг бошланғичи бўлиб, 1893 йилда Исмоилбек Гаспринский ташвиқоти билан дастлаб Самарқандда очилади. Бироқ ушбу мактаб 40 кундан ортиқ яшалмасдан ҳукумат томонидан ёпилади. 1898 йилда Туқмоқда ҳам жадид мактаби очилди. 1899 йилда Тошкентда Маннон Қори мактаб очади. 1901 йил февраль ойида ички Русиядан Салоҳиддин Мажидий келиб Қўқонда мактаб очади. Шу йили апрель ойида Самарқандда Абдуқодир Шакурӣ ҳам мактаб очди. 1903 йилда Самарқандда Бехбудийнинг фаолияти билан

Хожи Муин Шакурий мактаблари очилади. Шу пайтларда Хоразм ва Бухорода ҳам янгилик ҳаракатлари бошланиб, усул жаид мактаблари таъсис этила бошлади. 1904 йилда Тошкентда Мунаввар Қори ва Абдулла Авлонийлар томонидан ҳам мактаблар очилади. Бу мактаблар ўзларининг амалий фойдасини кўрсатди. Охранка маълумотларига қараганда 1912 йилда Тошкентда 12та, Қўқонда 16та усул жаид мактаблари бор эди. 1917 йил бошларига келиб жаид мактабларининг сони 104 тага етган” [1] лиги тўғриси даги маълумотларни учратиш мумкин. Ушбу жараёнлар миллий зиёлилари мизнинг ҳаракатлари туфайли Туркистонда янгиланиш сари қилинаётган ишларнинг самара ларининг натижалари эди.

Бироқ, большевиклар Ўзбекистон бошқарувини тўлиқ ўз қўлларига олгач усул-жаид мактабларининг тугатилишига, миллий зиёлилар, жаидларнинг қатағон қилинишига олиб келади.

“Октябрь тунтариши жаидларни аксилинқилобчилар лагерига ўтказиб юборди. Шундан сўнг жаидларни “босмачилар”га раҳбар кадрлар етиштираётганликда, Қўқон автономиясининг тузишда ва совет ҳукуматига қарши кадрлар етиштиришда”[2] айблаб, уларга нисбатан нотўғри маълумотлар тарқатила бошлайдилар. Аҳолини ҳаракатга келтирувчи куч ҳисобланган жаидларга эътибор қаратилиб, уларнинг халқ орасидаги обрўсини тушириш мақсадида, гўё жаидлар Туркистон мухторияти ва қаршилиқ ҳаракатларига кадрлар тайёрлаб берадиган куч сифатида кўрсатилиб, кейинчалик уларнинг қатағон қилинишларига сабаб бўлди.

Маданий инқилоб газетасида М.Маҳсумов билан Ишчановлар ҳамкорлигидаги мақоласида Нури Алимовни қоралашга қаратилган бўлиб, унда Нури Алимов, гўё А.Қодирий ва Усмон Носирларни “ўзбек совет ёзувчиларининг энг яхши устозлари” деб мақтаган деган. “Ҳозир Нури Алимов 2 йиллик ўқитувчилар институтида дарс бериб келмоқда. Халқ душмани Абдуллаевнинг синглиси Баҳри Абдуллаева, Файзулла Хўжаевнинг қариндоши Муборак Хўжаева ва Қ.Беригиннинг жияни Бобожоновлар эса ҳеч нарса кўрмагандек бемалол ўқиб келмоқдалар. Кишини шуниси ғазаблантирадики, институт кутубхонасида ҳозиргача Абдулла Қодирийнинг асари, Чўлпоннинг таржима қилган асарлари ва Қурбон Беригиннинг таҳрири остида чиққан “Совет адабиёти” журналининг 5-сони сақланиб келмоқда. Бундай мафкурамизга ёт бўлган китоблардан бир қанчасини топиш мумкин” [3], деган фикрларни илгари суриб, бу билан нафақат тухматлар туфайли ноҳақ айбланган зиёлиларнинг, балки уларнинг оила аъзолари ва қариндош-уруғларининг ҳаётларига ҳам раҳна сола бошлайдилар.

“Миллатчи С.Зуфарийнинг хотини Муборак Сиддиқова эрининг фош қилинганидан кейин ҳам уни “оқлаш” учун идорама-идора югурмоқда. Ҳатто, эри сургун қилинган жойга ҳам борди. Шунини ўзи бу

аёлни ҳам қандай қилиб эри билан алоқада эмас, деб бўлади. Ахир очик кўриниб турибдику, Муборак халқ душмани бўлган эрининг энг яқин фикрдоши ва ғамхўри ҳисобланади. Муборак Сиддиқова ишлаб турган Свердлов номли мактабдаги комсомол ўқитувчилари унинг бу ярамасликларини фош қилиб, уни ўз сафидан ҳайдашлари” [4] керак, деб ёзган эди.

Юқоридаги келтирилган манбалардан кўриниб турибдики, большевиклар тузган коммунистик режим Ўзбекистонда ўта дахшатли қатағончилик сиёсатини олиб борганлигини кўрсатади. Мана шундай мудҳиш воқеаларнинг такрорланмасликлари учун биз доимо огоҳ бўлишимиз, билимдон бўлишимиз ва бир-бирларимизни қўллаб-қўвватлашимиз даркор. Ана шундагина миллати миз яшайди, давлатчилигимиз абадий бўлади.

Раҳмат Мажидий 1934 йилда “Китоб ва инқилоб” журналида чоп этилган “Юқори поғона” номли катта мақоласида А.Қодирий, А.Фитрат, Боту, Отажон Ҳошим, Чўлпон, Олтой, Ашурали Зоҳирий, Элбекларни қоралайди. У Фитрат, Чўлпон, Боту, Элбек томонидан 1920 йилгача ёзилиб, 1922 йилда нашр қилинган “Ўзбек ёш шоирлари” номли шеърлар тўпламини таҳлил қилади. Бу тўпلامдан пролетариат шўро фойдасига хизмат қиладиган ҳеч нарса топиш мумкин эмас, деган хулосага келади. Мақолада “Фитрат Октябрь инқилобини, шўролар ҳокимиятини бир қаттиқ шамол келса йўқ бўлади деб ўйлайди. Шўролар ҳукуматини муваққат бир нарса, эрта-индин кетади деб тушунтириш, шунинг асосида кураш олиб бориш ёлғиз Фитратнинг ўз фикри эмас эди. Бундай ҳаракатни биз Чўлпон, Боту ва бошқаларда ҳам кўрамиз” [5] деб ёзилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, жаидлар маданиятимиз душманлари дан ҳимоя қилган эдилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ғиёсов М. Туркистонда усули жаид мактабларининг туғилиши ва унинг тарқалиши. // Коммунист. 1928. №8. Б.55-64.
2. Жаидларнинг аксилинқилобий моҳиятини бутунлай фош қилиб ташлайлик // Маданий инқилоб. – 1935. – №4.
3. Институт душман унсурлардан тамом поклансин // Маданий инқилоб. – 1937. – № 89 (331).
4. Тулаганов паноҳида душманлар // Маданий инқилоб. – 1937. – № 89(331).
5. Мажидий Р. Юқори поғона // Китоб ва инқилоб. – 1934. – № 2-3. – Б.9-49.

JADID ADABIYOTIDA O‘QITUVCHI OBRAZIGA TURLI QARASHLAR

Hamrakulova Xurshida Kuvvatovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Saidova Shahnoza Isroil qizi

Guliston davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola jadid adabiyotida o‘qituvchi obraziga turli qarashlar, ularning kasbiga bo‘lgan yondashuvlari, ijobiy va salbiy jihatlari jadid adabiyoti vakillari Abdurauf Fitrat hamda Cho‘lpon asarlari misolida o‘rganilgan

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadid adabiyoti, muallim, ustoz, o‘qituvchi, obraz

Аннотация. В статье на примере произведений представителей джадидской литературы Абдурауфа Фитрата и Чулпона рассматриваются различные взгляды на образ учителя в джадидской литературе, их подходы к своей профессии, их положительные и отрицательные стороны.

Ключевые слова: Туркестан, джадидская литература, учитель, наставник, образ

Abstract. This article examines different views on the image of a teacher in Jadid literature, their approaches to their profession, and their positive and negative aspects using the works of Jadid literature representatives Abdurauf Fitrat and Chulpon as an example.

Keywords: Turkestan, Jadid literature, teacher, mentor, image.

Yangi o‘zbek adabiyotining shakillinishi va sayqal topishida asosiy omil bo‘lgan jadid adabiyoti bugungi kunda keng o‘rganilmoqda. Jadid adabiyotida o‘qituvchiga nisbatan qarashlar, unga bo‘lgan hurmat va ehtirom adiblarning asarlarida keng yoritilgan. Jadid adabiyotida o‘qituvchi obrazi juda muhim va markaziy mavzulardan biri hisoblanadi. Jadid adabiyoti XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zamonning suronli davrida xalqni marifatga yetaklash uchun kurash davrida shakllangan bo‘lib, ma‘rifatparvarlik ruhida yozilgan asarlar orqali xalqni uyg‘otish, ilmga chaqirish, islohotlarni targ‘ib qilishga harakat qilingan. Bu vazifalarni bajaruvchi zot o‘qituvchi va ustozlardir. Ko‘plab jadid adabiyoti namoyandalari ijodida ziyoli yoki mudarris obrazlari tasvirlangan bo‘lib, undan asosiy maqsad davr ziyolilarining kamchiliklari, illatlari qoralangan. Shuni ta‘kidlab o‘tishimiz lozimki, bu davrda aksariyat asarlarda o‘qituvchi obrazi salbiy pozitsiyalarda ham tasvirlangan. Mumtoz adabiyotimizda o‘qituvchi siymosi unga qo‘yilgan talablar ancha baland bo‘lgan bo‘lsa, bu davr adabiyotida esa uning aksini ko‘ramiz. Jadidlarning asosiy g‘oyasi jaholatga qarshi kurashish, ilm-fan va ta‘lim orqali jamiyatni uyg‘otish edi. Shuning uchun ularning naznida o‘qituvchi alohida qarashlar markazida bo‘lgan. Jadid adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Abdurauf Fitrat “Munozara” asarida buxorolik mudarris va uning bir farangi ila qilgan munozarasi haqida bayon qiladi. Fitrat mudarris bilan farangini qarshi qo‘yar ekan, unung asl maqsadi Turkistondagi eski va yangi maktablari

o‘rtasidagi ixtilofga barham berish, ularni ilm yo‘lida birlashtirish bo‘lgan. Shuningdek, Fitrat mudarris misolida Buxorodagi jamiki ziyolilarning ahvoli va maktab, madrasalardagi holat haqida ham o‘qirmanda tasavvur uyg‘otgan. Asarda tasvirlangan mudarris tor va biqiq fikrlaydigan, yetarli bilimga ega bo‘lmagan, faqat tirikchilik vajidan shu kasbni tanlagan ustoz sifatida tasvirlangan. Muallif uni ortiqcha tasvirlab o‘tirmaydi, ammo uning gap-so‘zidan o‘quvchida u haqida tasavvur uyg‘onadi. Farangining aholingiz bari savodlimi, degan savoliga mudarris shunday javob beradi: “Hammaning ilmi bo‘lishi mumkin emas. Agar hamma ilmi bo‘lsa, boshqa ishlar egasiz qolur”, - deya javob beradi [4]. Asarda tasvirlangan mudarris o‘sha davr mudarrislarining tipik vakilidir. U o‘z ilmsizligini qancha yashirishga urinmasin, oxirida farangiga tan beradi va “Birinchi najot yo‘li ilmdir”, deya munozaraga chek qo‘yadi.

Jadid adabiyotining yanabir yirik namoyondalaridan biri Cho‘lponning “Zamona xotini” dramasida ham Abdulahad muallim obrazi keltirilgan. Abdulahad muallim dramaning asosiy qahramonlaridan biri va o‘zi istiqomad qilib kelayotgan qishloqning zulunkor rahbarlarga qarshi chiqadi.

Yuqoridagi kabi ko‘plab jaded adabiyoti vakillari o‘qituvchi siymosiga o‘z asarlarida keng to‘xtalib o‘tan va ularning zamonadagi say harakatlari va marifat ulashishdagi intilishlariga mos holda ijobiy yoki salbiy hislatlarini nomoyon qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Cho‘lpon // Zamona xotini. Chulpon.uz. kutubxonasi. 2014.
2. Abdulla Qahhor // O‘tmishdan ertaklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2017.
3. Abdulla Qodiriyning. Mehrobdan chayon. Sharq nashriyoti. 2018.
4. Abdurauf Fitrat // Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat. 2000.
5. B.To‘xliyev. Adabiyot. Cholpon nashriyoti. Toshkent. 2010.
6. Maxmudxo‘ja Bexbudiy // Padarkush. Ziyo.uz kutubxonasi. 2013.
7. Parda Tursun // O‘qituvchi. –Toshkent: Yosh kitobxon. 2020.
8. Sadriddin Ayniy // Eski maktab. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2020.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Noshir, 2019.

ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ВЫГОРАНИЕ СТУДЕНТОВ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ: УРОКИ ДЖАДИДОВ ДЛЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Рахманова Д.Р.

Научный руководитель: кандидат психологических наук,
доцент кафедры «Педагогика и психология»

Студенты 1 курса: **Тян В., Самойлова А.**

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida emotsional charchoq muammosi va uni kamaytirish yo‘llari yoritiladi. Jadidlarning pedagogik g‘oyalari asosida tashkil etilgan psixoprofilaktik tashabbuslar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: emotsional charchoq, psixologik xizmat, jadidchilik, talabalar, o‘qituvchilar, profilaktika, ruhiy salomatlik, murabbiylik, stressni boshqarish.

Аннотация. В статье рассматриваются причины и механизмы эмоционального выгорания в университетской среде. Анализируется эффективность психопрофилактических практик, основанных на идеях джадидов.

Ключевые слова: эмоциональное выгорание, психологическая служба, джадидизм, студенты, преподаватели, профилактика, психическое здоровье, наставничество, стресс-менеджмент.

Abstract. The article examines emotional burnout in higher education and its preventive strategies. It analyzes the effectiveness of Jadid-inspired psycho-preventive initiatives.

Keywords: emotional burnout, psychological service, Jadidism, students, teachers, prevention, mental health, mentoring, stress management.


Эмоциональное выгорание — один из наиболее распространенных и изучаемых синдромов в современной психологии, особенно в контексте профессиональной и учебной деятельности. Согласно К. Маслач, эмоциональное выгорание — это психологическое состояние, возникающее как результат длительного воздействия профессионального или учебного стресса и характеризующееся тремя основными компонентами: эмоциональным истощением, деперсонализацией и снижением личных достижений [1]. Данный феномен рассматривается в рамках транзакционной модели стресса Р. Лазаруса и С. Фолкман, согласно которой степень деструктивного воздействия внешней нагрузки зависит от когнитивной оценки индивидом ситуации и наличия у него адаптивных копинг-стратегий [2]. В условиях современной образовательной системы как студенты, так и преподаватели оказываются в зоне хронического стресса, что делает проблему выгорания особенно значимой для изучения и практического реагирования.

Исследование, проведенное на базе Profi University в рамках деятельности волонтерской группы при психологической службе вуза, имело целью выявление уровня эмоционального выгорания у студентов первого курса и преподавателей. Волонтерская инициатива была организована как часть системной превентивной работы службы, направленной на психопрофилактику, раннюю диагностику и сопровождение участников образовательного процесса. Студенты-волонтеры, прошедшие обучение и супервизию специалистов, выступили как полноправные участники в исследовательском цикле,

что способствовало не только сбору данных, но и их интерпретации в контексте субъективного восприятия среды.

Методологической основой послужила адаптированная методика Maslach Burnout Inventory (MBI), отражающая три компонента выгорания: психоэмоциональное истощение, циничное или отстраненное отношение к объекту деятельности (деперсонализация), а также ощущение снижения профессиональной или учебной эффективности [1].

Рис.1 Результаты эмоционального выгорания среди студентов и преподавателей



Результаты, полученные в ходе диагностики, показали, что в целом и преподаватели, и студенты демонстрируют средние значения по шкалам выгорания, что говорит об отсутствии клинически выраженного синдрома. Однако у студентов отмечаются повышенные уровни истощения и когнитивной утомляемости, особенно в первые месяцы обучения, что коррелирует с исследованиями А.Б. Холмогорова и Е.П. Ильина о стадиях адаптации студентов вуза, где эмоциональная нестабильность и тревожность наиболее выражены в первом семестре [3]. Преподаватели, в свою очередь, демонстрируют относительно стабильную профессиональную мотивацию и устойчивость, однако в их ответах наблюдаются маркеры ригидности и снижения инновационной активности — косвенные признаки начальных фаз профессионального выгорания.

Одним из ключевых направлений интерпретации результатов стала попытка переосмыслить их через призму историко-педагогического наследия джадидизма. Джадиды, как реформаторы образования Средней Азии, выступали за интеграцию гуманистических и рациональных начал в педагогическую практику. Их концепция образования предполагала не только передачу знаний, но и

формирование зрелой, ответственной и морально устойчивой личности. Абдулла Авлоний, Исмаил Гаспыралы, Махмудходжа Бехбудий в своих трудах подчеркивали важность внутреннего просветления, духовной автономии и педагогического диалога, что перекликается с современными подходами к эмоциональной устойчивости в образовании, развиваемыми, например, в трудах Р. Райана и Э. Деси в рамках теории самодетерминации [4]. Эта теория утверждает, что мотивация учащихся усиливается при удовлетворении трех базовых потребностей: автономии, компетентности и принадлежности — именно они лежали в основе джадидских моделей обучения, предполагающих наставничество, уважение к личности и активное включение учащегося в учебный процесс.

В условиях современного вуза данный подход может быть переосмыслен в рамках деятельности психологической службы, которая, помимо диагностико-консультативной функции, берет на себя роль культурного медиатора, соединяющего образовательные практики и внутренние потребности студентов и преподавателей. Волонтерская группа, действующая при службе, представляет собой не только инструмент мониторинга и первичной поддержки, но и важную точку социализации для студентов, формирующую чувство причастности, компетентности и агентности. Следовательно, проектная деятельность волонтеров выступает в качестве профилактики не только выгорания, но и депривации социальных потребностей, связанных с групповым принятием и смыслообразованием.

Анализируя результаты, важно подчеркнуть, что ключевыми факторами снижения выгорания являются наличие межличностной поддержки, гибкость образовательной среды, доступ к психологической помощи и развитие навыков эмоциональной саморегуляции. Именно поэтому психологическая служба вуза должна развиваться как многоуровневая система, включающая скрининг, консультирование, образовательные модули по психологической грамотности, тренинги по стресс-менеджменту и регулярную супервизию для преподавателей. Кроме того, важным элементом профилактики выгорания является организационная культура вуза: доминирующие стили управления, способы обратной связи, практики признания достижений и уровень автономии студентов и преподавателей оказывают прямое влияние на эмоциональное благополучие.

Исторический пример джадидов подчеркивает значимость ценностной компоненты образования, в котором развитие личности рассматривается как стратегическая цель. Современные подходы к образовательной психологии, включая концепцию "психологически безопасной среды" (A. Edmondson), подтверждают, что эмоциональное благополучие — не побочный эффект, а условие эффективного усвоения

знаний и устойчивого личностного развития [5]. Соответственно, интеграция этих идей в институциональные стратегии университетов становится не только гуманистической, но и прагматической необходимостью.

Таким образом, проведенное исследование подтвердило, что эмоциональное выгорание студентов и преподавателей является многомерным и динамичным феноменом, требующим комплексного подхода. В условиях вуза ключевыми модулями такой работы становятся психологическая служба, волонтерские инициативы, инклюзивные педагогические практики и ориентация на историко-культурные ресурсы. Переосмысление идей джадидов через призму современной психологической науки позволяет выстраивать не только адаптивные механизмы поддержки, но и формировать ценностную основу образования, в которой забота о психическом здоровье становится неотъемлемой частью учебного процесса.

Список литературы:

1. Maslach, C., Jackson, S. E., & Leiter, M. P. (1996). *Maslach Burnout Inventory Manual* (3rd ed.). Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press.
2. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping*. New York: Springer.
3. Холмогоров А.Б., Ильин Е.П. (2002). *Психология адаптации студентов к вузовскому обучению*. СПб.: Питер.
4. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). *Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being*. *American Psychologist*, 55(1), 68–78.
5. Edmondson, A. (1999). *Psychological Safety and Learning Behavior in Work Teams*. *Administrative Science Quarterly*, 44(2), 350–383.

JADIDCHILIK HARAKATI: O‘ZLIKNI ANGLASH VA TARAQQIYOT YO‘LI

Mingbayeva Barno Ubaydullayevna

“Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich talim metodikalari” kafedrası
v.b. dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma‘rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi yoritilgan. Hozirgi kunda ekstremizm, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kabi zararli illatlar yoshlarimiz o‘rtasida keng tarqalayotgani, hamda yoshlarga o‘zlikni anglash, daxldorlik tuyg‘ularini singdirish orqali ta‘lim-tarbiya berish vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz, g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashimiz, vatanparvarlikni shakllantirish.

Аннотация. В данной статье освещаются идеологико-политические, социально-просветительские и правовые-нравственные взгляды великих просветителей – джадидов, а также вопрос воспитания в духе национальных ценностей. Рассматриваются такие актуальные проблемы, как распространение среди молодежи вредных явлений, таких как экстремизм, массовая культура, зависимость от социальных сетей, а также подчеркивается важность воспитания молодежи через формирование у них чувства самосознания и сопричастности.

Ключевые слова и фразы: джадидское движение, наши просвещенные предки, идейно-политическое, социально-просветительское и правовое-нравственное воспитание молодежи в духе национальных ценностей, формирование патриотизма.

Annotation. This article highlights the ideological, political, socio-educational, legal and moral views of the great Jadid enlighteners, as well as the issue of education in the spirit of national values. Current issues such as the spread of harmful phenomena among young people, such as extremism, mass culture, and dependence on social networks, are considered, and the importance of educating young people through the formation of a sense of self-awareness and belonging is emphasized.

Key words and phrases: Jadid movement, our enlightened ancestors, ideological-political, socio-enlightenment and legal-moral, educating young people in the spirit of national values, forming patriotism.

Yurtimiz azaldan bebaho ma’naviy meros va qadriyatlarga boy mamlakat bo‘lgan. Faqat biz bu merosni chuqur o‘rganib hayotimizning har jabhasida foydalansak, bizga Vatanni sevish, milliy o‘zlikni anglash, yurt kelajagiga daxldorlik xissi bilan yashashga o‘rgatadi. Ma’rifatparvar bobolarimiz millatni uyg‘otish va istiqlol yo‘lida qancha jabru jafolar chekkani va taraqqiyotga faqat ilmu ma’rifat bilan erishish mumkinligini targ‘ib etgan. Hozirgi kundagi keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek,³⁴ “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaxo boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi”.

Darhaqiqat buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlari, milliy

³⁴ Mirziyoyev Sh. “Metodik targ‘ibot” telegram saxifasidan olindi. 22.12.2023 y

manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlari hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqbolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da‘vat etib turadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining 60 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil qiladi. Har bir farzandning shaxsiyati oilada shakllanadi. Demak, oila barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan oilada farzandlarni ahloqiy-huquqiy jihatdan mukammal tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg‘otish o‘ta muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda ekstremizm, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kabi zararli illatlar yoshlarimiz o‘rtasida keng avj olmoqda. Axborot globallasuvi tufayli turli mafkuraviy ta’sirlar, ayniqsa, yoshlar tafakkurini egallashga qaratilgan g‘arazli xurujlar tobora kuchaygan bugungi davrda bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashash har birimizning burchimizdir. Yurtimizda yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirish, ularni turli tahdidlardan himoya qilish, ongu tafakkurini yuksaltirish ma’naviy-ma’rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Jadid bobolarimizning fikr-g‘oyalari mana bir asr bo‘libdiki o‘z ta’sirini yo‘qotgani yo‘q. Ushbu mavzu borasida ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi so‘zlari hozirgi vaqtda ham o‘z ta’sirini yo‘qotmagan:³⁵ “To‘y va ta’ziyag‘a sarf qilaturg‘on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo‘liga sarf etsak, anqarib ovro‘poyillardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizga davom etsak, din va dunyoga zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur”.

Bugungi davrda yoshlarning jismonan sog‘ salomat bo‘lishlarining o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi. Balki, ularni ruhan sog‘lom bo‘lishlari, keng dunyoqarashga ega bo‘lishlari, turli yot g‘oyalarga qarshi tura oladigan kuchli tanqidiy fikrlay olishlari ham zarur bo‘lib qoldi. Haqiqatan mablag‘imizni yoshlarimizning ilm olishiga sharoit qilishga sarflasak maqsadga muvofiq bo‘lardi. Ilm-ma’rifatli bo‘lishning fazilati nechog‘lik yuksak ekanligi barchaga ma’lum. Ilm bilan dunyo obod, insoniyat hayoti farovon, ilmli kishining yo‘li doimo nurafshon bo‘ladi. Hozirgi paytda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sirlar ko‘rsatayotgan narsalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida internet, uyali telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan “qadriyatlar” ko‘p hollarda

³⁵ Mahmudxo‘ja Behbudi. Jadidlar to‘plami kitobi “Yoshlar nashriyot uyi” T.2022 y. 140-bet

yoshlarimizni o‘zimizning milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo‘ymoqda, o‘z tarixiy ildizlaridan uzoqlashuviga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, “ommaviy madaniyat” turli xil ko‘rinishlarining yoshlar orasida tobora keng tarqalishi. Bular asosan kiyinishda, qiziqishlarda, bo‘sh vaqtni o‘tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milliy qadriyatlarga munosabatda namoyon bo‘lmoqda. Yot madaniyat qadriyatlarini o‘zida ifoda etayotgan “ommaviy madaniyat” yoshlarimizda individualizm, egotsentrizm, andishasizlik, behayolik va zo‘ravonlik, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlariga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda.

Uchinchidan, yoshlar orasida taqlidchilik, g‘arbona illatlarga ko‘r-ko‘rona ergashish kabi holatlar ham kuzatilmoqda. Bunda, xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma‘naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini chulg‘ab olayotganligini sezish qiyin emas. Oqibatda, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishdan ko‘ra kompyuter o‘yinlari oldida vaqtini o‘tkazish, mazmunan sayoz bo‘lgan turli xil janrdagi filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda.

Shunday ekan yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashimiz, ularga o‘zlikni anglash, daxldorlik tuyg‘ularini singdirish orqali ta‘lim-tarbiya berish zarurdir. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an‘analar ta‘limni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘zlik va tegishlilik tuyg‘usini ta‘minlaydi, yoshlarni merosini tushunishga yo‘naltiradi.

“Milliy urf-odat, qadriyat, va an‘analar” o‘zi nima? Albatta bu savolga har kim o‘z bilmi va tajribasi bilan javob beradi. Abadiy qadriyatlar va vaqtinchalik qadriyatlar bor. Ko‘pincha yosh oilalar buni adashtirib qo‘yishmoqda.

Abadiy qadriyatlar taqdirimizni yaxshilashga yo‘naltirilgan. Unda xayotda adashmasdan barkomol inson bo‘lishga albatta erishiladi. Vaqtinchalik qadriyatlar esa biz o‘zimiz xoxlagandek yashashimiz mumkin, qanday xoxlasak shunday yashashimiz mumkin. lekin vaqti kelib kelajakka salbiy ta‘sir etishi aniq. Shuning uchun biz abadiy qadriyatlarni yoshlarga singdirib borishimiz zarurdir.

Jadidlar aynan ona vatani uchun faqat jamiyatni o‘rtaasrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi.

Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar” tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Bu harakat o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra, XIX asr boshlarida mavjud bo‘lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maxmur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo‘lgan avlodning qarashlari asosan ma‘rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

esa nafaqat ma’rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o‘zgartirish yo‘lidan bordilar.

Shunday ekan biz yoshlarni tarbiyalashimizda va ularga ta’lim berishimizda tanqidiy fikrlash, o‘z fikrini ifodalash va mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirish orqali, g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kuchli mafkuraviy immunitetni rivojlantirishimiz kerak. Bu ishlarning ahamiyati quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy va axloqiy mas’uliyatni shakllantirish: Yoshlarda g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashishga yordam beradigan ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish, jamiyatga nisbatan salbiy munosabatni oldini olish.
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash: Yoshlarga milliy tarix, madaniyat, tilni o‘rgatish, hamda umumiy insoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish orqali ular g‘oyaviy tahdidlarga qarshi immunitetga ega bo‘lishadi.
- O‘zlikni anglash va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish: Yoshlar o‘z tarixini, an’alarini va ma’naviy qadriyatlarini anglash orqali, ular o‘zligini yuksaltirishga, mustahkam ishonch hosil qilishga yordam beradi.
- Inson huquqlari va erkinliklar haqida ma’lumot berish: Yoshlarga inson huquqlari, erkinlik va adolat haqidagi tushunchalarni shakllantirish va ularni jamiyatda faol fuqarolar bo‘lishga tayyorlash.
- Yoshlarga media-savodxonlikni o‘rgatish: Internet va ijtimoiy tarmoqlarda mavjud g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilish uchun yoshlarga axborotlarni tahlil qilish, soxta ma’lumotlarga qarshi turish ko‘nikmalarini o‘rgatish kerak.

Ma’naviy tarbiya orqali yoshlarda yaxshi axloq, shijoat, rahmdillik va mehnatsevarlik sifatleri shakllanadi. Vatan kelajagi, inson baxt-saodati uchun qayg‘urar ekanmiz, yoshlar tarbiyasini izdan chiqaruvchi yot ta’sirlardan, tajovuzkor g‘oyalardan yoshlarni himoyalash, axborot tahdidlariga qarshi tura oladigan ma’naviy kuch hosil qilish – bugun suv va havodek zarur. Farzandning e’tiqodini mustahkam qilish eng asosiy vazifadir. Zero, mustahkam imon-e’tiqod yoshlarning zamon sinovlaridan o‘tishida suyanch va tayanch bo‘ladi. Shunda duch kelgan hayotiy va ma’naviy muammolarga javob bera oladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “Metodik targ‘ibot” telegram saxifasidan olindi. 22.12.2023 y.
2. Maxmudxo‘ja Bexbudiy. Jadidlar to‘plami kitobi “Yoshlar nashriyot uyi” T.2022 y. 140-bet.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСПЕХА В СТУДЕНЧЕСКОЙ СРЕДЕ

Рахманова Д.Р.

Научный руководитель: кандидат психологических наук,
доцент кафедры «Педагогика и психология»

Шаумарова Э.Р.

Студентка 3 курса

Annotatsiya. Maqolada talabalarining muvaffaqiyatli ta’limiy va ijtimoiy moslashuvi uchun muhim resurs sifatida emotsional intellektning o‘rni ko‘rib chiqilgan. PROFİ UNIVERSITY talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan empirik tadqiqot asosida emotsional intellekt komponentlarining rivojlanish xususiyatlari aniqlangan va uni oliy ta’lim muassasasining psixologik ko‘mak tizimi doirasida maqsadli shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: hissiyot intellekti, studentlar, ta’lim muhiti, o‘z-o‘zini anglash, hamdardlik.

Аннотация. В статье рассматривается роль эмоционального интеллекта как ключевого ресурса успешной учебной и социальной адаптации студентов. На основе эмпирического исследования, проведённого среди студентов PROFİ UNIVERSITY, выявлены особенности развития компонентов эмоционального интеллекта и обоснована необходимость его целенаправленного формирования в рамках системы психологического сопровождения вуза.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, студенты, образовательная среда, самосознание, эмпатия.

Abstract. The article explores the role of emotional intelligence as a key resource for students' successful academic and social adaptation. Based on an empirical study conducted among students of PROFİ UNIVERSITY, the research identifies specific features of emotional intelligence development and substantiates the need for its targeted enhancement within the university's psychological support system.

Keywords: emotional intelligence, student, educational environment, self-awareness, empathy.

В условиях трансформации современного социокультурного пространства прослеживается устойчивая тенденция к возрастанию значимости эмоционального компонента в системе личностного и профессионального развития индивида. В эпоху глобализации, цифровизации и высокой степени социальной турбулентности приоритетное значение приобретают не только когнитивные и профессиональные навыки, но и так называемые мягкие (soft) компетенции, в числе которых эмоциональный интеллект (ЭИ) занимает одно из ведущих мест. ЭИ, выступая в качестве

интегративного конструкта, обеспечивает субъекту способность к продуктивному взаимодействию с социумом, адаптационную устойчивость, внутреннюю эмоциональную стабильность и достижение актуальных личностных и образовательных целей.

Термин «эмоциональный интеллект» был введен П. Сэловей и Дж. Майером в 1990 году и получил широкую известность благодаря монографической работе Д. Гоулмана, обосновавшего его критическую значимость для профессионального успеха и социального функционирования личности [1]. В современной научной парадигме эмоциональный интеллект трактуется как совокупность когнитивных и аффективных способностей индивида, обеспечивающих распознавание, осмысление, экспрессию, регуляцию и конструктивное использование как собственных, так и чужих эмоциональных состояний [2]. Его структура включает следующие компоненты: самосознание (осознание и понимание собственных эмоций), саморегуляцию (контроль над эмоциональными импульсами), мотивацию (ориентацию на личностный рост), эмпатию (чувствительность к эмоциональным переживаниям других лиц) и социальные навыки (эффективное взаимодействие и построение межличностных отношений).

Актуальность исследования эмоционального интеллекта в студенческой среде обусловлена необходимостью формирования не только академической успешности, но и психоэмоциональной зрелости субъектов образовательного процесса. Студенческий возраст представляет собой сенситивный период для развития эмоциональной сферы, сопряженный с решением комплекса адаптационных задач: социализацией в новой среде, профессиональной идентификацией, развитием автономии и личностной ответственности. В данном контексте эмоциональный интеллект выступает как важнейший ресурс адаптационного потенциала обучающихся.


Целью представленного эмпирического исследования являлось выявление уровня развития компонентов эмоционального интеллекта студентов PROFI UNIVERSITY и анализ его функциональной значимости в учебно-профессиональной и социальной адаптации. Теоретико-методологическую базу работы составили современные модели ЭИ и валидированные инструменты его диагностики. Основным методом сбора эмпирических данных выступила методика Н. Холла [3], включающая 30 диагностических утверждений, оцениваемых по шкале Лайкерта. Методика позволяет осуществлять комплексную оценку эмоциональной компетентности на поведенческом и когнитивном уровнях, а также выделять доминирующие компоненты ЭИ.

Исследование охватило студентов первого и третьего курсов, что обеспечило возможность сопоставительного анализа в контексте академической зрелости (см. рис.1). Полученные результаты

свидетельствуют о более высоком уровне развития компонентов саморегуляции, эмпатии и социальных навыков у студентов старших курсов. Это позволяет предположить наличие позитивного влияния образовательной среды на динамику развития эмоциональной компетентности. Вместе с тем, наибольшие дефициты у студентов младших курсов были зафиксированы по параметру самосознания, что указывает на необходимость реализации системной психологической поддержки в первые годы обучения.

Рис.1 Сравнение компонентов эмоционального интеллекта (по тесту Холла)

(интерпретация эмпирических данных приводится без изменений)



Обобщение полученных эмпирических данных позволяет сделать заключение о высокой значимости эмоционального интеллекта как прогностического фактора успешной образовательной и социальной адаптации студентов. Высокий уровень эмоциональной компетентности коррелирует с позитивной динамикой межличностных отношений, снижением учебной тревожности, устойчивым уровнем самооценки и выраженной мотивацией к достижению. В то же время, недостаточная сформированность отдельных компонентов ЭИ может рассматриваться как маркер риска возникновения дезадаптивных состояний, что подчёркивает необходимость включения программ по развитию эмоционального интеллекта в институциональную систему психологического сопровождения образовательного процесса.

Следовательно, формирование и развитие эмоционального интеллекта студентов следует отнести к числу приоритетных задач высшего образования. Комплексные мероприятия, направленные на повышение эмоциональной компетентности, должны включать диагностический и коррекционно-развивающий модули, интегрироваться в тьюторские и психологические практики, а также

дополняться интерактивными форматами работы, такими как тренинги по развитию эмпатии, саморегуляции и коммуникативной эффективности. Эффективная реализация данных подходов способствует становлению эмоционально зрелой, адаптивной и социально ответственной личности, обладающей высоким уровнем готовности к самореализации в профессиональной и личностной сферах.

Список литературы:

1. Гоулман Д. *Эмоциональный интеллект: почему он может значить больше, чем IQ*. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2023. — 544 с.
2. Люсин Д. В. Эмоциональный интеллект: структура, функции, методы измерения // *Вопросы психологии*. — 2004. — № 5. — С. 3–22.
3. Hall N. *Emotional Intelligence Test. Manual*. — 2001. — С. 15–28, 30–35.

**O‘QUVCHILAR JAMOASIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLI VAZIYATLARNI
HAL ETISHDA JADID OLIMLARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK QARASHLARI**

Kuvandikova Gulnora Gulamovna

“Profi University” “Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti v.b. (PhD)

Ergasheva Umidaxon

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar, ularning psixologik, ijtimoiy va axloqiy ildizlari tahlil, hamda Jadidchilik harakatining g‘oyaviy-ma’naviy merosi, xususan, maktabda murosa, tarbiya, insonparvarlik va mehr-oqibat tamoyillarini asosiy yondashuv sifatida qo‘llashga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: nizoli vaziyat, o‘quvchilar jamoasi, murosa madaniyati, tarbiya, Jadidchilik, konfliktologiya, ijtimoiy-psixologik muhit.

Аннотация. Эта статья посвящена анализу конфликтных ситуаций, возникающих между учащимися в современных образовательных учреждениях, их психологическим, социальным и моральным корням, а также идейно-духовному наследию джадидистского движения, в частности, применению принципов компромисса, воспитания, гуманизма и доброты в качестве основных подходов в школе.

Ключевые слова: конфликтная ситуация, ученический коллектив, культура компромисса, воспитание, джадидизм, конфликтология, социально-психологическая среда.

Annotation. This article is devoted to the analysis of conflict situations that arise between students in modern educational institutions, their psychological, social and moral roots, as well as the ideological and spiritual legacy of the Jadidist movement, in particular, the application of the principles of compromise, education, humanism and kindness as the main approaches in school.

Keywords: conflict situation, student body, culture of compromise,

upbringing, Jadidism, conflictology, socio-psychological environment.

Ta’lim-tarbiya tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, madaniyatli muloqot va hamkorlik asoslarini shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Afsuski, ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida turli sabablarga ko‘ra nizolar, kelishmovchiliklar, ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Bunday vaziyatlar faqatgina maktabdagi ijtimoiy muhitga emas, balki o‘quvchilarning psixologik holatiga, o‘quv faoliyatiga va kelajakdagi shaxsiy kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bu boradagi muammolarni hal qilishda bugungi zamonaviy psixologiya va pedagogika yutuqlaridan tashqari, tarixiy-madaniy merosimizda ham bebaho tajribalar mavjud. Xususan, XIX–XX asr boshlarida shakllangan Jadidchilik harakati o‘z davrining ilg‘or pedagogik qarashlari bilan ajralib turadi. Jadid ma’rifatchilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidxonov – yoshlar tarbiyasini faqat bilim emas, balki axloq, murosa, jamoa madaniyati asosida yo‘lga qo‘yish zarurligini uqtirgan edilar.

Bugungi nizoli vaziyatlarni hal etishda ham ayni mana shu jadidona ruhda, ya’ni insonparvarlik, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish, jamoaviy birdamlik va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlar asosida yondashuv zarur.

Nizo bu – qarama-qarshi manfaatlar, qadriyatlar, qarashlar yoki hissiy munosabatlarning to‘qnashuvidir. O‘quvchilar jamoasida bu holat quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- ✓ sinfdoshlar o‘rtasidagi raqobat va hasad;
- ✓ guruhlararo ijtimoiy izolyatsiya yoki diskriminatsiya;
- ✓ o‘zaro noto‘g‘ri tushunish, kommunikativ buzilish;
- ✓ shaxslararo empatiyaning yetishmasligi;
- ✓ o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ziddiyatlar.

Bunday nizolarning ildizida ko‘pincha ota-ona tarbiyasidagi muammolar, ijtimoiy tengsizlik, psixologik komplekslar, shaxslararo muloqotdagi madaniyatsizlik, shuningdek, maktabdagi ichki muhitning yetarli darajada sog‘lom emasligi yotadi.

Jadidlar bu borada yoshlarning qalbiga e’tibor qaratishni, tarbiya jarayonida zo‘ravonlikka emas, qalbga yo‘l topuvchi nutq va harakatlarga urg‘u berishni ta’kidlaganlar. Abdulla Avloniy “Tarbiya juda nozik masala, qalbni zabt etmoq uchun iltifot kerak”, degan edi. Demak, nizolarni hal etishda tashqi choralar bilan cheklanib bo‘lmaydi – buning uchun shaxs ichki murosaga tayyor bo‘lishi lozim [1].

Bugungi zamonaviy psixologik metodlar – mediatsiya, empatik tinglash, kognitiv-bihevioral yondashuvlar – shubhasiz, nizolarni bartaraf etishda muhim vositadir. Ammo bu metodlarni milliy madaniyatimiz, o‘zbekcha odob-axloq me’yorlari bilan uyg‘unlashtirmoq lozim. Jadidchilik falsafasi bu borada chuqur poydevor yaratgan.

Jadidchilikda ta’lim – bu avvalo insonparvarlik asosidagi tarbiya tizimi edi. Behbudiy o‘z maqolalarida “farzandlarimizni maktabda bir-birini fikrini hurmat qilishga o‘rgatmasak, bo‘lajak jamiyatda ular qanday murosaga keladi?” deya xavotir bildirgan. Bu fikr bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan [3].

Pedagogik psixologiyada nizo faqat tashqi ziddiyat emas, balki shaxslararo yoki ichki psixologik qarama-qarshilik sifatida talqin qilinadi. O‘quvchilarning o‘zaro nizolari ko‘p hollarda faqat sabablarga emas, balki ichki ehtiyojlarning to‘liq qondirilmaganligi yoki sotsial identifikatsiyaning izlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, o‘zini sinfda tan olinmagan deb his qilgan o‘quvchi ixtiyoriy yoki bexosdan provokatsion harakatlar qilishga moyil bo‘ladi. Bu harakat tashqi tomondan nojo‘ya ko‘rinsa-da, aslida yordam chaqiruvi, e’tibor so‘rovining psixologik shakli bo‘lishi mumkin.

Shunday vaziyatlarda o‘qituvchi yoki psixolog noto‘g‘ri baho berib, faqat intizomiy chora bilan cheklansa, nizoning ildizi yanada chuqurlashadi. Jadid pedagogikasida esa bunday holatga nisbatan hissiy barobar munosabat va qattqlik emas, mehr bilan yondashuv asosiy tamoyil bo‘lgan. Bu yo‘l bilan nizoni ijobiy dialogga aylantirish mumkin bo‘ladi.

Masalan, Munavvar qori Abdurashidxonov o‘z maktublarida o‘quvchilarning noto‘g‘ri xatti-harakatlarini “behiqorlik” (bilmaslik) asosida baholab, ularni jazolash emas, sabr va suhbat bilan to‘g‘ri yo‘lga boshlashni afzal deb bilgan. Bu yondashuv bugungi kunda konfliktlarni psixodinamik jihatdan hal etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

Zamonaviy ta’lim nazariyasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ijtimoiy-emosional kompetensiyalarni, xususan murosqa qilish, boshqalarni tinglash, fikrga hurmat bilan qarash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish alohida e’tiborga olinmoqda. Bu borada bosqichli model asosida ishlash samaradorlikni oshiradi.

1. Shaxsiy anglash bosqichi.

Bu bosqichda o‘quvchi o‘z hissiyotlarini anglashga, ularni nomlashga, va o‘zining ziddiyatga qanday reaksiya qilayotganini tushunishga o‘rganadi. Jadidlar yoshlar ongini anglashga yo‘naltirish uchun “axloqiy suhbatlar” metodikasini ishlab chiqqan edilar.

2. Empatiya va refleksiya bosqichi.

Talabalar boshqalar nuqtai nazaridan qarash, o‘zaro almashinish, empatiya qilish orqali boshqalarning holatini his qilishga o‘rganadilar. Bu bosqichda rolli o‘yinlar, dramatik mashqlar, hamda Jadid asarlaridagi hikmatli sahnalar juda foydali.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilar jamoasida nizolar muqarrar, ammo ularni qanday hal qilish – bu maktabning, o‘qituvchining va butun ta’lim tizimining mahoratiga bog‘liqdir. Jadidlar bizga shunday ma’naviy-ma’rifiy meros qoldirishdiki, u asosida muammoga emas, yechimga

yo‘naltirilgan insonparvar maktab tizimini qurish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Mirzaaxmedov M.M. Jadid maktablarida pedagogik qarashlar va axloqiy tarbiya. // “Pedagogik izlanishlar”, №3, 2019. – B. 52–58.
4. Nazarova N.F. Interaktiv metodlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2021.

**ПСИХИЧЕСКОЕ ВЫГОРАНИЕ СРЕДИ СТУДЕНТОВ ЗАОЧНОГО
ОТДЕЛЕНИЯ: ДИАГНОСТИКА И МЕТОДЫ КОРРЕКЦИИ**

Рахманова Д.Р.

Научный руководитель: кандидат психологических наук,
доцент кафедры «Педагогика и психология»

Исабаева Н.Ф.

Студентка 3 курса

Annotatsiya. Maqolada sirtqi bo‘lim talabalari orasida psixik zo‘riqish holatlari o‘rganilgan. Emotsional charchoq, depersonalizatsiya va o‘z-o‘zini baholashdagi pasayish kabi asosiy tarkibiy qismlar tahlil qilingan. Maslach Burnout Inventory (MBI) so‘rovnomasi asosida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari va profilaktika choralarining ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: psixik zo‘riqish, emotsional charchoq, depersonalizatsiya, sirtqi ta‘lim, psixologik yordam.

Аннотация. В статье исследуется психическое выгорание среди студентов заочной формы обучения. Рассматриваются его ключевые компоненты — эмоциональное истощение, деперсонализация и снижение эффективности. Представлены результаты опроса по методике Maslach Burnout Inventory (MBI) и обоснована необходимость профилактической и психологической поддержки студентов.

Ключевые слова: психическое выгорание, эмоциональное истощение, деперсонализация, заочное обучение, психологическая поддержка.

Abstract. The article examines mental burnout among part-time students, focusing on emotional exhaustion, depersonalization, and reduced personal effectiveness. Results based on the Maslach Burnout Inventory (MBI) are presented, emphasizing the importance of preventive and psychological support measures.

Keywords: mental burnout, emotional exhaustion, depersonalization, part-time education, psychological support.

Психическое выгорание представляет собой сложный и многофакторный феномен, возникающий в результате продолжительного воздействия стрессогенных условий, часто

сопровождающихся недостаточным восстановлением и эмоциональным перенапряжением. В условиях заочного обучения студенты часто сталкиваются с совмещением учебной деятельности с трудовой, семейной и социальной нагрузкой, что обуславливает высокую уязвимость к развитию симптомов выгорания. Длительное пребывание в состоянии внутреннего конфликта между требованиями академической успеваемости и ограниченными ресурсами — временем, физической и психоэмоциональной энергией — приводит к снижению вовлеченности в учебный процесс, потере мотивации, а в ряде случаев — к когнитивной дезорганизации и соматическим проявлениям [1].

Понятие психического (или профессионального) выгорания было впервые введено в научный оборот американским психиатром Гербертом Фрейденбергером в 1974 году, который наблюдал у сотрудников клиник снижение мотивации и эмоциональное истощение на фоне чрезмерной рабочей нагрузки. Позднее, в 1980-х годах, К. Маслач и С. Джексон разработали концептуальную модель и диагностический инструмент Maslach Burnout Inventory (MBI), в которой выгорание рассматривается как трехкомпонентная структура: эмоциональное истощение, деперсонализация и редукция профессиональных (или академических) достижений [2]. Эти категории успешно адаптированы для изучения проявлений выгорания не только у представителей помогающих профессий, но и у студентов, особенно старших курсов, испытывающих перегрузки.


Эмоциональное истощение у студентов проявляется в снижении жизненного тонуса, хронической усталости, апатии, нарушениях сна и концентрации внимания. Вторая составляющая — деперсонализация — проявляется в отчуждённости, эмоциональной холодности, формализации взаимодействий как с преподавателями, так и с сокурсниками. В контексте студенческой среды деперсонализация может принимать форму внутреннего отстранения от учебной деятельности, чувства «автоматизма» в выполнении заданий. Третья компонента — редукция достижений — выражается в снижении субъективной оценки собственной компетентности, утрате уверенности в возможностях освоения учебного материала, что сопровождается неудовлетворённостью собой и ощущением профессиональной несостоятельности [2].

Симптоматика выгорания варьируется в зависимости от индивидуальных и ситуативных особенностей, однако наиболее частыми признаками являются: хроническая усталость, снижение продуктивности, эмоциональная неустойчивость, раздражительность, тревожность, ощущение беспомощности и цинизм по отношению к учебной и социальной активности. У ряда студентов также

наблюдаются психосоматические симптомы — головные и мышечные боли, нарушения пищевого поведения, бессонница или гиперсомния [3].

В условиях нарастающей актуальности проблемы психического выгорания среди студенчества было проведено эмпирическое исследование на базе PROFI UNIVERSITY. В выборку вошли 20 студентов 3 курса заочного отделения. Для диагностики был использован опросник Maslach Burnout Inventory (MBI), включающий 22 утверждения, оцениваемых по шкале от 0 до 6. Методика позволила получить данные по трём шкалам: «эмоциональное истощение», «деперсонализация» и «редукция профессиональных достижений». Результаты исследования отражены на рисунке 1

Рис. 1 Уровень психического выгорания студентов 3 курса заочного отделения.



Согласно полученным результатам, у 25% респондентов выявлен высокий уровень психического выгорания, ещё 20% находятся в зоне риска. 20% студентов продемонстрировали средний уровень выраженности симптомов, требующий внимания и профилактических мер. Только 35% испытуемых не проявили значимых признаков выгорания, что свидетельствует о широкой распространённости проблемы и необходимости системной поддержки психического здоровья студенческой аудитории.

Профилактика и преодоление выгорания требует многоуровневого подхода. Первоочередным является повышение уровня самосознания студентов относительно собственных эмоциональных состояний и потребностей. Навыки эмоциональной регуляции, умение устанавливать личные и профессиональные

границы, корректная организация режима труда и отдыха — все это входит в основу профилактической стратегии [4]. Важным компонентом также является развитие устойчивых социальных связей — общение с сокурсниками, преподавателями, участие в групповой деятельности. Эффективным направлением является внедрение в образовательную среду программ по развитию стрессоустойчивости и психологической гибкости. Практики телесной и дыхательной саморегуляции (йога, медитация, прогрессивная мышечная релаксация), регулярные физические нагрузки, а также доступ к психологическому консультированию могут стать важными ресурсами восстановления [5].

Таким образом, психическое выгорание среди студентов заочной формы обучения представляет собой значимую психологическую и образовательную проблему, требующую комплексного осмысления и организационных решений. Необходима разработка институциональных механизмов поддержки, включая мониторинг психоэмоционального состояния студентов, повышение доступности психологических услуг в вузах, а также трансформация образовательных подходов в сторону более гибких, эмпатичных и ресурсных стратегий взаимодействия.

Список литературы:

1. Водопьянова Н.Е. Психология профессионального выгорания: теория и практика. — СПб.: Питер, 2020.
2. Maslach C., Jackson S.E. Maslach Burnout Inventory Manual. — Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press, 1986.
3. Караяни Н.А. Психология и психотерапия выгорания. — М.: Академический проект, 2019.
4. Шмелев А.Г. Психология саморегуляции и стрессоустойчивости. — М.: Юрайт, 2020.
5. Лебедев А.А. Психологическое сопровождение обучающихся в вузе. — М.: ИП РАН, 2021.

ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ЖАДИДЧИЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ

Н.З. Расулева

“Profi University” “Педагогика ва психология” кафедраси в.б. доценти

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек оилаларида жадидчилик ғояларининг қандай ижтимоий-психологик таъсир кўрсатгани, бу ғоялар қандай қабул қилингани ва уларнинг бугунги кунгача қандай шаклда сақланиб қолгани таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: оила, ижтимоий-психологик таъсир, оилавий муносабатлар, шахсий тараққиёт.

Жадидчилик ҳаракати XIX аср охири ва XX аср бошларида Мовароуннаҳрда пайдо бўлиб, ўзбек халқининг маънавий ва ижтимоий уйғонишида муҳим ўрин тутди. Бу ҳаракат ўз вақтида фақатгина таълим-тарбия тизимини ислоҳ қилиш билан чекланиб қолмаган, балки оила институти, аёллар ҳуқуқлари, бола тарбияси, замонавий дунёқараш ва шахсий эркинлик масалаларида ҳам улкан ўзгаришлар киритишга ҳаракат қилган. Жадидларнинг асосий ғояси – “янги инсон”, “янги жамият” яратиш эди ва бу жараён аввало оилада бошланиши керак деган қарашга асосланган.

Оилавий муносабатларда Жадидчилик ҳаракати вакиллари – Абдулла Авлоний, Муҳаммад Сиддиқхон, Маҳмудхўжа Бехбудий каби маърифий зиёлилар – оилани жамиятнинг асосий бўғини сифатида кўрганлар. Уларнинг фикрича, агар оила соғлом, маърифатли ва ахлоқий жиҳатдан мустаҳкам бўлса, жамият ҳам ривожланади. Шунинг учун жадидлар тарбия масаласига катта эътибор қаратишган. Айниқса, болаларни эрта ёшдан илмга, ахлоққа ва меҳнатга ўргатиш орқали “янги инсон”ни вояга етказиш ғояси кенг ёйилган.

Жадидлар аёлларнинг таълим олиши, жамоат ҳаётида фаол иштирок этиши, бола тарбиясида етук шахс сифатида шаклланишини тарғиб қилганлар. Бу эса ўз навбатида оиладаги анъанавий ролларга янги қарашларни келтирди ва айрим ҳолларда ижтимоий қаршиликларга ҳам сабаб бўлди.

Жадидчилик ғояларини ижтимоий-психологик таъсири оилаларда турли психологик ўзгаришларга олиб келди. Аввало, шахсий тараққиёт ва индивидуаллик (шахс эркинлиги) ғояси ота-она ва фарзанд, эр ва хотин ўртасидаги муносабатларда янги динамикани пайдо қилди. Энди фарзандлар мустақил фикрлашига, билим олишига ҳаракат қилишар, хотин-қизлар эса ўз шахсий ривожига интилишни бошлашарди. Бу жараён табиий равишда қадимий ижтимоий анъаналарга қарама-қарши бўлган ва баъзи оилаларда зиддиятли ҳолатлар келиб чиқишига сабаб бўлган.

Бироқ, жадидлар томонидан илгари сурилган ғоялар, хусусан, илм-маърифат, ахлоқ, жамият олдида масъулият ҳисси ва ота-онага ҳурмат каби қадриятлар, аксарият ўзбек оилаларида ижобий қабул қилинди. Бу ўзгаришлар аста-секинлик билан амалга ошган бўлса-да, жамиятдаги фикрлаш тарзида чуқур из қолдирди.

Ҳозирги кунда жадид ғояларининг давомийлиги ўзбек оилаларида яшовчанлигини сақлаб келмоқда. Замонавий таълим тизимида, айниқса бола тарбияси, ота-оналарнинг масъулияти, аёлларнинг жамиятдаги роли каби масалаларда жадидлар илгари

сурган қарашларнинг таъсири сезилади. Айниқса, "тарбия бошланғич нуқтаси – оила" деган ғоя ҳозирги замонавий психология ва педагогикада ҳам муҳим ўрин тутди.

Ёш авлодга билим беришда, уларда мустақил фикрлаш, танқидий қараш ва маънавий қадриятларни шакллантиришда жадидлар асарлари ва ғояларидан кенг фойдаланиш мумкин. Бугунги кунда жадидчилик меросини илмий тадқиқ қилиш, уни оила институти билан боғлиқ ҳолда ўрганиш мамлакатимиз маънавий ривожига учун муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Жадидчилик ҳаракати нафақат тарихий бир даврнинг ислохот ҳаракати, балки ижтимоий ва психологик жиҳатдан мураккаб, бироқ самарали таъсир кўрсатган феномен сифатида баҳоланиши мумкин. Ўзбек оилаларида жадид ғояларининг таъсири ҳозиргача сезилиб турибди. Бу ғоялар жамиятда маърифат, тараққиёт ва маънавиятни асосий устувор қадриятлар сифатида белгилаб берган. Шундай экан, жадидчилик фалсафасига янада чуқурроқ мурожаат қилиш ва унинг оилавий муносабатлар, психологик барқарорликдаги ролини чуқур ўрганиш бугунги кунда ҳам долзарбдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳожибоев, Ҳ. (2020). Жадидчиликнинг таълим-тарбиядаги ўрни. Маънавият ва маърифат, №1, 45–49.
2. Мамарасулов, Қ. (2006). Жадидчилик ҳаракати ва унинг замонавий тафаккурга таъсири. Тошкент: Фан.
3. Қодиров, А. (2019). Ўзбек оиласида ижтимоий-психологик муносабатлар. Психология ва жамият, №2(14), 28–32.
4. Сиддиқов, Ҳ. (2010). Жадидчилик тарихи ва унинг маънавий асослари. Тошкент: Академ нашр.
5. Абдуллаев, Ш. (2018). Жадидлар ва замонавий педагогик ғоялар. Тарбия. Илм. Фан, №3, 13–17.
6. Нурматов, И. (2015). Ўзбек оиласида қадриятлар эволюцияси. Ижтимоий фанлар, №4, 55–59.
7. Халилов, Н. (2021). Жадидлар фаолиятида оила масалалари. Фалсафа ва ҳаёт, №1, 72–76.

JADIDCHILIK G‘OYALARI SPORTDA JAMOAVIYLIK VA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK ASOSI SIFATIDA

Abdullayev Akobr Shokir o‘g‘li,

“Profi University”, “Pedagogika va psixologiya” kafedrası v.b. dotsenti
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Annotatsiya. Jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy va siyosiy, balki ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida ham inson tarbiyasida chuqur iz qoldirgan. Bu harakatning g‘oyalari zamonaviy sport psixologiyasi, jamoaviylik va ruhiy tayyorgarlik masalalarida muhim metodologik manba bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: sport psixologiyasi, jamoaviylik, psixologik barqarorlik, psixologik tayyorgarlik, jadidchilik.

Аннотация. Движение Джадидов оставило глубокий след не только в культурной и политической сферах, но и как социально-психологическое явление в воспитании личности. Его идеи служат важной методологической основой в современной спортивной психологии, командной работе и ментальной подготовке.

Ключевые слова: спортивная психология, командность, психологическая устойчивость, психологическая подготовка, джадидизм.

Annotation. The Jadid movement played a significant role not only culturally and politically, but also as a socio-psychological phenomenon in shaping human development. Its ideas serve as a valuable methodological foundation for modern sports psychology, teamwork, and mental preparation.

Keywords: sports psychology, teamwork, psychological stability, psychological preparation, jadidism.

Jadidchilik harakati nafaqat siyosiy va madaniy, balki ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida ham tarixiy ahamiyatga egadir. U xalq ongi, ijtimoiy tafakkur, shaxsiy o‘zgarish va jamoviy uyg‘onishga xizmat qilgan. Bu harakat psixologik jihatdan yangilanishga bo‘lgan ichki ehtiyoj, shaxsiy va ijtimoiy identitetning shakllanishi, ijodkorlik va intellektual o‘rish uchun zamin yaratdi.

Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi quyidagi psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq edi, jumladan an’anaviy hayot tarzining inqirozi, uzoq yillar davomida mustahkam bo‘lib kelgan diniy-ma’naviy qadriyatlar zamon bilan hamnafas bo‘la olmay qolganda, ijtimoiy ongda yangilanish zarurati vujudga keldi. Shuningdek, o‘zlikni anglash ehtiyoji mavjudligi, ayniqsa, Chor imperiyasi bosimi ostida yashagan xalqlar o‘z milliy identitetini saqlab qolishga harakat qilishdi. Bu jarayon psixologik jihatdan o‘zligini anglash, o‘ziga ishonch uyg‘otish, madaniy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqish bilan namoyon bo‘ldi. Ma’rifiy ochlik omili ham borki, savodsizlik darajasi yuqori bo‘lishi, zamonaviy bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj harakatning psixologik kuchlanishini oshirdi.

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat madaniy-ma’rifiy sohada, balki inson tarbiyasi, jismoniy va ruhiy barkamollik masalalarida ham chuqur g‘oyalarga ega edi. Jadidlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini o‘zgartirish, xalqni zamonaviy bilimlar, jismoniy va ma’naviy sog‘lomlik bilan qurollantirish tarafdori edilar. Bugungi sport va psixologik tayyorgarlik masalalarida ularning ilg‘or g‘oyalari katta metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

Jadidlar insonning har tomonlama yetuk bo‘lishini tarbiyaning maqsadi deb bilganlar. Ismoil G‘aspirali shunday degan: “Tarbiyada eng asosiysi – tan, qalb va ong sog‘lom bo‘lishidir”. Bugungi sport psixologiyasida ham tan va ong uyg‘unligi asosiy psixologik tamoyil hisoblanadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan aqliy va jismoniy barkamollik, ma’naviy yetuklik, ijtimoiy birdamlik va hamjihatlik g‘oyalari zamonaviy sportda jamoaviy ruh, intizom, psixologik barqarorlikni shakllantirishda asosiy manbalardan biri sifatida qaraladi.

Jadidlar jismoniy tarbiyani faqatgina kuch-quvvat emas, balki inson tafakkurini uyg‘otuvchi vosita sifatida ko‘rganlar. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida shunday deydi: “Tana tarbiyasi – inson salomatligining birinchi garovi. Sog‘lom jasadda sog‘lom aql yashaydi”. Jismoniy chiniqish orqali inson nafaqat baquvvat bo‘ladi, balki irodasi, intizomi, sabr-bardoshi mustahkamlanadi. Bu tamoyillar sport psixologiyasida “psixologik chidamlilik” va “stressga bardoshlilik” tushunchalari bilan izohlanadi.

Shuningdek, Munavvarqori Abdurashidxonov ham maktablarda jismoniy tarbiyaga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Jismoniy mashqlar aql va xulqni charxlaydi. U bolalarni halollik, jasorat va birdamlikka o‘rgatadi”. Jadidchilikda jamoaviylik tushunchasi mustahkam axloqiy va ijtimoiy tamoyil sifatida qaralgan. Bu g‘oya sportda jamoa ruhi, hamkorlik va o‘zaro ishonch asosini tashkil qiladi. Jadidlarning milliy uyg‘onish haqidagi qarashlari bevosita sportdagi jamoaviylik, ijtimoiy motivatsiya va birlik hissi bilan uyg‘unlashadi.

Abdurauf Fitrat “Milliy tarbiya” asarida shunday deydi: “Yoshlar birdamlik ruhida tarbiyalansa, xalq tanazzuldan najot topadi”. Sportda bu g‘oya o‘z ifodasini jamoaviy mashg‘ulotlar, o‘yin ichidagi koordinatsiya, hamjihatlik va murabbiy bilan sog‘lom aloqalarda topadi. Jamoaviylik psixologik tayyorgarlikning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, sportchi o‘zini jamoaning bir bo‘lagi sifatida his qiladi. Sportchilar uchun ruhiy holat muhim ahamiyatga ega. Musobaqa oldidan stress, xavotir, asabiylik ularning jismoniy ko‘rsatkichlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Jadidlar esa irodani mustahkamlash, ongni tozalash, sabrni tarbiyalash orqali insonni ruhiy tayyorlikka olib borishga urinib kelganlar.

Abdulla Avloniy irodaning ahamiyatini quyidagicha ifodalaydi: “Iroda bilan inson tog‘ni ham suradi. Qattiq irodali kishi har qanday qiyinchilikni yengadi”. Zamonaviy sport psixologiyasida bu “mental toughness” - psixologik chidamlilik deb ataladi. Bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun motivatsion treninglar, meditatsiya, vizualizatsiya usullari qo‘llaniladi. Shuningdek, Fitrat o‘z maqolalarida sport o‘yinlarini tarbiya vositasi sifatida ko‘rishni taklif etgan. Misol uchun Kanadada o‘tkazilgan milliy tadqiqotga ko‘ra (Canadian Fitness and Lifestyle Research Institute) sport bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilarning 88 foizi sinfda intizomli bo‘lishi aniqlangan.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan barkamol inson konsepsiyasi bugungi sport psixologiyasi va tarbiyasi uchun boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular jismoniy sog‘lomlik, ruhiy barqarorlik, ijtimoiy birdamlik, ma‘naviy yetuklikni uyg‘un holda ko‘rganlar. Zamonaviy sportda ham shu asoslar jamoaviylik, motivatsiya, ruhiy barqarorlik, musobaqalarga tayyorgarlikda katta rol o‘ynaydi. Jadidlar merosi sport pedagogikasi va psixologiyasiga integratsiyalashuv orqali yangi metodologik asoslar yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. *Turkiy Guliston yoxud axloq*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2007. – 160 b.
2. Fitrat A. *Milliy tarbiya*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010. – 80 b.
3. Weinberg R., Gould D. *Foundations of Sport and Exercise Psychology*. – Human Kinetics, 2022.
4. Sultonova M. *Sport psixologiyasi asoslari*. – Toshkent: O‘zDJTI, 2019.
5. <https://cflri.ca/publications/search-all-publications/>

**JADIDCHILIK G‘OYALARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK FENOMEN
SIFATIDAGI TAHLILI**

Tojiboyev Ravshanbek Isaqjon o‘g‘li
“Profi University” “Ijtimoiy fanlar” kafedrası
tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik g‘oyalari ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o‘rganiladi. Jadidlarning ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlari jamiyat ongini o‘zgartirishdagi o‘rni va zamonaviylikka intilishdagi psixologik omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, fenomen, usuli-jadid, milliy ozodlik harakati, modernizatsiya, qadimchilar.

Аннотация. В данной статье идеи джадидизма рассматриваются как социально-психологический феномен. Анализируются духовно-просветительские взгляды джадидов и их влияние на изменение общественного сознания и стремление к модернизации.

Ключевые слова: джадидизм, феномен, усули-джадид, национально-освободительное движение, модернизация, кадимисты (традиционалисты).

Annotation. This article examines Jadidism ideas as a socio-psychological phenomenon. It analyzes the spiritual and educational views of the Jadids and their role in transforming social consciousness and pursuing modernization.

Key words: Jadidism, phenomenon, Usuli-Jadid, national liberation movement, modernization, qadimists (traditionalists).

Jadidchilik g‘oyalari musulmon Sharqida XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy qarashlar, g‘oyalarning umumiy majmuasi bo‘lib, ushbu oqim o‘zida taraqqiyparvarlik xususiyatlarini namoyon qilgan. Harakat namoyondalari tomonidan ochilgan yangi usul maktablarida bolalarga ta’lim berishning yangi uslubi (*usuli-jadid*) dan unumli foydalanilishi keyinchalik harakat nomini keltirib chiqargan. Harakatning g‘oyaviy asosi esa musulmon modernizmi g‘oyalarini ifoda etgan. Mazkur g‘oyalarning dastlabki ifodachisi va asoschisi sifatida esa qrim-tatar ma’rifatparvari Ismoil G‘aspiralini ko‘rsatish mumkin.³⁶

Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakati alohida tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. Avvalo, bu davrda Markaziy Osiyo hududlari Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilishi ortidan yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy bosimlar, o‘lka xalqlarining ruslarga qarshi muvaffaqiyatsiz kechayotgan milliy-ozodlik harakatlari jadidchilik harakati namoyondalarini kurash strategiyalarini o‘zgartirishga, ya’ni siyosiy va harbiy kurash yo‘lidan ma’lum bir vaqtga voz kechib, ma’rifatparvarlik harakati sifatida faoliyat ko‘rsatishga undadi. XIX asr ikkinchi yarmidan e’tiboran jadid namoyondalari tomonidan Turkiston, Buxoro va Xorazmning turli nuqtalarida yangi usul maktablarining ochilishi, ular uchun darsliklar yozilishi (birgina Behbudiy va Munavvarqori faoliyati davomida 15 ta yangi maktab darsliklari dunyo yuzini ko‘rgan),³⁷ teatr truppalari namoyishlari orqali uyqudagi Turkiston millatini uyg‘onishga chaqirilishi dastlabki davrlarda o‘z aks-sadosini yetarli darajada bermagan bo‘lsa ham XIX asr so‘nggi choragi-XX asr boshiga kelganda harakatning ommaviy tus olishiga olib keldi. Aholi o‘rtasida jadidchilik ruhidagi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining keng tarqalishida turli yillarda tashkil etilgan jadid gazetalarning ham o‘rni beqiyos bo‘ldi deyish mumkin. Birgina Mahmudxo‘ja Behbudiy qalamiga mansub “Ikki emas to‘rt til lozim” sarlavhali maqolasining o‘zida o‘sha davr yoshlariga nisbatan arab, fors, turk va rus tillarini o‘rganishga chaqiriq mavjud bo‘lib, bu tillarni bilish orqali erishiladigan shaxsiy va jamiyatga oid manfaatlar haqida so‘z yuritiladi.³⁸

Umuman olganda XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasida kechayotgan iqtisodiy jarayonlar (sanoatlashuv, ta’lim jarayonlarining modernizatsiyasi) imperiyaning musulmon qatlami vakillari oldiga yoki zamonaviy g‘oyalarni qabul qilgan holda kelajakdagi mustaqillikka ma’rifiy tayyorgarlik ko‘rish yoki butun dunyoda yuz berayotgan taraqqiyotdan yuz o‘girib, izolyatsiyada qolish kabi tanlovlarni qoldirdi. Ushbu masalada Turkiston taraqqiyparvarlarining ikki guruh (jadidlar va qadimchilar) ga

³⁶ Темирбаев Т. Джадидизм и реформа мусульманского образования. 2019.

³⁷ Худайкулов А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX – начало XX вв.). Ташкент. 1995. С. 87-88.

³⁸ Xamidov M., Odiljonova R. Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik maqolalari tahlili. JOURNAL OF LANGUAGE AND LINGUISTICS. 2024. 16-b.

bo‘linishlari ular bilan bog‘liq keyingi tarixiy jarayonlarga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi.

Jadidlarning turli masalalarga oid qarashlarining ishlab chiqilishi keyinchalik ularning siyosiy dasturi sifatida 1917-yildan boshlangan siyosiy jarayonlarda qo‘l keldi. Ularning siyosiy qarashlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu turdagi g‘oyalar asosida vakillik organi (parlamentarizm) tomonidan boshqariladigan davlat qurish masalasi yotadi. Bunday g‘oyaning amaldagi namunasi sifatida esa jadidlar o‘sha davrda Usmonli imperiyasida shakllangan yosh turklar harakatining siyosiy qadamlarida ko‘rganlar. Parlamentar boshqaruv asosidagi davlat qurish g‘oyasini targ‘ib qilar ekanlar, jadidlar bu g‘oyaning asosi sifatida Qur‘oni karimdagi sho‘ro (maslahat) tushunchasiga tayanganlar. Qolaversa, yangi paydo bo‘lajak jamiyatda ayollar huquqlarining to‘la-to‘kis ta‘minlanishi, xususan ularga saylov huquqi berilishi jadidlar siyosiy dasturidagi muhim bandlardan biri edi.³⁹

Turkiston muhitida XIX asr holatida dinning ulkan ahamiyatiga to‘g‘ri baho bera olgan jadid namoyondalari islom dinidagi ijtihod (Qur‘onni ijodiy tarzda mustaqil talqin etish huquqi) omiliga katta urg‘u qaratganlar. Ma‘lumki, dinda ijtihod qilish huquqiga ega bo‘lish u bo‘yicha puxta bilimga ega bo‘lishni talab etadi. Shundan kelib chiqqan holda taraqqiyparvarlar ilm va maorifni rivojlantirish zarurligini ta‘kidlaganlar. Shu bilan birgalikda ular tomonidan islom yevropacha kiyinish va ayollar teng huquqligini taqiqlamasligi haqidagi qarashlar ilgari surilgan. Mazkur qarashlar pozitiv taraqqiyot ruhida bo‘lib, ularning markazida vatan va millat manfaatlari yotishiga urg‘u berilgan.

Jadidchilik g‘oyalari o‘z davri uchun muhim ijtimoiy-psixologik fenomen bo‘la olganligi bir necha qirralarda ko‘zga tashlanadi. Avvalo, jadidchilik omili o‘z davri kishilari orasida zamonaviy tafakkurni shakllantirishda muhim o‘rin tutganiga e‘tibor qaratmoq joiz. Jadidlar eski, konservativ fikrlash uslubiga qarshi chiqib, yangicha, ilmiy-oqilona fikrlashga da‘vat etdilar. Bu orqali shaxsiy va ijtimoiy tafakkurda inqilobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi dunyoqarashning shakllanishi ijtimoiy ongning rivojlanishiga olib keldi.

Harakat vakillari tarixiy xotira, diniy qadriyatlar va milliy g‘ururni uyg‘otishga intildilar. Bular esa shaxsning o‘zligini anglash, milliy o‘zlikni shakllantirish jarayoniga xizmat qildi.

Jadidchilik faoliyati natijasida an‘anaviy va zamonaviy qarashlar o‘rtasida to‘qnashuvlar yuzaga keldi. Bu holat ijtimoiy ongda psixologik ziddiyatlarni keltirib chiqardi: bir tomonda yangilikka intilish, boshqa tomonda esa eskilikdan voz kecholmaslik mavjud edi.

Jadidlarning ta‘lim orqali ongni o‘zgartirish dasturi doirasida yangi usul maktablarining ochilishi yosh avlod ongini yangilash, ularni mustaqil

³⁹ Сыйырбеков А. С. Роль и место хаджей-джадидов в развитии мусульманского образования Архивная копия от 16 июня 2019 на Wayback Machine // Молодой ученый. № 4, 2017. С.112-114

fikrlashga o‘rgatish orqali ijtimoiy va psixologik muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar ta’limni ijtimoiy ongini yangilashning asosiy vositasi sifatida ko‘rdilar. Ular faqat ma’rifatparvar emas, balki ijtimoiy faol, jamiyat oldida mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilishdi. Ularning g‘oyalari xalqda o‘z taqdiriga befarq bo‘lmaslik, ijtimoiy adolatga intilish kabi fuqarolik sifatlarni shakllantirdi.

Jadid adabiyoti, publitsistikasi va sahna asarlari xalq qalbida kelajakka ishonch, intilish, o‘zgarishlarga umid uyg‘otdi. Bu esa ularning g‘oyalarini psixologik motivatsiya manbai sifatida baholash imkonini beradi.

Jadidlarning dunyoqarashini belgilab bergan eng muhim masala tarix fanlari doktori, professor Dilorom Alimova ta’biri bilan aytganda, “G‘arb va Sharq masalasi” edi.⁴⁰ Jadidlar O‘rta Osiyoning G‘arbiy Yevropa bilan tarixiy aloqalaridan xulosa chiqarishga moyillik bildirganlar. Ma’rifatni targ‘ib qilish barobarida Yevropadagi ilg‘or davlatlar taraqqiyotining sababi ta’lim tizimi va yangi texnologiyalarning rivojlanishi ekanini tushunganlar va ko‘p bora o‘rta asrlar renessansini esga olganlar. Ular Turkistonda qo‘llash mumkin bo‘lgan hamma narsani ta’lim islohotlari sohasiga joriy etishga intilganlar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jadidchilik faqat ijtimoiy va madaniy harakat bo‘lib qolmay, balki o‘z davrining ijtimoiy-psixologik muhitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan hodisa sifatida qaralishi zarur. Bu harakat jamiyat tafakkurini, shaxs psixologiyasini va ijtimoiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirgan fenomen sifatida qadrlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Валиханова В.С. Джадидизм: возникновение и сущность // История национальных политических партий России. — М., 1997.
2. Махмудова Г. Т. Джадидское движение в Туркестане и его влияние на развитие нравственно-эстетической мысли: Автореферат дисс. канд. филос. наук.-Ташкент, 1996.-26с.
3. Хакимов Р.С. Джадидизм (реформированный ислам). — Казань: Институт истории АН РТ, 2010. — 208 с.
4. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. Toshkent. Akademnashr. 2022. 274 b.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY: TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING YO‘LBOSHCHISI, MILLIY MA’RIFAT RAHNAME

Mirazimova Muxabbat Normatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

⁴⁰ Alimova D. Jadidchilik fenomeni. Toshkent. Akademnashr. 2022. 19-b.

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

Annotasiya. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, milliy ma‘rifat rahnamosi, ma‘rifat ilmini sultoni, Behbudiya kutubxonasi hamda Behbudiyning boy merosi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, Mahmudxo‘ja Behbudiy, milliy ruh, jadidchilik g‘oyalari, “Padarkush”.

Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma‘rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) – Turkistonda jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, o‘zining ilmiy, adabiy va siyosiy faoliyati bilan nafaqat o‘z davrida, balki keyinchalik ham muhim ta‘sir ko‘rsatdi. Behbudiy o‘zining ma‘naviy va madaniy merosi bilan Turkistonning jadidchilik harakati, milliy ma‘rifat va milliy ozodlik uchun kurashda muhim rol o‘ynagan shaxs hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780 – 1785) Samarqandga kelib qolgan.

U dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko‘rgan. An‘anaviy tahsil, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko‘tariladi. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Behbudiy safar chog‘ida ko‘p ajobiy xodisalarga guvoh bo‘ldi. Xususan safarda u yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi.

Turkiston jadidchilik harakati. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining mustamlakasi bo‘lgan Turkiston hududida keng tarqaldi. Bu harakat, asosan, yangi ilmiy bilimlar va zamonaviy

ta’lim tizimi orqali milliy uyg‘onish va madaniy yangilanishni maqsad qilgan edi. Jadidchilikning asosiy maqsadi eski, ko‘p jihatdan orqada qolgan ta’lim tizimini isloh qilish va yangi, ilg‘or fikrlarni joriy etish edi.

Mahmudxo‘ja Behbudi o‘zining ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan sa’y-harakatlari bilan turkistonliklar orasida mashhur bo‘ldi. U ta’lim jarayonida nafaqat ilmiy bilimlar, balki milliy ruhni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Behbudiyning pedagogik ta’limoti va jadidchilik g‘oyalari, o‘z davrida xalqni o‘zgartirishga qaratilgan muhim qadamlar bo‘lgan.

Behbudi nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi», degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatru sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”, deb yozgan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudi va ma’rifat. Behbudi, o‘z asarlarida, jamiyatni faqat ilmiy bilimlar orqali yangilashning zarurligini ta’kidlab, ta’limni modernizatsiya qilishga chaqirgan. Uning asarlari orasida “Turkiston va uning kelajagi” kabi muhim ishlari mavjud bo‘lib, unda Behbudi Turkistonni ruslar tomonidan bo‘ysundirilgan bir viloyat sifatida ko‘rib chiqib, uning kelajagini o‘zbekistonliklar va turkistonliklarning o‘z qo‘lida ko‘rishni xohlagan.

Behbudiyning ma’rifatga oid qarashlari ko‘plab yosh avlodlarni o‘ziga jalb qilgan. U milliy uyg‘onishning markazida ma’rifat, ilm-fan va madaniyatni joylashtirgan. Unga ko‘ra, Turkistonning kelajagi ilmli va madaniy rivojlanishga asoslanishi kerak edi.

Behbudiya kutubxonasi. Behbudiyning yurt obodligi yo‘lida boshlagan ijobiy ishlaridan biri “Behbudiya” kutubxonasining tashkil etilishi bo‘ldi. Behbudi birinchilardan bo‘lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona “Yangi rasta”da ochilgan. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda “Turkiston viloyatining gazetasi”da xabar berilgan edi. 27 bobdan iborat bo‘lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a’zolik badali 3 so‘mni tashkil etgan. Kutubxonaning asosiy maqsadi

mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug‘ullanishga undash bo‘lgan.

Kutubxona faoliyatida Mahmudxo‘ja Behbudiya jadid ma‘rifatparvarlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va pedagog Abduqodir Shakuriy yordam bergan. Tuzilish jihatdan xilma-xil va boy fondga ega bo‘lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug‘atlar, xarita va atlaslardan o‘qib foydalanish mumkin bo‘lgan. Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga yetgan. Kunda 14 soat davomida ishlagan. Ochilishidan 7 oy o‘tib, a‘zolari soni 125 kishiga yetgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati so‘na boshladi. Bunga avvalo o‘lkadagi jadidlar va qadimchilar qarama-qarshiligi sabab bo‘lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u yerga borishni taqiqlab qo‘yadi. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yildan moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a‘zodan iborat yillik yig‘ilish paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy muammoni hal etish maqsadida spektakl qo‘yishga kelishib olinadi. Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, Kutubxona faoliyati tugaydi. Kutubxona 1908—1914-yillarda faoliyat yuritgan. Behbudiy kutubxonani o‘zining uyiga ko‘chiradi va Behbudiya kutubxonasi deb nomlaydi. Keyinchalik u yerda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo‘lga qo‘yadi va ularning ro‘yxati “Oyna” jurnalida e‘lon qilib boriladi.

Behbudiyni merosi. Mahmudxo‘ja Behbudiyni merosi hozirgi kunda ham Turkiston xalqlari orasida qadrlanadi. Uning jadidchilik harakati va ma‘rifatga oid g‘oyalari nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi kunda ham ta‘lim va madaniyat sohalarida samarali ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Behbudiy o‘zining milliy ma‘rifat yo‘lidagi faoliyati orqali bugungi kunda ham jahon miqyosida qadrlanadigan bir shaxsga aylangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonning jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi sifatida milliy uyg‘onish va ta‘limni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan va bu g‘oyalarni o‘zining asarlari orqali bugungi avlodlarga yetkazgan. Uning merosi, ayniqsa, ta‘lim va ma‘rifatning rivojlanishi va milliy ozodlik kurashining muhim elementlariga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat Turkiston jadidchilik harakatining muhim shaxslaridan biri, balki milliy ma‘rifatning asoschisi sifatida ham tarixda o‘chmas iz qoldirdi. U Turkistonning kelajagi uchun yangi fikrlarni yaratish va amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan. Behbudiyni ilm-fan, ma‘rifat va milliy ozodlikka oid qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirza Muhammad Ali. Mahmudxo‘ja Behbudiy: Hayoti va Faoliyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005 yil.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

2. Oripov A.G. Turkiston Jadidchilik Harakati: Tarixiy Tahlil. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Noshirligi, 2008 yil.

3. Qurbonov Sh.Sh. Jadidchilik va Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent: Fan, 2010 yil.

4. Ismoilov B.S. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Turkiston Ma‘rifati. Toshkent: Akademiya, 2014 yil.

5. Tursunov I.T. Jadidchilik harakati va uning ta‘siri: Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning asarlari. Toshkent: O‘zbekiston Matbuoti, 2000 yil.

6. Rakhimov F.M. Turkistonning Jadidchilik Harakati: Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning merosi. Bishkek: Ak-Kula Noshirligi, 2013 yil.

7. Abdurahmonov T.R. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning ta‘lim-istiqbolidagi o‘rni. Toshkent: Ma‘rifat, 2007-yil.

8. Rakhmanov N.N. Milliy Ma‘rifat va Mahmudxo‘ja Behbudiy: Tarixiy-Madaniy O‘rni. Tashkent: Yangi Nashr, 2012-yil.

JADIDLARNING HOZIRGI KUN YOSHLARI IRODASIGA TA’SIRI

Niyazmetov.I.I

Psixolog, tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqola, jadidchilik harakatining bugungi kunda yoshlarga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganadi. Jadidlar, o‘z vaqtida ta‘lim, taraqqiyot va milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surib, o‘z ijtimoiy va madaniy inqiloblarini amalga oshirdilar. Hozirgi kun yoshlari irodasiga, xususan, ular o‘z-o‘zini anglash, maqsad qo‘yish va ijtimoiy faollikni shakllantirishda, jadidlarning g‘oyalari qanday rol o‘ynayotganini tahlil qilish maqsad qilinadi. Maqolada psixologik jihatlar ham yoritiladi, chunki irodaning shakllanishida ijtimoiy va madaniy omillar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, yoshlarda iroda, psixologiya, ijtimoiy faollik, ta‘lim, milliy uyg‘onish, motivatsiya, irodaviy rivojlanish.

Аннотация. Данная статья исследует влияние джадидистского движения на молодежь в современном контексте. Джадиды, продвигая идеи образования, развития и национального возрождения в своё время, осуществили социально-культурную революцию. В статье ставится задача проанализировать, как идеи джадидизма влияют на формирование воли молодежи, особенно в контексте самопознания, постановки целей и развития социальной активности. Также рассматриваются психологические аспекты, поскольку социальные и культурные факторы играют важную роль в формировании воли.

Ключевые слова: Джадидизм, воля молодежи, психология, социальная активность, образование, национальное возрождение, мотивация, развитие воли.

Annotation. This article examines the influence of the Jadidist movement on today’s youth. The Jadids, by promoting the ideas of education, development, and

national awakening, implemented their own social and cultural revolutions at their time. The article aims to analyze how the ideas of the Jadidists play a role in shaping the will of today’s youth, particularly in the areas of self-awareness, goal-setting, and social activism. Psychological aspects are also discussed, as social and cultural factors play a significant role in the formation of will.

Keywords: Jadidism, youth will, psychology, social activism, education, national awakening, motivation, will development.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, asosan, Turkiston va Rossiya imperiyasining boshqa musulmon hududlarida rivojlangan. Bu harakat o‘z davrida, milliy uyg‘onish, ilmiy-texnik taraqqiyot va madaniy o‘zgarishlarni targ‘ib qilish orqali jamiyatda muhim o‘zgarishlar kiritdi. Jadidlar ta’lim va ijtimoiy faollikni kuchaytirishga urg‘u berishgan bo‘lsa-da, ularning g‘oyalari bugungi kun yoshlari uchun ham dolzarbdir. Hozirgi davrda yoshlarda iroda shakllanishida jadidlarning fikrlari qanday tasir ko‘rsatishini o‘rganish, bu harakatning ijtimoiy-psixologik tomonlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Jadidchilik harakati, asosan, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, jadidlar islom dunyosida, o‘z xususiyatiga ko‘ra, diniy va madaniy yangilanishni amalga oshirishga intilganlar. Ularning g‘oyalari zamonaviy ta’lim tizimi va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid bo‘lib, milliy uyg‘onish va intellektual erkinlikni targ‘ib qilgan. Jadidchilikda yoshlarga o‘zining iroda va istaklarini shakllantirish, o‘z bilimlarini oshirish va ijtimoiy faollikni kuchaytirish zarurligi ko‘rsatilgan.

Jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri — yoshlarni ijtimoiy, ilmiy va axloqiy jihatdan o‘rishini ta’minlash edi. Jadidlarning ta’limga bo‘lgan urg‘usi, bugungi kunda yoshlarning bilim olishga bo‘lgan istagini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘z navbatida, yoshlarda o‘zini rivojlantirish va o‘zgarishga tayyorlikni kuchaytiradi, bu esa irodaning mustahkamlanishiga yordam beradi. Jadidlar o‘z davrida milliy uyg‘onish va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga intilishgan. Bu esa bugungi yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni va jamiyatda o‘z o‘rnini topish istagini uyg‘otadi. Yoshlarda o‘zaro hamkorlik, mas’uliyatli bo‘lish va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishda jadidchilik g‘oyalari hal qiluvchi omil bo‘lishi mumkin. Jadidlarning ta’limidagi o‘z-o‘zini tarbiyalash, axloqiy va ma’naviy jihatlar, yoshlar uchun irodaviy kuchni shakllantirishda asosiy element hisoblanadi. Bu g‘oyalar, zamonaviy psixologiyada irodaviy rivojlanish va qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga ta’sir qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, iroda — bu insonning maqsadga erishish uchun intilishi, qarorlar qabul qilishdagi qat’iyatliligi va mushkulotlarga bardosh bera olish qobiliyatidir. Yoshlarda iroda shakllanishi uchun, ularning ijtimoiy va madaniy muhitlari muhim ahamiyatga ega. Jadidlarning g‘oyalari, o‘z navbatida, yoshlarda mustaqil fikrlash, erkin

qarorlar qabul qilish va o‘z maqsadlariga erishishda yordam beradigan psixologik bazani yaratadi. Hozirgi kunda jadidlarning g‘oyalari va ularning irodaga ta’siri nafaqat ta’lim sohasida, balki yoshlarning ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojlanishida ham o‘z aksini topmoqda. Yoshlarda o‘zini anglash, o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish va jamiyatda faol ishtirok etish istagi, jadidlarning g‘oyalari bilan ilhomlanib shakllanadi. Shuningdek, jadidlarning ta’limga berilgan e’tibori, yoshlarning ilmiy va texnologik taraqqiyotga qiziqishini oshiradi, bu esa irodaviy rivojlanishning muhim omilidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidlarning ta’lim va jamiyatda o‘zgarishlarga bo‘lgan yondashuvi, hozirgi kun yoshlari irodasining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ularning g‘oyalari yoshlarni nafaqat ilmiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga, balki mustahkam iroda va maqsadga erishish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Psixologik nuqtai nazardan, jadidlarning g‘oyalari, yoshlarning irodasini shakllantirishda va o‘zgarishga tayyorlikni rivojlantirishda asosiy psixologik kuch sifatida ishlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. (1992). *Jadidchilik harakati va uning ta’limdagi roli*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
2. Mirzayev, A. (2004). *Jadidlarning ta’lim va ijtimoiy faoliyatdagi o‘rni*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
3. Rakhmanov, K. (2010). *Psixologiya va iroda: Teoriyalar va amaliyotlar*. Moskva: Psixologiya nashriyoti.
4. Akhmedov, M. (2017). *Jadidchilik va yoshlarning rivojlanishiga ta’siri*. Tashkent: Ma’naviyat.
5. Abdurahmanov, A. (2021). *Modernizatsiya jarayonlarida yoshlarga ta’sir*: <https://www.uzbekjournal.com/>
6. Murodov, N. (2019). *Jadidlarning ma’naviy merosi va yoshlar tarbiyasidagi roli*: <https://www.uzbekliterature.com/>
7. Jadidlar va ta’lim tizimi (2018). *Toshkent shahridagi "Ziyo" ilmiy jurnali*, <https://www.ziyojournal.uz/>

TO‘RTINCHI SHO‘BA

JADIDLAR IQTISODIY VA FALSAFIY G‘OYALARINING ZAMONAVIY JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

ABDULLA AVLONIYNING NUTQ HAQIDAGI FIKRLARI

Maxmudova Oybarchin Axatovna

“Profi University” “Maktabgacha, boshlang‘ich ta’lim”
kafedrası professor v.b., p.f.b.f.d (PhD)

Sevara Maxmudova

Qo‘qon universiteti “Ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola jadidlar ijtimoiy-siyosiy harakati g‘oyalarida pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan taniqli o‘zbek yozuvchisi, dramaturg, ma’rifatparvar va pedagog A. Avloniy roliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: meros, ma’rifat, tarbiya, maktab, tug‘ilish, jadidlar, rivojlanish.

Аннотация. Данная статья посвящается роли А. Авлони, известного узбекского писателя, драматурга, просветителя и педагога, внесшего значительный вклад в развитие педагогической мысли на идеях общественно-политического движения джадидизм.

Ключевые слова: наследие, просветительство, воспитание, школа, зарождение, джадидизм, развитие.

Abstract. This article is devoted to the role of A. Avloni, a famous Uzbek writer, playwright, educator and teacher who made a significant contribution to the development of pedagogical thought based on the ideas of the socio-political movement Jadidism.

Keywords: heritage, enlightenment, education, school, origin, Jadidism, development.

Sharq pedagoglari va faylasuflari ta’limning umuminsoniy ahamiyatini oshirishga, ta’limning tizimli va doimiy ahamiyati va har tomonlama rivojlanish - jismoniy va ma’naviy, tarbiya uchun zarur bo‘lgan tajriba, kattalarga hurmat, adolat, xushmuomalalik, jasorat kabi insoniy fazilatlarni o‘z asarlarida ulug‘ladilar. Sharqda xitoylik olimlar ta’lim mazmunini aniqlashda uning to‘rtta fan: axloq, til, siyosat va adabiyot sintezi natijasida paydo bo‘lganligini ta’kidladilar. Ular ideal inson tushunchasini - majburlash orqali emas, balki ta’lim va tarbiya orqali ilgari surdilar.

Bolalarni hayotga tayyorlash, to‘plangan tajribani ularga yetkazish zarurati insoniyat tomonidan paydo bo‘lgan bo‘lib, u nafaqat oilada, jamoada hayotning tabiiy jarayonida, kattalar o‘zlarining namunalari bilan yoshlarini o‘rgatganlarida, ularni mehnatga jalb qilganlarida, zarur ko‘nikmalarni singdirganlarida amalga oshirildi.

“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel

Insoniyat oldida juda ko‘p dolzarb vazifalar turgan bir paytda tilni o‘rganish muhimmi, til sirlarini ochishga kuch va mablag‘ sarflashga arziydimi? Insoniyat uchun fizika, kimyo, astronomiya, tibbiyot va boshqa fanlarning rivojlanishi tilshunoslik ikkinchi darajali fan ekanligini tez - tez eshitish mumkin.

Til - tarixiy va o‘zgaruvchan hodisadir. Har bir xalq, millat, elat va odamlar qabilasi o‘z tiliga egadir. Har bir xalqning tilida mazkur jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayoni, uning turmush sharoiti, ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar, ijtimoiy-mehnat faoliyatidagi yangi kashfiyotlar va erishilgan natijalari aks etgan.

Har qanday xalqning milliy merosi ushbu xalq tomonidan yaratilgan moddiy, ma‘naviy va boshqa barcha meros turlarini o‘z ichiga oladi. Ma‘naviy qadriyatlarining roli yosh avlodni yuksak axloqiy tamoyillarga ega barkamol inson sifatida tarbiyalashda ayniqsa muhimdir.

Milliy meros fikrlash mahsulidir, millatning dunyoqarashi va ijodiy salohiyati, bu millat rivojlanishining turli tarixiy bosqichlarida shakllanadigan boylik, u millat kelajagini qurish tajribasining asosi va manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Ma‘naviy qadriyatlar ota-bobolarimiz an‘analarini o‘z ichiga olgan demokratik tamoyillarga asoslangan davlat qurish jarayoni muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, davlatchiligimiz an‘analarini davom ettirish, haqiqatan ham buyuk tarixiy va ma‘naviy ildizlarga ega bo‘ladi. Qayta tiklash, boyitish, ma‘naviy va madaniy boyliklar, milliy merosimiz odamlar, ularni kelajak avlodlarga yetkazish-bu ota-bobolarimiz asrlar davomida kuzatib kelgan an‘anadir. Tarixdan bilamizki, madaniy, ma‘rifiy va pedagogik faoliyat oqilona tashkil etilgan jamiyatda bu jamiyat ijtimoiy adolat asosida tez rivojlanib boradi.

Milliy merosni boyitish, ma‘naviy va madaniy qadriyatlar qayta tiklash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish ota-bobolarimiz asrlar davomida amal qilib kelgan an‘anadir. Tarixdan bilamizki, madaniy-ma‘rifiy va pedagogik faoliyat oqilona tashkil etilgan jamiyatda ijtimoiy adolat asosida jadal rivojlanib kelmoqda.

Ijtimoiy harakat jadidizm (Arab tilidan usul al-jadid - yangi usul) milliy va madaniy an‘analarning islohotchisi sifatida 1880-1920 yillarda Qrim, Volga va Ural, Kavkaz va O‘rta Osiyo musulmonlari orasida Islom madaniyati va jamiyatini yangilash uchun qayta tiklandi.

Harakatning boshlanishi maktablarga kirish bilan bog‘liq va buning evaziga savodxonlikni o‘qitishning ovozli usuli madrasasi "usul-i jadid" deb nomlangan, yangi usuldir. Jadidchilar diniy aqidaparastlikni tanqid qildilar, eskirgan diniy maktablarni milliy dunyoviy maktablar bilan almashtirishni talab qildilar, fan va madaniyatni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatladilar, gazetalarni ona tilida nashr etishni, madaniy va ma‘rifiy muassasalarni ochishni qo‘llab-quvvatladilar, bu esa jamiyatning demokratik kuchlarini

birlashtirishga yordam berdi.

O‘rta Osiyoda ushbu harakatning paydo bo‘lishi va rivojlanishida mashhur o‘zbek yozuvchisi, dramaturg, ma’rifatchi va pedagog Abdulla Avloniy (12 iyun 1878- 25 avgust 1934) muhim hissa qo‘shdi va alohida o‘rin tutadi.

Pedagogik fikr rivojiga qo‘shgan hissasi o‘z asarlarida o‘zbek xalqining eng yaxshi an‘analarini, ta’limning muhim masalalarini aks ettiruvchi pedagog va olimdir. Abdulla Avloni yaratilishning asoschilaridan biri edi va o‘zbek bolalari uchun yangi maktablarni yaratilishining asoschisidir. Ushbu maktablar uchun darsliklar va qo‘llanmalar yozgan, uning o‘zi o‘quvchilar uchun stol va taxtalar yasagan 22 yoshli Avloniy 1904 yilda yangi maktabini ochadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning aksariyati, aholining kambag‘al qatlamlaridan bo‘lgan bolalar sababli, u do‘stlari yordamida ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar, qalam bilan ta’minlash uchun "Mehribonlik jamiyati" ni tashkil qiladi va u ushbu jamiyatga rahbarlik qiladi.

Abdulla Avloni "usuli jadid" maktabi uchun o‘ndan ortiq darsliklar va o‘qish kitoblarini yozgan: adabiyot yoki milliy she’rlar, birinchi o‘qituvchi (1912 yil), Turk gul bog‘i yoki axloq (1913 yil), ikkinchi o‘qituvchi (1915 yil), Guliston maktabi (1917).) O‘z asarlarida va publisistik maqolalarida u dunyo xalqlarining madaniyati, ilm-fani, maktabi va ta’limini ulug‘laydi va o‘z xalqini bilimli va madaniyatli bo‘lishga undaydi. Abdulla Avloni 1933 yilda o‘zbek maktablarining yangi adabiy dastur asosida ettinchi sinflar uchun " adabiy xrestomatiya " ni tuzdi.

Ko‘rib turganimizdek A.Avloni o‘z xalqining sadoqatli o‘g‘li sifatida, maktablarni ochib, umumta’limga intilgan, yoshlarni ilg‘or g‘oyalar tajribasi asosida tarbiyalash. Uning faoliyat, asarlar va kitoblar XX asr boshidagi pedagogik fikrning rivojlanishida katta iz qoldirdi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat, 1998. B. 304.
2. Dolimov U. Ma’rifat darg‘alari. Toshkent, 1990 yil.
3. Abdullayev K. F. O‘qituvchi kasbi bo‘yicha Sharq mutafakkirlari / / yosh avlodning tinch va zo‘ravonliksiz madaniyati: talqin burchaklari va rivojlanishning pedagogik shartlari, 2020. 117-120-betlar.
4. Inoyatov S. I., Abdullayev K. F. Buxoro ma’rifat uyi Buxoro xalq sovet Respublikasi va O‘zbekistonda ta’lim va madaniyatni rivojlantirishning asosi sifatida // Chuvacha davlat madaniyat va san'at instituti Axborotnomasi, 2018. № 13-1. 13-18 betlar.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ БАРПО ЭТИШДА ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

Бейсенов Кенжабай Сарсанбаевич

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти Касбий
тайёргарлик факультети Махсус фанлар цикли ўқитувчиси,
подполковник

Аннотация. Мазкур мақолада Янги Ўзбекистонни барпо этишда жадидлар ғояларининг ўрни тўғрисида илмий асосланган таклиф ва тавсиялар берилган.

Таянч сўзлар: Олий таълим муассасаси, газета, тарих, таълим, ўқувчи.

Аннотация. В этой статье приводятся научно обоснованные предложения и рекомендации о роли идей джадидов в становлении нового Узбекистана.

Ключевые слова: Высшее учебное заведение, газета, история, образование, читатель.

Annotation. This article provides scientifically based suggestions and recommendations on the role of Jadid ideas in the establishment of a new Uzbekistan.

Base words: Higher education institution, newspaper, history, education, reader.

Маълумки, 2023 йилнинг 22 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилиши бўлиб ўтди. Ушбу йиғилишда жорий замоннинг ҳаётий муаммоларини маънавият ва маърифат орқали ҳал қилишнинг муҳимлиги таъкидланди.

Замоннинг шиддатли ривожланиши шароитида ёш авлодни илм-фан ва билимда илғорлаштириш, шу билан бирга, миллий қадриятларимизга содиқ инсонлар қилиб тарбиялаш муҳим вазифа бўлиб турибди. Буюк мутафаккирларимиз Абу Наср Форобийнинг қарашларида фозил инсон ва фозил шаҳар тушунчаси, Абу Али Ибн Синонинг ахлоқ оиладан бошланиши, Имом ал-Бухорийнинг инсонийлик, ҳалоллик, одиллик ва ватанпарварлик ғоялари ҳақидаги фикрлари ҳозирги кунда ҳам чексиз ахлоқий қадриятларнинг асоси ҳисобланади.

Бундай буюк меросимизнинг борлиги ҳолда, биз ундан оқилона фойдаланиш ва атрофимизда ёт ғояларни тарғиб этувчиларга йўл қўймаслигимиз керак. Ижтимоий тармоқлар, театр, кино, мақолалар ва болажонлар учун яратиладиган адабиётлар ва сахна асарлари орқали тарихимиздаги бой қирраларни ёш авлодга кўрсатишимиз жуда муҳим. Бунинг учун, Тўмарису Широқдан тортиб, жадид

маърифатпарварларнинг ҳаёт йўли ёшлар олдидаги асосий вазиғамиздир.

Яқинда пойтахтимизда ўтказилган “Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари” мавзусидаги илмий конференсия жаҳон маданий жамоатчилигида катта қизиқиш ва эътирофга сазовор бўлди⁴¹.

XX аср бошларида халқимизни озодлик ва илм-маърифат учун курашга чорлаган жадид боболаримизни эслайлик. Улар миллатни уйғотиш, уни тараққиёт сари ундаш мақсадида ишни энг аввало газета таъсис этишдан бошлашган. “Таржимон”, “Ойина”, “Тараққий”, “Садойи Туркистон”, “Садойи Фарғона”, “Нажот”, “Хуррият”, “Ал-ислоҳ” каби босма нашрлар орқали миллий истиқлол, хуррият ва маърифат каби ҳаётбахш ғояларни халқ орасига олиб киришга интилишган.

Президентимиз Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси, Фанлар академияси, Маънавият ва маърифат маркази, Миллий масс-медияни қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш жамоат фонди, “Шаҳидлар хотираси” жамғармаси ва жамоатчилик вакилларининг “Жадид” номли янги газетасини ташкил этиш таклифини илгари сурди. Ушбу нашр Ватан ва халқ манфаатлари йўлида жон фидо қилган жадид боболаримизнинг ҳаёти ва фаолиятини кенг тарғиб этишда муҳим роль ўйнаши мақсад қилинади.

Газета илк сонининг мазмун-мундарижаси ҳар томонлама ранг-баранг ва қизиқарли мавзуларни қамраб олган. Хусусан, бош муҳаррир Иқбол Мирзонинг “Муҳаррир минбари” рукнидаги “Бирлашмоқ даври” сарлавҳали бош мақоласида газета саҳифаларининг мақсад ва вазиғалари ҳақида сўз юритилган. Шунингдек, мамлакатимизда кечаётган маърифий ислоҳотлар, жадид боболаримизнинг ғоя ва интилишларига қанчалик ҳамоҳанг эканлиги халқчил тарзда ёритилган.

Газета саҳифаларида “Манбалар”, “Тамаддун”, “Ойина”, “Боқий мерос”, “Давр руҳи”, “Мерос”, “Мозий сабоғи”, “Фикр майдони” каби рукнлар остида таниқли адабиётшунослар, ёзувчилар, публицистлар, олимлар ва тарихчиларнинг илмий-оммабоп мақолалари жой олган.

Ҳақиқатан, “Жадид” газетаси том маънода маърифатпарвар боболаримиз орзу қилган янги замоннинг шукронаси бўлиб, Ватан ва халқ манфаатлари йўлида бугун яна миллат ойдинларини бирлаштиришдек эзгу ғояни тантана қилмоқда. Ушбу нашр халқимиз зиёлилари ва кенг жамоатчилик томонидан янги фикр уфқларини очишга хизмат қиладиган маърифий нашр сифатида катта қизиқиш билан кутиб олинди.

⁴¹<https://kun.uz/kr/news/2023/12/22/jadidlar-goyalari-yangi-ozbekistonni-barpo-etish-strategiyasi-bilan-hamohang-prezident?ysclid=m6zc32a45a222356277>

Президентимиз табири билан айтганда, “Жадид” газетаси эзгу анъаналарни давом эттириб, улуғ аждодларимизнинг Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси билан муштарак бўлган ғоя ва дастурларини атрофлича ёритиш, бу қутлуғ меросни халқимиз, биринчи навбатда, ёшларимизнинг қалби ва онгига етказишда, жамоат фикрини шакллантиришда эркин минбар бўлади, деб ишонамиз⁴².

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йилнинг 11 сентябрь кундаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги Фармони ва “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини 2023 йилда сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори имзолангани ҳақида маълумот берилган. Фармоннинг мақсади – халқимизнинг эркин ва фаровон, қудратли Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш, ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодиётни шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлашга қаратилган. Унда таълим соҳасидаги ислохотларга алоҳида эътибор қаратилган.

Дунё тажрибасида таълимга сарфланган инвестиция ҳеч қачон касодга учрамаслиги кўп маротаба исботланган. Кейинги йилларда республикамызда таълим, жумладан, олий таълим соҳасини ислоҳ қилиш жадал босқичга кирди. Бунинг самарасини ҳозирданоқ кўра бошладик: 2024 йилда олий таълим муассасаларига кириш учун ҳужжат топширган абитуриентларнинг 40 фоизи ўқишга қабул қилинди, бу рекорд натижа ҳисобланади. Келгусида бу кўрсаткични 60 фоизга чиқариш кўзда тутилган.

Шунингдек, хусусий олий таълимнинг жорий этилгани муҳим омиллардан бири бўлди. Ҳозирги кунда ўқувчиларни давлат ва хусусий олий таълим муассасалари ўртасидаги ўхшашликлар ва фарқлар кўпроқ қизиқтирмоқда.

Аввало, стандартлар ҳақида сўз юритиш мумкин. Стандартларни, табиийки, давлат белгилайди, ва давлат кадрлар тайёрлаш бўйича ҳар икки олий таълим муассасаси бир хил умумий талаблар асосида мутахассислар тайёрлашга мажбур. Давлат ва хусусий олий таълим муассасалари ўртасида рақобат кучайиб боради. Биринчи навбатда, улар ўртасида бир йўналишдаги мутахассислар тайёрлашда рақобат юзага келади. Шунингдек, давлат олий таълим муассасалари билан хусусий олий таълим муассасалари ўртасида ҳам рақобат бор, ва бу мусобақа таълим сифатига ижобий таъсир кўрсатади.

⁴² <https://kknews.uz/uz/165720.html>

Бундан ташқари, хусусий олий таълим муассасаларининг кўпайиши билан мамлакатдаги етук мутахассислар ва тажрибали профессорлар ишга жалб этиш учун кураш кучаяди. Таълим сифатини оширишда инсон омили биринчи даражада аҳамиятга эга бўлгани учун, рақобат талабаларни янада мукаммал тайёрлашга ундайди.

Шунингдек, кейинги йилларда илмий даражалар ва унвонлар олиш ҳаракати ҳам жадаллашган. Профессор ва ўқитувчилар, дарс бериш билан биргаликда, илмий тадқиқотлар олиб боришлари мумкин ва ўз малакаларини оширишга интилишадилар.

Кейинги муҳим жиҳат – олий таълимга қабулдаги порахўрликнинг камайиши. Хусусий олий таълим муассасаларининг кўпайиши танқисликни бартараф этди, натижада абитуриентлар учун пора беришнинг ҳеч қандай эҳтиёжи қолмади.

Таълим соҳасидаги сифат ўзгаришларига эришиш учун эса, фалсафада айтилганидек, миқдор ўзгаришлари сифат ўзгаришларига олиб келиши керак. Бу борада олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари ва ходимлари олдига сифат кўрсаткичлари бўйича юқори марраларга эришиш вазифаси қўйилган. Малакали профессор-ўқитувчилар ва замонавий фикрлай оладиган ёш ўқитувчиларнинг ҳам ўз ўрни бор.

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 51-моддасида “ОТТлари қонунга мувофиқ академик эркинлик, ўзини ўзи бошқариш, тадқиқотлар ўтказиш ва ўқитиш эркинлиги ҳуқуқига эга” деб белгилаб қўйилган. Бу ҳуқуқдан фойдаланиб, биз ректорларни хўжалик ишлари билан шуғулланишдан озод қилишни мақсад қилганмиз. Бундан ташқари, профессорлар ва ўқитувчилар талабалар билимини баҳолашдан озод қилинади, бу ишни алоҳида бўлим амалга оширади.

ОТТларида назарий билимларни реал ишлаб чиқариш билан боғлаш – муҳим шарт. Шундай қилиб, талабалар ўз олий таълим муассасасида олган билимларини амалиётда қўллашга имкон топадилар.

Таълим сифати ОТТнинг моддий-техникавий базасига ҳам бевосита боғлиқ. Ҳар бир аудиторияда замонавий информатика қурилмалари ва дарс учун керакли шароитлар мавжуд бўлиши лозим.

Жамиятимизнинг мақсади – ҳаётни ўзгартириш, ривожланиш. Таълимнинг ривожи эса шахснинг тараққиётига ва жамиятнинг фаровонлигига олиб келади⁴³.

Хулоса ўрнида, Ўзбекистондаги таълим соҳасидаги ислохотлар ва ривожланиш жараёнлари жамиятнинг маънавий ва ижтимоий тараққиётига беқарор таъсир кўрсатмоқда. 2023 йилдаги Президент

⁴³ <https://uzhurriyat.uz/2024/01/10/xususiy-oliy-talim-jadidlar-orzusi-amalga-oshdimi/>

фармонлари ва таълим соҳасидаги замонавий ўзгаришлар, хусусан олий таълимга кириш жараёнларининг яхшиланиши ва хусусий таълим муассасаларининг пайдо бўлиши, таълим сифатини оширишга катта ёрдам бермоқда. Давлат ва хусусий таълим муассасалари ўртасидаги рақобат, мутахассисларни тайёрлашда янги меъёрларни белгилаш ва таълимнинг сифатини оширишга интилишда муҳим роль ўйнайди.

Шу билан бирга, таълим соҳасидаги ислохотлар халқимизнинг маънавий қадриятларига асосланган бўлиб, ёш авлоднинг илм-фан, ахлоқ ва миллий қадриятлар асосида баркамол бўлиб етишишини таъминлайди. Жаидларнинг ғоялари, илгари сурилган миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари давлат сиёсатида, хусусан таълим соҳасида ўз аксини топиб, мамлакатнинг келажаги учун асосий жиҳатларга айланмоқда.

Маърифат ва таълимнинг жамиятдаги ўрни, энг аввало, ёшлар тарбиясида муҳим роль ўйнайди. Янгиланган таълим тизими, янгича фикрлашни, инновацион ёндашувларни рағбатлантириш ва замонавий талабларга жавоб берувчи мутахассисларни тайёрлаш учун имкониятлар яратмоқда. Бу жараённинг асосида, келажакда мамлакатимиз учун кучли, билимли ва маънавий баркамол авлодлар шаклланишини таъминлаш мақсад қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <https://jizzaxnews.uz/uzbekiston/zhadid-gazetasini-vara-lab/>.
2. <https://kun.uz/kr/news/2023/12/22/jadidlar-goyalari-yangi-ozbekistonni-barpo-etish-strategiyasi-bilan-hamohang-prezident?ysclid=m6zc32a45a222356277>.
3. <https://dkm.gov.uz/ru/zadid-gazetasi-birlasmok-davrining-minbari>.
4. <https://kknews.uz/uz/165720.html>.
5. <https://uzhurriyat.uz/2024/01/10/xususi-oliy-talim-jadidlar-orzusi-amalga-oshdimi/>

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA TEMATIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

G.O. Saydaliyeva

“Profi University” devonxona mudiri

Annotatsiya. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi. Ana shunday yangicha ilg‘or fikr va yangicha iqtisodiy tafakkur egalari bo‘lgan jadid-ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalarini o‘rganish, ularni yosh avlodga

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

yetkazish hamda yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga ma’lumot berish, shu orqali tematik turizmni rivojlantirish yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, g‘oyalar, tuzum, aholi savodxonligi, ma’naviyat, Rossiya imperiyasi, Sovet davri, sayyohlar, tematik turizm.

Аннотация. К началу XX века в Туркестане сложилось целое поколение джадидской интеллигенции, представители которой внесли большой вклад в развитие духовно-просветительской сферы края, в развитие национальной культуры. В данной статье освещено изучение социально-экономических идей джадидов-просветителей, обладающих такими передовыми идеями и новым экономическим мышлением, доведение их до молодого поколения, информирование туристов, посещающих нашу страну и развитие тематического туризма.

Ключевые слова: Джадидизм, идеи, режим, грамотность населения, духовность, Российская империя, Советский период, туристы, тематический туризм.

Abstract. By the beginning of the 20th century, a whole generation of Jadid intellectuals had formed in Turkestan, whose representatives made a great contribution to the development of the spiritual and educational sphere of the region, to the development of national culture. This article highlights the study of the socio-economic ideas of the Jadid enlighteners, who possess such advanced ideas and new economic thinking, bringing them to the younger generation, informing tourists visiting our country and developing thematic tourism.

Key words: Jadidism, ideas, regime, literacy of the population, spirituality, Russian Empire, the Soviet period, tourists, thematic tourism.

Ma’lumki, Turkiston ijtimoiy jarayonlar kesimida XIX asrning oxirlari XX asrning dastlabki o’n yilliklari ma’rifatparvarlik yoki jadidchilik harakati nomi bilan tarixga kirgan. Bu davrda voqelikni ma’rifatparvarlik nuqtai nazaridan o’zlashtirish markazida millat va Vatan hayotining aniq ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy va milliy iqtisodiy vazifalar asosiy o’rin tutgan. Jadidlar katta ijtimoiy-iqtisodiy, maorif jarayonlardagi yangilanishlarni g‘oyaviy tashabbuskorlari bo’lish bilan bir qatorda, ular o’z ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy mavqelariga ko’ra, Rossiya Imperiyasi mustamlakachilik zulmi ichidagi musulmon turkiy aholining ilg’or kuchlari faoliyatini va yaqin chet ellar sivilizatsiyasi o’zgarishlarini solishtirganlar. Ana shunday yangicha ilg’or fikr va yangicha iqtisodiy tafakkur egalari bo’lgan jadid-ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalarini o’rganish bilan birga ularning davlat, tuzum, boshqaruvni o’sha davr muhitidagi iqtisodiy hayotni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqanliklarini hamda jahon mamlakatlari bilan integratsiyalashuvi masalalarini maqsad qilib qo’ygan g‘oyalarini o’sib kelayotgan yosh avlodga, shu bilan birga bizni yurtimizga kelayotgan mehmonlar, ya’ni sayyohlarga ham ma’lumot tariqasida yetkazish dolzarb masaladir.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur.

Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir⁴⁴.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olganidan so‘ng uning xalqini ma’naviy-madaniy jihatdan tutqunlikka solish, o‘zining uzoqqa mo‘ljallangan manfaatiga bo‘ysundirish siyosatini yuritdi. Bu siyosatning mohiyati mahalliy xalqni milliy, tarixiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning ma’naviy, madaniy, tarixiy merosini yo‘q qilish, ruslashtirishdan iborat edi. General-gubernator M.Skobelevning “Millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san’atini, tilini yo‘q qilsa bas, tez orada o‘zi adoyi tamom bo‘ladi...” degan so‘zlari Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining mohiyatini ochib berdi.⁴⁵ Shu bilan birga, “Biz Turkistonga kirib kelganimizda mahalliy aholining atigi 3% i savodli edi”, degan gaplarni keng ko‘lamda ommaga yoyib, mahalliy aholiga mutlaqo ishonmaslik va ularni nazarga ilmaslik siyosatini yuritdilar. Lekin ilm-fan sohasiga katta hissa qo‘shgan bobolarimiz Alisher Navoiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Buxoriy, al-Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘beklar, shu bilan bir qatorda, ma’rifatparvar Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat, Niyoziy kabi jadidlarimizning islohotlari buning aksini isbotlaydi.

Jadidchilik dastlab madaniy-ma’rifiy oqim sifatida paydo bo‘lganligi tabiiy, albatta. Chunki ilg‘or musulmon ziyolilari ijtimoiy va mustamlakachilik zulmining asosiy sabablarini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bexabarlikdan va maorif ishlaridagi qoloqlikdan izladilar. Shu sababli, ular mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishning yagona yo‘li ta’lim islohoti, deb qaradilar va ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida yosh avlodni tarbiyalashga asosiy e’tibor berdilar. Yangi usul maktablari, kutubxonalar ochdilar, darslik, o‘quv qo‘llanmalari yozdilar va nashr ettirdilar. Ayni paytda ular inson huquqlari, milliy, diniy, iqtisodiy erkinliklar kafolatlangan, huquqiy-demokratik milliy davlatchilikning nazariy asoslarini yaratishga harakat qildilar.

Jadidchilik o‘z tarixi davomida ikki bosqichdan o‘tgan: birinchisi – ma’rifatchilik bosqichi, ikkinchisi – siyosiy bosqich. Jadidlarning davlatchilik masalasiga doir qarashlari birinchi bosqichdayoq shakllana boshlagan,

⁴⁴ Sh.M.Mirziyoyevning 11-dekabr 2023-yildagi “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyasida so‘zlagan nutqi

⁴⁵ 1 Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. Sharq, 1999. – B. 24.

ikkinchi bosqichda esa tugal shaklga ega bo‘lgan. Ular o‘tmishga nazar solib, jamiyatdagi barcha salbiy jihatlarni milliy davlatchilikning boy berilishi bilan bog‘lashgan. Mustamlakachilik tizimi Turkiston xalqlarini o‘zlari bilmaydigan yevropacha qonunlar asosida yashashga majbur qildi, o‘z haq-huquqlarini himoya qilish uchun esa savodli bo‘lish zarur.

Jadidlar, ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal etish uchun faoliyati davomida bir qancha qiyinchiliklarga (siyosiy, iqtisodiy hamda ta‘lim sohalarida) duch kelishdi. Bu qiyinchiliklarga qaramasdan, ular o‘z yo‘lida davom etdilar va maqsadi sari olg‘a intildilar. Jadidlarning tarixiy xizmati shundan iboratki, o‘sha paytda yetilgan ijtimoiy vazifalarni evolyutsion-islohotchilik g‘oyalari asosida formatsion- institutsional o‘zgarishlar yo‘li bilan hal qildilar. Ammo ularning sa‘y-harakatlari ayanchli yakun topdi, shunga qaramay, jadidlar asos solgan milliy-taraqqiyparvarlik harakati milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga imkon yaratdi, milliy-ozodlik g‘oyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

Turkiston jadidlari tomonidan o‘z davrida ko‘tarilgan muammolar, bugungi kunimiz uchun ham o‘zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Zero, davlatimiz rahbari o‘rinli ta‘kidlaganidek, “buyuk ma‘rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma‘rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir”. Ularning xalq farovonligi yo‘lida chekkan mashaqqatlari va qurbonliklarini unayotgan yosh avlod bilan birgalikda, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga ham ma‘lumot tariqasida yetkazsak, ona-zaminimizni nomini yanada ulug‘lagan va dunyoga tanitgan bo‘lamiz.

Bizning yurtimizga kelayotgan sayyohlarning asosiy qismi boy tariximiz, yillar to‘lqiniga bardoshli me‘morchiligimiz va qiziqarli madaniyatimizni ko‘rish maqsadida tashrif buyurishadi (2024 yil davomida diyorimizga jami 8,6 million nafar xorijiy sayyoh keldi. Ularga 2,7 milliard dollarlik xizmat ko‘rsatildi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 1,5 barobar ko‘p⁴⁶). Ularga tariximiz haqida ma‘lumot berayotganda jadidlarimizning xalq farovonligi va savodxonligi yo‘lida qilgan mehnatlarini ham bayon etsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Xalqimizda bir naql bor “Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal”. Shu naqlga amal qilgan holda, jadid bobolarimiz hayoti, g‘oyalari, amalga oshirgan ishlari haqida qisqa metrajli filmlar olib, ularni sayyohlarga ko‘rsatish orqali o‘zbek xalqi qanchadan-qancha ziyolilarni yetishtirib chiqarganliklarini namoyon qilsak bo‘ladi. Jadidlar haqida tematik turlar tashkil etish orqali ilm-fan bilan shug‘ullanayotgan hamda tarixiy-madaniy turizmga qiziquvchi xorijiy aholi

⁴⁶ uza.uz

qatlamini mamlakatimizga jalb etsak, iqtisodiyotimizni yanada gullab-yashnashiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Ma‘lumot tariqasida aytib o‘tadigan bo‘lsak, tematik turizmning bir qismi bo‘lgan kino turizmi Fransiya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya va boshqa bir qator davlatlarning iqtisodiyotini o‘rishiga ulkan hissa qo‘shdi. Chunki sayohatchilarning 40% mashhur kinolentalar suratga olingan joylarga tashrif buyurishni xohlashadi. Masalan, “Код Да Винчи” filmi suratga olingandan so‘ng, Parijdagi Luvr muzeyiga 8,5 million sayyoh tashrif buyurgan. “Uzuklar hukmdori” va “Garri Potter” filmlari suratga olingandan so‘ng esa Yangi Zelandiya va Buyuk Britaniya hududiga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni nihoyatda ortgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni xulosa qiladigan bo‘lsak, jadid bobolarimizning iqtisodiy va ma‘naviy ahamiyat kasb etgan g‘oyalarini unayotgan yosh avlod hamda diyorimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga yetkazish, shu orqali ularning O‘zbekistonga qiziqishlarini va tashriflarini ko‘paytirish muhim vazifalarimizdan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 11 dekabr, 2023 yil. <https://president.uz/uz/lists/view>
2. 1 Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. Sharq, 1999. – B. 24.
3. A‘zamxo‘jaev S. Turkiston muxtoriyati: Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. - T.: Ma‘naviyat, 2000. –B. 7.
4. Behbudiy M. Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi. Jahon adabiyoti, 2003 yil. Avgust. B.146.
5. Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. Т.: “Sharq”, 2000. S.77.
6. https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi_673628?ysclid=m9130lemsb172837476

ЖАДИДЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ-СИЁСИЙ, ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ҒОЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ

**Машарипов Мадийёр Палванназирович,
Абдусаматова Гулчеҳра Зоировна
“Profi University” “Axborot tizimlari va texnologiyalari”
kafedrasi o‘qituvchilari**

Аннотация. Ушбу мақола жадидлар ҳаракатининг иқтисодий-сиёсий, фалсафий ва ахлоқий ғояларини таҳлил қилиб, уларнинг замонавий ахборотлашган жамият ривожига таъсирини кўриб чиқади. Жадидларнинг маърифатпарварлик ғоялари, таълим-тарбия тизимида қўшган хиссалари ва

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

ижтимоий ислохотларга йўналтирилган фаолиятлари ахборот жамиятининг асосини шакллантиришда муҳим рол ўйнагани таъкидланади. Мақолада жадидлар мероси ва унинг бугунги кундаги аҳамияти замонавий технологик ва ижтимоий ўзгаришлар нуқтаи назаридан ёритилган.

Калит сўзлар: Инновацион, сунъий интеллект, маълумотлар хавфсизлиги.

Аннотация. Статья анализирует экономико-политические, философские и этические идеи движения джадидов, рассматривая их влияние на развитие современного информационного общества. Подчеркивается, что просветительские идеи джадидов, их вклад в систему образования и воспитания, а также деятельность, направленная на социальные реформы, сыграли важную роль в формировании основ информационного общества. Наследие джадидов и его значение в современности освещаются с точки зрения современных технологических и социальных изменений.

Ключевые слова: Инновационный, искусственный интеллект, безопасность данных.

Annotation. This article analyzes the economic-political, philosophical, and ethical ideas of the Jadid movement, exploring their impact on the development of the modern information society. It highlights that the Jadids' enlightenment ideas, contributions to the education system, and activities aimed at social reforms played a significant role in shaping the foundations of the information society. The legacy of the Jadids and its contemporary significance are examined from the perspective of modern technological and social changes.

Key words: Innovative, artificial intelligence, data security.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.05.2024 йилдаги ПҚ-201-сонли “Жадидлар мероси давлат музейини ташкил этиш тўғрисида” ги қарорида маърифатпарвар жадидларнинг Ватанимиз ва жаҳон тарихидаги муҳим ўрни ва аҳамиятини, миллий истиқлолимизнинг маънавий асосларини яратишдаги фидойиликларини, ибратли ҳаёти ва фаолиятини, бой илмий-ижодий меросини чуқур ўрганиш ва фаол тарғиб этиш ҳамда уларнинг хотирасини абадийлаштириш борасидаги ишларни янада кенгайтириш бўйича бир қатор муҳим вазифалар белгилаб берилди⁴⁷. XX аср бошида жадидлар ҳаракати ўзбек миллатининг маънавий ва ижтимоий юксалишида муҳим ўрин тутди. Жадидлар фаолияти фақат маърифат ва таълим билан чекланиб қолмай, иқтисодий-сиёсий ислохотлар, фалсафий-ахлоқий ғоялар ва миллий онгни уйғотишга қаратилган кенг кўламли саъй-ҳаракатларни ўз ичига олди. Бугунги кунда ахборотлашган жамиятда жадидлар ғояларининг аҳамияти янада

⁴⁷ <https://lex.uz/docs/6947380>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жадидлар мероси давлат музейини ташкил этиш тўғрисида” ги қарори.

ортмоқда, чунки улар таълим, инновация ва ахлоқий қадриятларга асосланган жамият қуришнинг асосий принципларини шакллантирган.

Жадидларнинг иқтисодий-сиёсий ғоялар. Жадидлар ўз фаолиятларида иқтисодий мустақиллик ва сиёсий ислохотларнинг муҳимлигини таъкидлаганлар. Улар капитализм ва замонавий саноат жамияти тамойилларини ўзбек жамиятига мослаштиришга интилганлар. Масалан, Маҳмудхўжа Бехбудий ва Абдурауф Фитрат каби жадидлар тижорат, савдо ва тадбиркорликни ривожлантириш зарурлигини уқтирган. Улар тижорий фаолиятни ахлоқий қадриятлар билан уйғунлаштириб, иқтисодий мустақилликни миллий озодликка эришишнинг асоси деб билганлар.

Сиёсий жиҳатдан эса, жадидлар миллий онгни уйғотиш ва адолатли бошқарув тизимини жорий қилишга чақирган. Уларнинг сиёсий ғоялари кейинчалик миллий истиқлол ғоясининг асосига айланди. Жадидларнинг сиёсий ислохотларга йўналтирилган фаолияти ахборот жамиятида демократик тамойиллар ва очиқ бошқарув тизимининг ривожланишига замин яратди.

Фалсафий-ахлоқий ғоялар. Жадидларнинг фалсафий-ахлоқий ғоялари инсонпарварлик, адолат ва маърифатга асосланган. Улар таълим орқали жамиятни ислоҳ қилиш мумкин, деган ақидани илгари сурганлар. Абдулла Авлоний ва Мунавварқори Абдурашидхонов каби жадидлар таълим тизимини замонавийлаштириш ва ёшларда ахлоқий қадриятларни тарбиялашга катта эътибор берган. Уларнинг “Ахлоқ ва маърифат – жамият ривожининг асоси” деган ғоялари бугунги ахборот жамиятида ҳам долзарб бўлиб, ахборот технологияларидан фойдаланишда ахлоқий нормалар ва масъулиятнинг муҳимлигини кўрсатади.

Жадидлар инсоннинг маънавий камолоти ва жамиятдаги ахлоқий муносабатларни мустақкамлашга алоҳида урғу берган. Уларнинг фалсафий ғоялари ахборот жамиятида этик муаммолар, масалан, сунъий интеллект, маълумотлар хавфсизлиги ва ахборот аксига қарши курашишда муҳим йўл-йўриқ бўлиб хизмат қилади.

Ахборотлашган жамиятга таъсири. Ахборотлашган жамиятда жадидлар ғоялари бир қатор жиҳатлардан долзарб бўлиб қолмоқда:

1. **Таълим ва инновациялар:** Жадидлар таълимни жамият ривожининг асоси деб билган. Бугунги кунда ахборот технологиялари ва рақамли таълим платформалари жадидлар орзу қилган умумий саводхонлик ва билим тарқатиш ғоясини амалга оширмоқда. Жадидларнинг замонавий таълим усуллари қўллашга интилишлари бугунги рақамли таълим тизимининг асосига айланди.

2. **Ижтимоий ислохотлар:** Жадидларнинг адолатли жамият қуриш ғоялари ахборот жамиятида очиқлик, шаффофлик ва демократик тамойилларни ривожлантиришда муҳим рол ўйнайди. Ахборот

технологиялари фуқароларнинг сиёсий жараёнларда иштирокини осонлаштирди, бу эса жадинларнинг сиёсий ислохот ғоялари билан мос келади.

3. Ахлоқий масъулият: Ахборот жамиятида маълумотларнинг тез тарқалиши ва сунъий интеллект технологияларининг ривожланиши ахлоқий муаммоларни кучайтирди. Жадинларнинг ахлоқий қадриятларга асосланган ғоялари бу муаммоларга ечим топишда муҳим йўл-йўриқ бўла олади.

Хулоса. Жадинларнинг иқтисодий-сиёсий, фалсафий-ахлоқий ғоялари ўз даврида жамиятни ислох қилиш ва миллий онгни уйғотишда муҳим рол ўйнаган. Бугунги ахборотлашган жамиятда уларнинг ғоялари таълим, ижтимоий ислохотлар ва ахлоқий масъулият каби соҳаларда долзарб бўлиб қолмоқда.

Жадинлар мероси замонавий технологик ва ижтимоий ўзгаришлар шароитида жамият ривожини учун муҳим йўл-йўриқ бўлиб хизмат қилади. Уларнинг маърифатпарварлик ғояларини ўрганиш ва амалда қўллаш ахборот жамиятининг барқарор ривожланишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.05.2024 йилдаги ПҚ-201-сонли “Жадинлар мероси давлат музейини ташкил этиш тўғрисида” ги қарори.
2. Холбаев Сотимжон “ Жадинлар”.Т.:2022 йил 152 бет ёшлар агентлиги нашри;
3. Алимова Д.А., Рашидова Д.А. “Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури” .Т.:1999 йил Академик нашр 54 бет.

IBRAT'S JUDICIAL ACTIVITY IN TURKESTAN: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Adkhamkhoja Abdullakhojaev Isakhoja ogli
Researcher at Namangan State University

Abstract. Is'haqkhan Tura Ibrat was an outstanding legal scholar and educator of his time who served for many years as a judge in the judicial and legal system of Turkestan. His works, including *Tarikhi Farg'ona*, *Tarikhi Hurriyat*, and *Mezon uz-Zamon*, are of great importance in understanding his scholarly and legal legacy. Ibrat exemplified a high legal culture in his efforts to ensure justice and combat corruption and injustice. He was not only a legal scholar but also a poet, translator, and historian who contributed significantly to intellectual life. Ibrat also expressed influential views on various social issues based on Islamic law and voiced strong opinions against the social and political injustices of his time. His work and

legal activity remain an exemplary heritage that should still be studied and appreciated today.

Keywords: Jadid, independence, enlightenment, reform, court, democracy, culture, political and legal consciousness.

Ensuring the political, economic, and social rights, freedoms, and legal interests of individuals is one of the core ideals of the new Uzbekistan we are currently building. The goal is to uphold democratic and universal human principles, reinforce the rule of law and order, promote social justice, and strengthen peace and national unity among citizens. Naturally, in order to achieve these noble goals and aspirations, we must have a comprehensive understanding of history, draw lessons from it, and strive to be worthy of our national patriotic forebears. One such enlightened figure is Is’haqkhan Tura Ibrat, who served for many years as a judge within the judicial and legal system of Turkestan. His tireless efforts toward promoting democratic freedoms, protecting civil rights, and advancing the people’s political and legal consciousness are reflected in his works such as *Tarikhi Farg‘onai Umroni*, *Tarikhi Hurriyat*, *Mezon uz-Zamon*, *Lug‘ati Sitta al-Sina*, *Jome’ ul-Khutut*, *Qorboshilar Zamoni*, and *Tarikhi Madaniyat*, as well as in various national newspapers and journals of the Turkestan region during the Tsarist Russian era. He openly criticized the trampling of the people’s rights and freedoms at the time, as well as the corruption, bribery, deceit, and extortion prevalent in electoral processes. Mulla Iskandar domla Abduvahob ogli wrote: “Is’haqkhan Tura was the most just and the most caring judge for the poor. He would listen to both the rich and the poor equally and make his judgments fairly. I served under him for ten years and never saw him take a bribe or favor the wealthy. On the contrary, he always tried to help the poor and the widows. He served as a judge only for the benefit of the people. In his house and his courtroom, there were even books on Russian law, and he was familiar with Russian legal procedures as well”. This shows that Ibrat was not only a unique scholar of his time but also a highly competent jurist. Currently, two judicial seals belonging to Is’haqkhan Ibrat are preserved in the Ibrat Museum in To‘raqo‘rg‘on. In her research, scholar Komila Vohidova wrote that Ibrat served as a judge from 1901 to 1917. Several scholarly studies have been devoted to the life and work of Ibrat, with Vohidova’s comprehensive analysis of his judicial career being particularly noteworthy in bringing his contributions to wider public attention. Additional confirmation of Ibrat’s role as a judge appears in *Turkiston Viloyatining Gazeti*, in which a contemporary, while reviewing Ibrat’s newly submitted manuscript “*Lug‘ati Sitta al-Sina*” for publication, refers to him as “Judge Is’haqkhan Tura of To‘raqo‘rg‘on, subordinate to Namangan Uyezd.” However, it is worth noting that in a letter written to one of the region’s press officials, N.P. Ostroumov, in 1900, Ibrat does not refer to himself with the title of judge, instead simply signing as “Is’haqkhan Tura.”

This omission, however, is insufficient to conclude that he never served as a judge. After returning from the Hajj pilgrimage, Ibrat initially served in the town of Xonobod, and later in To‘raqo‘rg‘on. There are three primary sources documenting Ibrat’s judicial work. The first is a manuscript collection titled *Various Elegies, Teachings, and Reflections* preserved in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan. This collection includes a 121-page judicial register from Ibrat’s time as a judge. The second is his ghazal *Olursan* (“You Shall Die”), written in 1907, and the third is his article *On the Election of Judges in Namangan*, published in 1910 in *Turkiston Viloyatining Gazeti*. These three sources provide sufficient evidence of Ibrat’s judicial activity. Information regarding Ibrat’s judicial work can be found in the *Various Elegies, Teachings, and Reflections* collection stored in the Institute of Oriental Studies under manuscript collection no. 11620, specifically on folios 95–107. This compilation was organized and submitted to the Institute’s manuscript fund by Ibrat’s son, Rotibkhan Ishoqov, on July 3, 1964. Within this collection, Ibrat presents legal resolutions based on Islamic law to address a range of social issues, such as theft, family disputes, and interpersonal conflicts. For instance, the compilation includes judicial opinions and rulings titled *Janobi Ibrat’s Response to a Marriage Dispute, Claim of Insult, Claim of Insult by a Woman, Claim of Peasant Rights, and Deed of Divorce*. These case records illustrate how Ibrat provided solutions to real-life social problems using Sharia principles. At the beginning of the 20th century, fair-minded, people-oriented judges were rare. As a poet and critic, Ibrat emphasized the moral responsibility of judges in his 1907 ghazal *Olursan*. In this poem, he offers heartfelt advice to those who use their office for personal gain:

**Do not lust for office, lest you die in anguish;
From the strife of ill-thoughts, your heart will bleed.
Whether judge or ruler, both bear great burden—
In noble words lie hidden pains indeed.
Let your justice be sincere, lest it be denied;
Should you commit the slightest tyranny, it shall be revealed.
If you follow the Sharia, its path is rigorous—
But only through order can a nation live in peace.
Advocates abound, yet few know justice—
If you stray from truth, cries of sorrow shall arise.**

This poem reflects Ibrat’s deep concern for justice and the integrity of judicial office, underscoring his critical stance against individuals unfit for such roles. Due to his strong sense of justice, Is’haqkhan Ibrat did not remain indifferent to the existing political regime. In his articles, he expressed his views regarding the unqualified individuals appointed to judicial positions. In 1910, the Russian imperial administration introduced a new regulation for the election of Muslim judges in the Turkestan region. Ibrat presented his critique

of this policy in an article titled *The Election of Judges in Namangan*, published in *Turkiston Viloyatining Gazeti*.

In the article, he warned that thieves, bribe-takers, and oppressors should never be entrusted with the role of judge or administrative leader. He pointed out a critical flaw in the regulation:

“Chapter 223 of the Regulation states that a person who has not been imprisoned for more than seven days, who has not paid more than thirty rubles in fines, and who is not younger than twenty-five years old is eligible. It says nothing about whether the candidate should be a scholar, morally upright, wise, or knowledgeable in Islamic or civil law. This implies that anyone can be a judge, so long as they have not committed the aforementioned offenses. Based on this logic, you can see what kind of people are being handed the responsibility of applying Islamic law...He went on to criticize the selection process outlined in the regulation, which allowed a person to be elected judge merely by receiving the most public nominations — regardless of their competence. The article ends with an editorial note from *Turkiston Viloyatining Gazeti*, stating that Ibrat’s views were not officially endorsed. A sarcastic response was later published, suggesting that his critique of the Russian legal policy was not welcomed. Is’haqkhan Ibrat’s legal activity also extended into the realm of translation. One of his most notable contributions in this field is the translation of *Fiqh-i Qaydoniy*, a classical Hanafi jurisprudential text written by Lutfullah Nasafiy (d. 1349), from Arabic into Uzbek. Rather than a literal, word-for-word translation, Ibrat presented the work in a poetic, interpretive style that focused on conveying the overall meaning and spirit of the text. His translated version, entitled *Fiqh-i Qaydoniy Nazmi*, was published in 1908 by the *Matbaai Is’hoqiya* printing house. It is important to note that *Fiqh-i Qaydoniy* had long been one of the most widely studied texts in the educational institutions of the Mawarannahr region, serving as a foundational curriculum book in madrasas. As a principal source of Hanafi jurisprudence, it not only addressed legal rulings but also provided ethical and social guidance for a morally upright society.

The book is structured around the legal classifications of acts performed during prayer — dividing them into eight categories: *fard* (obligatory), *wājib* (necessary), *sunnah* (traditionally recommended), *mustahabb* (commendable), *mubāh* (permissible), *harām* (forbidden), *makrūh* (discouraged), and *mufsid* (nullifying). Ibrat explained these rulings through poetry, organizing the content in two columns, with the original Arabic text on one side and his Uzbek poetic interpretation on the other.

In the introduction to his translation, Ibrat introduces himself in verse:

*I am from the town of To‘raqo‘rg‘on, a poet,
My known name is Qozī Is’haqkhan.
To‘raqo‘rg‘on lies in the Namangan district,
And I descend from the noble lineage of Hazrat Sultan.*

The introduction begins with traditional praises and supplications (*hamd* and *na‘t*), followed by an explanation of why the work was compiled. Through this translation, Ibrat aimed to educate his community in the principles of Islam and law, making foundational Islamic teachings accessible to a broader audience. Because of the clarity and relevance of his work, *Fiqh-i Qaydoniy Nazmi* has maintained its scholarly and cultural significance for over six centuries and remains a valuable part of the religious-legal canon in Central Asia. The work is regarded as one of the greatest contributions of Lutfullah Nasafiy to the intellectual and spiritual life of the region — a tradition which Ibrat continued and enriched through his poetic translation.

Is‘haqkhan Ibrat was not only a prominent intellectual, renowned linguist, translator, historian, the first Uzbek publisher, traveler, gardener, and educator of his era — he also made significant contributions as a legal scholar (*faqih*) by serving in the judiciary with great dedication. His judicial work was driven by a desire to shield the people from the injustices and abuses of the political system of his time and to uphold their rights and freedoms. In doing so, he effectively became a “shield of the people” — a protector of justice and legal integrity. Ibrat’s multifaceted legacy, rich in cultural and scholarly value, continues to hold relevance across time and context. His work as a judge, alongside his literary, educational, and reformist contributions, embodies a profound example of how legal, social, and spiritual progress can be harmonized. His activities represent an enduring model of enlightenment, civic responsibility, and resistance against corruption and authoritarianism. Therefore, studying and preserving Ibrat’s extensive intellectual and legal heritage is not only a scholarly obligation but also a vital endeavor in reinforcing national identity, moral consciousness, and the pursuit of justice in contemporary society. Without exaggeration, Is‘haqkhan Ibrat’s life and work remain a source of deep inspiration — a true embodiment of his very name: *Ibrat* — meaning “example” or “lesson.”

References:

1. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 69-б.
2. Вохидова К. А. Исхакхан Жунайдуллаходжа Ибрат и его научно-историческое наследие: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 2002.
3. Тахрирчи. Ахборот // Туркистон вилоятининг газети. 1901. № 30. 4 август.
4. Ўз МДА, Ф-1009. 115-рўйхат. 15-16-варақлар.
5. Ибрат И. Ўлурсан // Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. Тошкент: Шарқ, 1994. –
6. Abdullaxo‘jayev, A. J. (2024). O‘zbekistonda gender tengligining huquqiy asoslari: ijtimoiy-falsafiy tahlil. University research base, 89-93.
7. Isaqova, z., & abdullaxo‘jayev, a. (2024). Ibratning turkistonda kadrlar tayyorlashga qo‘shgan hissasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil. Nordic_press, 5(0005).

8. Abdullaxo‘jayev, a. (2024). Ibrat-haqiqiy ibrat maktabi. Nordic_press, 5(0005).

O‘ZBEK JADIDCHILIGI VA PSIXOLOGIYA: MA’RIFIY HARAKATNING RUHIY ILDIZLARI

Sadriddinov S.R.

Amaliyotchi psixolog, tatqiqotchi

Annotatiya. Jadidchilik – XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Osiyo, xususan, Turkiston hududida tarqalgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy yangilanish harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo‘lish, ilm-fan va texnologiya yutuqlaridan foydalanish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish edi.

Kalit so‘zlar: islohot, modernizatsiya, ta’lim, milliy ozodlik, siyosiy yangilanish, savodxonlik, musulmon madaniyati, ijodiy fikr, jadidlar, reformatorlar.

Аннотация. Джадидизм — это социальное, политическое и культурное движение за обновление, распространившееся по всей Азии, особенно в Туркестане, в конце XIX — начале XX веков. Его главной целью было идти в ногу с современным миром, использовать достижения науки и техники, модернизировать систему образования.

Ключевые слова: реформа, модернизация, образование, национальное освобождение, политическое обновление, грамотность, мусульманская культура, творческая мысль, джадиды, реформаторы.

Abstract. Jadidism is a social, political and cultural renewal movement that spread in Asia, especially Turkestan, in the late 19th and early 20th centuries. Its main goal was to keep up with the modern world, use the achievements of science and technology, and modernize the education system.

Keywords: reform, modernization, education, national liberation, political renewal, literacy, Muslim culture, creative thought, Jadids, reformers.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda shakllangan jadidchilik harakati xalqni uyg‘otish, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy hayotda yangi g‘oyalarni ilgari surish orqali millatni taraqqiyot sari yetaklashni maqsad qilgan edi. Jadidlarning faoliyati o‘z zamonasining ruhiy va psixologik holatini chuqur anglash hamda uni o‘zgartirish istagiga asoslangan. Ularning qarashlarida shaxsiyat rivoji, ta’lim orqali ongni o‘stirish, ijtimoiy ongni yangilash va milliy o‘zlikni mustahkamlash kabi psixologik tamoyillar muhim o‘rin egallaydi. Shu sababdan, jadidchilik harakati faqat siyosiy yoki madaniy hodisa emas, balki ruhiy-psixologik uyg‘onish jarayoni sifatida ham qaralishi lozim.

Jadidlar va shaxsiy ongning shakllanishi Jadidlar jamiyatdagi taraqqiyotni shaxsiy ongning o‘sishi bilan bog‘lashgan. Ularning fikriga ko‘ra, inson tafakkurini o‘zgartirmasdan, ijtimoiy islohotlarga erishib bo‘lmaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining asarlarida ta’limni “xalqni najotga yetkazadigan yagona qurol” deb atagan. Uning “Padarkush” dramasida shaxsiy ongni zaiflashtiradigan illatlar fosh etiladi va aql, bilim hamda mustaqil fikr yuritishga chaqiriladi. Psixologiyada bu jarayon metakognitsiya — inson o‘z fikrlarini anglab, boshqarishi bilan izohlanadi. Jadidlarning e’tiborini bilim va tafakkurga qaratgani, metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga uringanligini ko‘rsatadi.⁴⁸ Ta’lim va tarbiya orqali ruhiy yangilanish Ta’lim — jadidlar uchun jamiyat ruhiyatini o‘zgartirishdagi asosiy vosita edi. Munavvarqori Abdurashidxonovning “Maktab va madrasalar islohoti” asarida an’anaviy ta’lim usullarining zaifligi tanqid qilinib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar taklif etilgan⁴⁹. Bu esa, psixologiyada o‘quv motivatsiyasi va konstruktivistik yondashuv (ya’ni shaxs tajriba asosida bilim oladi) nazariyalariga mos keladi. Jadidlar bolalarni mustaqil fikrlovchi, o‘z nuqtayi nazariga ega shaxslar sifatida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaganlar. Bugungi zamonaviy pedagogik psixologiyada ham shaxsni faollashtiruvchi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta’lim uslublari muhim sanaladi. Ijtimoiy ong va xalq ruhiyati Jadidlar xalq ruhiyatining holatini tahlil qilib, ijtimoiy ongdagi eskiliklar va jaholat bilan kurashishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar. Fitrat “O‘zbek yoshlariga maktub” asarida xalqni jaholatdan chiqarish uchun avvalo uning dunyoqarashini o‘zgartirish kerakligini ta’kidlaydi. Bu fikr ijtimoiy psixologiyada mavjud bo‘lgan ijtimoiy identitet va ommaviy ong nazariyalariga to‘g‘ri keladi. Jadidlar omma ongini o‘zgartirish orqali milliy o‘zlikni uyg‘otishga va jamiyatni ruhiy jihatdan mustahkamlashga harakat qilganlar. Ularning faoliyatida xalq psixologiyasiga chuqur e’tibor qaratilgan. Milliy o‘zlik va psixologik mustaqillik Milliy o‘zlikni anglash va mustahkamlash jadidchilik harakatining asosiy maqsadlaridan biri edi. Mustamlakachilik siyosati xalq ruhiyatini ezishga qaratilgan ekan, jadidlar bu salbiy ta’sirni bartaraf etish uchun bilim, madaniyat va milliy g‘ururni rivojlantirish yo‘lini tanladilar. Zamonaviy psixologiyada postkolonial psixologiya tushunchasi mavjud bo‘lib, u millat va shaxs ongida mustamlakachilik natijasida yuzaga kelgan ruhiy jarohatlarni o‘rganadi. Jadidlar asarlarida esa, aynan ana shunday ruhiy mustaqillik uchun kurash ko‘zga tashlanadi. Behbudiy va Fitrat asarlarida mustaqil fikrlovchi, milliy g‘urur va o‘zlik hissiga ega shaxs obrazi ilgari suriladi. Bu esa milliy o‘zlik va ruhiy mustahkamlik uchun juda muhimdir. Jadidlarning psixologik metodlari Jadidlar faqat nazariy g‘oyalar bilan cheklanmay, amaliy metodlardan ham foydalanganlar. Ular:

- Dramatik asarlar (masalan, “Padarkush”) orqali emotsional ta’sir ko‘rsatganlar,
- Publicistik chiqishlar bilan ijtimoiy ongni uyg‘otganlar,
- Ta’lim islohoti orqali ruhiy uyg‘onishga erishmoqchi bo‘lganlar.

Bu usullar zamonaviy psixologiyada emotsional ta’sir, motivatsion rag‘batlantirish va ijtimoiy psixoterapiya metodlariga o‘xshashdir.

⁴⁸ Behbudiy, M. (1911). Padarkush. Toshkent: Matbaa-i Islomiya

⁴⁹ Munavvarqori Abdurashidxonov. (1913). Maktab va madrasalar islohoti haqida. Toshkent

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

O‘zbek jadidchiligi harakati milliy uyg‘onishning ilmiy, siyosiy va madaniy omillarini o‘z ichiga olgani kabi, xalqning ruhiy-psixologik o‘zgarishlarini ham nazarda tutgan. Jadidlar shaxsiy o‘shish, ta’lim orqali ongni yangilash, ijtimoiy ongni isloh qilish va milliy o‘zlikni mustahkamlash orqali jamiyatni taraqqiyot sari yetaklashga intilganlar. Ularning faoliyatida zamonaviy psixologiyaning ko‘plab asosiy tushunchalari, metodlari va nazariyalarining ildizlarini ko‘rish mumkin. Shu bois, jadidchilik harakati nafaqat tarixiy-faktologik, balki psixologik nuqtayi nazardan ham chuqur o‘rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy, M. (1911). Padarkush. Toshkent: Matbaa-i Islomiya.
2. Fitrat, A. (1919). Rohbari Najot. Buxoro: Buxoro Matbaasi.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. (1913). Maktab va madrasalar islohoti haqida. Toshkent.
4. G‘afurov, B. (2017). Jadidchilik harakati: tarix va tahlil. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Karimov, I.A. (1997). O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O‘zbekiston.
6. Vygotskiy, L.S. (1991). Psixologiya va madaniyat. Moskva: Pedagogika.
7. Tajikova, D. (2021). “Jadidchilik va psixologik tafakkur: tarixiy tahlil”, O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali, 3(2), 45-52.
8. James, W. (1890). The Principles of Psychology. New York: Henry Holt and Company.

BESHINCHI SHO‘BA

JADIDCHILIKDA TIL VA ADABIYOT MASALASI

CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Oymatova Nilufar Mirjamolovna

“Profi University” o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanini oliy ta‘lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatishning samarali usullari tahlil qilinadi. Talabalarda adabiy-estetik tafakkurni shakllantirish, roman matnini konseptual tahlil qilish, tarixiy va ijtimoiy kontekstni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, adabiy tahlil, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются эффективные методы преподавания романа Чулпана “Ночь и День” в высших учебных заведениях на основе современных педагогических технологий. Освещается важность использования инновационных методов для формирования у студентов литературно-эстетического мышления, развития навыков концептуального анализа текста романа, понимания исторического и социального контекста. анализируются механизмы развития аналитических навыков и воспитания в духе национальных ценностей.

Ключевые слова: современные педагогические технологии, интерактивные методы, литературный анализ, самостоятельное мышление, инновационный подход.

Annotation. This article analyzes the effective methods of teaching Cholpon’s novel “Night and Day” in higher educational institutions based on modern pedagogical technologies. The importance of using innovative methods for the formation of literary and aesthetic thinking in students, conceptual analysis of the novel text, and the development of skills in understanding the historical and social context is highlighted; the mechanisms for developing analytical skills and educating in the spirit of national values are analyzed.

Keywords: modern pedagogical technologies, interactive methods, literary analysis, independent thinking, innovative approach.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, adabiyotshunoslik sohasida ham yangilanishlar jarayoni boshlandi. Uzoq yillar e‘tibordan chetda qolgan qatag‘on davri adabiy-madaniy merosi qayta o‘rganila boshladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi

millatparvar adiblarning boy va serqirra ijodi xalqimizga qaytarildi, ularning asarlari va ma’rifiy faoliyati ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganilmoqda. Globallashuv davrida oliy ta’lim muassasalari oldida talabalarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, ma’naviy immunitetni shakllantirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Ayniqsa, adabiyot fani bu jarayonda muhim tarbiyaviy vosita sifatida o‘z o‘rniga ega. Shu nuqtai nazardan, jadid adabiyotini zamonaviy pedagogik metodlar asosida o‘rgatish va talabalarda mustaqil fikrlash, vatanparvarlik ruhini shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

Shavkat Mirziyoyevning “Biz ma’rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro’yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz”⁵⁰ degan fikri zamonaviy ta’lim tizimi oldiga milliy merosga tayangan holda innovatsion yondashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, Cho‘lpon singari adiblarning asarlarini o‘rganish talabalarga adabiy-estetik did, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishida “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” modulini o‘qitishda ma’ruza uchun 30 soat ajratilgan bo‘lib, shundan Cho‘lpon hayoti va ijodiga bor-yo‘g‘i 2 soat ajratilgan. Bu vaqt davomida quyidagi mavzular o‘rgatiladi:

- Cho‘lponning tarjimai holi;
- Jadidchilik harakati va uning Cho‘lpon she’riyatidagi ifodasi;
- Shoirning o‘zbek she’riy tizimidagi islohotlari;
- Uning hikoyalari va dramalari;
- “Kecha va kunduz” romani hamda uning o‘zbek realistik nasrining shakllanishi va taraqqiyotidagi o‘rni.

Biroq, shuncha muhim va ko‘p qirrali mavzularni atigi 2 soat ichida mukammal o‘rganish o‘ta mushkul. Bu esa Cho‘lpon merosini chuqur, tahliliy va tizimli ravishda o‘rganish uchun qo‘shimcha vaqt va yondashuvlarni talab qiladi. Darslarda mazmunli va samarali ta’limni ta’minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ayni muddaodir.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini o‘qitish jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan bir qator samarali metodlarni tavsiya etish mumkin.

1. Konseptual xarita usuli

Talabalar roman voqealari, obrazlar va asosiy g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni vizual tarzda xaritada aks ettiradilar. Ushbu usul roman ichidagi murakkab syujet va vaqt ketma-ketligini aniq va tizimli ravishda anglashga yordam beradi.

⁵⁰ Mirziyoyev Sh. Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro-konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. 2023-yil 6-mart.

2. Tarixiy kontekst asosida tahlil qilish

Roman yozilgan davr – jadidchilik va mustamlaka yillari haqida ma’lumot berilib, asarda aks etgan tarixiy haqiqatlar aniqlanadi. Talabalar roman va tarixiy voqelik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi.

3. Ijodiy teatr mashg‘uloti

Mazkur metod talabalarning badiiy matnni chuqur anglashlari, obrazlar psixologiyasini his etishlari hamda matn osti ma’nolarini tushunishlariga xizmat qiladi. Roman asosida muhim sahnalar tanlanib, talabalar tomonidan sahnalashtiriladi va ijro etiladi. Bu jarayonda talaba nafaqat voqelikni qayta jonlantiradi, balki obrazga “kirish” orqali uning ichki dunyosini, kechinmalarini, ijtimoiy-psixologik holatini anglaydi. Metod adabiy tahlilni teatr san’ati bilan uyg‘unlashtirgan holda, ijodiy yondashuv va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Vizual tahlil usuli

Bu metodda talabalar raqamli vositalar (masalan, prezentatsiya dasturlari, interaktiv doskalar yoki online platformalar) yordamida romanning asosiy qahramonlari, g‘oyalari va syujetlarini tahlil qilishadi.

- Talabalar birinchi navbatda grafik chizmalar, interaktiv xaritalar yoki infografikalar yaratadilar.

- Roman voqealari va obrazlarini vizual tarzda ko‘rsatish orqali ular o‘z fikrlarini rasmiy va ilovalar orqali namoyish etadilar.

- Dars jarayonida online forumlarda yoki iqtiboslar orqali fikr almashish (masalan, Google Docs) yo‘li bilan talabalarning ijodiy va tahliliy yondashuvlarini baholash mumkin.

Ushbu metodlar Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini chuqur va tizimli o‘rgatishda samarali yondashuv bo‘lib xizmat qiladi. Har bir metod talabalar tomonidan asarni nafaqat o‘qish, balki uni anglash, tahlil qilish, obrazlarga ijodiy yondashish va matn osti ma’nolarini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, bu usullar tanqidiy fikrlash, muloqotga kirishish, jamoada ishlash va mustaqil xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. “Kecha va kunduz” romanini zamonaviy ta’limiy metodlar asosida o‘rganish talabalarda milliy adabiyotimizga bo‘lgan qiziqish va badiiy-estetik tafakkurni shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida faqatgina darslik materiallari bilan cheklanib qolmasdan, Cho‘lpon davrining ijtimoiy-siyosiy muhitini, adabiy maktablarini va uning ijodiy faoliyatini yorituvchi ilmiy manbalarga murojaat qilish ham zarur. Bu borada bevosita o‘sha muhitda yashab ijod etgan M.Behbudiy, Fitrat, A.Avloniy, A.Qodiriylar bilan birga, O.Sharafiddinov, H.Yoqubov, N.Karimov, D.Quronov, N.Boqiy, U.Azim, N.Jaloliddin kabi ijodkorlar qalamiga mansub tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanish o‘z taqdirini millat taqdiri

bilan bog‘lagan adibning shaxs va ijodkor sifatidagi qiyofasini to‘laroq tasavvur qilishga yordam beradi.⁵¹

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘rganish talabalarda nafaqat adabiy-estetik didni rivojlantiradi, balki milliy o‘zlikni anglash, mustaqil fikrlash, tarixiy xotirani tiklash va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro-konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. 2023-yil 6-mart.
2. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – T.: “Nilol media”, 2019. –302 b.
3. Shermatova U.S. O‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari (Cho‘lpon ijodi misolida) ped., bo‘yicha fal.dokt. ... dis-yasi. – T.: TDPI, 2021. – 171 b.

**M.TURG‘UNOVANING “JADID ADABIYOTI VA ZAMONAVIY TA’LIM”
ASARIDA TALABALARGA TARBIYAVIY G‘OYALARNI SINGDIRISH**

G.Xamidova

JDPU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası
v/b dotsenti

R.Ravshanova

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada M.Turg‘unovanning “Jadid adabiyoti va zamonaviy ta’lim” asari asosida talabalarni milliy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi tahlil qilinadi. Jadid adabiyotining tarbiyaviy potentsiali, xususan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarga ushbu g‘oyalarni qanday singdirish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid adabiyoti, tarbiyaviy g‘oya, talaba, axloqiy qadriyat, zamonaviy ta’lim.

Аннотация. В статье рассматривается проблема воспитания студентов на основе национальных и нравственных ценностей, опираясь на труд М.Тургұновой «Джадидская литература и современное образование». Освещаются пути интеграции воспитательных идей джадидов в учебный процесс с использованием современных педагогических технологий.

51 Shermatova U.S. O‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari (Cho‘lpon ijodi misolida) ped., bo‘yicha fal.dokt. dis-yasi. – T.: TDPI, 2021. – 171 b.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Ключивые слова: джадидская литература, воспитательные идеи, студент, нравственные ценности, современное образование.

Annotatsion. This article analyzes the educational ideas presented in M. Turg‘unova’s work *“Jadid Literature and Modern Education”* and explores ways to instill national and ethical values in students. The article highlights how the pedagogical legacy of the Jadids can be integrated into modern teaching methods to develop students' moral and civic consciousness.

Keywords: Jadid literature, educational ideas, student, moral values, modern education.

Zamonaviy ta’limda ko‘plab o‘quv dasturlar e’tiborini texnik bilim va malakalar shakllantirishga qaratmoqda. Shu bilan birga, talabalar orasida axloqiy, ijtimoiy mas’uliyat, milliy o‘zlikni anglash kabi jihatlar yetarli darajada rivojlanmayapti. Bu esa yoshlar orasida individualizm, ma’naviy bo‘shliq, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur vaziyatda jadidchilik merosini ta’limga kiritish, ularning g‘oyaviy merosidan vosita sifatida foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

M.Turg‘unova asarida jadid adabiyotidagi quyidagi axloqiy g‘oyalar talabalarga yetkazish uchun muhim vosita sifatida ta’riflanadi:

- Halollik va vijdonlilik (Avloniy)
- Insoniy burch va xalq xizmatida bo‘lish (Fitrat)
- Mehr-shafqat va adolat (Cho‘lpon)

Bu g‘oyalar zamonaviy ta’lim vositalari bilan quyidagi shakllarda o‘rgatiladi:

- Badiiy o‘qish orqali tahlil
- Dramatizatsiya (asarlardan sahna ko‘rinishlari)
- Axloqiy dilemmalarni muhokama qilish
- Aqliy hujum orqali qadriyatlarni baholash

Turg‘unova asarida quyidagilar alohida ajratib ko‘rsatiladi:

Jadidlar ma’rifiy faoliyatda zamonaviylik, mustaqil fikrlash, o‘zlikni anglash, ijtimoiy mas’uliyat, diniy-ma’naviy tozalik kabi g‘oyalarni ilgari surgan. Bu jihatlar bugungi pedagogik texnologiyalar: konstruktiv, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar bilan bevosita bog‘liq.

Asarda taklif etilgan usullar orqali tarbiyaviy g‘oyalarni singdirish:

Usul yoki faoliyat turi	Jadid g‘oyasi bilan bog‘liqligi	Tarbiyaviy natija
Badiiy o‘qish (Avloniy hikmatlari)	Axloqiy qadriyatlar (halollik, mehr, sabr)	Shaxsiy fazilatlarni anglash
Munozara (Fitrat maqolalari asosida)	Insoniy burch, ijtimoiy mas’uliyat	Fikr bildirish, mas’uliyatni his qilish
Ijodiy topshiriq (she‘r, insho)	Milliy o‘zlik, vatanparvarlik	Estetik tarbiya, milliy g‘urur
Rol o‘ynash (Cho‘lpon dramasi sahnasi)	Vijdon, adolat, jasorat	Axloqiy his-tuyg‘ularni shakllantirish

Xulosa. M.Turg‘unovanning “Jadid adabiyoti va zamonaviy ta’lim” asari zamonaviy pedagoglar uchun nafaqat metodik qo‘llanma, balki talabalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy manba bo‘la oladi. Jadid adabiyotining ma’naviy boyligi zamonaviy o‘quvchi va talaba uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Tavsiyalar:

1. Jadid asarlarini pedagogika va adabiyot fanlarida qo‘shimcha o‘quv manbasi sifatida kiritish.
2. Talabalar bilan muhokamali darslar orqali axloqiy tushunchalarni tahlil qilish.
3. O‘quv dasturlariga “Jadid merosi va tarbiya” bo‘limlarini qo‘shish.
4. Jadid asarlariga bag‘ishlangan ijodiy loyihalar, sahna chiqishlari, insholar tashkil etish.
5. “O‘quvchi-shaxs” tamoyili asosida har bir talabada o‘zini anglashga imkon beruvchi pedagogik muhit yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg‘unova, M. (2023). Jadid adabiyoti va zamonaviy ta’lim. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
2. Yoqubova, G. (2022). Pedagogik meros va milliy tarbiya. Toshkent: Ilm Ziyo.
3. Axmedova, D. (2021). Jadidchilik va pedagogik tafakkur. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Karimova, R. (2024). Ma’naviy tarbiya va zamonaviy o‘quvchi. Toshkent: Pedagog nashriyoti.
5. Nurmatova, N. (2020). Talabalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalari. Buxoro: Barkamol.
6. Normurodova, D. (2023). Jadid asarlari asosida tarbiyaviy dars ishlanmalari. Namangan: Ziyo nuri.

**“CHIG‘ATOY GURUNGI” BOSHLAGAN ISLOHOTLAR VA BUGUNGI O‘ZBEK
TILI**

Rajabov Nuriddin Mustafoevich

“Profi University” “Tillar” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘tgan asrning boshlarida alifbo, imlo masalalari yuzasidan jadidlar olib borgan harakatlar atroflicha yoritilib, hozirgi o‘zbek tili yozuvidagi muammolar yechimi sifatida tahlil qilindi. Kirib kelayotgan o‘zlahma so‘zlarni tilimizga moslashtirish, o‘zbek tilining turkona ohangini oshirish haqida fikrlar berildi.

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

Tayanch so‘zlar: savod, cho‘zg‘i, harf, alifbo arab, “Chig‘atoy gurungi”, qurultoy, lotin, imlo, O‘rxun, savtiy prinsip, yozuv.

Аннотация. В статье произведен подробный обзор усилий джадидов по вопросам совершенствования алфавита и орфографии в начале прошлого века и анализируются они как пути решения проблем современной узбекской письменности. Высказаны идеи по адаптации входящих иностранных слов к родному языку и усилению тюркского тона узбекского языка.

Ключевые слова: грамотность, протяженность, письмо, арабский алфавит, «Чигатай Гурунги», конгресс, латиница, орфография, Орхун, принцип савтий, письмо.

Abstract. The article provides a detailed overview of the efforts of the Jadids on the issues of the alphabet and spelling at the beginning of the last century, and analyzes them as solutions to the problems of the current Uzbek writing system. Ideas are given on adapting the incoming Uzbek words to our language and increasing the Turkic tone of the Uzbek language.

Key words: literacy, stretch, letter, Arabic alphabet, "Chigatay Gurungi", congress, Latin, spelling, Orkhun, savtiy principle, writing.

XX asrning boshida til, alifbo va imlo masalalari bilan shug‘ullanish dolzarb ahamiyat kasb etib, ziyolilarning umummilliy harakatiga aylandi. Asrlar davomida, qariyb, ming yil keng qo‘llanilgan arab alifbosi va undagi murakkabliklar, harflarning o‘qilishi, cho‘zg‘ilarning ifodalanishi jamiyatning keng qatlamlarini savodli qilishda qiyinchilik keltirdi. Bunda madrasa ta‘limida tahsil olgan talabalar alifbo va imlo qoidalarini yaxshi o‘rganishgan bo‘lishsa, imkoniyati yo‘q kishilar savodini chiqarish muammoga aylandi.

Ana shunday vaziyatda 1919-1921-yillarda Toshkentda Fitrat rahbarligida til, imlo, adabiyot va san‘at bilan shug‘ullanuvchi “Chig‘atoy gurungi” jamiyati faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu jamiyatning maqsadi Turkistonda eski va yangi turkiy asarlarni jam qilib, turkiy tilini ixtyo qiluv haqinda materiyol hozirlamoq, lug‘at va adabiyot dunyosini boyitmoqdur. [1, 66-son]. Arab alifbosidagi s undosi uchun 3 ta harf س *sin*, ث *se*, ص *sod* yoki z undoshi uchun 4 ta harf ز *ze*, ذ *zal*, ظ *zo*, ض *zod* ifodalanishidek muammolar “Chig‘atoy gurungi” faollarining diqqat-e‘tiborida bo‘lib, alifboni soddalashtirish, savod chiqarishni osonlashtirish maqsadini o‘z oldiga qo‘yishdi.

Fitrat tilimizning og‘riqli joylariga alohida to‘xtaladi. Dunyoning eng boy tili bo‘lg‘an turkchamiz yolg‘uz arabcha yumroqlari bilan emas, forsiycha tepkilari bilan daxi ezilmishdir. Ko‘zlarimizni to‘rt ochib qarayliq: dunyoning eng buyuk hakimi bo‘lg‘an “Ibn Sino” turkdir. Ikkinchi “Arastu” atalg‘an Farobiy turkdir. Arab tilini mangulik turguzub ketgan Javhariy turkdir. “Vahidat vujud”, degan, Asqoning imomlaridan bo‘lg‘an Jaloliddin Rumi turkdir. Forsiy adabiyotining payg‘ambarlaridan bo‘lgan “Nizomiy”da daxi turkdir. [3, 2-son]. Fitrat o‘z g‘oyalarida o‘zbek tilining arabcha va forsha so‘zlar bilan qorishib ketganligidan uning sofligini tiklash, mavjud

imkoniyatlaridan foydalanish haqida tashvishlanib gapiradi. Bir qarashda o‘zlashmalarning zarari yo‘qdek tuyulishi mumkin. Lekin tildagi so‘zlar madaniyat tashiydi, madaniyat tilda mujassam. Tilni o‘rganishning murakkabligi ham aslida mana shu. Lug‘at va grammatikani o‘rganishingiz mumkin, lekin lug‘atdagi so‘z ifoda etayotgan madaniyatni o‘rganishga yillar ketadi. Masalan, o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijlik *non* so‘zini o‘z tiliga tabdil qilib, anglashi mumkin, biroq *non* bilan bog‘liq o‘zbekcha odatlardan xabari bo‘lmaydi. Mana ko‘tarilgan mavzuning mohiyati.

Yirik madaniy tuzilma bo‘lgan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining “til-imlo to‘dasi” tomonidan dastlabki ishlar e‘lon qilinadi. O‘qituvchilar uchun imlo qo‘llanmasi bo‘lgan “Bitik yo‘llari” nomli bitikchasi Maorif komissarligi ruxsati bilan 1919-yilda chop etiladi. Ko‘pchilik yosh ziyolilar, o‘qituvchilar “Chig‘atoy gurungi” imlosini yoqlab, ularga ergashadi. [4, 26-son].

Lekin jadidlar ilgari surgan imloda o‘zbekcha so‘zlarni yozish uchun alohida harflar, o‘zlashma so‘zlarni ifodalash uchun yot harflarni qo‘llash haqidagi qoidalar ziyolilar o‘rtasida fikriy bo‘linishni keltirib chiqaradi. «Biroq, shunisida borkim, bu yerda tuzilgan imlo qoidasi yolg‘iz turkcha so‘zlar uchun bo‘lib, arabcha, forsha so‘zlar mundan tashqari aytilmishdir. Yaxshisi, bu qoidanida yalpi (umumiy) qilmoq kerak edi, chunki bolalar shul qoidani o‘rgangach, albatta, shu yo‘lda yoza boshlarlar...» . [2, 12-b]. Bu tortishuvlar keyinchalik yana davom etadi. Xususan, 1921-yilning 1-5-yanvarida Toshkentda bo‘lib o‘tgan birinchi o‘lka o‘zbek tili va imlosi qurultoyida Fitrat, Ashurali Zohiriy va Botularning chiqishlarida bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan uch xil qarash o‘rtaga tashlanadi.

Fitrat arab alifbosidagi harflarning to‘rt xil ko‘rinishidan faqat bitta bosh shaklini yozuvga kiritishni, oltita cho‘zg‘i qabul qilishni, yot, o‘zlashma so‘zlarni alohida harf bilan emas, balki o‘zbekcha harflar bilan ifodalashni ilgari suradi. [2, 15-b]. [5, 13-16-b]. Haqiqatan ham, bu fikrlar bugun ham zamonaviy o‘zbek yozuvida dolzarbligini yo‘qotmasdan kelmoqda. Hozirgi o‘zbek orfografiyasida beshta prinsipga amal qilib kelinayotganligi ko‘p murakkabliklarni keltirib chiqaryapti. Farqlash tamoyilini olib qaraylik. Til jamoasining biror bir subyekti jonli so‘zlashuvda tutuq belgisini hech qachon ishlatmaydi. 1-sinfni o‘qiyotgan o‘quvchiga *Ra‘no*, *ma‘no*, *san‘at*, *da‘vo* so‘zlarini yozdirganingizda, tutuq belgisini qo‘ymaydi. Chunki turkiy xalqlar artikulyatsiyasida bo‘g‘iz tovushlari yo‘q. Bu qoida majburuy o‘rgatiladi. Eng qizig‘i, mo‘jiza, mo‘tabar so‘zlariga noilojlikdan bu belgini qo‘ymaymiz. Shu paytgacha yozib kelinyapti, hech qanday muammo yoki g‘alizlik yo‘q. Demak, buni soddalashtirish mumkin.

Fitrat bildirgan g‘oya o‘z davrida savodsizlikni tugatishga qaratilgan dadil qadamlar edi. Qolaaversa, tilning sofligini ta‘minlash, arabcha va forsha o‘zlashmalardan tozalashni 1919-yildan boshlab hisoblasak, yuz yildan oshdiki, hozirgacha bu jarayon qiyinligicha qolmoqda. Bugun jahon media maydoniga integratsiyalashgan zamonaviy jamiyatimizda kirib kelayotgan

o‘zlashmalarni o‘zbekcha ohangga solib, suylash ham oson kechmayapti. Birgina misol: ovqatlanish joylariga kirsangiz, yegulik va ichimlik nomlari yo turkcha, yo inglizcha yozilyapti. Yoki *universitet* so‘zi “*university*” tarzida, *vay-fay* so‘zi *Wi-Fi* shaklida yozilyapti. 1995-yil Hukumatning 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan imlo qoidalarida o‘zga til alifbosida yozish degan tushunchaning o‘zi yo‘q. Ba‘zilardan sababini so‘rasangiz, atoqli ot bo‘lgani uchun o‘zgartirmasdan yozamiz, deyishadi. Bu butunlay asossiz. Masalan, Parij so‘zini franso‘zlar Paris deb yozadi. Aynan yozilmaydi. Shakliy prinsipda kirib kelgan so‘zlarni o‘sha tilda aytilishini e‘tiborga olib yozish bor, lekin o‘zbekcha harflarda ifodalanadi.

Qurultoyda Fitratning fikrlariga tilshunos Ashurali Zohiriy qarshi chiqadi: Biz yangi imloga o‘rganib, chet ellarga borib muallimlik qilganda, (Qoshg‘arni misol keltiradi) biz yozganni hech kim o‘qiy olmaydi. Ajnabiy so‘zlarni o‘z cho‘zg‘imiz bilan yozaylik, lekin qavsda o‘z yozuvi bilan ko‘rsataylik, degan fikrlarni aytadi. [2, 16-b]. [5, 20-b]. Bundan kelib chiqadiki, bugun o‘zbek orfografiyasida shakily prinsipning nima uchun amal qilib kelinayotganligi tushunarsiz. *Gramm, metall, taassurot* so‘zlaridagi qo‘sh undoshlar va qo‘shaloq *a* unlisi talaffuzini kuzatsangiz, bu holat nutq egasida bitta aytiladi.

Qurultoyda uchinchi ma‘ruzachi sifatida so‘zga chiqqan Botu (M.Hodiyev) so‘zlarni bosh harf bilan yozsak, bu juda sekin bo‘ladi. Cho‘zg‘ilarga kelsak, harflardan ajratish uchun qaysidir belgi orttirilgan yoki harflarning ustida va ostida bo‘lgan nuqtalari kishini adashtirib yuboradi, Shuning uchun arab harflarining o‘rniga lotin yozuvini tilimizdagi tovushlarga moslab qabul qilish kerak, degan fikrni ilgari suradi. [2, 16-b]. [5, 20-b]. Bu o‘sha davrda til va yozuv masalasida inqilobiy gap edi. Chunki yozuv bilimlarni o‘zida to‘plashni bajaruvchi tilning ikkilamchi vositasi bo‘lib, dunyoga integratsiya bo‘lishga jadidlarning qo‘ygan qadamlari edi. 1921-yil qurultoyidan so‘ng matbuotda alifbo va imlo masalasi ko‘p tilga olinadi, muhokamalar davom etadi. G‘arb ilm-fani bilan tenglashishning yechimi sifatida arab alifbosidan voz kechib, lotin alifbosiga o‘tish haqida chiqishlar qilinadi. Alifbo va imlodagi boshboshdoqlik, qoida va tartibga solish ishlari nihoyatda qiyin kechadi.

Til va yozuv masalasida “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari butun turkiy xalqlarning tili va yozuvi bir xil bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyani imkonsiz deb bilishadi. Zaki Validiy, Munavvar Qori, Ashurali Zohiriylar esa turkiy xalqlarning tili, yozuvi, adabiyoti umumiy bo‘lishi kerakligini ilgari surishadi va bu g‘oya atrofida jiddiy kurash kechadi. [4, 26-son]

1923-yilning oktyabrida Buxoroda O‘rta Osiyo o‘zbeklarining Til va imlo o‘lka anjumani o‘tkazilib, unda yana alifboni isloh qilish, imlo asoslarini ishlab chiqish masalalari ko‘riladi va bu yig‘inda kelgusida alifboni lotinlashtirish fikri ma‘qullanadi. [4, 26-son].

Lotin yozuviga o‘tishni turkiy xalqlardan ozarbayjonliklar boshlab berishadi. 1922-yildan boshlab qo‘llay boshlaydi va keyinchalik butun turkiy xalqlar ana shu yagona yozuvga o‘tishadi. O‘zbekistonning ham lotin yozuviga o‘tishi shundan keyin, aniqrog‘i, 1926-yilda o‘tkazilgan butun turkologlarning Baku qurultoyidan so‘ng tezlashadi.

1927-yilning 1-iyunida Bokuda Yangi Turk alifbosi Markaziy qo‘mitasi tomonidan Birlashgan turk alifbosi qabul qilinadi. [2, 36-39-b]. Yangi alifboga o‘tish yuzasidan tashkiliy jarayonlar olib boriladi. Uni joriy etish bo‘yicha markaziy ishchi guruhlar tuziladi. Bu alifboda shunisi ahamiyatliki, unli tovushlar cho‘ziq va qisqa variantda 9 ta qabul qilinadi va bu hodisa tortishuvlarga sabab bo‘ladi. Ayrimlar o‘zbek tilida cho‘ziq-qisqalik yo‘q deb da‘vo qilishsa, boshqalar buni bor, deb isbot qilishgan va bahslar hozirgacha davom etmoqda. Masalan *i* unlisi olib ko‘rsak, Voha viloyatlarida yo‘g‘on, Vodiy viloyatlarida ingichka aytiladi. Fonemalar tasnifida bu tovush tilning tanglayga yaqinlashuvida hosil bo‘ladigan yuqori tor unli deb izohlanadi. [6, 57-b]. Lekin bu ta‘rif Voha tarafda aytiladigan *irmoq, ilon, din, Guli* kabi so‘zlardagi *i* tovushining talaffuziga to‘g‘ri kelmaydi. Ya‘ni tilning tanglayga tomon ko‘tarilish belgisiga ko‘ra bugun o‘zbek tilida *i* unlisining yana bir o‘rta keng aytililadigan varianti ham me‘yorga aylangan. Yoki *ng* undoshi haqida to‘xtalsak. Birlashgan turk alifbosida bu tovush bitta *ŋ* harfi bilan berilgan. Hozirda bitta tovushni ifodalash uchun ikkita harfning yozilishi tufayli *ŋ* va *g* undoshlarini alohida-alohida tovushlar sifatida talaffuz etish me‘yorga aylanib ketmoqda. Masalan, *singil, ko‘ngil, dengiz* so‘zlarida bitta aytilishi kerak bo‘lgan *ng* tovushi, ikkita harf tufayli alohida-alohida o‘qilmoqda. Hozir bu orfoepiya va imlodagi eng katta muammo deyish mumkin. Bu ketishda *singil* so‘zini yozish uchun *ŋ* tovushi alifboda bor, *g* tovushi alifboda bor, *ng* undoshi nega kerak, degan savollarni ham bera boshlaydi. Vaholanki, bu tovush o‘zbek tilining VI asrdagi yozma adabiy manbasi bo‘lgan O‘rxun-Enasoy yodnomalarida uchraydi. 1400 yildan buyon qo‘llanilib kelinayotgan sof o‘zbekcha tovush. E‘tibor berilsa, *ŋ* va *g* undoshlarining bitta tovush bo‘lib aytilishi daqiqroq eshitiladi va bu bobo tilga yaqinlashtiradi. Qoshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” asarida bu tovush haqida to‘xtalib, “...*qaf* bilan *kaf* harflari oralig‘ida talaffuz etiladigan jarangli *kaf*, (ya‘ni [g]), *kafu-l-g’unna* bilan g‘ayn oralig‘ida hamda *qaf* bilan *nun* oralig‘ida talaffuz etiladigan (ya‘ni [ŋ]) harflaridir. Bu harflarni talaffuz qilishda turklardan boshqa qiynaladilar” deb qayd etadi. [7, 16-b].

Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Navoiyliklarning jonli tilini kuzatsangiz, *ŋ* va *g* undoshlari yonma-yon kelgan har qanday so‘zda, o‘zlashma bo‘ladimi yoki *ŋ* asosda, *g* qo‘shimcha tarkibida keladimi - bitta *ŋ* tovushiga aylanib ketadi. Misol uchun, *menga, senga, yanga, ingliz* kabi so‘zlarda *n* va *g* tovushlari alohida ajratib aytilmaydi. Qoshg‘ariy aytgan bobo talaffuzga ko‘proq Vohaning tili yaqin kelyapti. Shuni ham aytish kerakki,

hozirgi imloda o‘zlashma so‘z tarkibida yoki *η* asosda, *g* qo‘shimcha tarkibida kelsa, bitta tovush hisoblanmay, ikki bo‘g‘inga ajraladi.

Til-imlo masalasida 1929-yilning mayi oyiga kelib, Samarqandda bo‘lib o‘tgan konferentsiyadan keyin 9 unliga asoslangan imlo qoidalari qabul qilinadi va alifboga bosh harf qo‘shiladi. Shuningdek, *otamga*, *uyimga* so‘zlarining *otama*, *uyima* shakllari ham qo‘llanilishi me‘yor sifatida qaraladi. [2, 57-58]. Xullas, Samarqand konferentsiyasi hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilk davrini shakllantirib berdi. Undan keying bahslar unlilardagi cho‘ziq-qisqalik mavzusiga ko‘chadi.

Xulosa sifatida aytish kerakki, jadidlar ilgari surgan g‘oyalar o‘zbek tilining turkona ohangini ko‘tarishga, xalqni savodli qilishga qaratildi. Ilm-ma‘rifatni dunyoviy taraqqiyotga erishishning yo‘li deb bilishdi. O‘zbek tili imlosi bo‘yicha savtiy prinsipning, ya‘ni aytilgani bo‘yicha yozishning asos qilib olinishi bugungi o‘zbek tilining imlo muammolarida yaxshi yechim bo‘la oladi, deyishimiz mumkin.

Yana aytilgani bo‘icha yozish O‘rxun bitiklarida ham uchraydi. Bu an‘anani davom ettirish qulaylik va imloviy savodxonlikning yuksalishiga, tilning qadimiyligini tiklashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чифатой гурунги. “Иштирокиюн”, 1919 йил 4 февраль 66-сон.
2. Жамолхонов Х. “Имло муаммолари”. - Тошкент, 2007. - 191-б.
3. Jamolova D. “Jadidlik milliy harakati va til-imlo masalasi”. “O‘zbekiston tarixi jurnali”, 2024-yil, 2-son.
4. Tog‘ayev T. “Jadidlik: til, imlo va alifbo”. “Jadid” gazetasi, 2024-yil 21-iyun, 26-son
5. 1921 йкл январида бўлгон биринчи ўлка ўзбек тил ва имло қурултойининг чиқаргон қарорлари – Тошкент: Туркистон Жумхуриятининг давлат нашриёти - 1922.
6. Sayfullayeva R, va boshq. “Hozirgi O‘zbek adabiy tili”. -Buxoro, 2021. 456-b.
7. Қошғарий М. “Девону луғатит турк”. – Тошкент, 2017. 484-б.

A.AVLONIYNING MA’NAVIY MEROSI

Mirazimova Muxabbat Normatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

Ulug‘bekova Maftuna

JDFU talabasi

Annotasiya. Maqolada A.Avloniyning ma’naviy merosi, ilm-fan va ma’rifatni targ‘ib qilish, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish, fikr va dunyoqarashdagi o‘zgarishlar hamda Abdulla Avloniyning ilmiy merosi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch tushunchalar: Abdulla Avloniy, “Birinchí muallim”, Jadidchilik harakati, “Turkiy guliston yoxud axloq”, ilmiy va adabiy faoliyati, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”.

Buyuklarning, el-yurtga xizmati singgan ulug‘ kishilarning nomlari mangulikka daxldor bo‘ladi. Asrlar osha unday odamlarning xizmatlari ko‘z-ko‘z qilinaveradi. Ana shunday ulug‘ zotlardan biri, mashhur muallim, tashkilotchi, shoir Abdulla Avloniydir. Prezidentimiz qachon ta’lim-tarbiya haqida gapiradigan bo‘lsa, albatta, Abdulla Avloniy haqida to‘xtaladi. Har bir millatning o‘z ma’naviy qiyofasi mavjud. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma’naviyatni yuksaltirish yuksak vazifalardan biridir. Ma’naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixini, ma’naviy qiyofasini o‘zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o‘rni beqiyosdir. O‘zbek adabiyotida bunday asarlar juda ko‘p. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, taniqli o‘zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” hamda “Birinchí muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi darsliklari ham xarakterli bo‘lib hisoblanadi. Bu asarlardagi mukammal fikrlarning g‘oyaviy to‘liqligi, ta’lim-tarbiya tizimiga va tushunchalariga doir fikrlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

Abdulla Avloniy (1878–1951) O‘zbekistonning buyuk ilm-fan va adabiyot arboblariidan biri bo‘lib, u faqat o‘z davrining keng qamrovli tafakkuridan o‘zgina, balki butun turk xalqining ma’naviy merosiga ham ulkan hissa qo‘shgan shaxsdir. Avloniyning ma’naviy merosi ko‘p jihatdan o‘zining zamonaviy tasavvurlarini yaratish va milliy g‘oya, til va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatida ko‘zga tashlanadi.

Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklarning mukammal yaratuvchisi sifatida ham gavdalanganligi, asarlaridagi ta’lim va tarbiyaga doir tushunchalarning, g‘oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq qilinganligi, qolaversa, mavzuning dolzarbligi ma’rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla

Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta’lim va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalar, she’riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asnosida ko‘zga tashlanadi. 2017- yilning 3-avgust kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu uchrashuda madaniyat va san’at sohasida yuzaga kelgan ko‘plab muammolar o‘rtaga tashlandi. Mazkur yig‘ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san’at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so‘z bordi, yosh iste’dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g‘oya, tashabbus va takliflar bildirildi: “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o‘ta muhim masala borki, unga alohida to‘xtalib o‘tish zarur deb bilaman, u ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liq.

Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham, yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir⁵².” Shu ma’noda Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanligi adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirish- da axloqiy va ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qilganini o‘rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq-odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta’limiy va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqror bo‘lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta’limiy, tarbiyaviy g‘oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o‘zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatan- parvarlik g‘oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini alohida ta’kidlab o‘tmoq joiz.

Shuningdek, adib milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo‘shganligi uchun 2020-yil 30-sentyabr sanasida “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi⁵³ Avloniy “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darsliklar yaratdi. Bu asarlarida hamda

⁵² Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust.

⁵³ Shavkat Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi, “Xalq so‘zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.

publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifga chorlaydi. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning “Birinch muallim” asari ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Avloniy uni yozishda Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” asariga suyanadi. Avloniyning “Ikkinchi muallim” asari “Birinch muallim” kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atashimiz mumkin.

Ilm-fan va ma’rifatni targ‘ib qilish. Avloniy ilm-fan, ta’lim va ma’rifatni yuksaltirishni o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘rgan. U ta’limni kengaytirish, xalqni savodli qilish va milliy ongini yuksaltirish uchun turli faoliyatlarni amalga oshirdi. Avloniyning "O‘zbekiston" jurnali, shuningdek, turli risolalari ham ilm-fan va ma’rifatni targ‘ib qilgan asarlardir. U o‘z asarlarida turk xalqining tarixiy va madaniy merosini o‘rganish, unga zamonaviy qarashlarni olib kirish, ta’lim sohasidagi yangiliklarni kiritishga intilgan.

Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish. Avloniy, o‘zining yozgan asarlari va nutqlarida, xalqning milliy madaniyatini saqlashga, uni rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. Uning “Turk tilining grammatika” kitobi, tilni rivojlantirishga bo‘lgan qarashlarini aks ettirib, xalqning tiliga, adabiyotiga, san’ati va an’analariga bo‘lgan hurmatini ko‘rsatadi. U o‘z vaqtida, turk xalqining umumiy madaniy merosini birlashtirishni maqsad qilgan.

Fikr va dunyoqarashdagi o‘zgarishlar. Avloniy zamonining eng ilg‘or fikrlarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxs bo‘lib, o‘zi faoliyat ko‘rsatgan davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlariga ta’sir ko‘rsatdi. U o‘zining adabiy, ilmiy va jamoat faoliyatlari bilan jamiyatda yangicha fikrlarning rivojlanishiga yordam berdi. Avloniy jamiyatni yaxshilash va taraqqiy ettirish uchun turli masalalarda tahliliy fikrlashni rivojlantirishga, o‘zining o‘zgarishlarga ochiq qarashlarini saqlab qolishga harakat qildi.

Abdulla Avloniyning ilmiy merosi. Avloniy ilmiy merosi nafaqat o‘z vaqtida, balki hozirgi kunda ham ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning o‘ziga xos ilmiy, adabiy va pedagogik ishlari, xalq ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan sa’y-harakatlari, hamda zamonaviy o‘zbek adabiyoti va madaniyatining shakllanishiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy, o‘zining ilmiy va adabiy faoliyati bilan xalqning ma’naviy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga, milliy til va madaniyatni mustahkamlashga katta hissa qo‘shgan. Uning ma’naviy merosi, bugungi kunda ham o‘zbek xalqining madaniyati va ma’rifatining ajralmas qismidir. Avloniy o‘z zamonasida eng ilg‘or fikrlarga ega bo‘lib, ulkan ma’naviy meros qoldirgan shaxs sifatida tarixda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017- yil 4-avgust.

2. Shavkat Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi, “Xalq so‘zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet.

4. G‘aniyev, A. Abdulla Avloniy: Hayoti va ijodi. Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2002 yil.

5. Qodirov, F. Abdulla Avloniy va milliy g‘oya. Toshkent: Sharq. 2015 yil.

6. Muhammadiyev, S. Abdulla Avloniy: Adabiy meros va jamiyatdagi o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2009 yil.

NAZAR ESHONQUL IJODINING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Shahanov Bobur Choriyevich

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek zamonaviy nasrining yorqin vakili, adib va publitsist Nazar Eshonqul ijodining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni, badiiy-estetik yangiliklari hamda u tomonidan yaratilgan badiiy dunyo va obrazlar tizimining adabiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchining asarlarida ko‘tarilgan ijtimoiy, falsafiy va axloqiy masalalar, uning badiiy uslubi va uslubiy izlanishlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Nazar Eshonqul, zamonaviy nasr, badiiy tafakkur, adabiy-estetik qarashlar, o‘zbek adabiyoti, obrazlar tizimi, postmodernizm.

Аннотация. В данной статье анализируется место творчества Назара Эшонкула — одного из ярких представителей современной узбекской прозы, писателя и публициста — в развитии узбекской литературы, его художественно-эстетические новаторства, а также влияние созданного им художественного мира и системы образов на литературный процесс. Также рассматриваются социальные, философские и нравственные вопросы, поднятые в его произведениях, особенности его художественного стиля и творческие поиски.

Ключевые слова: Назар Эшонкул, современная проза, художественное мышление, литературно-эстетические взгляды, узбекская литература, система образов, постмодернизм.

Annotation. This article analyzes the role of Nazar Eshonqul — a prominent representative of modern Uzbek prose, writer, and publicist — in the development of Uzbek literature, his artistic and aesthetic innovations, as well as the influence of

the fictional world and character system he created on the literary process. The study also examines the social, philosophical, and moral issues raised in his works, along with his literary style and stylistic experiments.

Keywords: Nazar Eshonqul, modern prose, artistic thinking, literary-aesthetic views, Uzbek literature, system of images, postmodernism.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotining yangi bosqichida ijod qilgan adiblar orasida Nazar Eshonqul o‘zining chuqur badiiy tafakkuri, murakkab obrazlar tizimi va o‘ziga xos uslubi bilan alohida o‘rin egallaydi. U o‘z asarlarida faqatgina voqelikni tasvirlash bilan cheklanmay, balki inson ruhiyatini, uning ichki kechinmalarini, ruhiy ziddiyatlarini teran yoritishga intiladi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davr o‘zbek adabiyotida yangi adabiy-estetik mezonlarni shakllantirishda Nazar Eshonqulning hissasi juda katta bo‘ldi. Yozuvchi haqida: “Nazar Eshonqul mening nazarimda bizning o‘zbek adabiyotida dunyo adabiyotlarining eng ilg‘or oqimlari va usullarini chuqur o‘rganagan va o‘z asarlarida targ‘ib qilgan,”⁵⁴ – deydi O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov. Haqiqatdan ham Nazar Eshonqulning har bir asarida modernizm, ekzistensializm, ba’zida esa postmodernistik ruhda yozilgan teran g‘oya va murakkab obrazlar namoyon bo‘ladi. Nazar Eshonqul ijodi orqali biz o‘zbek adabiyotining yangi falsafiy qatlarga o‘tayotganini ko‘ramiz. U asarlarida inson tafakkurining tub mohiyatini, ruhiy inqirozlarni, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlarni chuqur badiiy tahlil qiladi. Aynan shuning uchun ham uning ijodi nafaqat o‘zbek adabiyotining balki, butun turkiy va jahon adabiy maydonining dolzarb muammolarini yoritib beruvchi noyob hodisadir.

Nazar Eshonqulning ijodi o‘zbek adabiyotida yangi burilishni ifodalaydi. U jamiyatdagi o‘zgarishlar, insoniyatning ma’naviy qidiruvlari, zamonaviy hayotdagi paradokslar, ruhiy tushkunlik, yolg‘izlik, axloqiy tanazzul kabi masalalarni badiiy vositalar orqali mahorat bilan yoritdi. Yozuvchining hikoyachilikdagi eng asosiy xususiyatlaridan biri – insonning ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari, ong va voqelik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy tasvirlashida yaqqol namoyon bo‘ladi. Nazar Eshonqul hikoyalarida an’anaviy realistik yondashuv o‘rniga psixologizm, ramziy tasvir, postmodernist ko‘rinishlar va falsafiy mushohada ustuvorlik qiladi.

“Bu voqea uch yillar oldin bo‘lgan edi. Shu ko‘chadan bir uyni ijaraga olib ko‘chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi, u ko‘chaning muyulishida men egallagan uyga qo‘shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o‘rindiqa chuqur o‘yga tolgan holda ko‘rgan edim. U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo‘lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko‘rimsiz yuzi badjahl mabudlarning haykaliga o‘xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi”⁵⁵. Yozuvchining “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida insonning o‘zligidan begonalashuvi, jamiyatda shaxsiyatni yo‘qotish jarayonini ramziy obraz –

⁵⁴ Nazar Eshonqul - Vikipediya (wikipedia.org)

⁵⁵ Nazar Eshonqul. Saylanma. 1-jild, — Toshkent, *Akademnashr*, 2022. – B. 3

maymun orqali tasvirlaydi. Hikoyadagi “men” obrazi yolg‘iz, sustkash, kuchsiz shaxs timsoli bo‘lib, jamiyatning ruhiy falajligini ifodalagan. “Tobut” hikoyasida O‘lim va hayot, ma’naviy inqiroz, vijdon azobi haqida falsafiy mushohada yuritilgan. Hikoyada tobut nafaqat jismoniy o‘lim, balki ma’naviy o‘liklik timsoli sifatida gavdalanadi.

“Ostonadagi odam cho‘chib tushib, gapini yo‘qotib qo‘ydi, tili og‘ziga kosovday tiqilib qoldi, uni harakatga keltirish uchun xiyla qiyin kechdi, bir necha bor qizarish va qaltirashdan so‘ng bo‘g‘zidan daf‘atan otilib chiqqan tovush hech qanday ma‘no ifodalamadi.

Shu... shu... o‘rayotandim... Keyin birdan...- O‘zini tutib oldi u oxiri. - Keyin birdan ov... ovozidan tanidim. Yo‘lda Begmat polvon bilan Hasan cho‘loq o‘tib borishayotgan ekan. Ular ertalab Ko‘chabuloqqa - Sori Haydarnikiga ta‘ziyaga o‘tib ketishgandi, o‘z ko‘zim bilan ko‘rgandim. Ular bir-biriga shivirlab gaplashib boryapti ekan...”⁵⁶ Yozuvchining “Ajr” hikoyasi o‘zbek nasrida insonning ichki iztiroblari, ma’naviy tanazzuli va axloqiy bo‘shlig‘i muammolarini yorituvchi eng chuqur badiiy namunalardan biri hisoblanadi. Hikoyasining asosiy g‘oyaviy-mazmuni erkak va ayol o‘rtasidagi hissiy begonalik, tuyg‘ularning so‘nishi, odamlar orasidagi ko‘rinmas devor va ruhiy sovuqlikni ifodalashga qaratiladi. Hikoyada voqea dinamikasi kuchli emas, aksincha, ichki psixologik kechinmalar, sukut, qarama-qarshi qarashlar, kutilgan va amalga oshmagan orzular vositasida badiiy chuqurlik yaratilgan. Asar markazida turgan ayol obrazi hayotiy noxushliklardan charchagan, muhabbatga, tushunishga intilgan, ammo tushkunlik botqog‘iga cho‘kayotgan inson timsolidir. Erkak obrazi esa ayni shu ruhiy jarayonlarga befarqlik bilan qaraydi, uning passivligi orqali jamiyatdagi umumiy hissiy sovuqlik talqin etiladi. Nazar Eshonqul bu hikoyada kam so‘z bilan ko‘p ma‘no anglatish, badiiy tafakkurda sukunatni ma‘no yuklovchi omilga aylantirish, ramziy tafakkur va falsafiy yondashuv singari uslublardan foydalanadi. “Ajr” hikoyasi nafaqat oilaviy munosabat, balki butun jamiyatda insonlar o‘rtasidagi begonalik, ruhiy yolg‘izlik muammolarini ham o‘zida aks ettirgan.

Nazar Eshonqul ijodida postmodernistik yondashuvlar, psixologik tahlil, intertekstual elementlar muhim o‘rin tutadi. Uning “Maymun yetaklagan odam”, “Tobut”, “Ajr”, “O‘lik mavsum” kabi hikoyalarida inson qalbi tubidagi noaniqliklar, ironiya, kinoya, ruhiy azoblar va ma’naviy izlanishlar ustuvor mavzu sifatiga gavdalanadi. Adibning o‘ziga xos uslubi – qisqa, lo‘nda, falsafiy mazmunga ega dialoglar, ichki monologlar va ramziy ifodalar orqali namoyon bo‘ladi. Bu jihatlar uni Frans Kafka, Albert Kamyu kabi yozuvchilar bilan ma’naviy yaqinlashtiradi.

Nazar Eshonqul asarlarida badiiy qahramonlar ko‘pincha jamiyatdagi mavjud stereotiplarga sig‘magan, ruhiy va ijtimoiy inqiroz ichra yashayotgan odamlardir. Ular orqali muallif zamonaviy odamning ma’naviy holatini o‘rganadi. Jumladan, “Tobut” hikoyasida metafora vositasida inson hayotining ma‘nosi va yakuniy manzili haqida chuqur falsafiy mushohada yuritiladi: “Biz tushgan

⁵⁶ Nazar Eshonqul. Saylanma. 1-jild, – Toshkent, Akademnashr, 2022. – B. 24

vertolyot shahar chekkasiga borib qo‘ndi: bizni har ehtimolga qarshi emlash zarur edi. Shahar chetiga tikilgan tibbiyot chodirlariga bir-bir kirib chiqqach, nariroqda darvozasi ko‘rinib turgan shaharga qarab yo‘l oldik. Shaharga yaqinlashganda ulkan maxluqning katta qanotiga o‘xshaydigan darvoza boshliq maqtaganchalik ekanini ko‘rdik; uning oldida biz kichkina chumoliga o‘xshab qolgandik va shahar shu ko‘rinishida rostdan ham go‘yoki qanot yozgancha uchishga chog‘lanayotgan maxluqqa o‘xshardi”⁵⁷. Hikoyada Tobut bu yerda nafaqat jismoniy o‘lim timsoli, balki ma‘naviy halokat, jamiyatdagi ichki bo‘shliq va befarqlik holatining ramzi sifatida ham talqin etiladi. Yozuvchi bu metafora orqali tirik bo‘lsa-da, ruhan “o‘lik” insonlar haqida, jamiyatda yashayotgan, ammo yashayotganining o‘zi nima ekanini haqida o‘ylamaydigan odamlar haqida og‘riqli savollar qo‘yadi. Tobut ichida yashash — bu yashamaslikdir, bu inson o‘zligini yo‘qotgan, ijtimoiy roldan iborat mavjudotga aylangan holatni bildiradi. Shu orqali muallif o‘quvchini hayotning mohiyati, vijdon, erkinlik va mas‘uliyat kabi abadiy qadriyatlar ustida chuqur o‘ylashga chorlaydi.

Bugungi kunda Nazar Eshonqul ijodi ko‘plab yosh adiblar, adabiy tahlilchilar, tanqidchilar e‘tiborini qozondi. U o‘zbek adabiyotida yangi mavzu, uslub va estetik yondashuvlarning paydo bo‘lishiga turtki berdi. Shuningdek, uning badiiy-estetik izlanishlari ko‘plab ilmiy izlanishlarga asos bo‘ldi desak xato bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqul o‘zbek adabiyotiga g‘oyaviy va uslubiy yangiliklar olib kirgan, postmodernistik tafakkur tarzini badiiy shaklda ifodalagan, zamonaviy o‘zbek nasrining yetuk vakillaridan biridir. Uning asarlaridagi murakkab obrazlar, falsafiy mazmun, axloqiy izlanishlar va hayotiy haqiqatlarga tayanilgan badiiy ifoda uslubi o‘zbek adabiy tafakkurining boyishiga katta hissa qo‘shdi. Shu jihatlari bilan u nafaqat o‘z davrining adibi, balki adabiyot taraqqiyotini belgilovchi muhim shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 48.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1986. – 366 b.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent. 2004. – B. 35.
4. Solijonov Y. So‘z sehri va mehri. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 95.
5. Nazar Eshonqul. Saylanma, 1-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 301-302.
6. Nazar Eshonqul - Vikipediya (wikipedia.org)

⁵⁷ Nazar Eshonqul. Saylanma. 1-jild, – Toshkent, Akademnashr, 2022. – B. 181

MUNDARIJA

1.	СЎЗ БОШИ		4
2.	ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ ТАРАФДОРИ – ПРОФЕССОР АБДУРАУФ ФИТРАТНИНГ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ КОНЦЕПЦИЯСИ Ибраимов Холбой Ибрагимович Ўзбекистон Фанлар Академиясининг ҳақиқий аъзоси, академик, Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институти директори		5
3.	ЖАДИДЛАР ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИНГ ИСЛОҲОТЧИСИ ВА ТАРҒИБОТЧИСИ СИФАТИДА Р.Сафарова Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси Миллий институти “Миллий тарбия, мутафаккирлар ва жадидларнинг педагогик таълимотлари” илмий тадқиқот бўлими бошлиғи, п.ф.д., проф.		8
4.	АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ВА ПСИХОЛОГИЯ Умарали Қодиров Сурхондарё вилояти педагогик маҳорат маркази “Педагогика, психология ва таълим технологиялари” кафедраси мудири, психология фанлари доктори, профессор		13
5.	ЖАМИЯТНИНГ МАДАНИЙ ВА МАЪНАВИЙ РИВОЖЛАНИШИГА ЖАДИДЛАРНИ ҚЎШГАН ҲИССАСИ Каримова Гавхар Қудратилла қизи “Profi University” “Ёшлар масалалари ва маънавий-марифий ишлар” бўйича проректор, доцент, PhD		17
6.	TURKISTON MA’RIFATPARVARLIK G’OYALARIDA AYOLLAR TA’LIMI MASALASINING FAOLLASHTIRILISHI Saidova Barno Narzullayevna “Pedagogika” kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)		21
BIRINCHI SHO’BA JADIDLAR ILMIY MEROSINI MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA’LIMDA TATBIQ ETISH MASALALARI			
7.	BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARIDA ADABIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI Mamatova Gulshan Amankulovna “Profi University” “Maktabgacha va boshlang’ich talim metodikalari” kafedrası dotsenti, PhD		32
8.	TURKISTON JADIDLARINING XOTIN-		35

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

	QIZLARINI O‘QITISH MASALASIGA MUNOSABATI Parpiyeva Nodira Tulkunovna fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent, “Profi University”		
9.	JADIDLAR FAOLIYATIDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ULARNING ILMIY MEROSINI TATBIQ ETISH MASALALARI Axmedova Laylo Baxtiyor qizi “Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası dotsent vasifasini bajaruvchi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)		37
10.	JADIDLAR FAOLIYATIDA MA‘RIFATPARVARLIK VA BARKAMOL AVLOD TA‘LIM TARBIYASI Urazimbetova A.A. “Profi University”, PhD		39
11.	MAKTABGACHA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIGA TA‘LIM BERISHDA JADIDCHILAR ASARLARI ORQALI AXLOQIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH G.Xamidova JDPU Maktabgacha ta‘lim metodika kafedrası v/b dotsenti R.Ravshanova Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabasi		42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ДЖАДИДСКОГО НАСЛЕДИЯ В ВОСПИТАНИИ И ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ Юлдашева Мамура Юльчиевна заведующая кафедрой «Начального образования», “Profi University”		45
13.	JADIDLAR G‘OYALARIDA TA‘LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARI MADANIYATINING ASOSLARI Nizamova Nodira Paxritdinovna “Profi University” nodavlat oliy ta‘lim muassasasi, “Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri nodinilu1982@gmail.com		49
14.	ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ ДЖАДИДОВ К ОБУЧЕНИЮ ДЕТЕЙ В КОНТЕКСТЕ ИХ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ Левкина Мария Федоровна старший преподаватель, “Profi University”		53
15.	BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARIDA O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISHINING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA A.AVLONIYNING		57

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarning o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

	QARASHLARI Qaytarova Nargiza Kaxramonovna “Profi University” o‘qituvchisi		
16.	JADIDCHILIK G‘OYALARI ASOSIDA XOTIN-QIZLARNI MA’RIFATLI QILISH MASALASI Eshpulatova Muhayyo Mardon qizi “Profi University” “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi		61
17.	MAKTABDA NUTQIY TAYYORGARLIKKA KATTA AHAMIYAT BERGAN JADID OLIMLARDAN BIRI — ABDULLA AVLONIY Tashmuhamedova Feruza Batirjanovna “Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi		65
18.	ВКЛАД ДЖАДИДОВ В МОДЕРНИЗАЦИЮ И РЕФОРМУ ШКОЛЬНОГО ДЕЛА Джураева Шахло Кахрамон кизи докторант, ТГПУ		69
19.	ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA JADIDLARNING QARASHLARI O‘rozboyeva Dilnoza Alimboy qizi Toshkent shahar “Profi University” o‘qituvchisi		72
20.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH USULLARI Baxtiyarova Gulxayo Botir qizi “Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” 4-kurs talabasi		75
21.	JADIDLAR ILMIY MEROSI MAQSADI VA MAZMUNI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TA’LIM-TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH Baxtiyarova Gulhayo Botir qizi “Profi University” maktabgacha ta’lim 4-bosqich talabasi		78
IKKINCHI SHO‘BA JADIDLARNING PEDAGOGIK QARASHLARINI ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISH MASALALARI			
22.	АДАПТАЦИЯ И МОТИВАЦИЯ ПЕРВОКУРСНИКОВ: СОВРЕМЕННЫЕ СТРАТЕГИИ И ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ ДЖАДИДОВ Рахманова Д.Р. Научный руководитель: кандидат психологических наук, доцент кафедры «Педагогика и психология» Иброхимова О.И.		81

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

	Студентка 1 курса		
23.	MILLIY UYG‘ONISH VA TA‘LIM ISLOHOTLARIDAGI YANGI YO‘NALISHLARNI TASHKIL ETISHDA ABDULLA AVLONIYNING MA‘RIFATPARVARLIK XIZMATLARI Mingbayeva Barno Ubaydullayevna “Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikalari” kafedrası v.b dotsenti Bo‘ronova O‘g‘iloy Mustafoyevna “Profi University” Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi		85
24.	JADIDLARNING ILM VA TA‘LIMGA OID FALSAFIY G‘OYALARI Lazizjon Baxranov “Profi University”, PhD		88
25.	JADIDCHILIK HARAkatIDAGI AYOLLARNING IJTIMOiy FAOLLIGI VA MA‘RIFIY ISLOHOTLARDAGI O‘RNI Nurmatova Nargiza Ulug‘bekovna “Profi University” “Pedagogika va psixologiya” kafedrası v.b. dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)		91
26.	МУНАВВАР ҚОРИ АБДУРАШИДХОНОВ ВА УНИНГ САФДОШЛАРИ - ЖАДИДЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ КУНДА ҲАМ ДОЛЗАРБ ПЕДАГОГИК ҲОЯЛАРИ Шарифбаева Х.Я. “Profi University”, Педагогика ва психология кафедрасы, п.ф.н., доцент Шералиева А. “Profi University”, Педагогика ва психология факультети, 102-гуруҳ талабаси		94
27.	TANQIDIY FIKRLASH VA JADIDCHILIK MEROSI ASOSIDA TALABA-QIZLARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH Xaydarova R.A. TDSHU kata o‘qituvchisi		97
28.	ZAMONAVIY TA‘LIMDA JADIDCHILARNING ASARLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI G.Xamidova JDPU “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrası v/b dotsenti R.Ravshanova Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabasi		101
29.	JADIDCHILIK HARAkATI NAMOYANDALARI VA ULARNING FAOLIYATI Mirazimova Muxabbat Normatovna		103

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

	Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi Baxromjonova Sevinch JDPU talabasi		
30.	TARAQQIYPARVAR JADID ABDULLA AVLONIY – JAMOAT ARBOBI VA ISTE'DODLI PEDAGOG Ashirmatova Moxigul Esanali qizi PROFI university (nodavlat OTM) “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi Axmedova Nilufar Esanaliyevna O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Psixologik ta‘minlash markazi” katta psixologi, kapitan		106
31.	JADIDCHILIK G‘OYALARIDA IJTIMOIIY G‘OYALAR Choriyeva Nargiza Ibotovna “Profi University”, Toshkent		110
32.	JADIDCHILAR ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLARNING IFODALANISHI M.S. Usmanova JDPU, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti D.Akbarova talaba		112
33.	YOSHLAR TARBIYASIDA JADIDLAR MEROSINING AHAMIYATI Maxmudova Surayyo Ramazonovna “Profi University” Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3- kurs talabasi		115
UCHINCHI SHO‘BA JADIDCHILIK G‘OYALARINI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA O‘RGANILISHI			
34.	ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИДА МАДАНИЯТ МАСАЛАСИ ВА МИЛЛИЙ ЗИЁЛИЛАРНИНГ АЯНЧЛИ ҚИСМАТИ Мингноров Абдухолик Тошмирзаевич Низомий номли ТДПУ “Ўзбекистон тарихи” кафедраси т.ф.д.		120
35.	JADID ADABIYOTIDA O‘QITUVCHI OBRAZIGA TURLI QARASHLAR Hamrakulova Xurshida Kuvvatovna Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori Saidova Shahnoza Isroil qizi Guliston davlat universiteti doktoranti		124
36.	ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ВЫГОРАНИЕ СТУДЕНТОВ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ: УРОКИ ДЖАДИДОВ ДЛЯ СОВРЕМЕННОГО		125

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

	ОБРАЗОВАНИЯ Рахманова Д.Р. Научный руководитель: кандидат психологических наук, доцент кафедры «Педагогика и психология» Студенты 1 курса: Тян В., Самойлова А.		
37.	JADIDCHILIK HARAKATI: O‘ZLIKNI ANGLASH VA TARAQQIYOT YO‘LI Mingbayeva Barno Ubaydullayevna “Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich talim metodikalari” kafedrasi v.b. dotsenti		129
38.	ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСПЕХА В СТУДЕНЧЕСКОЙ СРЕДЕ Рахманова Д.Р. Научный руководитель: кандидат психологических наук, доцент кафедры «Педагогика и психология» Шаумарова Э.Р. Студентка 3 курса		134
39.	O‘QUVCHILAR JAMOASIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLI VAZIYATLARNI HAL ETISHDA JADID OLIMLARINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK QARASHLARI Kuvandikova Gulnora Gulamovna “Profi University” “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti v.b. (PhD) Ergasheva Umidaxon Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabasi		137
40.	ПСИХИЧЕСКОЕ ВЫГОРАНИЕ СРЕДИ СТУДЕНТОВ ЗАОЧНОГО ОТДЕЛЕНИЯ: ДИАГНОСТИКА И МЕТОДЫ КОРРЕКЦИИ Рахманова Д.Р. Научный руководитель: кандидат психологических наук, доцент кафедры «Педагогика и психология» Исабаева Н.Ф. Студентка 3 курса		140
41.	ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ЖАДИДЧИЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ Н.З. Расулева “Profi University” “Педагогика ва психология” кафедраси в.б. доценти		143
42.	JADIDCHILIK G‘OYALARI SPORTDA JAMOAVIYLIK VA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK ASOSI SIFATIDA Abdullayev Akobr Shokir o‘g‘li “Profi University”, “Pedagogika va psixologiya”		145

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

	kafedrası v.b. dotsenti psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)		
43.	JADIDCHILIK G‘OYALARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDAGI TAHLILI Tojiboyev Ravshanbek Isaqjon o‘g‘li “Profi University” “Ijtimoiy fanlar” kafedrası tarix fani o‘qituvchisi		148
44.	MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY: TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING YO‘LBOSHCHISI, MILLIY MA‘RIFAT RAHNAME Mirazimova Muxabbat Normatovna Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi		151
45.	JADIDLARNING HOZIRGI KUN YOSHLARI IRODASIGA TA‘SIRI Niyazmetov.I.I Psixolog, tadqiqotchi		155
TO‘RTINCHI SHO‘BA JADIDLAR IQTISODIY VA FALSAFIY G‘OYALARINING ZAMONAVIY JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI			
46.	ABDULLA AVLONIYNING NUTQ HAQIDAGI FIKRLARI Maxmudova Oybarchin Axatovna “Profi University” “Maktabgacha, boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası professor v.b., p.f.b.f.d (PhD) Sevara Maxmudova Qo‘qon universiteti “Ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi		158
47.	ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ БАРПО ЭТИШДА ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИНИНГ ЎРНИ Бейсенов Кенжабай Сарсанбаевич Ўзбекистон Республикаси ИИБ Малака ошириш институти Касбий тайёргарлик факультети Махсус фанлар цикли ўқитувчиси, подполковник		161
48.	YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA TEMATIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI G.O. Saydaliyeva “Profi University” devonxona mudiri		165
49.	ЖАДИДЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ-СИЁСІЙ, ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚІЙ ҒОЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ Машарипов Мадіёр Палванназирович, Абдусаматова Гулчеҳра Зоировна “Profi University” “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchilari		169

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**

50.	IBRAT'S JUDICIAL ACTIVITY IN TURKESTAN: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS Adkhamkhoja Abdullakhojaev Isakhoja o'gli Researcher at Namangan State University		172
51.	O‘ZBEK JADIDCHILIGI VA PSIXOLOGIYA: MA’RIFIY HARAKATNING RUHIY ILDIZLARI Sadriddinov S.R. Amaliyotchi psixolog, tatqiqotchi		177
BESHINCHI SHO‘BA JADIDCHILIKDA TIL VA ADABIYOT MASALASI			
52.	CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Oymatova Nilufar Mirjamolovna “Profi University” o‘qituvchisi, PhD		180
53.	M.TURG‘UNOVANING “JADID ADABIYOTI VA ZAMONAVIY TA’LIM” ASARIDA TALABALARGA TARBIYAVIY G‘OYALARNI SINGDIRISH G.Xamidova JDPU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi v/b dotsenti R.Ravshanova Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi		183
54.	“CHIG‘ATOY GURUNGI” BOSHLAGAN ISLOHOTLAR VA BUGUNGI O‘ZBEK TILI Rajabov Nuriddin Mustafoyevich “Profi University” “Tillar” kafedrasi o‘qituvchisi		185
55.	A.AVLONIYNING MA’NAVIY MEROSI Mirazimova Muxabbat Normatovna Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi Ulug‘bekova Maftuna JDPU talabasi		191
56.	NAZAR ESHONQUL IJODINING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI Shahanov Bobur Choriyevich O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari		194

**“Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 25-26-aprel**



**G‘.B. SHOUMAROV, Z.A. SHAUMAROVA,
G.Q. KARIMOVA, D.B. XOLMATOVA**

“YANGI O‘ZBEKISTON BARPO ETISHDA JADIDLAR G‘OYALARINING O‘RNI”

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

«РОЛЬ ИДЕЙ ДЖАДИДОВ В ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON

“THE ROLE OF JADIDS’ IDEAS IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN”

25-26-aprel

**Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times Uz» garniturası. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 13
Tiraji 100. Buyurtma №004**



Profi University

PROFI UNIVERSITY - THINK OUT OF THE BOX



Toshkent shahri, Bektemir tumani,
Husayn Boyqaro ko'chasi 117-uy



+998 78 777 11 11